Razzaqov Sobirjon Jurayevich
Namangan davlat texnika universiteti, prof., t.f.d. sobirjonrsj@gmail.com

Martazayev Abdurasul Shukirillayevich
Namangan davlat texnika universiteti, dots., t.f.f.d., abdurasul.mash@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada beton matritsasida tolalarning teng taqsimlanishini modellashtirishga qaratilgan yangi matematik model taklif etilgan. Model fizik-geometrik vektor formulalari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u tolalarning aniq joylashuvini, yo‘nalishini va uzunligini hisobga oladi. Har bir tola markaz atrofida o‘zgarmas uzunlikda chizilib, ma’lum yo‘nalishda orientatsiya qilinadi, shuningdek, tola uchlari — boshlanish va tugash nuqtalari aniqlanadi. Modellashtirish jarayoni 3D fazoda olib boriladi, bu esa tolalarning beton matritsasi ichidagi taqsimlanishini matematik asosda aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv tolalarning dispers armaturalashdagi rolini, ularning betonning mexanik xususiyatlariga ta’sirini aniqlashda yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Natijada, ishlab chiqilgan model beton tarkibida tolalarning samarali taqsimlanishini tahlil qilish, konstruktiv elementlarning mustahkamligi va ishonchliligini optimallashtirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot beton texnologiyasida tolalarning dispers armaturalanishi va yangi yuqori mustahkamlikka ega fibrobeton turlarini yaratishda amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Аннотация. В данной статье предлагается новая математическая модель, направленная на моделирование равномерного распределения волокон в бетонной матрице. Модель разработана на основе физико-геометрических векторных формул, с учётом точного положения, ориентации и длины каждого волокна. Каждое волокно строится фиксированной длины вокруг своего центра и ориентируется в заданном направлении, при этом его концевые точки - начало и конец - определяются с высокой точностью. Моделирование осуществляется в трёхмерном пространстве, что обеспечивает строгое математическое представление распределения волокон внутри бетонной матрицы. Такой подход гарантирует высокую точность и надёжность при оценке роли волокон в дисперсном армировании и их влияния на механические свойства бетона. В результате разработанная модель позволяет анализировать эффективность распределения волокон в бетонных композициях и способствует оптимизации прочности и надёжности конструктивных элементов. Проведённое исследование имеет практическое значение в технологии бетона, в частности для внедрения дисперсного армирования и разработки новых высокопрочных видов фибробетона.

Abstract. This paper proposes a novel mathematical model aimed at simulating the uniform distribution of fibers within a concrete matrix. The model is developed based on physico-geometric vector formulations, taking into account the precise positioning, orientation, and length of each fiber. Each fiber is drawn with a fixed length around its center and oriented in a specified direction, while the fiber endpoints - the start and termination points - are accurately determined. The simulation is conducted in a three-dimensional space, enabling a mathematically rigorous representation of fiber distribution within the concrete matrix. This approach ensures high accuracy and reliability in assessing the role of fibers in dispersed reinforcement and their influence on the mechanical properties of concrete. Consequently, the

developed model allows for the analysis of effective fiber distribution in concrete compositions and facilitates the optimization of the strength and durability of structural elements. The proposed study has practical applications in concrete technology, particularly for the implementation of dispersed fiber reinforcement and the development of novel high-strength fiber-reinforced concrete types.

Kalit so‘zlar: tolalar, dispers armaturalash, fibrobeton, beton, matritsa, teng taqsimlanish, matematik model.

Ключевые слова: волокна, дисперсное армирование, фибробетон, бетон, матрица, равномерное распределение, математическая модель

Key words: fibers, dispersed reinforcement, fiber-reinforced concrete, concrete, matrix, uniform distribution, mathematical model

Kirish

Zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqishda betonning mexanik va fizik xususiyatlarini yaxshilash masalasi eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Beton bugungi kunda eng ko‘p ishlatiladigan qurilish materiallaridan biri bo‘lib, turli bino va inshootlar – sanoat va fuqaro binolari, ko‘priklar, yo‘l va gidrotexnik qurilmalar, yirik infratuzilma obyektlari barpo etilishida asosiy konstruksiyaviy material sifatida qo‘llaniladi [1]. Betonning keng qo‘llanilishiga uning nisbatan arzonligi, xom-ashyo resurslarining ko‘pligi, shakl berish qulayligi va yuqori siqilishdagi mustahkamligi sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, beton mustahkamlikning turli ko‘rinishlarini ta’minlay oladi: siqilishga nisbatan yuqori chidamlilikka ega bo‘lsada, cho‘zilish va egilishga qarshiligi kichikligi bilan ajralib turadi. Ushbu kamchilik uning asosiy zaif tomonlaridan biri bo‘lib, inshootlarning xizmat muddatiga va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi qurilish amaliyotida betonning sifatini oshirish, uning darzbardoshligini kuchaytirish va uzoq muddatli ishlashini ta’minlash maqsadida turli qo‘shimchalar, modifikatorlar hamda tolalar qo‘shish keng qo‘llanilmoqda[2]. Ayniqsa, dispers armaturalash texnologiyasi betonni mustahkamlash, darz hosil bo‘lishini sekinlashtirish va inshootlarning umumiy mustahkamligini oshirishda samarali yechim sifatida e’tirof etilmoqda[3, 4].

Shuningdek, tolalarning beton matritsasida teng taqsimlanishi masalasini matematik modellashtirish zamonaviy qurilish materiallari tadqiqotida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, fibrobetonning mexanik xossalarini to‘g‘ri baholash va ularni optimallashtirishda asosiy rol o‘ynaydi[5]. Tolalar beton ichida muayyan proporsiyada va muayyan shaklda joylashsa, ularning materialga ko‘rsatadigan ta’siri turlicha bo‘ladi. Agar tolalar matritsada teng taqsimlanmagan holda bir tomonda to‘plangan bo‘lsa, bu hol betonning mustahkamligini ta’minlamaydi. Matematik modellashtirish orqali beton ichidagi tolalarning joylashish xarakterini, ularning o‘zaro ta’sirini, yo‘nalishini hisoblash mumkin bo‘ladi[6]. Bu modellashtirish asosida materialning umumiy mexanik xossalari, jumladan, cho‘zilishga, egilishga va siqilishga bo‘lgan mustahkamligi aniqroq baholanadi[7]. Tolalarning betonda teng va ixtiyoriy joylashishi betonning izotrop yoki anizotrop xususiyatlarini shakllantiradi. Agar matematik modellashtirish orqali bu jarayonni boshqarish imkoni bo‘lsa, u holda konstruktiv elementlar uchun hisob-kitoblarda aniq va ishonchli natijalarga erishiladi.

Bundan tashqari, matematik modellashtirish orqali turli xil tolalar (masalan, po‘lat, bazalt, polipropilen)ning geometriyasi (uzunligi, diametri), elastik moduli va miqdorini o‘zgartirish orqali materialda qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishini oldindan tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Tadqiqotlardan ko‘rinadiki, teng taqsimlangan va uzunligi beton matritsasi o‘lchamlariga moslashtirilgan tolalar betonda yuqori cho‘zilishga chidamlilik va darzbardoshlikni oshiradi. Aks holda, bir joyga to‘plangan tolalar betonning ayrim qismlarida

mahalliy nuqsonlarga, darzlarga va konstruksiyaning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[8]. Matematik modellashtirish shuningdek, real ishlab chiqarish jarayonida tolalarni qanday usul bilan (masalan, qo‘lda aralashtirish, mashina orqali aralashtirish yoki turli vibratsiya yordamida) betonga kiritish bo‘yicha optimal parametrlarni ham belgilab berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali eksperimentlar sonini kamaytirish, vaqt va xarajatni tejash hamda sifatli fibrobeton ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

Metod

Tolalarning beton matritsasida teng taqsimlanishini modellashtirish jarayonida bir nechta matematik va statistik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, beton hajmi va geometrik parametrlari asos qilib olindi, chunki aynan shu ko‘rsatkichlar tolalarning umumiy sonini, massasi va hajmini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Keyingi bosqichda tolalarning fazodagi koordinatalari va yo‘nalishlarini aniqlash uchun tasodifiy sonlar generatsiyasi va uch o‘lchamli normal (Gaussian) taqsimot qo‘llanildi. Ushbu yondashuv yordamida har bir tolaga fazoda ixtiyoriy markaziy nuqta berildi va uni ma’lum yo‘nalishda joylashtirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, tolalarning orientatsiyasi va tarqalishini belgilashda vektor algebraik usullaridan foydalanildi. Har bir tolaning yo‘nalish vektori normallashtirilgan bo‘lib, ularning bir xil uzunlikda va turli orientatsiyalarda joylashishiga erishildi. Tola uchlarining (boshlanish va tugash nuqtalari) aniqlanishi uchun esa fazoviy koordinatalar transformatsiyasini qo‘llanildi. Modelda tolalarning beton hajmidan tashqariga chiqib ketishini oldini olish uchun chegaraviy shartlarni tekshirish algoritmi ishlab chiqildi. Agar tolaning boshlanish yoki tugash nuqtasi beton namunasidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, unga yangi koordinata va yo‘nalish berildi. Shu tarzda, barcha tolalar 3D fazoda beton matritsasi ichida matematik asoslangan holda teng taqsimlanishi ta’minlandi. Model parametr va belgilanishlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Model parametr va belgilanishlari

Belgilanish	Mazmuni	Birlik
V_c	beton hajmi	mm^3
ρ_c	tola zichligi	kg/mm^3
v_f	tola foizi	%
l_f	tola uzunligi	mm
d_f	tola diametri	mm
m_f	umumiy tolalar massasi	kg
n_f	tolalar soni	dona
L_c	beton kubning tomonlari uzunligi	mm

Beton hajmi va geometriyasi. Beton hajmi V_c ga asoslanib uni aniqlasak, u holda:

$$V_c = l \cdot b \cdot h \quad (1)$$

bu yerda: V_c-beton hajmi, m³; l-kesim uzunligi, mm; b-kesim eni, m; h-kesim balandligi, m.

Beton ichidagi tolalar massasi:

$$m_f = V_c \cdot \rho_f \cdot (\frac{v_f}{100}) \quad (2)$$

bu yerda: m_f - tolalar massasi, kg; ρ_c - tola zichligi, kg/m^3; v_f - tolalar miqdori, % .

Bitta tola hajmi:

$$v_{tola} = V_c \cdot \pi \cdot (\frac{d_f}{2})^2 \cdot l_f \quad (3)$$

bu yerda: π-3.14; d_f - tolalar diametri, m; l_f - tola uzunligi, m.

Beton hajmida tolalarning umumiy sonini aniqlasak:

$$n_f = \frac{m_f}{v_{tola} \cdot \rho_f} \quad (4)$$

bu yerda: n_f - tolalarning umumiy sonini, dona; ρ_f - tolalar zichligi, kg/m³.


Tolalarning yo‘nalishi va tarqalishi. Model har bir tolani fazoda uchta koordinata bo‘yicha tasodifiy joylashtiradi va unga tasodifiy yo‘nalish beradi.

1. Markaz koordinatalari. Tolaning markazi beton ichida istalgan joyda bo‘lishi mumkin:

$$x_c \sim u(0,l), \qquad y_c \sim u(0,b), \qquad z_c \sim u(0,h) \quad (5)$$

bu yerda: x_c, y_c, z_c - koordinatalar, m; u - u(a,b) — bu [a, b] oraliqda bir xil ehtimollik bilan taqsimlangan qiymatni bildiradi, birliksiz.

Bu ifoda shuni anglatadiki, har bir tola beton namunasi ichida ixtiyoriy joyda, ya’ni $l \cdot b \cdot h$ o‘lchamli hajmda tasodifiy tarzda joylashadi. Kub hajmida tolaning fazoviy joylashuvi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Kub hajmida tolaning fazoviy joylashuvi

2. Yo‘nalish vektori. Tolalarning yo‘nalishi fazoda ixtiyoriy bo‘lishi kerak. Shuning uchun 3 o‘lchamli normal taqsimotdan olingan vektor birlik uzunlikka keltiriladi:

$$\vec{r} \sim N(0,1)^3, \qquad \vec{d} = \frac{\vec{r}}{\|\vec{r}\|} \quad (6)$$

bu yerda:

$\vec{r}$ – uch o‘lchamli normal (Gaussian) taqsimotdan olingan tasodifiy vector, bu koordinata vektori bo‘lgani uchun uning birliklari uzunlik birligida bo‘ladi, m;

$\|\vec{r}\|$- vektor uzunligi, m;

$\vec{d}$ – birlik uzunlikdagi yo‘nalish vektori (normallashtirilgan), ya’ni tola qaysi yo‘nalishda yotishini ko‘rsatadi, bu yo‘nalish vektori bo‘lgani uchun uning birliklari yo‘q (o‘lchovsiz kattalik). Ya’ni, bu faqatgina yo‘nalishni bildiradi.

3. Tola uchlari koordinatalari (boshlanish va tugash tuqtalari). Tolaning markazi va yo‘nalishi asosida quriladi:

$$\vec{P}_{start} = \vec{C} - \frac{l_f}{2} \cdot \vec{d}, \qquad \vec{P}_{end} = \vec{C} + \frac{l_f}{2} \cdot \vec{d} \quad (7)$$

bu yerda: $\vec{P}_{start}$ - tolani markazidan yo‘nalish bo‘yicha orqaga yarim uzunlikka siljigan nuqta, m;

$\vec{P}_{end}$ -tolani markazidan yo‘nalish bo‘yicha oldinga yarim uzunlikka siljigan nuqta, m;

$\vec{C} = x_c, y_c, z_c$ – tolaning markaziy nuqtalarining koordinatalari, m.

Modelda tolalar beton ichida qolishi kerak. Shuning uchun har bir tola uchi quyidagi chegaralarda bo‘lishi kerakligi tekshiriladi:

$$0 \le x \le l, \qquad 0 \le y \le b, \qquad 0 \le z \le h \tag{8}$$

Agar tola boshlanishi yoki yo‘nalishi nuqtasi beton hajmidan tashqariga chiqsa, yangi koordinata va yo‘nalish tanlanadi.

Xulosalar

1. Tadqiqotda beton matritsasida tolalarning teng taqsimlanishini ta’minlovchi matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model beton hajmi va geometrik o‘lchamlariga asoslanib, tolalarning umumiy soni, massasi hamda fazodagi joylashuvini aniqlash imkonini berdi. Har bir tolaga markaziy koordinata, yo‘nalish vektori va uch nuqtalari matematik formulalar orqali belgilandi.

2. Taklif etilgan modelda tolalar 3D fazoda tasodifiy, ammo nazariy asoslangan holda joylashtirildi. Bu yondashuv tolalarning beton matritsasida teng va izchil taqsimlanishini ta’minlab, dispers armaturalash samaradorligini oshirish imkonini berdi.

3. Natijalar betonning mexanik va fizik xususiyatlarini yaxshilash, darzbardoshlikni oshirish va konstruktiv elementlarning mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuv yuqori mustahkamlikka ega fibrobeton turlarini yaratishda hamda zamonaviy qurilish materiallari texnologiyasini rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Tkachenko A. N., Nikolenko S. D., Fedulov D. V. Theoretical estimation of fiber distribution in fiber reinforced concretes //Scientific Herald of the Voronezh State University of Architecture and Civil Engineering. Construction and Architecture. – 2011. – №. 3. – C. 36-41.

2. Shukirillayevich M. A., Sobirjonovna J. A. The Formation and Development of Cracks in Basalt Fiber Reinforced Concrete Beams //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 31-37.

3. Jurayevich R. S., Shukirillayevich M. A. Calculation of Strength of Fiber Reinforced Concrete Beams Using Abaqus Software //The Peerian Journal. – 2022. – T. 5. – C. 20-26.

4. Juraevich R. S., Shukirillayevich M. A. Mechanical properties of basalt fiber concrete //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2021. – T. 8. – №. 9. – C. 2350.

5. Naaman A. E. A statistical theory of strength for fiber reinforced concrete: дис. – Massachusetts Institute of Technology, 1972.

6. Kang J. et al. Modeling of fiber-reinforced cement composites: Discrete representation of fiber pullout //International Journal of Solids and Structures. – 2014. – T. 51. – №. 10. – C. 1970-1979.

7. Domnina K., Pivarčiová E. Mathematical model for improvement of concrete quality //Materials Science Forum. – Trans Tech Publications Ltd, 2019. – T. 952. – C. 356-362.

8. Beskopylny A. et al. Mathematical modeling of mechanical properties of vibro-centrifuged fiber-reinforced concrete of variatropic structure //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2021. – T. 2131. – №. 3. – C. 032090.

UDK: 691.328:624.012.45

POLIPROPILEN TOLALAR ASOSIDAGI FIBROTEMIRBETON TO‘SINLARNING MUSTAHKAMLIGINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH

A.S.Jo‘rayeva
Namangan davlat texnika universiteti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi doktoranti, asaldjuraeva11@gmail.com

A.Sh.Martazayev,
Namangan davlat texnika universiteti, dotsent, t.f.f.d., abdurasul.mas@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada polipropilen tolalar bilan dispers armaturalangan fibrobeton to‘sinlarning mustahkamlik xususiyatlari eksperimental tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida 7 ta seriya namuna to‘sinlar tayyorlanib, ulardan birinchi seriya nazorat guruhi sifatida oddiy temirbetondan, qolgan seriyalar esa 10 mm va 30 mm uzunlikdagi polipropilen tolalar qo‘shilgan fibrotemirbetondan iborat bo‘ldi. Tolalar betonga 0,1%, 0,2% va 0,3% hajmiy ulushlarda qo‘shildi. Natijalar tahliliga ko‘ra, barcha to‘sinlarda buzilish jarayoni asosan normal kesimlar bo‘yicha sodir bo‘lganligi aniqlandi. Nazorat guruhi bo‘yicha eguvchi moment 14,24 MPa va buzuvchi kuch 81,87 kN ni tashkil etgan bo‘lsa, polipropilen tolalar qo‘shilgan fibrotemirbeton to‘sinlarda mustahkamlik ko‘rsatkichlari 10,11% dan 17,91% gacha ortishi qayd etildi. Eng yuqori natija 0,2% tolalar qo‘shilgan BP10-0.2 seriyasida kuzatilib, bunda o‘rtacha eguvchi moment 16,79 MPa va buzuvchi kuch 95,94 kN ga teng bo‘ldi.

Аннотация. В данной статье представлено экспериментальное исследование прочностных характеристик железобетонных балок, армированных полипропиленовыми волокнами. В рамках исследования было подготовлено семь серий образцов балок: первая серия служила контрольной и изготавливалась из обычного железобетона, тогда как последующие серии включали балки, армированные полипропиленовыми волокнами длиной 10 мм и 30 мм. Волокна вводились в бетонную смесь в объёмных долях 0,1%, 0,2% и 0,3%. Анализ результатов показал, что разрушение всех балок происходило преимущественно по нормальным сечениям. Для контрольной серии изгибающий момент составил 14,24 МПа, а предельная несущая способность достигла 81,87 кН. Для балок с полипропиленовыми волокнами было зафиксировано увеличение прочности в диапазоне от 10,11% до 17,91%. Наивысшие показатели были отмечены в серии BP10-0.2, где средний изгибающий момент составил 16,79 МПа, а предельная несущая способность — 95,94 кН.

Abstract. This article presents an experimental investigation of the strength properties of polypropylene fiber-reinforced concrete beams. Within the scope of the study, seven series of beam specimens were prepared: the first series served as the control group and was produced from conventional reinforced concrete, while the remaining series consisted of fiber-reinforced beams incorporating polypropylene fibers with lengths of 10 mm and 30 mm. The fibers were added to the concrete mixture in volumetric fractions of 0.1%, 0.2%, and 0.3%. Analysis of the results revealed that the failure of all beams primarily occurred along normal cross-sections. For the control group, the flexural moment was recorded at 14.24 MPa, with the ultimate load capacity reaching 81.87 kN. In comparison, the fiber-reinforced beams exhibited an increase in strength ranging from 10.11% to 17.91%. The highest performance was observed in the BP10-0.2 series, where the average flexural moment reached 16.79 MPa and the ultimate load capacity was 95.94 kN.

Kalit so‘zlar: polipropilen tolalar, dispers armaturalash, fibrobeton, beton, to‘sin,

mustahkamlik.

Ключевые слова: полипропиленовые волокна, дисперсное армирование, фибробетон, бетон, балка, прочность.

Key words: polypropylene fibers, dispersed reinforcement, fiber-reinforced concrete, concrete, beam, strength

Kirish

Bugungi kunda beton eng asosiy va keng tarqalgan qurilish materiallaridan biri bo‘lib, turli xil inshootlar, ko‘priklar, sanoat hamda fuqarolik binolari barpo etilishida keng qo‘llaniladi. Uning yuqori mustahkamlik ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarishdagi nisbatan arzonligi va mahalliy xom ashyolardan tayyorlanishi imkoniyati uni qurilishda ajralmas materialga aylantirgan. Biroq, betonning asosiy kamchiliklari sifatida uning cho‘zilishga mustahkamligi kamligi, mo‘rtligi hisoblanadi[1, 3]. Ko‘plab olimlar betonning mexanik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bunday izlanishlar ichida eng samaralilaridan biri – bu betonni tolalar yordamida dispers armaturalash texnologiyasidir [4]. Dispers armaturalash mohiyatan beton tarkibiga turli tolalarni qo‘shish orqali uning ichki strukturasini yaxshilash, mikro darajadagi yoriqlarning rivojlanishini cheklash va mustahkamlikni oshirishdan iborat. Bu borada bir qator tadqiqotchilar samarali natijalarga erishgan. Shu jumladan, A.M. Neville [1] betonning mo‘rtligi va cho‘zilishda mustahkamligini oshirishda tolalarning muhim rolini ilmiy asoslab bergan. Po‘lat tolali fibrobeton bo‘yicha olib borilgan dastlabki ishlarda R.N. Swamy [2] tolalar yoriqlar kengayishini sekinlashtirishini va betondagi energiya yutilishini ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, ACI Committee 544 [5] hisobotlarida tolali betonlarning turli xil yuklama sharoitlaridagi afzalliklari batafsil yoritilgan.


Oxirgi yillarda polipropilen tolalarga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Bu tolalar po‘lat, shisha tolalarga qaraganda yengil, arzon, korroziyaga chidamli va betondagi gidratatsiya jarayoniga zarar yetkazmaydi. Mazkur yo‘nalishda Banthia va Gupta [6] tomonidan olib borilgan izlanishlarda polipropilen tolalar qo‘shilgan betonning zarbaga chidamliligi va cho‘zilishdagi mustahkamligi sezilarli darajada ortishi isbotlangan. Bundan tashqari, Mazloom va Ramezanianpour [7] polipropilen tolalar yordamida betonning issiqlikka chidamliligi va portlash xavfi kamayishini qayd etgan. Xuddi shuningdek, Di Prisco va Plizzari tadqiqotlarida polipropilen tolali fibrobeton baland harorat sharoitida ham yaxshi natija ko‘rsatgan. Yana bir muhim jihat shundaki, tolalarning beton tarkibiga qo‘shilish miqdori va uzunligi yakuniy natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zollo o‘z izlanishlarida tolalarning optimal miqdorini belgilash zarurligini ko‘rsatib, ortiqcha tolalar betonning mexanik xususiyatlarini yomonlashtirishi mumkinligini qayd etgan. Bunday xulosalar Koks va Johnston hamda Naaman ishlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Polipropilen tolalar qo‘shilgan fibrobetonning afzalliklari orasida uning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmaslik xususiyatlari ham alohida ahamiyatga ega. Bentur va Mindess o‘z monografiyasida tolali betonlarning xizmat muddati an’anaviy betonga qaraganda ancha yuqori ekanini ta’kidlaydi. Ross, William va Scanlon olib borgan eksperimentlarda polipropilen tolalar bilan armaturalangan betonning muzlash va erish sikllariga nisbatan chidamliligi yuqori ekanligi qayd etilgan. Mazkur ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, tolali betonlar, xususan polipropilen tolali fibrobeton, an’anaviy betonga qaraganda ko‘plab afzalliklarga ega. Biroq, natijalar tolalarning miqdori, uzunligi va taqsimlanishiga kuchli bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, bu yo‘nalishda olib boriladigan har bir eksperiment amaliyot uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qurilishda keng qo‘llaniladigan to‘sin elementlari uchun polipropilen tolalarning samaradorligini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metod

Eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida polipropilen tolalar bilan dispers

armaturalangan fibrobeton to‘sinlar 7 ta seriyasida tayyorlandi. Tajribada birinchi seriya nazorat guruhi sifatida qabul qilinib, u polipropilen tolalarsiz, oddiy og‘ir beton asosida tayyorlandi. Keyingi seriyalarda esa turli miqdor va uzunlikdagi polipropilen tolalar qo‘shilgan fibrobeton to‘sinlar tayyorlandi. Xususan, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi seriyalarda uzunligi 10 mm bo‘lgan polipropilen tolalar mos ravishda 0,1%, 0,2% va 0,3% hajmiy ulushda beton tarkibiga qo‘shildi. Beshinchi, oltinchi va yettinchi seriyalarda esa tolalarning uzunligi 30 mm qilib olinib, ular ham beton hajmiga mos ravishda 0,1%, 0,2% va 0,3% miqdorda qo‘shildi.

Eksperimental tadqiqotlar doirasida fibrotemirbeton va temirbeton to‘sinlarning o‘lchamlari 100×200×1200 mm ni tashkil etdi, hisobiy uzunlik esa 1050 mm bo‘ldi. Namuna to‘sinlarning cho‘ziluvchi zonasida yuk ko‘taruvchi po‘lat armatura sifatida diametri 12 mm bo‘lgan A-III sinfli armaturalar ishlatildi, bu armaturalar betonning cho‘zilish zonasidagi kuchlanishlarni samarali qabul qilish va tarqatishga xizmat qildi. Siqiluvchi qismida esa diametri 8 mm bo‘lgan A-II sinfli armaturalar joylashtirilib, betonning siqilish zonasidagi deformatsiyalarni kamaytirish va buzilish jarayonini nazorat qilish imkonini berdi. Shuningdek, to‘sinlarning fazoviy karkasini shakllantirish uchun 5 mm diametrga ega B-I sinfli ko‘ndalang sim armaturalardan foydalanildi. Bu elementlar namuna to‘sinlarning konstruktsion barqarorligini oshirish va yuklar taqsimotini tenglashtirishda muhim rol o‘ynadi. Tayyorlangan armatura karkaslari 1-rasmda, namuna to‘sinlarni qoliplarda tayyorlangan ko‘rinishi 2-rasmrda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Tayyorlangan armatura karkaslari umumiy ko‘rinishi



2-rasm. Namunalarning umumiy ko‘rinishi

Temirbeton va fibrotemirbeton to‘sinlarga yuklarni berish P-125M markadagi, maksimal yuk ko‘tarish qobiliyati 125 tonna bo‘lgan gidravlik press yordamida amalga oshirildi, bunda yuk berish jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilib, nazariy hisob-kitoblarga muvofiq aniqlangan buzuvchi kuchning dastlabki 5% miqdori darzlar paydo bo‘lishidan oldin qo‘llanildi, undan keyin esa buzuvchi kuchning 10% miqdori darzlar hosil bo‘lganidan so‘ng berib borildi, har bir yuk bosqichi oralig‘i 10 minutni tashkil etib, ushbu bosqichlarda o‘lchov priborlarining ko‘rsatkichlari batafsil qayd qilindi, ya’ni har bir bosqichda yuklamalarning qiymatlari,

to‘sinlarning salqiliklari, beton va armaturadagi deformatsiyalar, darzlarning ochilishi va ularning rivojlanishi aniq o‘lchab yozib borildi, darzlarning ochilish eni mikroskop yordamida aniqlik bilan o‘lchandi, buzuvchi kuch qiymatlari 80–90% ga yetganda o‘lchov priborlari namunadan yechib olindi, bu esa sinov jarayonining xavfsizligini va o‘lchovlarning ishonchliligini ta’minladi. Tajriba o‘tkazish jarayonining 3-rasmda ko‘rsatilgan



3-rasm. Tajriba o‘tkazish jarayonining umumiy ko‘rinishi

Namunalarga yuk berish jarayonida temirbeton va fibrotemirbeton to‘sinlarni buzilgunga qadar yuklamalar qo‘llanildi va har bir bosqichda yuzaga kelgan buzilish jarayoni kuzatib borildi. Barcha o‘lchovlar va vizual kuzatuvlar qayd etildi. Tajriba yakunlangach, barcha to‘sinlar sinov stendidan olib chiqildi va maxsus ajratilgan joyga joylashtirildi. Eksperimental tadqiqotlar davomida olingan barcha ma’lumotlarni tahlil qilish orqali temirbeton va fibrotemirbeton to‘sinlarning buzilish xarakteri, deformatsiyalari, darzlarning hosil bo‘lish jarayoni va ularning rivojlanish tezligi aniqlandi, shu bilan birga turli seriyalardagi namunalarning solqiliklari, armaturadagi deformatsiyalar, betonning siqilish va cho‘zilish zonalaridagi nisbiy deformatsiyalar o‘rganildi va ularning barcha qiymatlari ilmiy asos bilan izohlandi, bu esa tadqiqotning metodologik ishonchliligini ta’minladi.

Natija va muhokamalar

Tolalar qo‘shilmagan oddiy temirbeton to‘sinlar hamda polipropilen tolalari bilan dispers armaturalangan barcha fibrotemirbeton to‘sinlarda buzilish jarayoni asosan normal kesimlar bo‘yicha yuzaga kelganligi aniqlandi. Sinov jarayonida kuzatildiki, temirbeton va polipropilen tolalari bilan mustahkamlangan fibrotemirbeton namunalarning boshlang‘ich yuklamalar ta’sirida armatura va beton qismlaridagi deformatsiyalar nisbatan kichik bo‘lib, bu holat ularning dastlabki elastik davrda ishlash xususiyatini aks ettiradi. Temirbeton namunalarda berilayotgan yuk miqdori ortgan sari, to‘sinlarning cho‘ziluvchi qismidagi betonning kuchlanish darajasi sezilarli darajada oshib, oxir-oqibat chegaraviy qiymatlarga yetdi, bu esa betonning maksimal mustahkamlik chegarasini belgilashda muhim ilmiy ma’lumot berdi.

Shu bilan birga, dispers armaturalangan fibrotemirbeton namunalarda polipropilen tolalarning mavjudligi betonning cho‘zilish zonasida yuzaga keladigan kuchlanishlarning yanada barqaror taqsimlanishiga, darzlarning paydo bo‘lishini kechiktirishga va buzilish jarayonini nazorat qilishga imkon berdi. Yuk ostida armaturaning deformatsiya darajalari va betonning cho‘zilish zonasidagi kuchlanishlar eksperimental ma’lumotlar yordamida batafsil qayd etilib, ularning bir-biriga ta’sir mexanizmi aniqlanadi. Nazorat guruhi sifatida olingan oddiy temirbeton (BO) namunalari tajribada asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi. Bu seriyada qayd etilgan o‘rtacha eguvchi moment 14.24 MPa, buzuvchi kuch esa 81.87 kN ni tashkil etdi. Polipropilen tolalar bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton to‘sinlarning sinovdan keyingi ko‘rinishi 4 va 5-rasmlarda keltirilgan




4-rasm. BO seriyadagi temirbeton to‘sinlarning sinovdan keying ko‘rinishi



5-rasm. BP10-0.3 seriyadagi fibrotemirbeton to‘sinlarning sinovdan keying ko‘rinishi

Fibrotemirbeton seriyalarida polipropilen tolalar turli uzunliklarda 10 va 30 mm) hamda turli 0.1, 0.2 va 0.3% miqdorlarda betonga qo‘shib sinovdan o‘tkazildi. BP10-0.1 seriyasida o‘rtacha eguvchi moment 15.8 MPa, buzuvchi kuch 90.29 kN ni tashkil etdi. Nazorat namunasi bilan solishtirilganda, mustahkamlikning ortishi 10.96% ga teng bo‘ldi. Bu natija polipropilen tolalarning hatto kam miqdorda 0.1% qo‘shilishi ham betonning mustahkamligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Eng yuqori natija BP10-0.2 seriyasida qayd etildi. Bu seriyada o‘rtacha eguvchi moment 16.79 MPa, buzuvchi kuch esa 95.94 kN ga teng bo‘ldi. Mustahkamlikning ortishi 17.91% ni tashkil qilib, barcha seriyalar ichida eng samarali natija sifatida qayd etildi. BP10-0.3 seriyasida esa natijalar biroz pasaydi. O‘rtacha eguvchi moment 16.2 MPa, buzuvchi kuch esa 92.57 kN bo‘lib, mustahkamlik ortishi 13.76% ga teng bo‘ldi. Namuna to‘sinlardagi maksimal eguvchi moment grafigi 6-rasmda ko‘rsatilgan.



6-rasm. Maksimal eguvchi moment grafigi

Tolalarning uzunligi 30 mm bo‘lgan namuna seriyalarda ya’ni, BP30-0.1 seriyasida o‘rtacha eguvchi moment 16.12 MPa, buzuvchi kuch 92.11 kN ni tashkil etib, mustahkamlik ortishi 13.2% ga teng bo‘ldi. Bu natija BP10-0.1 seriyasiga yaqin qiymatlarni ko‘rsatdi. BP30-0.2 seriyasida optimal natijalar qayd etildi. O‘rtacha eguvchi moment 16.56 MPa, buzuvchi kuch

94.63 kN bo‘lib, mustahkamlikning ortishi 16.29% ni tashkil etdi. Bu qiymatlar 10 mm tolalar qo‘shilgan BP10-0.2 seriyasiga juda yaqin bo‘lib, shuni ko‘rsatadiki, tolalarning uzunligi 10 yoki 30 mm bo‘lishidan qat’i nazar, eng maqbul natijalar 0.2% miqdorlarda qo‘shilgan hollarda kuzatiladi. BP30-0.3 seriyasida o‘rtacha eguvchi moment 15.68 MPa, buzuvchi kuch esa 89.6 kN bo‘lib, mustahkamlik ortishi 10.11% ga teng bo‘ldi.

XULOSALAR

1. Polipropilen tolalar bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton to‘sinlarda yuk ko‘tarish qobiliyati oddiy temirbeton to‘sinlarga nisbatan 10–18% ga yuqori bo‘lgani aniqlanib, tolalarning mavjudligi betonning mustahkamligini sezilarli darajada oshirishi tasdiqlandi.

2. Eng samarali natijalar 0,2% hajmiy ulushdagi tolalar qo‘shilganda kuzatildi: BP10-0,2 va BP30-0,2 seriyalarida eguvchi moment va buzuvchi kuch maksimal qiymatlarni ko‘rsatdi. Tolalarning miqdori fibrotemirbetonning yuk ko‘tarish qobiliyatini belgilashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

3. Polipropilen tolalar fibrotemirbeton to‘sinlarda betonning deformatsion hususiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tolalarning mavjudligi cho‘zilish zonasida kuchlanishlarning bir tekis taqsimlanishini ta’minlab, to‘sinning buzilish jarayonini kechiktiradi.

ADABIYOTLAR

1. Neville A. M. et al. Properties of concrete. – London : Longman, 1995. – T. 4. – C. 1995.

2. Swamy R. N., Stavrides H. Influence of fiber reinforcement on restrained shrinkage and cracking //Journal Proceedings. – T. 76. – №. 3. – C. 443-460.

3. Razzakov S., Martazaev A. Mechanical properties of concrete reinforced with basalt fibers //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 401. – C. 05003.

4. Jurayevich R. S., Shukirillayevich M. A. Calculation of Strength of Fiber Reinforced Concrete Beams Using Abaqus Software //The Peerian Journal. – 2022. – T. 5. – C. 20-26.

5. American Concrete Institute (ACI). ACI 544.5R-10: Report on the Physical Properties and Durability of Fiber Reinforced Concrete (2010).

6. Banthia N., Gupta R. Influence of polypropylene fiber geometry on plastic shrinkage cracking in concrete //Cement and concrete Research. – 2006. – T. 36. – №. 7. – C. 1263-1267.

7. Mazloom M., Mirzamohammadi S. Thermal effects on the mechanical properties of cement mortars reinforced with aramid, glass, basalt and polypropylene fibers //Advances in materials research: AMR. – 2019. – T. 8. – №. 2. – C. 137-154.

УДК: 624.04; 624.078; 69; 621.87

УЛУЧШЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ СБОРКИ КРЫШНЫХ КОНСТРУКЦИЙ КРУПНОГО ПРОСТРАНСТВА: ИНТЕГРИРОВАННЫЙ ПОДХОД BIM–DES–FMEA–LEAN

Ахмадияров Улуғбек Солижонович
Ташкентский архитектурно-строительный университет Профессор, usa190380@mail.ru

Чориев Пулат Зулфикор ўғли.
choriyevpulat@gmail.com

Аннотация. Крышные конструкции крупного пролёта (≥60–80 м) — купола, пространственные фермы, двускатные и арочные покрытия из металлоконструкций, клеёной древесины или композитов — предъявляют повышенные требования к монтажной технологии: точностные, логистические, безопасность работ на высоте, риск ветровых/температурных воздействий. Работа предлагает интегрированный подход к совершенствованию технологии сборки, объединяющий 4D/5D-BIM, дискретно-событийное моделирование (DES), количественную оценку рисков (FMEA + Монте-Карло), бережливые инструменты (VSM, такт-планирование, стандартизированная работа), цифровую трассировку допусков и управление временными опорами/стропильными схемами. Представлены: (1) формальная декомпозиция монтажного процесса, (2) метод выбора средств подъёма с учётом ветровых окон, (3) модель выравнивания потока по участкам (якорные зоны, монтажные ячейки), (4) методика обратной совместимости допусков «конструкция–оснастка–сборка», (5) алгоритм оперативного перепланирования при погодных отклонениях. На кейсе типовой пространственной фермы пролётом 120 м получены моделируемые эффекты: уменьшение критической продолжительности на 19–27 %, снижение суммарной трудоёмкости на 11–16 %, уменьшение прямых затрат на 8–13 % при одновременном росте индекса безопасности (TRIFR) на 22–30 % относительно базового сценария. Проведён критический анализ чувствительности: устойчивость эффектов к задержкам поставок, изменению стропильных карт, строгим допускам (±2 мм) и сдвигу ветровых окон. Сформулированы рекомендации по стандартизации технологических карт, поэтапной валидации в цифровом двойнике и масштабированию на иные типы покрытий.

Annotatsiya. Yirik oraliqli (≥60-80 m) tom konstruksiyalari - gumbazlar, fazoviy fermalar, metall konstruksiyalar, yelimlangan yog‘och yoki kompozitlardan tayyorlangan ikki nishabli va ravoqli qoplamalar montaj texnologiyasiga yuqori talablar qo‘yadi: aniqlik, logistika, balandlikda ishlash xavfsizligi, shamol/harorat ta’siri xavfi. Ishda 4D/5D-BIM, diskret hodisalarni modellashtirish (DES), xatarlarni miqdoriy baholash (FMEA + Monte-Karlo), tejamkor vositalar (VSM, vaqtni rejalashtirish, standartlashtirilgan ish), ruxsatnomalarni raqamli kuzatish va vaqtinchalik tayanchlarni/stropil sxemalarini boshqarishni o‘z ichiga olgan yig‘ish texnologiyasini takomillashtirishga integratsiyalashgan yondashuv taklif etilgan. Quyidagilar taqdim etilgan: (1) montaj jarayonining rasmiy dekompozitsiyasi, (2) shamol oynalarini hisobga olgan holda ko‘tarish vositalarini tanlash usuli, (3) oqimni uchastkalar (yakor zonalari, montaj yacheykalari) bo‘yicha tekislash modeli, (4) "konstruksiya-uskuna-yig‘ish" joizliklarining teskari muvofiqligi usuli, (5) ob-havo o‘zgarishlarida tezkor qayta rejalashtirish algoritmi. Uchish masofasi 120 m bo‘lgan namunaviy fazoviy ferma misolida modellashtirilgan ta’sirlar olindi: kritik davomiylik 19-27%, umumiy mehnat sarfi 11-16%, to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar 8-13% ga

kamaydi, xavfsizlik indeksi (TRIFR) bir vaqtning o‘zida asosiy ssenariyga nisbatan 22-30% ga oshdi. Sezgirlikning tanqidiy tahlili o‘tkazildi: ta’minot kechikishiga, stropil xaritalarining o‘zgarishiga, qat’iy ruxsatlarga (±2 mm) va shamol derazalarining siljishiga ta’sirlarning barqarorligi. Texnologik xaritalarni standartlashtirish, raqamli egizakda bosqichma-bosqich validatsiya qilish va boshqa turdagi qoplamalarga masshtablash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. Large-span roof structures (≥60-80 m) - domes, spatial trusses, double-sloped and arched roofs made of metal structures, glued wood, or composites - impose increased requirements for installation technology: accuracy, logistics, safety of work at height, and the risk of wind/temperature effects. The work offers an integrated approach to improving assembly technology that combines 4D/5D-BIM, discrete-event modeling (DES), quantitative risk assessment (FMEA + Monte Carlo), cost-effective tools (VSM, timing planning, standardized work), digital tolerance tracing, and time-support/string diagram management. The following are presented: (1) formal decomposition of the assembly process, (2) a method for selecting lifting means, taking into account wind windows, (3) a flow alignment model for sections (anchor zones, assembly cells), (4) a method for reverse compatibility of tolerances "construction-equipment-assembly," (5) an algorithm for operational re-planning in case of weather deviations. In the case of a typical spatial farm with a span of 120 m, modeled effects were obtained: a decrease in critical duration by 19-27%; a decrease in total labor intensity by 11-16%; a decrease in direct costs by 8-13% while simultaneously increasing the safety index (TRIFR) by 22-30% compared to the baseline scenario. A critical analysis of sensitivity was conducted: resistance of effects to supply delays, shifting of rafters, strict tolerances (±2 mm), and windshield displacement. Recommendations have been formulated for the standardization of technological maps, step-by-step validation in a digital twin, and scaling for other types of coatings.

Kalit so‘zlar: yirik oraliqli qoplamalar, fazoviy ferma, metall konstruksiyalarni o‘rnatish, 4D-BIM, diskret hodisaviy modellashtirish, FMEA, Monte-Karlo, tejamkor ishlab chiqarish, vaqtinchalik tayanchlar, stropal operatsiyalari, shamol oynalari.

Ключевые слова: крупнопролётные покрытия, пространственная ферма, монтаж металлоконструкций, 4D-BIM, дискретно-событийное моделирование, FMEA, Монте-Карло, бережливое производство, временные опоры, стропальные операции, ветровые окна.

Keywords: large-span coatings, spatial truss, metal structure installation, 4D-BIM, discrete event modeling, FMEA, Monte Carlo, lean manufacturing, temporary supports, rafters, windshields.

1. Введение

1.1. Постановка проблемы

Крупнопролётные крыши (арены, терминалы, логистические и промышленные объекты) характеризуются высокой монтажной сложностью: крупногабаритные элементы (10–30 м) [1,2], точностные требования (накопление погрешностей узлов), работа на высоте в ветровых зонах, необходимость временных опор/растяжек, стеснённые строительные площадки и зависимости от поставок [3,4]. Традиционные методы планирования с опорой на сетевые графики (CPM) и укрупнённые нормы не обеспечивают достаточной прогностической точности при стохастических воздействиях (погодные окна, отказ техники, вариативность производительности звеньев) [5,6].

1.2. Научная новизна и цель

Цель — предложить и верифицировать интегрированную технологию сборки крупнопролётных крыш, объединяющую:

- **4D/5D-BIM** для связки модели, календаря и затрат;
- **DES** для оценки очередей/узких мест и распределений времени операций;
- **FMEA + Монте-Карло** для количественной приоритизации рисков и резервирования;
- **Lean-инструменты** (VSM, такт-планирование, стандартизированная работа) для выравнивания потока;
- **Цифровой контроль допусков** для предотвращения геометрического «дрейфа»;
- **Оптимизацию средств подъёма** по критерию «время-стоимость-риски ветра».

Гипотеза: связное применение этих методов уменьшит длительность критического пути и трудоёмкость, улучшив безопасность без роста совокупной стоимости.

1.3. Обзор подходов

В практике применяются: укрупнённая наземная сборка с последующим подъёмом целых блоков; секционная сборка по ячейкам с временными опорами; надвижка/подъём поэтапно домкратами; кабель-стей и временные ванты [2,5]. Научные работы показывают преимущества 4D-BIM и DES в монтажном планировании, однако интеграция с FMEA и Lean в «одну петлю» обратной связи для крупнопролётных крыш исследована недостаточно.

2. Материалы и методы

2.1. Объект и допущения

Для воспроизводимости использован обобщённый кейс: пространственная ферма пролётом **L = 120 м**, шаг главных поясов 6 м, масса металлоконструкций **~1 200 т**, узлы на высокопрочных болтах (LC 10.9), монтаж из **N=20** типовых секций (~8–12 т каждая). Допуски: линейные ±3 мм, угловые ±0,3°. Высота монтажной отметки 28 м. Средства подъёма: гусеничный кран 600 т + вспомогательные 160–200 т. Погодные ограничения: монтаж грузов >8 т при ветре ≤10–12 м/с; для стыков заводских укрупнённых секций — ≤8 м/с. Эти параметры отражают средние промышленные практики; конкретные значения адаптируются под проект.

2.2. Декомпозиция технологической цепочки

Процесс разбит на **13** стадий:

S1) приёмка/складирование; S2) входной контроль (геометрия, покрытия); S3) предварительная сборка на земле (укрупнение); S4) настройка стропальных схем; S5) подъём секций; S6) временное закрепление; S7) установка связей жёсткости; S8) выверка геометрии (лазер-скан); S9) окончательное крепление; S10) сварка/цинк-ремонт (если требуется); S11) снятие временных опор/растяжек; S12) интеграция оболочки/ПВЛ; S13) финальная инспекция/документация.

Для каждой стадии заданы распределения времени операций (треугольное/логнормальное), ресурсы (бригады, краны), правила очередей (FIFO/приоритет по критичности), вероятности отказов.

2.3. 4D/5D-BIM

Информационная модель (LOD 300/350 для металлоконструкций) привязана к работам (Work Breakdown Structure, WBS). В 5D-контуре каждая работа имеет базовую стоимость $C_i = c_{труд,i} + c_{маш,i} + c_{мат,i}$. Для сценарного анализа стоимости используется:

$$C_{\text{сцен}} = \sum_i C_i \cdot (1 + \delta_i), \quad \delta_i \sim \mathcal{N}(\mu_i, \sigma_i)$$

где δ_i— относительные отклонения затрат (например, из-за простоев крана, повторной выверки и т.п.).

2.4. Дискретно-событийное моделирование (DES)

Модель имитирует поток секций через стадии S1–S13. Времена операций TiT_i заданы как:

- подъём/перемещение секции: $T_{lift} \sim L_{ogNormal}(\mu,\sigma)$ параметризуется вылетом стрелы, массой, числом перехватов;
- выверка/стыковка: $T_{fit} \sim T_{riangular(a,m,b)}$ (лучше отражает монтажную вариативность);
- ожидание погоды — стохастические **ветровые окна** (секция 2.7).

Метрики: средняя длительность, 95-й перцентиль, загрузка кранов/бригад, длина очередей, критический путь.

2.5. Оценка рисков: FMEA + Монте-Карло

Для каждой потенциальной отказы/несоответствия (например, «недовытяжка высокопрочных болтов», «срыв ветрового окна», «накопление геометрической погрешности») оцениваются: серьёзность S, частота O, обнаружимость D (шкалы 1–10). Приоритет риска $RPN=S\cdot O\cdot D$. Вероятностная проекция на сроки/стоимость — через Монте-Карло (10 000 итераций).

2.6. Lean-инструменты (VSM, такт-план, стандартизированная работа)

Value Stream Mapping выполняется для S3–S9: выделяются операции, не добавляющие ценность (перестроповки, ожидание контроля), проектируется **тактовый план**:

$$\text{Такт} = \frac{\text{Доступное время смены} - \text{Потери}}{\text{Требуемый выпуск секций/смену}}$$

Вводится **стандартизированная работа** (SWI) для S5–S7 с чек-листами, границами допуска и контрольными точками (QC gates).

2.7. Погодные ограничения и «ветровые окна»

Ветер моделируется нестационарным процессом: в пределах смен — кусочно-стационарные интервалы. Вероятность доступного окна для подъёма грузов $P(W \le W_{limit})$ определяется по эмпирическим распределениям (или метеосводкам проекта). В DES это задаёт вероятности приостановки S5/S6, удлиняя очереди.

2.8. Управление допусками и обратная совместимость

Вводится матрица допусков **T** по узлам/осям; контроль осуществляется лазерным сканированием с сопоставлением с BIM (набор контрольных «маяков»). Накопление погрешности **Δ** ограничивается правилом:

$$\sum_{k=1}^{n} |\Delta_k| \le \Delta_{\text{лимит}} \quad \Rightarrow$$

вставка корректирующих связей

2.9. Критерии оптимальности и сравниваемые сценарии

Сценарии: **BAS** (базовый), **INT-A** (интегрированный без перепланирования), **INT-B** (интегрированный + оперативное перепланирование по погоде), **INT-C** (как INT-B + наземная укрупнённая сборка с редукцией подъёмов).

3. Результаты

3.1. Базовый поток и узкие места

VSM выявил два системных узких места:

(1) **Перестроповки и позиционирование** (S5–S6): до 26–32 % времени цикла; (2) **Выверка и временные связи** (S7–S8): до 21–25 % времени. Загрузка основного крана достигала 83–88 % (пиковая), что приводило к очередям при любых простоях вспомогательных кранов.

3.2. Эффект 4D/5D-BIM + DES

Переход к 4D-последовательности с «ячейочным» монтажом (зонирование пролёта на 4 монтажные ячейки 30×24 м) и синхронизация поставок позволили:

- сократить среднюю длительность критического пути $Т_{кр}$ на **19 %** (INT-A) и на **23 %** (INT-B),
- уменьшить 95-й перцентиль срока на **20–27 %** за счёт перепланирования под ветровые окна,
- снизить суммарное время ожиданий кранов на **35–42 %**.

3.3. Управление погодой (ветровые окна)

Оперативный алгоритм: ежедневный «скользящий» пересчёт графика с приоритетом секций, требующих меньшего вылета стрелы при повышенном ветре. В Монте-Карло при варьировании доступности окон (квантиль 0,2–0,8) провалы сроков в INT-B случались реже в 1,6–1,9 раза, чем в BAS.

3.4. Lean-интервенции

Стандартизация стропальных карт, гравитационные маркеры на секциях, предварительная маркировка узлов и введение «пакетов сборочных болтов» (kitting) уменьшили время S5–S6 на **18–24 %**. Такт-план с равномерной подачей секций (2 секции/смена) снизил вариабельность времени цикла (CV) с 0,41 до 0,26.

3.5. FMEA и безопасность

Топ-5 рисков по RPN в BAS: срыв ветровых лимитов, неверная выверка узлов, срыв болтовой затяжки, коллизии стрел/строп, падение инструмента. Мероприятия (двухступенчатая визуализация стропальных схем в 4D-BIM, обязательная повторная проверка моментов затяжки, ловушки-контейнеры для инструмента) снизили суммарный RPN_{90} на **28–35 %**, а расчётный TRIFR-индекс улучшился на **22–30 %**.

3.6. Затраты

Сокращение простоев кранов и повторных выверок снизило прямые затраты на **8–13 %**. Дополнительные расходы на лазер-скан и BIM-координацию составили ~1,2–1,6 % бюджета монтажа и окупились за счёт предотвращённых задержек (точка безубыточности — при экономии ≥2,5 %).

3.7. Сводная таблица (симуляция)

Таблица-1

Метрика	**BAS**	**INT-A**	**INT-B**	**INT-C**
Критическая длительность, дни	100	81	**77**	**73**
95-й перцентиль срока, дни	116	94	**90**	**86**
Трудоёмкость, чел-ч	100%	88–91%	**84–89%**	**83–88%**
Прямые затраты, % от BAS	100%	90–94%	**88–92%**	**87–91%**
TRIFR (ниже — лучше)	1.00	0.79–0.83	**0.70–0.78**	**0.69–0.76**

Примечание: значения носят характер воспроизводимой **моделируемой** оценки на основании описанных входных распределений и ограничений.

4. Обсуждение

4.1. Что именно даёт выигрыш

Главный источник эффекта — **координация**: (i) пространственно-временное зонирование монтажных ячеек в 4D, (ii) синхронизация поставок и крановых окон, (iii) снижение вариативности на S5–S7 за счёт стандартизации и предварительного kitting. DES показывает, что даже умеренное сокращение CV на узких стадиях мультипликативно сокращает ТкрТ_{\text{кр}}.

4.2. Роль точности и обратной совместимости

Цифровой контроль допусков с ранним выявлением «дрейфа» предотвращает лавинообразные переработки. Практически это означает регламент: «каждые 2–3 секции — обязательный скан и сводка расхождений», что лучше, чем «проверка крупного блока в конце».

4.3. Безопасность не ухудшает сроки

Расхожее мнение «безопасность замедляет проект» не подтвердилось: стандартизированные карты, контроль узлов и ловушки для инструмента уменьшают незапланированные простои и инциденты, что улучшает сроки.

4.4. Ограничения исследования

- Метеомодель обобщена; для конкретной площадки следует применять локальную «розу ветров».
- Не рассматривались особые конструкции (напряжённо-вантовые оболочки с активной геометрией).
- Оценки затрат даны по укрупнённым нормативам; при ценообразовании EPC следует учитывать контракты поставки и штрафные санкции.

4.5. Чувствительность

При ужесточении допусков до ±2 мм выгоды INT-B/INT-C сохраняются, но снижаются на 2–3 п.п. При сдвиге ветровых окон к неблагоприятным (квантиль 0,1) преимущества перепланирования возрастают относительно BAS (до 30+ % по перцентилю сроков).

5. Заключение

Интегрированная технология сборки крупнопролётных крыш, сочетающая 4D/5D-BIM, DES, FMEA/Монте-Карло и Lean-инструменты, обеспечивает устойчивое сокращение сроков и трудоёмкости при повышении безопасности. Ключевые практики: ячеечное зонирование, стандартизированная работа на узких стадиях, оперативное перепланирование под ветровые окна, цифровое управление допусками. Для промышленного внедрения рекомендуется поэтапный пилот на одном пролёте с полноценным циклом «план–смоделируй–проверь–улучши».

6. Практические рекомендации

1. **Перед стартом:** 4D-разбивка на ячейки, согласование стропальных карт, выбор крана под худший вылет + резерв 10–15 %.
2. **Логистика:** kitting крепежа и оснастки на 1–2 секции вперёд, визуальная маркировка узлов.
3. **Контроль:** QC-ворота после каждой 2–3 секций, лазер-скан и сравнение с BIM-эталоном.
4. **Погода:** ежедневный «скользящий» пересчёт плана; матрица решений при ветре > порог.
5. **Безопасность:** стандартизированные SWI, ловушки для инструмента, двойная проверка затяжек.
6. **Цифровой контур:** журнал отклонений с автоматической генерацией

корректирующих действий.

ЛИТЕРАТУРА

1. Норов Н. Н., Худайназарова Ю. Дж. (2024). ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ СУЩЕСТВУЮЩИХ НИЗКОЭТАЖНЫХ СЕЛЬСКИХ ДОМОВ. Строительство и образование, 3 (1), 21-26.

2. Турапов М. Т., Эгамбердиева Т. И. (2022). УДК 693.01243 ПРИМЕНЕНИЕ ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИХ МЕТОДОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ. Научный импульс. стр. 1 (2), 646-648.

3. Эгамбердиева, Т. (2024). Индивидуальность производства и организации труда в малокомнатном жилищном строительстве. Excellencia: Международный многодисциплинарный журнал образования (2994-9521), 2 (5), 289-294.

4. Тутиё, Э. (2021). Анализ влияния сухого жаркого климата на работу железобетонных элементов. ACADEMICIA: Международный многодисциплинарный исследовательский журнал, 11 (5), 959-963.

5. Тутиё, Э. (2020). Совершенствование термической обработки при производстве железобетонных изделий. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 6 (5), 457-461.

6. Эгамбердиева Т., Матгозиев Х. (2024). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ЖИЛЬЯ. Строительство и образование, 3 (4), 30-33.

EXPERIMENTAL TESTING OF THE STRENGTH OF CONNECTIONS OF ELEMENTS OF FLEXIBLE WOODEN STRUCTURES

Razzakov Sobirjon Juraevich
Doctor of Technical Sciences, Professor of the Department of "Construction of Buildings and Structures"
Namangan State Technical University. s_razzakov7@gmail.com

Berdakov Dauranbay Esenbaevich
senior lecturer. Department of "Construction of buildings and structures"
Berdakh Karakalpak State University. davranberdakov7@gmail.com

Abstract. This article analyzes the possibilities of improving the joints of the elements of reinforced construction structures from wood materials and the elements of the treated rough construction structures and strengthening the joints of the elements of the reinforced structural elements, the state of strength-deformability, the use of reinforced structural elements.

Keywords: wooden joint, binder, bending, stretching, crushing, cracking, strength, deformation.

INTRODUCTION. In the world, currently, innovation technologies for the production of wood and other natural, environmentally friendly, structures occupy an important place in construction. For wooden structures, the creation, improvement of compounds of the effective elements is gaining an important place for practical research and their application in the construction areas. Improving the joints of the elements of wooden structures, increasing the strength of the joints are becoming one of the pressing problems [1].

Particular attention is paid to the creation of new types of compounds of elements of wood structures, the practical introduction of compounds of elements of wood structures resistant to the state of tensile-deformability, ensuring energy and resource efficiency, tolerance of operating conditions, improvement of such properties as technological. In the world economy, widespread attention is paid to the state of tension-deformability of the compounds of the elements of wooden structures, as well as good processing of them. One of the important tasks is to ensure the achievement of high strength of the joints of the elements of wooden structures, stability of their joints in the case of tensile-deformability. In our republic, certain scientific and practical results are being achieved to increase the production volumes of new building materials, objects and structures that are resource-efficient and energy-efficient, allowing the development of the building materials industry, the economy of natural raw materials and their use in the production of special raw materials. Particular attention is paid to the improvement of the combinations of elements of wooden structures, including using local raw materials [6].

EXPERIMENTAL RESEARCH. The purpose of experimental research is to verify that the compounds of the elements of wooden structures are exactly similar to the previously obtained mathematical model for calculating strength and deformation descriptions.

During the conduct of experimental research, the following issues were laid:

1. Determination of current physical and mechanical descriptions of wood;
2. For further research, determining the effective parameters (angle of deviation of the applied force, screw length and diameter) for the joints of wooden structures;
3. Determination of strength and deformation characteristics of wood structural elements compounds;
4. Determination of the values of disruptive loads.

Scientific research work was carried out at the complex scientific testing laboratory of the Karakalpak State University named after Berdaq, which has a certificate of approval from the

accreditation center of Uzbekistan to carry out the testing of compounds of wooden construction elements.

When testing the joints of wooden structural elements for bending, we were guided by the tester rama for bending "Matest C090 - 06n" of the firm Mathest, which was produced in accordance with the Italian state register- № 01221-08/2018, GOST 15150-69 [2].

The frame of the synovial membrane "Matest c090-06n" is shown in Figure 1.



FIGURE 1. Matest c090-06N bending Tester test machine

Experimental tests were carried out in three series, with elements of wooden structures attached on a screw basis according to GOST 58959-2020. Having received all the indicators of the combinations of elements of wooden structures, a type II pine wood mesh with a high load-bearing capacity, we tested our final experimental test work on the combinations of elements of wooden construction [3].




FIGURE 2. Wooden structure elemenltsinng compounds: (a) T-1 type of current compound, (B) T-2 type of improved compound, c) improved compounds of Type T-3

Wooden construction joints were performed at a level equal to, and the elements of the structure were welded so that they were assembled and removed using screws. For experimental test work, the cross-sections of wooden construction elements were adopted in a size of 50x150x800 mm. The fastening of the wooden elements was carried out on the beams (strophiles), on which the gorizantal is located to each other, and the reinforcement of the structural elements in relation to the wood fibers was provided in this way.

For ease of identification, the following samples were selected:

1. Current compound T-1 sample;
2. Improved compound T-2, T-3 nomunas;

The wooden structure attachment nets we recommend and use are shown in Figure 2.

RESEARCH and RESULTS. To determine the conditions of deformation of the joints of the elements of the wooden structure, experimental test work was carried out and loads were loaded.

When the load was placed, the joints of the elements of the wooden structure were held until they were broken, then bending indicators were taken and moved to the next stage of loading.

When testing the joints of the main load-bearing wooden structural elements, the compound mesh T-1 improved with the current compound mesh T-2 and T-3s were carried out up to the choking circuit.

As part of the studies, 3 compound nets were tested and 10 studies were carried out in each series. The results of experimental studies are presented in the form of graphs and tables.

An overview of the joints in test time for bending is shown in Figure 3. The results of the tests performed are reflected in Figures 4.

a) b) c)




FIGURE 3. Experience of standing in various industries: a) development of multicomponent T-1, b) modernization of multicomponent T-2 and T-3, c) development of specifications

On the results of experimental studies, graphs were constructed that reflect the dependence of bending loads.




FIGURE 4. Dependence graph of load (kn) and excitation (mm) of T-1, T-2 and T-3 types of compounds

It turned out that the T-2 compound net is 10.2% stronger compared to the T-2 compound net and T-3 7.3% stronger compared to the T-2 compound, which is considered a valid compound, if we compare experimental research work on bending of compounds of wooden structural elements in the case of deformation tension holotes.

The results of experimental studies in the phenomena of deformation tension of compounds of wooden structural elements are presented in table 1 of the results of the limit of resistance to bending.

Table 1.

Bending values of wooden structural element joints

Serie	Sample	In bending disruptive loading P, kN	Marginal displacement in flexion δ, mm
1	**2**	**3**	**4**
T-1	1	52	12
	2	51.2	11.76
	3	50.4	10
T-2	1	57.3	12.39
	2	56	11.63
	3	55.2	10.72
T-3	1	61	10.78
	2	**60.7**	**10**
	3	59.8	8.94

Conclusions.

1. Experimental studies on the absorption of screws from a wood array in samples made it possible to determine the dependence of the voltage corresponding to the strength limit on the

absorption of a screw from a monolithic wood array on the following factors: screw length, screw diameter and the angle of deviation of the force from the direction of movement of the

2. The strength of the joints, from the results of experiments on full-size joints of elements of wood-screw wooden structures at the junction sites, showed that from the current joint in the wood, the improved joints we recommend will be 28% more. Potential disturbances in T-3 Series compounds are 16 from indicators and experimental data in quantitative experiments...It has been recorded to be over 25%.

REFERENCES

1. Razzakov S.Zh., Juraev B.G., Juraev E.U. Stability of walls of individual residential buildings with a wooden frame. Calculations for stability. Namangan Institute of Civil Engineering. Volume 14, No. 5 (2018). https://doi.org/10.22363/1815-5235-2018-14-5-427-435.

2. GOST 15150-69. Machines, devices and other technical products. Versions for different climatic regions. Categories, conditions of operation, storage and transportation in terms of the impact of climatic factors of the external environment. Moscow Standartinform 2010.-53 p. http://sem-vetrov.ru/images/gost/GOST_15150_1969.pdf

3. GOST 58959-2020. Connections of wooden elements structures on screws Moscow Standartinform 2010.-32 p. https://rosgosts.ru/file/gost/91/080/gost_r_58959-2020.pdf

4. Mavlonov R.A., Razzakov S.J., Numanova S.E. Stress-strain state of combined steel-FRP reinforced concrete beams // E3S Web of Conferences 452, 06022, IPFA – 2023. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345206022.

5. S. Razzakov and A. Martazaev. Mechanical properties of concrete reinforced with basalt fibers. E3S Web of Conf., 401 (2023) 05003

6. Mavlonov R.A., Razzakov S.J. Numerical modeling of combined reinforcement concrete beam // E3S Web of Conferences 401, 03007, CONMECHYDRO – 2023. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340103007.

7. Razzakov S.J., Berdakov D.E, Aytjanov O.D., Sayimbetova N.Z. Wodden structures. Handbook. - Nukus, 2024. - 173 p.

UDK: 624.01

DOIMIY VA UZOQ MUDDATLI YUKLAR TA'SIRIDA INSHOOTLAR ISHONCHLILIGINI OSHIRISH UCHUN TEXNOLOGIK LOYIHALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Matgoziyev Xusan Melibayevich
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, t.f.n., dotsent, matgoziyevxusan@gmail.com

Ismoilov Xudoyberdi Egamberdi o'g'li
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, doktorant, ismoilovxudoyberdi838@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada inshootlarning uzoq muddatli va doimiy yuklar ta'sirida ishonchliligini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Qurilish konstruksiyalari va materiallarida yuzaga keladigan deformatsiyalar, mustahkamlikning kamayishi va yoriqlar paydo bo'lish mexanizmlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy me'yoriy hujjatlar asosida texnologik loyihalashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarida konstruktiv yechimlarni optimallashtirish, monitoring tizimlarini joriy etish va yuqori chidamli materiallardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatildi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения надежности сооружений под воздействием длительных и постоянных нагрузок. Научно проанализированы механизмы возникновения деформаций, снижения прочности и трещин в строительных конструкциях и материалах. Также разработаны предложения по совершенствованию технологического проектирования на основе международного опыта и национальных нормативных документов. Результаты исследования показали эффективность оптимизации конструктивных решений, внедрения систем мониторинга и использования высокопрочных материалов.

Abstract. This article examines the issues of ensuring the reliability of structures under the influence of long-term and constant loads. The mechanisms of deformation, loss of strength, and crack formation in building structures and materials have been scientifically analyzed. Also, based on international experience and national regulatory documents, proposals for improving technological design have been developed. The research results showed the effectiveness of optimizing design solutions, implementing monitoring systems, and using high-strength materials.

Kalit so'zlar: inshoot ishonchliligi, texnologik loyihalash, doimiy yuklar, uzoq muddatli yuklar, konstruktiv yechimlar, monitoring tizimlari.

Ключевые слова: надежность сооружения, технологическое проектирование, постоянные нагрузки, долгосрочные нагрузки, конструктивные решения, системы мониторинга.

Keywords: building reliability, technological design, permanent loads, long-term loads, structural solutions, monitoring systems.

Kirish. Qurilish sohasida inshootlarning ishonchliligi eng muhim talablardan biridir. Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiyaning tezlashishi natijasida turli ko'lamdagi bino va inshootlarga ehtiyoj keskin ortmoqda [1,2]. Ularning xavfsizligi nafaqat qurilish kompaniyalari, balki butun jamiyat uchun dolzarb masaladir. Doimiy va uzoq muddatli yuklar ta'sirida konstruksiyalar asta-sekin o'zining mustahkamlik xususiyatlarini yo'qotadi [3]. Bu jarayonlar charchash, materialning qariyishi, yoriqlar rivojlanishi va korroziya bilan chambarchas bog'liqdir.

Inshootlarning ishonchliligi qurilish sohasi uchun eng muhim masalalardan biridir. Aholi sonining ortib borishi, shaharsozlik jarayonlarining jadallashuvi va sanoat korxonalarining ko‘payishi natijasida turli xil inshootlarga bo‘lgan talab keskin oshmoqda. Bu esa o‘z navbatida konstruktiv elementlarning doimiy va uzoq muddatli yuklarga chidamliligini chuqur o‘rganishni taqozo etadi [4,5]. Shu maqsadda mazkur ishda xalqaro va mahalliy tajribalar asosida inshootlarning mustahkamligi, barqarorligi va chidamliligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Metodlar. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi: statik va dinamik hisoblashlar, laboratoriya sinovlari, monitoring tizimlari va me’yoriy hujjatlar tahlili. Finite Element Method (FEM) dasturlari yordamida konstruksiyalardagi kuchlanish va deformatsiya zonalari aniqlangan [6]. Beton namunalarida uzoq muddatli siqilish va cho‘zilish tajribalari o‘tkazildi. Sensorlar yordamida real vaqt rejimida deformatsiyalar kuzatildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Statik va dinamik yuklarni hisoblash;
- Eksperimental laboratoriya sinovlari;
- Raqamli modellashtirish (FEM);
- Monitoring tizimlari orqali real vaqt kuzatuvlari.

Natijalar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki:


- Doimiy yuklar ta’sirida beton konstruksiyalarda 0,8% gacha deformatsiya kuzatiladi.
- Uzoq muddatli yuklarda bu ko‘rsatkich 1,2% gacha ortadi, mustahkamlik esa 12% kamayadi.
- Birgalikdagi ta’sir natijasida 1,9% deformatsiya va 18% mustahkamlik yo‘qotilishi qayd etildi.


Quyida beton inshootlarida doimiy va uzoq muddatli yuklar ta’sirida hosil bo‘ladigan deformatsiyalar hisob-kitob natijalari jadvalda keltirilgan:

1-Jadval

№	Yuk turi	Deformatsiya (%)	Mustahkamlik kamayishi (%)
1	Doimiy	0.8	5
2	Uzoq muddatli	1.2	12
3	Birgalikda	1.9	18


Quyidagi grafiklarda turli yuk turlarining deformatsiya va mustahkamlik kamayishiga ta’siri ko‘rsatilgan.





Illyustratsiyalar

Quyidagi rasm va chizmalar tadqiqotda olingan nazariy tushunchalarni ko‘rsatadi.



Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli yuklarning ta’siri doimiy yuklarga nisbatan ko‘proq deformatsiya va mustahkamlik kamayishiga olib keladi. Texnologik loyihalashda mustahkamlik zaxirasini oshirish, innovatsion materiallardan foydalanish va monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Xalqaro tajriba O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilib, inshootlarning uzoq muddatli ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Natijalar xalqaro tajribalar bilan qiyoslanganda, O‘zbekistonda ham xuddi shunday tendensiyalar kuzatilmoqda. Biroq bizda monitoring tizimlarining joriy etilishi sust bormoqda. Shuning uchun loyihalash bosqichida xavfsizlik koeffitsientlarini oshirish, yuqori sifatli sement

va mustahkam po‘lat ishlatish hamda korroziyaga qarshi himoya qatlamlarini kuchaytirish zarur. Masalan, Artel kompaniyasi ishlab chiqarish binolarida ISO 9001 talablari asosida monitoring tizimlarini joriy qilganidan so‘ng, avvalgi yillarga nisbatan nosozliklar soni 15% ga kamaydi.

Tahlil qilingan natijalar asosida quyidagi muhim xulosalar chiqarildi: doimiy yuklar inshootlarga nisbatan nisbatan pastroq ta’sir ko‘rsatadi, ammo uzoq muddatli yuklarning ta’siri vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa beton va po‘lat konstruktsiyalarda yoriqlar, deformatsiyalar va charchash jarayonlari tezlashadi. Shuning uchun texnologik loyihalash jarayonida inshootning butun xizmat muddati davomida ishonchliligini saqlash bo‘yicha maxsus choralar ishlab chiqish lozim.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, inshootlarni loyihalashda quyidagi tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiq: xalqaro standartlarga asoslanish, monitoring tizimlarini joriy etish, innovatsion materiallardan foydalanish va xavfsizlik zaxirasini oshirish.

1. Inshootlarning uzoq muddatli ishonchliligini ta’minlash uchun xalqaro va milliy standartlarni uyg‘unlashtirish zarur.
2. Monitoring tizimlari (strain-gauge sensorlar, IoT texnologiyalar) yordamida real vaqt nazorati joriy etilishi kerak.
3. Innovatsion materiallar (ultra-mustahkam beton, kompozit armatura) qo‘llanilishi ishonchlilikni oshiradi.
4. Texnologik loyihalash bosqichida xavfsizlik zaxirasi kamida 15–20% bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inshootlarning uzoq muddatli ishonchliligini ta’minlash uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

1. Konstruktiv elementlarni optimallashtirish;
2. Zamonaviy yuqori chidamli materiallardan foydalanish;
3. Doimiy monitoring tizimlarini joriy qilish;
4. Loyihalash bosqichida xavfsizlik koeffitsientlarini oshirish.

ADABIYOTLAR

1. ГОСТ 27751-2014. Надежность строительных конструкций и оснований.
2. ISO 2394:2015. General principles on reliability for structures.
3. Eurocode EN 1990: Basis of structural design.
4. Федоров А.Н. Надежность строительных конструкций. Москва: Стройиздат, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish kodeksi, 2020.
6. Xolmatov Sh.X., Qurilish konstruksiyalari va ularning ishonchliligi. Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2021.

ASFALT-BETON TARKIBINING YO'L FREZASINING ISH JARAYONIGA TA'SIRI

Idiyev Akbar Asqar o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti, akbar.idiyev.97@mail.ru

Pirnayev Sharofiddin Asatullayevich
Toshkent davlat transport universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarida qo'llaniladigan asfalt-beton aralashmalari tarkibining yo'l frezalari ish faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Asfalt-beton tarkibi iqlim sharoiti, yo'l yuklamasi va mahalliy qurilish materiallariga qarab farqlanadi. Maqolada aralashmadagi tosh donalarining o'lchami, bitum turlari, zichlik (g'ovaklik) darajasi hamda ularning hududiy xususiyatlari batafsil ko'rib chiqilgan. Asfalt-betonning strukturaviy farqlari frezaning ishlash samaradorligiga, kesish chuqurligi, hujum burchagi, baraban aylanish tezligi va yoqilg'i sarfiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada turli hududlarga xos asfalt-beton zichlik ko'rsatkichlari (g/cm³), bitum turlari, tosh o'lchamlari bo'yicha tavsiyalar jadval ko'rinishida keltirilgan. Xulosa o'rnida, yo'l frezalash ishlarida asfalt-beton tarkibini hisobga olgan holda texnik parametrlarni moslashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние состава асфальтобетонных смесей, используемых в регионах Узбекистана, на работу дорожных фрез. Состав асфальтобетона различается в зависимости от климатических условий, дорожной нагрузки и местных строительных материалов. В статье подробно рассматриваются размер зерен камня в смеси, типы битума, степень плотности (пористости) и их региональные характеристики. Структурные различия асфальтобетона напрямую влияют на эффективность работы фрезы, глубину резания, угол атаки, скорость вращения барабана и расход топлива. В статье в табличной форме представлены рекомендации по показателям плотности асфальтобетона (г/см3), видам битума и размерам камней, характерным для различных регионов. В заключение, обоснована необходимость адаптации технических параметров с учетом состава асфальтобетона при дорожном фрезеровании.

Annotation. This article analyzes the influence of the composition of asphalt-concrete mixtures used in the regions of Uzbekistan on the performance of road milling machines. The composition of asphalt concrete varies depending on climatic conditions, road load, and local building materials. The article examines in detail the size of stone grains in the mixture, types of bitumen, the degree of density (porosity), and their territorial characteristics. Structural differences in asphalt concrete directly affect the efficiency of the milling cutter, cutting depth, angle of attack, drum rotation speed, and fuel consumption. The article presents recommendations on asphalt-concrete density indicators (g/cm3), bitumen types, and stone dimensions specific to different regions in tabular form. In conclusion, the need to adjust the technical parameters of road milling works, taking into account the composition of asphalt concrete, is substantiated.

Kalit so'zlar: asfalt-beton aralashmasi, yo'l frezasi, tarkibiy komponentlar, tosh donalari o'lchami, zichlik darajasi, iqlim sharoiti, hududiy farqlar, kesish chuqurligi, hujum burchagi, baraban aylanish tezligi, harakat tezligi, yoqilg'i sarfi.

Ключевые слова: асфальтобетонная смесь, дорожная фреза, компоненты, размер частиц камня, уровень плотности, климатические условия, региональные различия, глубина резания, угол атаки, скорость вращения барабана, скорость движения, расход топлива.

Key words: asphalt-concrete mixture, road milling cutter, structural components, stone

particle size, density level, climatic conditions, territorial differences, cutting depth, angle of attack, drum rotation speed, movement speed, fuel consumption.

O‘zbekiston hududlarida asfalt-beton aralashmalari tarkibi iqlim sharoiti, yo‘l yuklamasi va mahalliy materiallarga qarab farqlanadi. Quyida asfalt-beton tarkibining asosiy komponentlari va ularning hududiy xususiyatlari keltirilgan.

1. **Asfalt-beton tarkibidagi tosh o‘lchamlari.**

Asfalt-beton aralashmalari donalarning o‘lchamiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

- **Yirik donali:** 5–40 mm o‘lchamdagi shag‘al yoki chaqiq toshlar. Bu turdagi aralashmalar yuqori yuklama tushadigan yo‘llar uchun mo‘ljallangan.
- **Mayda donali:** 5–20 mm o‘lchamdagi qumlar. Asosan shahar ichki yo‘llari va piyodalar yo‘laklarida qo‘llaniladi.
- **Qumli aralashmalar:** 1,25–5 mm o‘lchamdagi zarrachalar. Bu aralashmalar past yuklama tushadigan yo‘llar va yo‘laklar uchun ishlatiladi.

Yirik donali aralashmalar ko‘proq yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lib, agistral yo‘llar va sanoat zonalarida qo‘llaniladi. Mayda donali va qumli aralashmalar esa shahar ichki yo‘llari va piyodalar yo‘laklarida keng qo‘llaniladi.

2. **Bitum turlari va hududiy qo‘llanilishi.**

Bitum asfalt-betonning bog‘lovchi komponenti bo‘lib, uning turi iqlim sharoitiga qarab tanlanadi:

- **BND 40/60:** Yozgi harorati 30 °C dan yuqori bo‘lgan iliq mintaqalarda qo‘llaniladi.
- **BND 60/90:** Asosan issiq iqlimi bo‘lgan mintaqalarda ishlatiladi.
- **BND 90/130:** Eng universal nav bo‘lib, deyarli barcha hududlarda qo‘llanilishi mumkin. Ish harorati -20 dan +5 °C gacha.riseoilterminal.
- **BND 130/200:** Mo‘tadil va sovuq iqlimi bo‘lgan hududlarda qo‘llaniladi.
- **BND 200/130:** Asosan kuzda, qishda va bahorda past haroratga ega, qattiq sovuq bo‘lgan joylarda qo‘llaniladi (o‘rtacha oylik harorat -20 °C gacha).

Masalan, Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida yozgi haroratlar yuqori bo‘lgani uchun BND 40/60 yoki BND 60/90 bitumlari ishlatiladi. Tog‘li hududlar, masalan, Farg‘ona vodiysi yoki Toshkent viloyatida esa BND 90/130 yoki BND 130/200 bitumlari afzal ko‘riladi,

3. **Asfalt-beton zichligi (g‘ovaklik darajasi).**

Asfalt-betonning zichligi uning g‘ovaklik darajasiga bog‘liq bo‘lib, quyidagicha tasniflanadi:

- **Juda zich:** G‘ovaklik 1–2,5%. Bu turdagi aralashmalar yuqori yuklama tushadigan yo‘llar uchun mo‘ljallangan.
- **Zich:** G‘ovaklik 2,5–5%. Asosan shahar yo‘llarida qo‘llaniladi.
- **G‘ovak:** G‘ovaklik 5–10%. Past yuklama tushadigan yo‘llar va yo‘laklar uchun ishlatiladi.
- **Juda g‘ovak:** G‘ovaklik 10–18%. Asosan drenaj tizimlari va suv o‘tkazuvchanlik talab qilinadigan joylarda qo‘llaniladi.

Zich asfalt-beton aralashmalari yuqori yuklama tushadigan yo‘llar uchun, g‘ovak aralashmalar esa past yuklama tushadigan yo‘llar va yo‘laklar uchun mo‘ljallangan.

Hududlar kesimida tavsiya etiladigan tarkiblar.

1-jadval

Hudud	Tavsiya etiladigan tosh o‘lchamlari	Bitum turi	Zichlik darajasi
Qoraqalpog‘iston	5–40 mm	BND 40/60	Juda zich (1–2,5%)
Navoiy viloyati	5–40 mm	BND 60/90	Zich (2,5–5%)

Toshkent viloyati	5–20 mm	BND 90/130	Zich (2,5–5%)
Farg‘ona vodiysi	5–20 mm	BND 130/200	G‘ovak (5–10%)
Andijon viloyati	1,25–5 mm	BND 130/200	Juda g‘ovak (10–18%)

Ushbu tavsiyalar hududlarning iqlim sharoiti, yo‘l yuklamasi va mavjud materiallarga asoslangan.

Quyida O‘zbekistonning turli hududlari uchun asfalt-beton qoplamalarning o‘rtacha zichlik darajalari (g‘ovaklikka qarab hisoblangan zichlik) raqamli ko‘rinishda (g/cm³) keltirilgan. Bu qiymatlar laboratoriya sinovlari va normativ hujjatlarga asoslangan taxminiy sanoat diapazonlaridir.

2-jadval

Hududlar bo‘yicha asfalt-beton zichligi.

№	Hudud	Zichlik (g/cm³)	Izoh
1	Qoraqalpog‘iston	2.35 – 2.40	Yilning aksariyat qismida issiq va quruq, zich va yirik toshli asfalt
2	Navoiy viloyati	2.30 – 2.38	Qattiq iqlim, zich struktura, o‘rta donali aralashmalar
3	Buxoro viloyati	2.28 – 2.36	Quyi yuklamali yo‘llar, zichlik o‘rtacha
4	Toshkent viloyati	2.32 – 2.42	Shahar infratuzilmasi, zich va yaxshi siqilgan asfalt
5	Farg‘ona vodiysi	2.25 – 2.35	Ko‘p qavatli qatlamlar, o‘rtacha zichlik
6	Andijon viloyati	2.20 – 2.30	Yog‘ingarchilik ko‘p, drenajli, g‘ovak aralashmalar
7	Samarqand	2.30 – 2.38	Ko‘p asfalt ishlatiladigan viloyat, zich aralashmalar
8	Surxondaryo	2.28 – 2.35	Yengil yuklamali asfalt yo‘llar
9	Jizzax	2.26 – 2.34	O‘rta zichlikdagi qoplamalar
10	Namangan	2.24 – 2.32	Mayda toshli, o‘rtacha zichlikdagi qatlamlar

Izoh:

•Zich asfalt-beton zichligi: ~2.30–2.40 g/cm³

•G‘ovak asfalt-beton zichligi: ~2.20–2.30 g/cm³

•Zichlik, toshlarning o‘lchami, bitum miqdori, va siqish darajasiga bog‘liq bo’ladi

•Normativ hujjatlar (O‘z DSt 1057, O‘z RQ-32, SNIP 2.05.02) zichlik bo‘yicha talablarni belgilaydi.

Asfalt-beton tarkibiga qarab yo‘l frezasi (frezer) parametrlarini sozlash nihoyatda muhim, chunki noto‘g‘ri sozlangan freza quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

Asfalt-beton har xil tarkibda bo‘ladi:

• Bitum miqdori (kam yoki ko‘p)

• Mineral to‘ldiruvchilar (shag‘al, qum, chang)

• Qattiqlik darajasi (sovuqda qattiqroq, issiqda yumshoqroq)

• Namlik miqdori

• Yoshlik (yangi yoki eskirgan qatlam)

Ushbu omillar frezaning kesish samaradorligi, tezligi, va yoqilg‘i sarfini bevosita ta’sir qiladi.

3-jadval

Noto‘g‘ri sozlashning salbiy ta’siri

Freza parametri	Noto‘g‘ri sozlash oqibati

Kesish chuqurligi katta	Baraban tiqilib qoladi, motor zo‘riqadi, yoqilg‘i sarfi ortadi
Hujum burchagi noto‘g‘ri	Keskich tez yeyiladi, material notekis olinadi
Baraban aylanish tezligi noto‘g‘ri	Tishlar sinishi, sirt sifatsiz frezalash
Harakat tezligi baland	Sifat pasayadi, asfalt qatlami qirqilmay, yirtiladi
Sovutish yo‘qligi	Keskichlar qizib sinadi, freza muddatidan oldin ishdan chiqadi


Shuning uchun aspalt-beton tarkibini o’rganish orqali yo’l freza parametrlarini quyidagicha sozlash tavsiya etiladi:

1. **Qattiq asfalt (ko‘p shag‘alli, kam bitumli)**:
   - Hujum burchagi kichikroq (agressiv kesish)
   - Kesish chuqurligi kichikroq
   - Past harakat tezligi
2. **Yumshoq asfalt (yangi yoki ko‘p bitumli)**:
   - Hujum burchagi biroz katta
   - Baraban aylanish tezligi yuqori
   - Yaxshi sovutish kerak (suv yoki havo)

4-jadval

Asfalt turi	Kesish chuqurligi (mm)	Hujum burchagi (^{0})	Baraban aylanish tezligi (rpm)	Harakat tezligi (m/min)
Qattiq (kam bitum)	20	45	100	4
Yumshoq (ko’p bitum)	40	60	160	6

Asfalt-beton tarkibiga qarab yo‘l frezasi parametrlari jadvali tayyorlandi. Jadvalda ikki xil asfalt turi uchun kerakli sozlamalar keltirilgan.



1-rasm.

Bitum miqdori oshgani sari–kesish chuqurligi kamayadi. Bu, asfalt yumshoqroq bo‘lgani uchun freza chuqurroq kirmasligi kerakligini anglatadi.

Tosh o‘lchami oshgani sari–hujum burchagi kamayadi. Bu, katta toshli aralashmaga nisbatan tishlar kamroq agressiv burchakda kirib borishi kerakligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Askarxodjayev, T., Pirnaev, S., Dzhumabaeva, F., Yangiboev, G., Idiev, A; Development of Wear-Resistant Material for Strengthening. ***AIP Conference***

Proceedings, 2022, 2432 (1): 030098. https://doi.org/10.1063/5.0091543.

2. Pirnaev, S., Sindarov, R., Dzhumabeva, F., Saidova, S; Technique for experimental studies of asphalt concrete milling process. ***E3S Web of Conferences***, 2021, 264 (1): 02016. ttps://doi.org/10.1051/e3sconf/202126402016.

3. Askarkhodzhaev, T. I., Pirnaev, S. A., Mirnigmatov, B. T. M., & Abdukarimova, S. M. Q. (2020). Research of the processes of wearing the working bodies of road mills. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(7), 8052-8062.

4. Pirnaev Sh.A., Askarkhodzhayev TI, Dzhumabeva FI, Saidova Sh.S; _ Technique for experimental studies of asphalt concrete milling process // E 3S Web of Conferences, // https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126402016 CONMECHYDRO – 2021 No. 264. 2021 January–February R. 02016 - 02026 . (05.00.00; No 11 Scopus Q=4 .0).

UDK: 666.973.2

MODIFIKATSIYALANGAN OLTINGUGURT-BETON TARKIBLARINING GIDROFOB XOSSALARINI TADQIQ ETISH

Nurkulov Fayzulla
Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot institute, Professor, fnurkulov82@gmail.com

Ziyamuxamedova Umida
Toshkent davlat transport universiteti, Professor, z.umida1973@yandex.ru

Nafasov Jasurbek
Toshkent davlat transport universiteti, Dotsent, nafasovz@mail.ru

Turg‘unaliyev Elbek
Toshkent davlat transport universiteti, Dotsent, mrelbek@mail.ru

Ziyamuxamedov Javohirbek
Toshkent davlat transport universiteti, Dotsent, Javohir1995@mail.ru

Rustamov Mirshohid
Qarshi Xalqaro universiteti, Assistent, mirshohidrustamov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oltingugurt-betonlarning gidrofoblik xususiyatlari, mexanik barqarorligi va modifikatsiya imkoniyatlari tadqiq etilgan. Moddiy tarkibida oltingugurt (48–52%), sheben, qum, zolounnos va saja bo‘lgan tarkiblar asosida tayyorlangan betonlar suv o‘tkazmaslik va kislota muhitlariga chidamliligi bilan ajralib turadi. Eng yaxshi tarkibda suv o‘tkazuvchanlik 10^{-13} m/s dan past, kontakt burchagi 108° bo‘lib, I darajali gidrofob beton sinfiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Аннотация. В данной статье исследованы гидрофобные свойства, механическая стабильность и возможности модификации серобетонов. Бетоны, изготовленные на основе составов, содержащих серу (48-52%), щебень, песок, золу-унос и сажу, отличаются водонепроницаемостью и стойкостью к кислотным средам. Установлено, что в наилучшем составе водопроницаемость ниже 10^{-13} м/с, угол смачивания составляет 108°, что соответствует гидрофобному бетону I класса.

Abstract. This article examines the hydrophobic properties, mechanical stability, and modification possibilities of sulfur concrete. Concretes prepared based on compositions containing sulfur (48-52%), crushed stone, sand, fly ash, and soot are distinguished by their water impermeability and resistance to acidic environments. In the best composition, the water permeability was found to be less than 10^{-13} m/s, with a contact angle of 108°, which corresponds to the class I hydrophobic concrete.

Kalit so‘zlar: oltingugurt-beton, gidrofoblik, zolounnos, saja, sementsiz beton, modifikatsiya, suv o‘tkazmaslik, ekologik barqarorlik, sanoat chiqindilari, qurilish materiallari, GOST 12730.

Ключевые слова: серобетон, гидрофобность, золоунос, сажа, бесцементный бетон, модификация, водонепроницаемость, экологическая устойчивость, промышленные отходы, строительные материалы, ГОСТ 12730.

Keywords: sulfur concrete, hydrophobicity, fly ash, soot, cement-free concrete,

modification, water impermeability, environmental sustainability, industrial waste, building materials, GOST 12730.

Kirish.

Oltingugurt-neft va gazni qayta ishlash jarayonlarida hosil bo‘ladigan yirik tonnajli sanoat chiqindisi bo‘lib, uni samarali utilizatsiya qilish masalasi jahon miqyosida dolzarbdir. AQSH Geologiya xizmati (USGS) ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda dunyo bo‘yicha oltingugurt ishlab chiqarish hajmi 80 million tonnadan oshgan**,** undan 17 mln tonnasi Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSH, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Kanada va Qozog‘iston ham yirik ishlab chiqaruvchilar qatoriga kiradi [1].

Oltingugurtning yuqori faolligi va ko‘plab allotrop formalari (α, β, plastik, siklo-S_8, poli-S_n zanjirlar) uni sement o‘rnida bog‘lovchi modda sifatida ishlatish imkonini yaratadi [2]. Oltingugurtli beton (Sulfur-Based Concrete) ushbu jihatlardan kelib chiqib, ekologik toza, tez qotadigan va kimyoviy ta’sirlarga chidamli material sifatida yaratish imkonini beradi .

Oltingugurtli betonning ustunliklari: Ekspress mustahkamlik-3 soatda yuqori mustahkamlikka yetadi; Kislota va nam muhitlarga chidamli-kimyoviy zavodlar va suv infratuzilmalari uchun ideal; O‘tga chidamli va dielektrik material-yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obyektlar uchun; Sovuqda ishlatish imkoni-termik aktivlashishsiz quruq muhitda qotishi mumkin; Qayta ishlanadi-eritish va qayta shakllantirish mumkin; Sementsiz va ekologik toza-SO_2 chiqindilarini kamaytiradi [3-4].

1-jadval

Asosiy ilmiy natijalar va xususiyatlar

Xususiyat	Portlandsementli beton	Oltingugurtli beton
Mustahkamlik vaqti	28 kun	3 soat
Siqilish mustahkamligi	15–25 MPa	55–65 MPa
Chuzilishdagi mustahkamlik	3–4 MPa	5–7 MPa
Egiluvchanlik	6–9 MPa	10–15 MPa
Sovuqqa chidamlilik	50 sikl	300 sikl
Kislotalarga chidamlilik	23%	84%
Suv o‘tkazmaslik	0.8%	1.0%

Oltingugurt beton material sifatida sementning muhim va barqaror alternativasi bo‘lib, jahon miqyosida uni utilizatsiya qilish bilan bog‘liq muammolarni yechishga yordam beradi. Uning texnik, mexanik va kimyoviy afzalliklari uni nafaqat an’anaviy qurilishda, balki maxsus, yuqori talablarga ega obyektlarda ham qo‘llash imkonini beradi.

Oltingugurtli betonlar asosida turli mahsulotlar ishlab chiqarishda ularni modifikatsiyalash katta ahamiyatga ega bo‘lib dunyo bo‘ylab sanoat chiqindilaridan keng foydalanilishi atrof muhitga va iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi [5].

Respublikamizda har yili 10,2 million tonna chiqindi hosil bo‘ladi, buning 10,3 foizi plastmassa ulushiga to‘g‘ri keladi. 2022-yilda plastik chiqindilar hajmi 2013-yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘p bo‘lgan. Ekologiya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan inventarizatsiya natijalariga ko‘ra, plastmassaning eng yirik iste’molchilari qadoqlash sektori, transport sanoati va qurilish sektorlaridir. Qadoqlash sektori plastmassaning eng yirik iste’molchisi bo‘lib qolmoqda, 2022-yilda bozorga kiradigan barcha plastmassaning 22,1 foizini tashkil etadi. Ikkinchi o‘rinda transport sektori 24,9 foiz ulush bilan, ikkinchi o‘rinda qurilish sektori 22,2 foiz. Bu uchta sanoat birgalikda mamlakatdagi barcha plastmassaning 69% dan ortig‘ini iste’mol qiladi. Ushbu chiqindilarni qayta ishlash dolzarb masalalardan hisoblanadi [6].

Oltingugurtli betonlar (Sulfur-Based Concretes, SBC)-bu sementsiz, termoplastik xususiyatga ega va qayta ishlash imkoniyati bo‘lgan qurilish materiallari bo‘lib, ular sanoat

chiqindilarini qayta joriy etishning samarali yo‘li hisoblanadi. Ularni modifikatsiyalash uchun dunyo bo‘yicha turli xil yirik tonnajli chiqindilardan keng foydalanilmoqda. Bu chiqindilar faqat toldiruvchi emas, balki reologik, mexanik, kimyoviy va fizik xossalarni yaxshilaydigan aktiv komponentlar sifatida xizmat qiladi.

2-jadval

Oltingugurtli betonlarni modifikatsiya qo‘llaniladigan asosiy sanoat chiqindilari

Chiqindi turi	Manba	Modifikatsiyadagi roli
zolounnos	Ko‘mir-yoqilg‘i stansiyalari	Mikroto‘ldiruvchi, mustahkamlikni oshiradi
Granulilangan domna shlagi (GGBFS)	Metallurgiya sanoati	reaksiya natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlarni zichlikni oshiradi
Metallurgik shlaklar	Nikel, xrom, ferrosplav zavodlari	Mexanik mustaxkamlik va termik barqarorlik
Fosfogips	Fosfat o‘g‘it sanoati	aktiv fazali to‘ldiruvchi, kislotaga chidamlilikni oshiradi
Rezina zarralari (shinalardan)	Avtosanoat	Deformatsiyaga chidamlilik
Plastik/bitum aralashmalari	Polimer qayta ishlash	Gidrofoblikni va haroratga chidamlilikni oshiradi
Kremniy asosidagi aralashmalar	Kremniy metall ishlab chiqarish	suv o‘tkazmaslik va kislotali muhitga barqarorlik
Ditsklopentadiyen (DCPD)	Nefteximiya	Oltingugurtni termobarqaror va amorf holatda ushlab turadi

Dunyo bo‘ylab oltingugurtli betonlarni modifikatsiya qilishda turli sanoat chiqindilaridan (kumir kuli, shlaklar, fosfogips, rezina, bitum, DCPD) foydalanish nafaqat mexanik va kimyoviy xossalarni yaxshilaydi, balki sanoat ekotizimlarining chiqindisiz ishlashini ham ta’minlaydi. Shu boisdan, modifikatsiya qilingan oltingugurt betonlar-ustuvor, samarali va ekologik qurilish materiallari sifatida keng qo‘llanish imkoniyatiga ega [7-8].

Tadqiqot obyektlari va usullari. Oltingugurt asosidagi modifikatsiyalangan beton tarkiblari (oltingugurt 30-50%, щеben, qum, zolounnos va saja). Suv o‘tkazmaslik, ekologik barqarorlik va sanoat chiqindilarini qayta ishlash orqali gidrofob betonlar olish. Tadqiqot usullari: Gidrofoblikni aniqlash (GOST 12730.1-78), namunalar suvga botiriladi (24 soat), og‘irlik farqi orqali suv singishi (%) hisoblanadi. Gidrofob beton: W≤2.0%, suv o‘tkazuvchanlikni baholash (GOST 12730.5-84), vakuumda 3 soat saqlanadi, o‘tgan suv hajmi orqali K (m/s) hisoblanadi. Yuqori gidrofob beton: K≤ $\times 10^{-12}$ m/s. Kontakt burchagi (gidrofoblik burchagi), yuzadagi suv tomchisining burchagi fotoanaliz orqali aniqlanadi ≥100° yuqori gidrofoblik.

Natijalar tahlili. Oltingugurt asosidagi yuqori gidrofob modifikatsiyalangan beton tarkiblarini yaratish, ularning reaksiya mexanizmi va qo‘llash sohalari o‘rganilgan bo‘lib ishning maqsadi oltingugurt asosidagi (48-52%) beton tarkibini zolounnos va carbon black (saja) bilan modifikatsiyalash orqali suv o‘tkazmaslik, ekologik barqarorlik va katta miqdordagi sanoat chiqindilarini qayta ishlash imkoniyatlarini tadqiq etishdan iborat. Zolounnos asosan kremniy (SiO_2), alyuminiy (Al_2O_3), temir (Fe_2O_3) va kalsiy (CaO) oksidlaridan tashkil topgan bo‘lib, bu moddalar sementga o‘xshash reaksion qobiliyatga ega.

Oltingugurt asosidagi yuqori gidrofob modifikatsiyalangan beton tarkiblarini olish jarayoni va reaksiya mexanizmi asosan eritilgan oltingugurtning (T>120°C) agregatlar va

modifikatorlar bilan mexanik aralashmasiga asoslanadi. Reaksiyaning asosiy bosqichlari oltingugurt eritilishi (T ≈ 130-140°C) va plastik holatga o‘tishi bilan jarayon boshlanadi. Ya’ni polimerlanish vaqtida S-S zanjirlari hosil bo‘lib, plastik olingugurt hosil bo‘ladi. Shundan kiyin modifikatorlar bilan mexanik aralashtirish jarayoni amalga oshirilib asosan щeben, qum, zolounnos va saja bir maromda aralashtiriladi. zolounnos mikroporalarni to‘ldirib, suv o‘tkazuvchanlikni kamaytiradi. Saja sirtda gidrofob qavat hosil qilib, suvni singdirmaslik xususiyatini kuchaytiradi.

Tayyor bo‘lgan oltingugurt asosidagi yuqori gidrofob modifikatsiyalangan beton tarkiblarini qattiqlashish va stabilizatsiyasi sekin astalik bilan amalga oshiriladi. Ushbu holatda suyuq faza sovitilib, kattik, jips va gidrofob material hosil bo‘ladi. Oltingugurt asosidagi modifikatsiyalangan betonlarini qattiqlashishda faza uzilishlari bo‘lmaydi va material gomogen tuzilmaga ega bo‘ladi.

Oltingugurt asosidagi betonlar uchun modifikatorlar sifatida saja va zolounnos qo‘shimchalarni ta’siri katta bo‘lib strukturadagi yuzasidagi barcha suv bilan ta’sirlashishi yuqori bo‘lgan faol markazlarni yopishi tufayli oltingugurt beton Gost 12730.1–78 bo‘yicha I darajali gidrofob beton talablariga javob berishi (W < 0.5%) tadqiqotlar davomida aniqlandi.

3-jadval

Oltingugurt-beton tarkibiy nisbatlari va uning gidrofob xossasiga ta’siri

Variant	Oltingugurt (%)	Sheben (%)	Qum (%)	zolounnos (%)	Saja (%)
A	50	30	15	3	2
B	45	35	15	3	2
C	40	40	15	3	2
D	35	40	20	3	2
E	30	45	20	3	2

Oltingugurt-beton tarkibidagi asosiy komponentlar nisbatining gidrofoblikka ta’siri bo‘yicha ilmiy tahlilar 3-jadvalda keltirilgan bo‘lib tarkiblarni o‘zgarishi bilan betonning suv o‘tkazmasligi va gidrofoblik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkoniyati o‘rganilgan.

Oltingugurtning yuqori miqdori (45–50%) bo‘lganda polimerlangan mikrostruktura hosil qilib suv singishni cheklaydi. Oltingugurt miqdori 50% bo‘lgan variantda suv o‘tkazuvchanlik 10^{-13} m/s dan past, kontakt burchagi 100°dan yuqori gidrofob sirt shakllanadi. Oltingugurt beton tarkibida щeben va qum miqdorini oshib borishi betonning suv o‘tkazuvchanligini oshiradi va yuzada kapillyar kanallar soni ko‘payib, suv kirishi osonlashadi. zolounnos va saja (3–2%) doimiy saqlansa mikroporalarni to‘ldirib, suv singishni pasaytiradi hatto 30% oltingugurt bo‘lganda ham saja/kul gidrofoblikni qisman saqlab qoladi.

4-jadval

Oltingugurt-beton tarkibiy nisbatlarini gidrofob xossasi bo‘yicha sinov natijalari (GOST 12730.1 va 12730.5 asosida)

Variant	Suv singish (%)	Suv o‘tkazuvchanlik (m/s)	Kontakt burchagi (°)	Gidrofoblik
A	0.35	8×10^{-14}	108°	Yuqori gidrofob
B	0.55	1.2×10^{-13}	102°	Yuqori
C	0.85	2.0×10^{-13}	95°	O‘rtacha
D	1.3	5.5×10^{-13}	87°	Kam gidrofob
E	2.1	1.0×10^{-12}	80°	Suv o‘tkazuvchi

Oltingugurt asosida tayyorlangan beton tarkibi eng yuqori darajadagi gidrofob betonlar sinfiga kiradi. Bu tarkib suvni minimal darajada singdiradi va kapillyar ta’sirdan himoya qiladi. Saja va zolounnos qo‘shimchalari kapillyar kanallarni to‘ldirib, betonning mikrostrukturasini

yaxshilaydi.

Xulosa. Oltingugurtning 45–50% miqdoridagi bo‘lishi betonda barqaror polimer struktuasini choklanishiga olib keladi. Modifikator sifatida zolounnos va sajaning 3–2% qo‘llanilishi suv singishni keskin pasaytiradi, beton gidrofoblik xossasini 90°dan yuqori kontakt burchagi bilan ta’minlaydi. Shu tarkib, sementsiz, ekologik toza va yuqori barqaror qurilish materiallarini ishlab chiqishda dolzarb va samarali yechim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Fediuk, R., Mugahed Amran, Y. H., Mosaberpanah, M. A., Danish, A., El-Zeadani, M., Klyuev, S. V., & Vatin, N. (2020). A critical review on the properties and applications of sulfur-based concrete. *Materials*, *13*(21), 4712.

2. Fediuk, R. S., Yevdokimova, Y. G., Smoliakov, A. K., Stoyushko, N. Y., & Lesovik, V. S. (2017, July). Use of geonics scientific positions for designing of building composites for protective (fortification) structures. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 221, No. 1, p. 012011). IOP Publishing.

3. Vlahovic, M. M., Martinovic, S. P., Boljanac, T. D., Jovanic, P. B., & Volkov-Husovic, T. D. (2011). Durability of sulfur concrete in various aggressive environments. *Construction and building materials*, *25*(10), 3926-3934.

4. Dehestani, M., Teimortashlu, E., Molaei, M., Ghomian, M., Firoozi, S., & Aghili, S. (2017). Experimental data on compressive strength and durability of sulfur concrete modified by styrene and bitumen. *Data in brief*, *13*, 137-144.

5. Al-Otaibi, S., Al-Aibani, A., Al-Bahar, S., Abdulsalam, M., & Al-Fadala, S. (2019). Potential for producing concrete blocks using sulphur polymeric concrete in Kuwait. *Journal of King Saud University-Engineering Sciences*, *31*(4), 327-331.

6. Hasan, M. M., Haque, R., Jahirul, M. I., & Rasul, M. G. (2025). Pyrolysis of plastic waste for sustainable energy Recovery: Technological advancements and environmental impacts. *Energy Conversion and Management*, *326*, 119511.

7. Yang, C., Lv, X., Tian, X., Wang, Y., & Komarneni, S. (2014). An investigation on the use of electrolytic manganese residue as filler in sulfur concrete. *Construction and building materials*, *73*, 305-310.

8. El Gamal, M. M., El-Dieb, A. S., Mohamed, A. M. O., & El Sawy, K. M. (2017). Performance of modified sulfur concrete exposed to actual sewerage environment with variable temperature, humidity and gases. *Journal of Building Engineering*, *11*, 1-8.

UDK 666.973.2 : 666.972.16 : 536.7

MODIFIKATSIYALANGAN OLTINGUGURT-BETON TARKIBLARINING HARORAT TA'SIRIDA TERMIK BARQARORLIGINI TADQIQ ETISH

Ziyamuxamedova Umida
Toshkent davlat transport universiteti, Professor, z.umida1973@yandex.ru

Nafasov Jasurbek
Toshkent davlat transport universiteti, Dotsent, nafasovz@mail.ru

Turg'unaliyev Elbek
Toshkent davlat transport universiteti, Dotsent, mrelbek@mail.ru

Ahmedova Dilafruz
Toshkent davlat transport universiteti, Assistent, d.akhmedova@mail.ru

Abduraximov Shoxjaxon
Toshkent davlat transport universiteti, Doktorant, shohjahon.abduraximov@mail.ru

Ne'matov Bexruzbek
Uzbekistan GTL, muhandisi, bexruz.nematov.1996@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oltingugurt asosidagi betonlarni modifikatsiyalash, ularning tarkibiy-komponent muvozanatiga harorat ta'sirini o'rganish hamda suv o'tkazmaslik va kislotaga chidamlilik xossalarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Oltingugurt, zolounnos va saja asosida tayyorlangan beshta beton tarkibi uchun TGA tahlillari olib borildi va qoldiq massa bo'yicha termobarqarorlik baholandi. Ularning fazaviy barqarorligi, kimyoviy passivligi va qayta ishlanish imkoniyatlari betonning temir yo'l infratuzilmasida qo'llanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekani ilmiy asosda yoritildi.

Abstract. This article focuses on the modification of sulfur-based concretes, studying the effect of temperature on their structural-component balance, and analyzing their waterproofing and acid resistance properties. TGA analyses were conducted for five concrete compositions based on sulfur, fly ash, and carbon black, and thermal stability was evaluated by residual mass. It was scientifically demonstrated that their phase stability, chemical passivity, and recyclability are among the key factors enabling the use of concrete in railway infrastructure.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется модификации бетонов на основе серы, изучению влияния температуры на их структурно-компонентный баланс, а также анализу водонепроницаемости и кислотостойкости. Для пяти составов бетона на основе серы, золы-уноса и сажи были проведены термогравиметрические анализы (ТГА) и оценена термостабильность по остаточной массе. Научно обосновано, что их фазовая стабильность, химическая инертность и возможности переработки являются одними из основных факторов, обеспечивающих применение бетона в железнодорожной инфраструктуре.

Kalit so'zlar: oltingugurt-beton, zolounnos, modifikatsiya, termik tahlil (TGA), qoldiq massa, kislotaga chidamlilik, ekologik barqarorlik, qayta ishlanish, gidrofoblik, temir yo'l shpallari.

Ключевые слова: серобетон, золоунос, модификация, термический анализ (ТГА),

остаточная масса, кислотостойкость, экологическая устойчивость, переработка, гидрофобность, железнодорожные шпалы.

Keywords: sulfur concrete, fly ash, modification, thermal gravimetric analysis (TGA), residual mass, acid resistance, environmental stability, recyclability, hydrophobicity, railway sleepers.

Kirish.

Bugungi kunda global qurilish sanoatida beton materiallarga bo‘lgan ehtiyoj izchil ortib bormoqda. Ayniqsa, temir yo‘l infratuzilmalarida uzoq xizmat muddatiga, ekologik barqarorlikka va qayta ishlash imkoniyatiga ega materiallar talabi tobora oshmoqda. An’anaviy Portlandsement asosidagi betonlar yuqori energiya sarfi, SO_2 chiqindilarining katta miqdori va gidrofillik xossalari sababli, ekologik va iqtisodiy nuqtai nazardan kamchiliklarga ega [1].

Shu nuqtai nazardan, oltingugurt asosidagi betonlarning o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi. Bu materiallar neft-gaz sanoatidagi oltingugurt chiqindilarini samarali qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu betonlar tez qotish, yuqori mexanik mustahkamlik, gidrofoblik, kislotali va agressiv muhitlarga chidamlilik, shuningdek, 100% qayta ishlanish kabi muhim afzalliklarga ega [2].

Tahlil qilingan maqolalarda (jumladan, [3], va De Bonte Group'ning THIOTRACK® loyihalari) ko‘rsatilganidek, oltingugurt-betondan tayyorlangan temir yo‘l shpallari YEvropa standartlariga to‘liq javob beradi, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Ularning uzoq muddatli ishonchliligi va qayta ishlash imkoniyati temir yo‘l sohasida muvaffaqiyatli tatbiq etishni ta’minlaydi.

Oltingugurt-neft va gazni qayta ishlash jarayonlarida hosil bo‘ladigan yirik tonnajli sanoat chiqindisi bo‘lib, uni samarali utilizatsiya qilish masalasi jahon miqyosida dolzarbdir. AQSh Geologiya xizmati (USGS) ma’lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda dunyo bo‘yicha oltingugurt ishlab chiqarish hajmi 80 million tonnadan oshgan**,** undan 17 mln tonnasi Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSh, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Kanada va Qozog‘iston ham yirik ishlab chiqaruvchilar qatoriga kiradi [4].

Oltingugurtning yuqori faolligi va ko‘plab allotrop formalari (α, β, plastik, siklo-S_8, poli-S_n zanjirlar) uni sement o‘rnida bog‘lovchi modda sifatida ishlatish imkonini yaratadi [5]. Oltingugurtli beton (Sulfur-Based Concrete) ushbu jihatlardan kelib chiqib, ekologik toza, tez qotadigan va kimyoviy ta’sirlarga chidamli material sifatida yaratish imkonini beradi. Oltingugurtli betonlar asosida turli mahsulotlar ishlab chiqarishda ularni modifikatsiyalash katta ahamiyatga ega bo‘lib dunyo bo‘ylab sanoat chiqindilaridan keng foydalanilishi atrof muhitga va iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi [5-6].

Tadqiqot ob’yektlari va usullari.

Ushbu tadqiqotning asosiy ob’yekti sifatida modifikatsiyalangan oltingugurt-beton tarkiblari tanlandi. Kompozit materiallar tarkibida oltingugurt (S_8), щуеben, qum, zolounnos va saja (carbon black) turli nisbatlarda qo‘llanildi. Tarkibiy modifikatsiya maqsadida zolounnos (SiO_2, Al_2O_3, Fe_2O_3, CaO) va saja qo‘shilishi orqali betonning gidrofobligi, kislotaga va haroratga chidamliligi oshirilishi o‘rganildi.

Sinovlar quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi: Termogravimetrik tahlil (TGA): harorat (100–600°C) ta’sirida qoldiq massa o‘zgarishi baholandi; Qattiqlashuv dinamikasi: sovitish orqali amorfdan jips fazaga o‘tish jarayoni kuzatildi; Tarkibiy tahlil: beton tarkibining haroratga bog‘liq mustahkamligi va ximiyaviy barqarorligi tahlil qilindi.

Natijalar tahlili.

Oltingugurt asosidagi modifikatsiyalangan beton tarkiblarini yaratish, ularning reaksiya mexanizmi va qo‘llash sohalari o‘rganilgan bo‘lib ishning maqsadi oltingugurt asosidagi (48–

52%) beton tarkibini zolounnos va uglerod (saja) bilan modifikatsiyalash orqali suv o‘tkazmaslik, ekologik barqarorlik va katta miqdordagi sanoat chiqindilarini qayta ishlash imkoniyatlarini tadqiq etishdan iborat. Zolounnos asosan kremniy (SiO_2), alyuminiy (Al_2O_3), temir (Fe_2O_3) va kalsiy (CaO) oksidlaridan tashkil topgan bo‘lib, bu moddalar sementga o‘xshash reaksion qobiliyatga ega.


Tayyor bo‘lgan oltingugurt asosidagi modifikatsiyalangan beton tarkiblarini qattiqlashish va stabilizatsiyasi sekin astalik bilan amalga oshiriladi. Ushbu holatda suyuq faza sovitilib, kattik, jips va gidrofob material hosil bo‘ladi. Oltingugurt asosidagi modifikatsiyalangan betonlarini qattiqlashishda faza uzilishlari bo‘lmaydi va material gomogen tuzilmaga ega bo‘ladi.

1-jadval

Oltingugurt-betonni tarkibiy nisbatlari

Variant	Oltingugurt (%)	Sheben (%)	Qum (%)	zolounnos (%)	Saja (%)
A	50	30	15	3	2
B	45	35	15	3	2
C	40	40	15	3	2
D	35	40	20	3	2
E	30	45	20	3	2

Oltingugurt-beton tarkibidagi asosiy komponentlar nisbatining haroratga ta’siri bo‘yicha ilmiy tahlilar keltirilgan bo‘lib tarkiblarni o‘zgarishi bilan betonning massa yo‘qotishini baholash imkoniyati o‘rganilgan.



1-rasm. Turli oltingugurt-beton namunalarning haroratga nisbatan qoldiq massasining o‘zgarishi (TGA).

Variant A: tarkibidagi oltingugurt miqdori 50% bo‘lib, yuqori haroratda (500–600°C) termik barqarorlik yaxshi saqlanadi. Qoldiq massa 80% dan yuqori, bu esa polimerlashgan oltingugurt strukturasining barqarorligini ko‘rsatadi. Variant B (45% oltingugurt) termik ta’sirda ozroq massa yo‘qotadi. Qoldiq massa 600°C da 82% atrofida saqlanib, betonning chidamli tuzilmasini ko‘rsatadi. Variant C da oltingugurt kamroq (40%), shuning uchun harorat oshishi bilan massa yo‘qotish ko‘proq. Shunday bo‘lsada, 85% dan yuqori qoldiq saqlanadi. Variant D (35%) da polimer strukturalar qisman yo‘qoladi va 600°C da qoldiq massa 84% atrofida. Bu holatda keramik komponentlarning ta’siri yuqori. Variant E (30% oltingugurt) eng ko‘p termik massa yo‘qotishni namoyon etadi. Ammo zolounnos va saja ta’siri sababli qoldiq massa 600°C

da 88% ga yaqin saqlanadi, bu modifikatsiyaning samaradorligini ko‘rsatadi. Oltingugurt-beton tarkiblari termogravimetrik tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

Termik tahlillar asosida olingan natijalar — oltingugurt miqdorining kamayishi orqali termobarqarorlikning oshishi, biroq gidrofoblik va kislotaga chidamlilikning pasayishi — materialshunoslik va kompozitsion materiallar kimyosi nuqtai nazaridan mukammal ilmiy xulosalarni taqozo etadi. Quyida bu tendensiyalar asosida ilmiy tahlil taqdim etilgan.

2-jadval

Harorat ta’sirida qoldiq massa (%)

Harorat (°C)	variant A (%)	variant B (%)	variant C (%)	variant D (%)	variant E (%)
100.00	86.53	87.87	89.22	90.57	91.92
200.00	83.78	85.40	87.02	88.65	90.27
300.00	82.34	84.10	85.87	87.64	89.40
400.00	81.35	83.22	85.08	86.95	88.81
500.00	80.60	82.54	84.48	86.42	88.36
600.00	79.99	82.00	84.00	86.00	88.00

Oltingugurt-termoplastik modda bo‘lib, 130–160°C oralig‘ida erib, amorf plastik shaklga o‘tadi. Oltingugurt miqdori yuqori bo‘lgan betonlarda, termik ishqalanishda polimerlangan S–S zanjirlari kuchli termik harakatlar ta’sirida eriydi va massa yo‘qotish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Oltingugurt miqdori kamaytirilganda strukturada inert komponentlar (щуeben, qum, zolounnos) ulushi ortib boradi va bu fazalar erimaydi va o‘z strukturasini saqlab qoladi, bu esa qoldiq massaga ishonchli karkas vazifasini bajaradi. Natijada to‘liq massa yo‘qotishi kamayadi va 600°C gacha barqarorlik yaxshilanadi. Oltingugurt miqdori kamayishi termobarqarorlikni oshiradi, chunki inert moddalar (zolounnos, щуeben) mikrostrukturani mustahkamlaydi.

Oltingugurt-kislotalarga nisbatan o‘ta passiv, inert modda. U hech qanday kislotalar bilan reaksiyaga kirishmaydi (isklyucheniya: ftor yoki suyultirilmagan konsentratlardan tashqari). Oltingugurt beton tarkibida oltingugurt miqdori kamayganda strukturada kislota bilan reaksiyaga kirishuvchi aktiv mineral moddalar (CaO, SiO_2, Fe_2O_3) ulushi ko‘payadi. Bu moddalar HCl, H_2SO_4 kabi kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, materialni kimyoviy destruksiyalanishiga olib keladi. Natijada inert faza (oltingugurt) ulushining kamayishi-ximiyaviy barqarorlikning pasayishiga olib keladi.

Xulosa.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, oltingugurt asosidagi beton tarkiblarini zolounnos va saja moddalari bilan modifikatsiyalash orqali uning termik barqarorligi, kimyoviy inertligi va qayta ishlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlandi. Termik tahlillar (TGA) 100–600°C oralig‘ida olib borilib, qoldiq massa 80–88% atrofida saqlangani kompozitning yuqori haroratdagi barqarorligini tasdiqladi. Harorat oshishi bilan massa yo‘qotilishidagi farqlar asosan oltingugurt miqdori va inert komponentlar nisbati bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Zolounnos tarkibidagi SiO_2, Al_2O_3, CaO va Fe_2O_3 oksidlari betonning ichki mikrostrukturasida mineral karkas hosil qilib, termik destruksiyani sekinlashtirdi. Saja esa betonning yuza xossalarini yaxshilab, ultrabinafsha nurlar va kislotalarga nisbatan barqarorlikni oshirdi. Shuningdek, oltingugurt miqdorining kamayishi fazaviy barqarorlikni kuchaytirgan, ammo gidrofoblik va kimyoviy inertlik darajasi pasaygani ham qayd etildi.

Umuman olganda, modifikatsiyalangan oltingugurt-betonlar temir yo‘l infratuzilmalari, xususan, shpallar uchun yuqori istiqbolli, qayta ishlanuvchi, ekologik xavfsiz va termik hamda kimyoviy jihatdan barqaror material sifatida tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari, shuningdek,

sanoat chiqindilarini qurilish sohasiga jalb etish orqali iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Fediuk, R., Mugahed Amran, Y. H., Mosaberpanah, M. A., Danish, A., El-Zeadani, M., Klyuev, S. V., & Vatin, N. (2020). A critical review on the properties and applications of sulfur-based concrete. Materials, 13(21), 4712.

2. Fediuk, R. S., Yevdokimova, Y. G., Smoliakov, A. K., Stoyushko, N. Y., & Lesovik, V. S. (2017, July). Use of geonics scientific positions for designing of building composites for protective (fortification) structures. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 221, No. 1, p. 012011). IOP Publishing.

3. Amanova, N., Turaev, K., Shadhar, M. H., Tadjixodjayeva, U., Jumaeva, Z., Berdimurodov, E., ... & Hosseini-Bandegharaei, A. (2024). Sulfur-based concrete: Modifications, advancements, and future prospects. Construction and Building Materials, 435, 136765.

4. Vlahovic, M. M., Martinovic, S. P., Boljanac, T. D., Jovanic, P. B., & Volkov-Husovic, T. D. (2011). Durability of sulfur concrete in various aggressive environments. Construction and building materials, 25(10), 3926-3934.

5. Dehestani, M., Teimortashlu, E., Molaei, M., Ghomian, M., Firoozi, S., & Aghili, S. (2017). Experimental data on compressive strength and durability of sulfur concrete modified by styrene and bitumen. *Data in brief*, *13*, 137-144.

6. Al-Otaibi, S., Al-Aibani, A., Al-Bahar, S., Abdulsalam, M., & Al-Fadala, S. (2019). Potential for producing concrete blocks using sulphur polymeric concrete in Kuwait. Journal of King Saud University-Engineering Sciences, 31(4), 327-331.

UDK: 666.972:691.32:620.17(575.1)

UCHUVCHI KUL VA MAYDALANGAN DONADOR DOMNA SHLAKI BILAN TAYYORLANGAN GEOPOLIMER BETON NAMUNASINI MUSTAHKAMLIK VA CHIDAMLILIK KO'RSATKICHLARI BO'YICHA AN'ANAVIY BETON BILAN TAQQOSLASH

Ilyasov Allanazar Torexanovich
Qoraqalpoq davlat universiteti professori, texnika fanlari doktori

Nazibekov Azamat Kuatbayevich
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Begjanov Timur Iqlas uli
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda 70% uchuvchi kul va 30% maydalangan donador domna shlaki asosida tayyorlangan geopolimer betonning mustahkamlik va chidamlilik xususiyatlari an'anaviy beton bilan taqqoslandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, geopolimer beton 7 va 28 kunlik siqilishga mustahkamlik bo'yicha an'anaviy betondan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Cho'zilishga mustahkamlik qiymatlari deyarli teng, ammo kislota ta'siriga chidamlilikda geopolimer beton ustunlik qildi. Xlorid ionlarining o'tkazuvchanlik sinovida esa farq sezilarli emas. Tadqiqot natijalari geopolimer betonni ekologik toza va samarali qurilish materiali sifatida qo'llash imkoniyatlarini tasdiqlaydi.

Аннотация. В данном исследовании прочностные характеристики и долговечность геополимерного бетона, изготовленного на основе 70% летучей золы и 30% измельченного гранулированного доменного шлака, сравнивались с традиционным бетоном. Результаты показали, что геополимерный бетон имеет более высокие показатели прочности на сжатие после 7 и 28 дней твердения по сравнению с традиционным бетоном. Значения прочности на растяжение практически одинаковы, однако геополимерный бетон продемонстрировал превосходство в устойчивости к воздействию кислот. При испытании на проницаемость хлорид-ионов существенной разницы не наблюдалось. Результаты исследования подтверждают возможность применения геополимерного бетона в качестве экологически чистого и эффективного строительного материала.

Abstract. This study compares the strength characteristics and durability of geopolymer concrete, made from 70% fly ash and 30% ground granulated blast furnace slag, with traditional concrete. The results demonstrated that geopolymer concrete exhibits higher compressive strength after 7 and 28 days of curing compared to traditional concrete. While tensile strength values were nearly identical, geopolymer concrete showed superior resistance to acid attack. No significant difference was observed in the rapid chloride ion permeability test. The research findings confirm the potential for using geopolymer concrete as an environmentally friendly and effective construction material.

Kalit so'zlar: geopolimer beton, an'anaviy beton, siqilishga mustahkamlik, cho'zilishga mustahkamlik, kislota ta'siriga chidamlilik sinovi, xlorid ionlarining tez o'tkazuvchanlik sinovi.

Ключевые слова: геополимерный бетон, традиционный бетон, прочность на сжатие, прочность на растяжение, испытание на кислотостойкость, испытание на быструю проницаемость хлорид-ионов.

Keywords: geopolymer concrete, traditional concrete, compressive strength, tensile

strength, acid resistance test, rapid chloride ion permeability test.

I. Kirish. Geopolimerlar-alyuminiy va kremniyga boy xomashyolarning ishqoriy aktivatorlar yordamida reaksiyaga kirishishi natijasida hosil bo‘ladigan, amorf tuzilishga ega anorganik polimer materiallardir. Ushbu atamani birinchi bo‘lib 1978-yilda Jozef Davidovits ilmiy termin sifatida foydalangan. Geopolimerlarning asosiy afzalligi shundaki, ularni ishlab chiqarishda tsementga nisbatan ancha kam miqdorda energiya sarflanadi va jarayon davomida atmosferaga chiqadigan karbonat angidrid (CO_2) miqdori sezilarli darajada kamayadi.

Tarkibida asosan kremniy (Si) va alyuminiy (Al) amorf shaklda bo‘lgan har qanday material geopolimer ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lishi mumkin. Geopolimer tayyorlashda quyidagi sanoat chiqindilari va tabiiy minerallar xomashyo sifatida ishlatilishi mumkin.

- Metakaolin,
- Past kaltsiyli uchuvchi kul (F sinfidagi),
- Metakaolin va uchuvchi kul aralashmasi,
- Organik Al-Si minerallari,
- Kalsinatsiyalangan va kalsinatsiyalanmagan minerallar kombinatsiyasi,
- maydalangan donador domna shlaki va metakaolin aralashmasi.

Ushbu chiqindilarning ikkilamchi qayta ishlatilishi atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bilan birga chiqindilarni utilizatsiya qilish muammosini ham hal etadi.

Betonning asosiy tarkibiy qismi tsementdir. Tsement narxi uning cheklangan zaxiralari va yuqori talab tufayli kun sayin oshib bormoqda. Shu bilan birga, global isish ham kuchaymoqda. Tsement ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda karbonat angidrid (CO_2) ajraladi. Ushbu tadqiqotda tsement o‘rnini uchuvchi kul va maydalangan donador domna shlaki bilan qisman almashtirish orqali tsement iste’molini va CO_2 chiqindilarini kamaytirish maqsad qilingan.

Tadqiqotda oddiy tsement betoni va tsement o‘rniga uchuvchi kul hamda maydalangan donador domna shlaki qo‘shilgan beton namunalari tayyorlandi. Mustahkamlik bo‘yicha siqilishga mustahkamlik, cho‘zilishga mustahkamlik, shuningdek chidamlilik bo‘yicha kislota ta’siriga chidamlilik sinovi va xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi natijalari taqqoslandi.

II. Ishlatilgan materiallar: 1) Qum (mayda to‘ldiruvchi). Mayda to‘ldiruvchi sifatida mahalliy maydalangan qum ishlatiladi.

2) Tsement. Oddiy beton namunalarini tayyorlashda mahalliy ishlab chiqarilgan oddiy portland tsementi ishlatildi.

3) Yirik to‘ldiruvchi. 20 mm o‘lchamdagi mahalliy maydalangan shag‘al yirik to‘ldiruvchi sifatida ishlatildi.

4) F sinfidagi Uchuvchi kul:

1-jadval

Uchuvchi kulning kimyoviy tarkibi

Tarkibiy modda	**Al_2O_3**	**Fe_2O_3**	**SiO_2**	**MgO**	**SO_3**	**Na_2O**	**Xloridlar**	**CaO**
Miqdor (%)	24	8.97	58.82	0.83	1.8	0.89	0.06	2.9



1-rasm. Uchuvchi kul

5) Maydalangan donador domna shlaki:

2-jadval

Maydalangan donador domna shlakining kimyoviy tarkibi

Tarkibiy modda	Shisha	SiO_2	CaO	Al_2O_3	Fe_2O_3	Sulfit oltingugurt	Eruvchan bo‘lmagan qoldiq	Yo‘qotish
Miqdor (%)	92	37.73	37.34	14.42	1.11	0.39	1.59	1.41



2-rasm. Maydalangan donador domna shlaki

6) Ishqoriy eritma. Ushbu tadqiqotda geopolimer aralashmasining mustahkamlik va chidamlilik xususiyatlarini tekshirish maqsadida, sinov aralashmasi natijalariga asoslanib, natriy gidroksid eritmasining 10 molyar konsentratsiyasi tanlandi. Mazkur tadqiqot uchun Na_2SiO_3 /NaOH nisbati 2:1 etib belgilandi.

7) HCl, NaCl, NaOH. 1% konsentratsiyadagi xlorid kislota **(HCl)**-kislota ta’siriga chidamlilik sinovlari uchun, **natriy xlorid (NaCl) va natriy gidroksid (NaOH)** esa xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi uchun ishlatildi. Bu eritmalar betonning chidamlilik xususiyatlarini baholashda qo‘llaniladi.

III. Metodologiya. 1) An’anaviy beton. An’anaviy beton aralashmasi tayyorlab olindi. Betonni tayyorlashda o‘rtacha mustahkamlik, suv-tsement nisbati, suv miqdori, tsement miqdori va yirik hamda mayda to‘ldiruvchilar nisbati hisoblab chiqildi.

3-jadval

An’anaviy beton (1 m^3) aralashmasi

Tarkibiy qism	Tsement	Suv	Mayda to‘ldiruvchi (qum)	Yirik to‘ldiruvchi (20 mm)	Yirik to‘ldiruvchi (10 mm)	Qo‘shimcha modda	Suv-tsement nisbati
Miqdor (kg)	315	156.9	822	666	444	3.465	0.5

2) Geopolimer beton. Geopolimer betonning aralashma tarkibi uchun quyidagi materiallar ishlatildi:

– Bog‘lovchi miqdori: 1 m^3 geopolimer beton uchun 315 kg. Uchuvchi kul va maydalangan donador domna shlaki nisbati 70%:30% bo‘lganda, uchuvchi kul 220,5 kg/m^3 ni, maydalangan donador domna shlaki esa 94,5 kg/m^3 ni tashkil etadi.

– Ishqoriy eritma: Na_2SiO_3 /NaOH = 2/1, NaOH konsentratsiyasi 10 M.

– Ishqoriy eritma miqdorining uchuvchi kul va maydalangan donador domna shlaki aralashmasiga nisbati 0.55 (bog‘lovchi miqdorining 55 foizi).

– Betonning yetarli darajada qovushqoqligini ta’minlash maqsadida unga superplastifikator qo‘shiladi.

3) Sinov usullari. Geopolimer va oddiy betonni quyish uslubi bir xil. Dastlab yirik va mayda to‘ldiruvchilar, kul va maydalangan donador domna shlaki taxminan 5 daqiqa davomida quruq holda aralashtirildi, so‘ngra eritma qo‘shildi yana 4-5 daqiqa davomida aralashtirildi. Aralashtirilgandan so‘ng darhol betonning cho‘kish konusi sinovdan o‘tkazildi va keyin beton 150 mm x 150 mm x 150 mm o‘lchamdagi kub namunalari, balandligi 300 mm va diametri 150 mm bo‘lgan silindr namunalar hamda diametri 100 mm va balandligi 50 mm bo‘lgan xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi namunalari qoliplariga quyildi. Qolipdan chiqarilgandan so‘ng geopolimer namunalari xona haroratida tabiiy sharoitda qotirildi, beton namunalari esa suvga botirildi.

4) Yakuniy aralashma. Geopolimer beton uchun bog‘lovchi miqdori 70% uchuvchi kul + 30% maydalangan donador domna shlaki nisbati tanlandi: Ular 10 M ishqoriy eritma bilan 7 va 28 kunlik davrda an’anaviy beton bilan taqqoslandi.

IV. Natijalar va muhokama. 1) Siqilishga mustahkamlik sinovi.

Betonning siqilishga sinovi 150x150x150 mm o‘lchamdagi kubni 7 kun va 28 kun davomida normal qotish va atrof-muhit haroratida qotishdan so‘ng sinovdan o‘tkazildi va natijalar qayd etildi.

4-jadval

Siqilishga mustahkamlik natijalari (7 va 28 kun)

№	Kun	An’anaviy beton (o‘rtacha, N/mm²)	Geopolimer beton (70% uchuvchi kul va 30% maydalangan donador domna shlaki)
1	7	6.7	17.91
2	28	30.60	49.79

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, 7 kunda ham, 28 kunda ham geopolimer beton an’anaviy betondan ancha yuqori mustahkamlik ko‘rsatdi.



3-rasm. **7 va 28 kunlik o‘rtacha siqilishga mustahkamlik** grafigi

2) Cho‘zilishga mustahkamlik sinovi.


An’anaviy beton va geopolimer betonlarning cho‘zilishdagi mustahkamlik sinovi balandligi 300 mm va diametri 150 mm bo‘lgan silindrlarni normal sharoitda 7 va 28 kun davomida qotirish hamda xona haroratida saqlash orqali o‘tkazildi.

5-jadval

Cho‘zilishga mustahkamlik natijalari (N/mm²)

№	Kun	An’anaviy beton	Geopolimer beton (70% uchuvchi kul va 30% maydalangan donador domna shlaki)
1	7	1.10	1.40
2	28	3.55	3.23

7 kunlik qotish davrida an’anaviy beton va geopolimer betonlarning cho‘zilishdagi mustahkamligi mos ravishda 1,1 va 1,40 (N/mm^2) ni tashkil etdi. 28 kunlik qotish davrida esa an’anaviy va geopolimer betonlarning cho‘zilishdagi mustahkamligi 3,55, va 3,23 (N/ mm^2) ga yetdi. 7-kunda geopolimer betonning cho‘zilishdagi mustahkamligi qiymatlari an’anaviy betonga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi, biroq 28 kundan so‘ng bu qiymatlar an’anaviy betonnikiga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.



4-rasm. 7 va 28 kunlik o‘rtacha cho‘zilishga mustahkamlik grafigi

3) Kislota ta’siriga chidamlilik sinovi.

1% konsentratsiyali xlorid kislotasi (HCL) agressiv kanalizatsiya muhitiga xos deb hisoblanadi va kislotaga chidamlilikni tekshirish uchun 1% li xlorid kislotasi (HCL) eritmasidan foydalanildi. 150 × 150 × 150 mm o‘lchamli beton kub namunalari 60 kun davomida 1% li xlorid kislota eritmasiga botirildi. Kislota ta’siridan keyin namunalarning og‘irlik yo‘qotish foizi aniqlanib, qayd etildi.


6-jadval

Kislota ta’siridan keyingi o‘rtacha og‘irlik yo‘qotilishi

Beton turi	Oldingi og‘irlik (kg)	Keyingi og‘irlik (kg)	Yo‘qotish (kg)	Foiz (%)
An’anaviy beton	8.448	8.420	0.028	0.33
Geopolimer beton (70% uchuvchi kul + 30% maydalangan donador domna shlaki)	8.375	8.353	0.022	0.26

60 kun davomida kislota ta’sirida eritmada saqlangandan so‘ng, geopolimer beton kubining og‘irlik yo‘qotish foizi an’anaviy betonga nisbatan biroz kamligi va uning kislotalarga chidamliligi an’anaviy betonga qaraganda yuqoriroq ekani kuzatildi. Bunda an’anaviy beton

o’zining 0.33% og‘irligini, geopolimer beton esa 0.26% og‘irligini yo‘qotadi.



5- **rasm. Kislota ta’siridan keyingi o‘rtacha og‘irlik yo‘qotilishi**

4) Xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi.

Qalinligi 50 mm va diametri 100 mm bo‘lgan beton namunalar sinov namunasi sifatida ishlatildi. Xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi sinov namunalari orqali o‘tgan zaryad miqdori (kulonlarda) qayd etildi. Va kuzatildiki, kulonlarda o‘lchangan o‘tgan zaryad miqdori an’anaviy betonda juda kam miqdorda ustunroq bo‘ldi. Ammo bu farq juda kichik va amaliy jihatdan katta ustunlik bermaydi.

7-jadval

Xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi natijalari

Beton turi	**O‘tgan zaryad (Coulomb)**
An’anaviy beton	2837
Geopolimer beton (70% uchuvchi kul + 30% maydalangan donador domna shlaki)	2915

V. Xulosa. 70% uchuvchi kul + 30% maydalangan donador domna shlaki asosida tayyorlangan geopolimer betonning mustahkamlik va chidamlilik xususiyatlarini an’anaviy beton bilan taqqoslashda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. **Siqilishga mustahkamlik** – 7 va 28 kunlik qotish davrlarida geopolimer betonning siqilishga mustahkamligi an’anaviy betondan ancha yuqori bo‘ldi.

2. **Cho‘zilishga mustahkamlik** – An’anaviy beton va geopolimer betonning cho‘zilishga mustahkamlik qiymatlari orasida juda kata farq yo’q va deyarli teng deb aytish mumkin.

3. **Kislota ta’siriga chidamlilik** – 60 kun davomida 1% HCl eritmasida saqlanganda geopolimer betonning o‘rtacha og‘irlik yo‘qotishi an’anaviy betondagidan pastroq bo‘ldi. Bu geopolimer betonning kislota ta’siriga nisbatan yaxshiroq chidamliligini ko‘rsatadi.

4. **Xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovi natijalari** – Xlorid ionlarining tez o‘tkazuvchanlik sinovida an’anaviy va geopolimer betonlarda o‘tgan zaryad miqdori orasidagi farq deyarli katta emas.

ADABIYOTLAR

1. Davidovits, J. Geopolymer Chemistry and Application, ISBN-978251482050, Saint-Quentin, France, 2008.

2. Comparative Analysis of Compressive Strength of Concrete by Replacing Cement by Fly Ash with Conventional Concrete, Swati Chandra, Ramendra Singh, June 2019 (IJSR

journal).

3. Resistance of Geopolymer Mortar to Acid and Chloride Attacks, Huang Ji Zhuang, Hai Yan Zhang, December 2017 (ELSEVIER journal).

4. Strength & Development of Fly Ash and GGBS Based Geopolymer Mortar, Banda Rohit Rajan, K. Ramujee, 2015 (IJRAET journal).

5. A Comparative Study on Strength and Durability Aspects of Fly Ash–GGBS Based Geopolymer Concrete, Miss Sapna Rathod, Mr. Girish, December 2011 (IJERT journal).

6. Conventional Concrete Over Geo Polymer Concrete Using GGBS, A. Pavani, J. Rakesh, P. Gopichand, P. Suvarnaraju, April 2016 (IJEAS journal).

7. Comparative Study on Geopolymer and Conventional Concrete Beams Subjected to Flexural Loading, Harsha B.R., Mr. Shashi Kiran S., February 2018 (IRJET journal).

УДК. 62.21474.05

ASFALTBETON ZAVODLARINING QURITISH BARABANIDAGI LOPASTLAR SHAKLI VA O‘LCHAMLARI

Sarmonov Azizbek Xashimjonovich
TDTrU dotsenti, PhD, sarmonov1985@gmail.com

Xalimov Behruz Xamza o‘g‘li
TDTrU, PhD doktoranti, xalimov745@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada asfalt beton zavodlarining quritish barabanidagi lopastlarning shakli va o‘lchamlarining quritish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Quritish barabani-asfalt ishlab chiqarish jarayonining muhim qismlaridan biri bo‘lib, u agregat materiallarni isitish va quritish vazifasini bajaradi. Baraban ichidagi lopastlar esa materialning bir tekis harakatlanishini va samarali issiqlik almashinuvini ta’minlaydi. Ushbu maqolada lopastlarning shakli, o‘lchamlari va joylashish burchaklari tahlil qilinadi. Matematik formulalar, grafik chizmalar va amaliy tajriba natijalariga asoslanib, optimal parametrlar aniqlanadi. Natijalar asosida energiya sarfini kamaytirish va quritish sifatini oshirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Asfaltbeton ishlab chiqarish texnologiyasining samaradorligi, asosan, quritish barabanlarining issiqlik almashinuvi tizimiga bog‘liq. Ushbu tizimda lopastlar (yoki pichoqlar) gaz va material oqimlarining o‘zaro ta’sirini boshqaradi. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan ko‘plab asfalt zavodlari klassik (statik) lopast dizaynidan foydalanilmoqda, bu esa energiya sarfi yuqoriligini va materialning notekis quritilishini keltirib chiqaradi. Shu sababli, lopastlarning takomillashtirilgan shakli, burchagi va joylashuvi bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Quritish barabani (rotary dryer) yuqori haroratli gazlar yordamida inert materiallarni quritib, ularni keyingi aralashtirish jarayoniga tayyorlaydi. Ushbu jarayon samaradorligi baraban ichidagi lopastlar (yoki lifters) orqali ta’minlanadi [1]. Lopastlar materialni ko‘tarib tushirish, uni aylanish bilan oldinga harakatlantirish va issiqlik bilan bir tekis aloqaga kiritish uchun mo‘ljallangan. Agar ularning shakli va o‘lchami noto‘g‘ri tanlansa, material to‘g‘ri qurimasligi, issiqlik isrofi va energiya sarfning ortishi yuz beradi [2].

Аннотация. В данной статье анализируется влияние формы и размеров лопастей в сушильном барабане асфальтобетонных заводов на процесс сушки. Сушильный барабан - одна из важных частей процесса производства асфальта, которая выполняет функцию нагрева и сушки агрегатных материалов. Лопасти внутри барабана обеспечивают равномерное движение материала и эффективный теплообмен. В данной статье анализируются форма, размеры и углы расположения лопастей. На основе математических формул, графических рисунков и результатов практического эксперимента определяются оптимальные параметры. На основе результатов будут даны предложения по снижению энергопотребления и повышению качества сушки.

Эффективность технологии производства асфальтобетона во многом зависит от системы теплообмена сушильных барабанов. В этой системе лопасти (или ножи) управляют взаимодействием потоков газа и материала. Многие асфальтовые заводы, выпускаемые сегодня, используют классическую (статическую) лопастную конструкцию, что приводит к высокому энергопотреблению и неравномерной сушке материала. Поэтому необходим научно обоснованный подход к усовершенствованной форме, углу и расположению лопастей. Сушильный барабан (rotary dryer) сушит инертные материалы с

помощью высокотемпературных газов, подготавливая их к дальнейшему процессу смешивания. Эффективность этого процесса обеспечивается лопастями (или лифтерами) внутри барабана[1]. Лопасти предназначены для подъема и опускания материала, перемещения его вращением вперед и равномерного контакта с теплом. При неправильном выборе их формы и размера происходит неправильное высыхание материала, тепловые потери и увеличение расхода энергии[2].

Abstract. This article analyzes the influence of the shape and size of blades in the drying drum of asphalt concrete plants on the drying process. The drying drum is one of the important parts of the asphalt production process, which performs the function of heating and drying aggregate materials. The blades inside the drum ensure uniform material movement and efficient heat exchange. In this article, the shape, dimensions, and angles of arrangement of the blades are analyzed. Based on mathematical formulas, graphical drawings, and the results of practical experiments, optimal parameters are determined. Based on the results, proposals will be made to reduce energy consumption and improve the quality of drying.

The effectiveness of asphalt concrete production technology largely depends on the heat exchange system of the drying drums. In this system, blades (or knives) control the interaction of gas and material flows. Many asphalt plants produced today use a classic (static) blade design, which leads to high energy consumption and uneven drying of the material. Therefore, a scientifically based approach to the improved shape, angle, and arrangement of the blades is necessary. The drying drum (rotary dryer) dries inert materials using high-temperature gases and prepares them for the subsequent mixing process. The efficiency of this process is ensured by the blades (or lifters) inside the drum[1]. Blades are designed for lifting and lowering the material, moving it forward with rotation, and bringing it into uniform contact with heat. If their shape and size are chosen incorrectly, the material does not dry properly, heat loss occurs, and energy consumption increases [2].

Kalit so‘zlar: asfalt zavodi, quritish barabani, lopastlar, issiqlik almashinuvi, geometriya, optimallashtirish

Ключевые слова: асфальтовый завод, сушильный барабан, лопасти, теплообмен, геометрия, оптимизация.

Keywords: asphalt plant, drying drum, blades, heat exchange, geometry, optimization.

Lopastlar turlari va ularning funksional afzalliklari

Quritish barabani lopastlari asfaltbeton zavodining samaradorligi, energiya tejamkorligi va tayyor asfalt sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ularning o‘lchami, shakli va joylashuvini ilmiy asosda aniqlash juda muhim.

Zamonaviy quritish barabanlarida ishlatiladigan lopastlar quyidagi asosiy tiplarga bo‘linadi:

To‘g‘ri tekis lopastlar. Oddiy ishlab chiqarishda ishlatiladi, lekin gaz bilan aloqa yuzasi cheklangan.

Egri shakldagi lopastlar. Materialning devorga yopishmasligi va aylanishga yordam beradi.

Pichoqli (knife-type). Yupqa qatlamda materialni gazga oshkor qiladi, lekin eskirishi tez.

Kaskadli tizimlar. Bosqichma-bosqich quritish imkonini beradi.


Ularning samaradorligini baholashda, quyidagi mezonlar qo‘llanildi:

Gaz-material kontakt yuzasi

Issiqlik uzatilish koeffitsiyenti

Materialning barabanda ushlanish vaqti
Aralashish va tarqatilish samaradorligi

Lopastlarning shakli asfaltbeton zavodining samaradorligi va energiya tejamkorligida asosiy omillardan biridir. Optimal shakl tanlanishi orqali: issiqlik almashinuvi kuchayadi, quritish sifati oshadi, yoqilg‘i tejaladi, qurilma xizmat muddati uzayadi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlar lopastlarning shakli, joylashuvi va burchagini optimallashtirishga qaratilyapti.



1-rasm. Quritish barabani lopast shakllari.

Quritish barabanlarining ko'tarish va tushirish pichoqlari keng tarqalgan formalari 1-rasmda keltirilgan[4].

Ushbu rasmdagi:

a) shaklda kichik zarrachalarni ko’taruvchi lopastlar keltirilgan, bu dizaynning soddaligi tufayli eng keng tarqalgan; To‘g‘ri, vertikal lopastlar Materialni yuqoriga ko‘taradi, lekin bir nuqtada to‘kilish bo‘ladi. Kam aralashish, past issiqlik almashinuvi.

b) bu shaklli yopiq chuqur lopastlar egri chiziqli, zarracha (materialni) harakatga keltiruvchi shaklda; Materialni uzaytirilgan trayektoriya bilan ko‘taradi, ko‘proq yuzani ochadi. O‘rtacha samaradorlik, lekin ko‘proq chang hosil bo'lishi mumkin.

d) shaklli lopastlar yopiq kichik zarralarni harakatlantiruvchi bo’lib xizmat qiladi;

Materialni spiral yo‘nalishda ko‘taradi va barabanning yon devorlariga yo‘naltiradi. Aralashish yuqori, issiq havo bilan aloqasi maksimal.

e) shaklli o’roqsimon lopastlar o’rta hajmli materiallarni harakatini ta’minlaydi;

f) shaklli tekis, harakat yo'nalishi bo'yicha oldinga egilgan yonaltiruvchi sifatida;

g) shaklli lopastlar yopiqmayda zarrachalarni yuqoriga va yonaltiruvhci harakati uchun xizmat qiladi;

h) tekis radial shaklli lopastlar isitish fazasi uchun xizmat qiladi;

i) tekis, harakat yo'nalishi bo'yicha oldinga egilgan aralashtiruvchisifatidagi lopast;

j) tekis, harakat yo'nalishiga nisbatan orqaga egilgan to’kuvchi lopast;

Prof. N. M. Mixaylov tomonidan tavsiya etilgan yopiq chuqur lopastlar quyidagi o'lchamlar bilan ishlab chiqariladi: l=0,2D; l_1=0,085D; d=0,6D; a=25-30°. Har bir dizayn ma’lum texnologik maqsadga xizmat qiladi. Og‘ir va yirik fraksiyali materiallar uchun to‘g‘ri lopastlar qulay bo‘lsa, nozik va yengil agregatlar uchun spiral yoki qiya shakllar afzal hisoblanadi [3]. Bu ishlab chiqarilayotgan asfaltbeton tarkibini analiz qilgan holda,

aralashma tarkibi inert materiallari mayda donali yirik donaliga mos baraban lopastlari tanlab o'rnatiladi.

Geometrik o'lchamlar tahlili

Quritish barabani ichidagi lopastlar asosan quyidagi parametrlar asosida baholanadi:
- Baraban diametri (D) – 1.8 m – 3.0 m oralig'ida
- Baraban uzunligi (L) – 6 m – 9 m
- Lopast balandligi (h) – odatda 0,1 D
- Lopast burchagi (θ) – 30° – 45°
- Lopast uzunligi (l) – baraban uzunligi bo'ylab, 200–500 mm

Geometriya jihatdan to'g'ri hisoblangan lopastlar baraban ichidagi material harakatini optimallashtiradi va issiqlik almashinuvi maydonini oshiradi [1].

Parametr	Qiymat	Izoh
Baraban uzunligi L	4.0 m	Ishchi bo'lak
Ichki diametr D	2.0 m	Issiqlik almashuvchi quvur
Lopast uzunligi l	0.3 m	Radiusga perpendikulyar
Lopast qalinligi t	8 mm	Po'latdan yasalgan
Lopast burchagi α	45°	Moslashuvchan variant ham bo'lishi mumkin
Lopast soni (1 qatorda)	12 ta	Har 30° da joylashgan

Lopastlarning geometrik harakati hisoblash formulalari

Lopastlarning optimal o'lchamlarini aniqlash uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi [2]:

1. Inert materialning barabandagi ko'tarilish burchagi:

$$\alpha=\tan^{-1}\left(\frac{H}{r\,\omega t}\right)$$

H–maksimal ko'tarilish balandligi (lopast balandligi)
r–baraban radiusi
ω–burchak tezligi
t–vaqt

2. Issiqlik almashinish yuzasi: $A=n\cdot l\cdot h$
n–lopastlar soni
l–lopast uzunligi
h–balandlik

3. Inert materialning tushish vaqti: $t = \sqrt{\frac{2H}{g}}$

Amaliy tadqiqot va natijalardan kelib chiqqan xulosalar:

Toshkent shahridagi "Ammann" asfalt zavodida olib borilgan amaliy kuzatuvlarga ko'ra:
- 45° burchak ostidagi qiya lopastlar materialni baraban ichida samaraliroq aylantiradi;
- Lopast balandligi baraban radiusining 12% bo'lsa, issiqlik taqsimoti eng yuqori darajada bo'lgan;
- Lopastlar soni har 250 mm masofada joylashganda, baraban o'qi bo'ylab issiqlik almashinuvi teng taqsimlanadi [3].

Xulosa

Quritish barabanidagi lopastlarning shakli va o'lchamlari texnologik jarayon sifatiga

bevosita ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri geometriya tanlansa:

-Energiya sarfi 10–15% gacha kamayadi;

-Quritish jarayoni tezlashadi;

-Materialning issiqlik taqsimoti bir tekis bo‘ladi.

Kelgusida 3D simulyatsiyalar orqali lopast dizaynini raqamli usulda yanada optimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. S. M. Kozlov, “Teplovye protsessy v barabannykh sušilnikakh”, Mashgiz, 2003.

2. R. D. Reed, “Drying Theory and Design,” McGraw-Hill, 2010.

3. S. Yuldashev, “Asfalt beton ishlab chiqarish texnologiyasi,” O‘zbekiston Texnika Universiteti nashriyoti, 2020.

4. K.A. Artemev, T.B. Alekseyev, V.G. Belokrilov I dr. 1982 Mashini dlya ustroystva dorojnix pokritiy chast 2.

UDK 69.003.13

AVTOMOBIL YO‘LI KO‘PRIKLARNING TAYANCH QISMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ORALIQ QURILMANI HIZMAT MUDDATINI OSHIRISH

Saydazimov Nosirjon Tursunovich
Namangan davlat texnika universiteti, Dotsent, Snosirjon1964@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Avtomobil yo‘li ko‘priklarning tayanch qismlarini takomillashtirish orqali oraliq qurilmani hizmat muddatini oshirish texnologiyalari taqdim etilgan. Bunda ko‘priklarda uchraydigan asosiy xarakterli nuqsonlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish choralari yuzasidan takliflar berilgan. Ko‘priklarni mustahkamlashning ahamiyati va mustahkamlash ishlarining oson, sodda turlari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье представлены технологии повышения срока службы пролетного строения за счёт совершенствования опорных частей автодорожных мостов. Проанализированы основные характерные дефекты, встречающиеся в мостах, и даны предложения по их устранению. Отмечена важность усиления мостов и простых, несложных видов укрепительных работ.

Abstract. The article presents technologies for increasing the service life of a span structure by improving the bearing parts of road bridges. The main characteristic defects encountered in bridges are analyzed and proposals for their elimination are given. The importance of strengthening bridges and simple, uncomplicated types of strengthening work is noted.

Kalit so‘zlar: oraliq qurilma, metall qopqoq, zichlovchi rezinali ulanma, tayanch, polirovkali zanglamaydigan metal, ftorplast, stakansimon tayanch qismlari, burchakli deformatsiya.

Ключевые слова: промежуточное устройство, металлический колпак, уплотнительное резиновое соединение, опора, полированный нержавеющий металл, фторопласт, стекловидные опорные детали, угловая деформация.

Key words: intermediate structure, metal cap, sealing rubber joint, support, polished stainless steel, fluoroplastic, glass support part, angular deformation.

Kirish. Zamonaviy yo‘llar, ko‘priklar xalqimiz farovonligini yuksal-tirishga xizmat qiladi. Bu mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, eng avvalo inson va uning manfaatlariga, odamlarning farovon hayot kechirishiga qaratilganining yana bir yorqin isboti bo‘ldi. Prezidentimiz aytganidek, zamonaviy ko‘priklar qurish, yo‘llarni zamon-talablariga moslashtirish aholiga qulaylik yaratish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. [1]


Asosiy qism. Tayanch qismlari yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar tayanch reaksiyalarini berilgan joydagi tayanchlarga uzatadi. Bundan tashqari, tayanch qismlari oraliq qurilma to‘sinlarini vaqtinchalik yuklar ta'siridan egilgandagi buralishi va chiziqli surilishini ta'minlaydi, va shunday to‘sin chekkalaridagi oraliq qurilmada issiqlik deformatsiyasi natijasida hosil bo'ladigan ko'ndalang va bo'ylama surilishni ta'minlaydi. Tayanch qismlari qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas bo‘ladi.

Tosh taxtali oraliq qurilmalar oralig'i 9 m gacha bo'lganda tayanchlarga lentasimon tayanch qismi orqali qalinligi 20 mm gacha bo'lgan issiqqa chidamli va yorug'ozonga chidamli rezinalar qo'yiladi. Oraliq qurilma va tayanch betonining shu tekislikdagi bog'lanishidagi tortilish kuchlarini lentaning qo'zg'alishini yo'qqa chiqaradi, shuning uchun surilish faqat lentadagi

ko'ndalang deformatsiyada amalga oshadi.

9…18 m oraliqdagi tosh taxtali va qovurg'ali oraliq qurilmalarda yupqa (1.a-rasm), va urinma yuzali (1.б-rasm) metall tayanch qismlar to'sin va tayanchning betoniga armaturali sterjenlar yordamida bajariladi. Urinma yuzali tayanch qismlari ikkita metall yostiqchadan tashkil topgan, teppa qismi tekis va pastki qismi silindrik shaklga ega bo'lib ular oraliq qurilmani buralishini ta'minlaydi. Qo'zg'almaydigan tayanch qismida vertikal shtir o'rnatiladi. Qo'zg'aluvchan tayanch qismlarida pastki yuzada yuqori yuzaning sirg'alishini ta'minlash uchun shtir qo'yilmaydi.


Uzlukli va haroratli-uzluksiz qovurg'ali oraliq qurilmalarda ularning butun oralig'i bo'ylab qatlamli rezina tayanch qismlari (RTQ) qo'llaniladi. Ularni qatlamli bir necha qavat rezina va metall ulanmalardan tuzilgan parallepiped ko'rinishida bajariladi (2-rasm). Metall ulanma qalinligi 2 mm, rezinaniki 2.5 mm ga teng. Rezinani taxtacha bilan armaturalash, uni vulkanizatsiyalash jarayonida uni ko'tarish qobiliyatini 3-5 marotaba oshirish vertikal va ko'ndalang deformatsiyani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi.



1-stal taxtacha; 2-armatura sterjenlari; 3-yassi metall yostiqcha; 4- silindrik yuzali metall yostiqcha; 5-shtir

1-rasm. Qovurg'ali oraliq qurilmalarning tekis(*а*) va urinma yuzali (*б*) tayanch qismlari


Uzluksiz oraliq qurilmalarda butun oraliq bo'yicha qo'zg'almaydigan tayanch qismlari sifatida stakansimon tayanch qismlari, qo'zg'aluvchi sifatida–har xil turdagi qo'shma tayanch qismlari qo'llaniladi.



1-metall taxtacha; 2-rezina

2-rasm. Rezinali tayanch qism

Stakansimon tayanch qism (3-rasm) rejada yumaloq metall qopqoq 1 va rezina ulanma 3 joylashgan metall halqadan 2 tuzilgan. Bunda rezinaning ko'ndalang deformatsiyasi to'la inkor qilingan, bu uning qarshiligini 1000 kgkuch/sm^2 gacha ko'tarish imkonini beradi. Rezina ulanma metall halqa ichiga olingan, sferik oshiq-moshiq kabi har qanday yo'nalishda buralishga imkon beradi va katta bosimdagi yopishqoq suyuqlik kabi o'zini tutadi. Stakansimon tayanch qismlari burchakli deformatsiyalarni ta'minlaydi, shuning uchun ularni faqat qo'zg'almas tayanch qismi sifatida qo'llash mumkin. Ular uzluksiz oraliq qurilmalarni kerakli oraliq bo'yicha, metall halqa diametrini o'zgartirish hisobiga yuk ko'tarish qobiliyatini osongina o'zgartirish mumkin. An'anaviy metall tayanch qismlarga solishtirganda stakansimon tayanch qismlar og'irligi 8-10 marta kam, balandligi 5-8 marotaba qisqa bo'ladi.




1-metall qopqoq; 2-metall halqa; 3-rezina ulanma

3-rasm. Stakan ko'rinishdagi tayanch qismi elementlari

Umumlashtirilgan tayanch qismining (3-rasm) stakansimon tayanch qismi burchakli surilishni ta'minlaydi, 100mm gacha chiziqli surilishni ftorplast ulanmani polirolli metall taxtachada sirg'alishi hisobiga ta'minlanadi. Ftorplastni aylana ariqchalarda joylashtiriladi va xususiyatini ko'p saqlaydigan moy bilan moylanadi.


4-rasmda zamonaviy o'zimizda ishlab chiqarilgan umumlashtirilgan burchak deformatsiyasini sharli sigment bilan ta'minlanadigan tayanch qismi konstruksiyasi keltirilgan, chiziqli esa-ftorplastli diskda sirg'aluvchi tosh taxtada ta'minlanadi.

Tayanch qismi odatda tayanchdan parallipiped shaklida o'sib chiqqan tayanch bilan zo'riqtirilmagan armaturali to'r bilan yaxlit bog'langan fermaostliklarda joylashtiriladi.



1-oraliq qurilma; 2-metall qopqoq; 3-zichlovchi rezinali ulanma; 4-tayanch; 5-polirovkali zanglamaydigan metall taxtacha; 6-metall halqa; 7-rezina ulanma; 8-metall tayanch plita; 9-ftorplast

4-rasm. Umumlshtirilgan tayanch qismi elementlari



1-ishqalanish juftligi; 2-sirg'aluvchi plita; 3-yuqori pasangi (sharli sigment); 4-quyi pasangi; 5-ftorplastli disk, tashish uchun quloqchin; 6-yo'naltiruvchi

5-rasm. Sferik sharli chiziqli qo'zg'aluvchi tayanch qismi konstruksiyasi (ШСОЧ-ЛП)

Setka tayanchga katta ta'sirlar vaqtida va joydagi ta'sirlar vaqtida betonning mustahkamligini oshiradi. Tayanch qismlarini joylashtirish uchun fermaostlik yuzasi tekis bo'ladi, va u tayanch reaksiyasini tayanchga uzatadi. Rejada ularning o'lchamlari tayanch qismi o'lchamlaridan har qanday yo'nalishda 15 sm dan katta bo'lishi, chiqqan qismlari suv ketishi uchun qiya bo'lishi kerak.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Vaqti-vaqti bilan tekshirish va o'z vaqtida tashxis qo'yish transport vositalarining ekspluatatsiya ishonchliligi va xavfsizligi uchun asosdir. Ko'priklarni diagnostika qilish bo'yicha ishlar kompleksi ko'priklar va tayanchlarning strukturaviy elementlarini tekshirish, shuningdek, yuqori moliyaviy va mehnat xarajatlari bo'yicha ishlarni amalga oshiradigan yuqori malakali muhandislarni talab qiladi. Bundan tashqari, hozirda qo'llaniladigan diagnostika usullari murakkabligi va ba'zida yashirin nuqsonlar va shikastlanishlarni aniqlashning iloji yo'qligi sababli tuzilmalarning ishlashi haqida to'liq tasavvurni bermaydi. Olingan natijalarning ishonchliligini oshirish, transport vositalarining xavfsizligi, ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, so'rov natijalariga inson omilining ta'sirini avtomatlashtirish orqali minimallashtirish orqali so'rov samaradorligini oshirish mumkin. "Industrial Internet of Things" texnologiyasini joriy etish orqali so'rov jarayoni. Shu sababli, so'rov natijalarining ishonchliligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish hozirgi vaqtda dolzarb muammodir. Transport inshooatlarinini joriy ta'mirlashning asosi davriy tekshirish va diagnostika bo'lib, uning maqsadi ob'ektning texnik holatini baholashdir.Umuman olganda, ko'priklarning oraliq konstruktsiyalarining texnik holatini baholashni zararni aniqlash va texnik holat toifasini aniqlash jarayoni sifatida tavsiflash mumkin.Biroq, baholashning aniqligini oshirish va inson omilining ta'sirini minimallashtirish uchun tuzilmalarni tekshirishning instrumental usullaridanfoydalangan holda diagnostika jarayonini avtomatlashtirish kerak. Bugungi kunda diagnostika har xil turdagi muhandislik inshootlari uchun standart protsedura hisoblanadi. Ayniqsa, ko'priklar uchun bu muhim ahamiyatga ega, chunki shu tarzda olingan ma'lumotlar strukturadagi shikastlanishlarni aniqlashning asosiy vazifasidan tashqari, struktura samaradorligini baholash, o'z vaqtida ta'mirlash va mustahkamlashni belgilash uchun ham ishlatilishi mumkin. Dizayn yechimlari va qurilish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot maqsadlariga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 16 fevral, 34-son.

2. N.T.Saydazimov. Avtomobil yo‘llaridagi muhandislik inshootlari. Toshkent 2021 “Mashrab”.

3. Saydazimov N. Zamonaviy ko‘priklarda qo‘llaniladigan temirbeton konstruktsiyalarni suvdan himoya qilish uchun ishlatiladigan materiallar. NamDU Ilmiy axborotnomasi-2022. -№.11.

4. Saydazimov N. et al. RESEARCH OF METHODS OF REPAIR OF CEMENT CONCRETE PAVELS //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 1677-1680.

5. Saydazimov N. et al. IMPROVING THE ELASTICITY OF CEMENT-CONCRETE ROADS //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 11. – С. 6-10.

6. Saydazimov N. Basic systems of reinforced concrete bridges, areas of application and description of 3D modeling //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1. – С. 308-311.

7. Saydazimov MATERIALS USED FOR WATER PROTECTION OF REINFORCED CONCRETE STRUCTURES USED IN MODERN BRIDGES. //Экономика и социум. – 2022. – №. 11.(102)

8. Инамов, А., Эргашев, М., Назиркулова, М., & Сайдазимов, Н. (2021). Создание дорожных карт и ведение государственного кадастра на основе гео-информационных технологий. Общество и инновации, *2*(10/S), 84-90.

ГЕЛИОТЕХНОЛОГИЯ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ НА ПОВЕРХНОСТЯХ КРУПНОГАБАРИТНЫХ ОБОРУДОВАНИЙ

Хабибуллаев Алимардон Хидоятиллаевич
НамГТУ, к.т.н., доцент, khabibullaev84@mail.ru

Аннотатция. В статье приведены новые и полезные научные сведения по технологии нанесения специальных полимерных покрытий на поверхности технологического оборудования. Полученные данные свидетельствуют о том, что солнечное излучение существенно ускоряет процесс отверждения термоактивных полимеров, что приводит к увеличению степени сшивки макромолекулярных цепей, что позволяет в дальнейшем повысить физико-механические свойства полимерных материалов и покрытий на их основе.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish uskunalari yuzasiga maxsus polimer qoplamalar qo'yish texnologiyasi bo'yicha yangi va foydali ilmiy ma'lumotlar berilgan. Ushbu topilmalar quyosh nurlanishi termoaktiv polimerlarning qattiqlashishini sezilarli darajada tezlashtirishi, bu esa makromolekulyar zanjirlarning o'zaro bog'lanish darajasini oshirishi, keyinchalik polimer asosidagi materiallarning fizikaviy va mexanik xususiyatlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Abstract. In this article are given new and useful scientific information on the technology of special polymer coatings on the surfaces of manufacturing equipment.These findings indicate that solar radiation is significantly accelerates the curing of thermo active polymers that increases the degree of cross-linking of the macromolecular chains, allowing the subsequent strengthening of the physical and mechanical properties of polymer materials and coatings based on them.

Ключевые слова: солнечные технологии, покрытие, композиты, гетерокомпозит.
Kalit so‘zlar: quyosh texnologiyasi, qoplama, kompozitlar, hetero-kompozit.
Keywords: solar Technology, coating, composites, hetero-composite.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время интенсивно ведутся фундаментальные и прикладные исследования в области создания высокоэффективных композиционных материалов широкого функционального назначения. При этом особое внимание уделяется разработке композиционных материалов со специальными свойствами на основе вторичных ресурсов с использованием экологичной и энергосберегающей технологии.

Наиболее эффективным среди физических методов модификации композиционных материалов является ультразвуковая обработка [1,2].

Наши исследования показали, что ультразвуковая обработка КПМ-достаточно сложная технология, требующая больших энерго- и трудозатрат. В лабораторных условиях можно подвергать ультразвуковой обработке композиционные покрытия на основе термореактивных полимеров в условиях холодного отверждения. В условиях горячего отверждения, а также при обработке композиционных покрытий на основе термопластов, это представляет определенную сложность в связи с отсутствием универсального оборудования, позволяющего одновременно совместить технологические процессы физической модификации с температурно-временным режимом формирования покрытий. Для крупногабаритных изделий и технологических сооружений, а также

сложноконфигурационных технологических машин, например, рабочих органов технологических машин по переработке хлопка, нефти и газа, сложной конфигурацией их рабочих поверхностей, в настоящее время не представляется возможным подвергать КПП на поверхности деталей рабочих органов машин известными методами физической модификации.

Солнечное излучение можно использовать для энергообеспечения различных технологических процессов, в частности для технологического процесса получения полимерных покрытий на рабочих поверхностях крупногабаритных технологических машин.

Основной климатообразующий фактор-значительный приток солнечной радиации, достигающее в летнее время 800-1000 МДж/м^2 за месяц [3]. Это создает благоприятные предпосылки для развития гелиоэнергетики в республики. В крайних северных точках Узбекистана, лежащих на широте 45°35′, наибольшая высота Солнца в день летнего солнцестояния достигает почти 68°, а крайних южных точках, лежащих на широте 37°10′, она равна 76°. В день зимнего солнцестояния высота Солнца равна соответственно 21 и 29°. В связи с этим приток лучистой энергии от Солнца в Узбекистане велик [4-6].

Аннотация. В статье рассматривается роль объемно-пространственных композиций (скульптуры, инсталляции) в формировании городской среды. Анализируются их визуальные, эстетические, функциональные и социальные функции. На примерах из России, Европы, Северной Америки, Азии и Центральной Азии раскрывается опыт художественного обогащения общественных пространств. Сравнительный анализ отечественного (Узбекистан) и зарубежного опыта подчеркивает значение интерактивности, технологических инноваций и комплексного контекстуального подхода. Сделан вывод, что использование объемно-пространственных композиций является важным инструментом повышения эстетического и социального качества общественных мест.

Annotation. This article examines the role of volumetric-spatial compositions (sculptures, installations) in urban planning. Their visual, aesthetic, functional, and social functions are analyzed. The experience of Russia, Europe, North America, Asia, and Central Asia is presented through examples of urban art integration. A comparative analysis of local (Uzbekistan) and international practices highlights the importance of interactivity, technological innovations, and a complex contextual approach. The study concludes that the use of volumetric-spatial compositions is one of the key tools for enhancing the aesthetic and social quality of public spaces.

Kalit so‘zlar: shaharsozlik, hajmiy-fazoviy kompozitsiya, haykaltaroshlik, installyatsiya, jamoat joylari, badiiy bezash, urbanistika, vizual identitet, madaniy meros, zamonaviy san’at, memorial, monumental obidalar, art-obyektlar, ijtimoiy makon.

Ключевые слова: градостроительство, объемно-пространственная композиция, скульптура, инсталляция, общественные пространства, художественное оформление, урбанистика, визуальная идентичность, культурное наследие, современное искусство, мемориал, монументальные объекты, арт-объекты, социальное пространство.

Keywords: urban planning, volumetric-spatial composition, sculpture, installation, public spaces, artistic design, urbanism, visual identity, cultural heritage, contemporary art, memorial, monumental objects, art objects, social space.

Hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar- bu shahar muhitida joylashtiriladigan haykaltaroshlik, arxitekturaviy-dekorativ va installyatsion obyektlar majmuasidir. Ular makonni badiiy boyitish, vizual urg‘ular yaratish, ma’no va emotsional jalb markazlarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladi.

Bunday kompozitsiyalardan foydalanish jamoat makonlarini badiiy bezashning eng samarali usullaridan biridir, chunki ular nafaqat vizual idrokka, balki shahar muhitining psixologik va ijtimoiy qabul qilinishiga ham ta’sir qiladi hamda fuqarolarning makon bilan o‘zaro aloqasini faollashtiradi[1].

Shahar muhitida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarning funksiyalari:

1. Vizual urg‘ular va dominantalarning shakllanishi. Haykallar va installyatsiyalar e’tiborni tortuvchi nuqtalarga aylanadi, makonni strukturalashtiradi va kompozitsion idrokni kuchaytiradi.

2. Makonga ma’no va madaniy mazmun kiritish. Badiiy obyektlar tarixiy, madaniy yoki ijtimoiy g‘oyalarni ifoda etib, hududning identifikatsiyasini kuchaytiradi.

3. Muhitning estetik boyitilishi. Shakl plastikasining, material, rang va yoritishning uyg‘unligi shahar makonining vizual idrokini kuchaytiradi.

4. Funktsional integratsiya. Zamonaviy installyatsiyalar va haykaltaroshlik obyektlari ko‘pincha foydali funksiyalarga ega bo‘ladi: o‘rindiqlar, soyabonlar, o‘yin maydonchalari elementlari sifatida xizmat qiladi

5. Ijtimoiy hayotni faollashtirish. Art-obyektlar dam olish, uchrashuvlar, suratga tushish va madaniy tadbirlar o‘tkazish joylariga aylanishi mumkin[2].

Rossiyada hajmiy-fazoviy kompozitsiyalardan foydalanish tajribasi.

Rossiyada jamoat makonlarini badiiy bezash an’analari XVIII–XIX asrlarga borib taqaladi- bu davrda shaharlar tuzilmasida monumentlar, yodgorliklar va dekorativ haykallar faol qo‘llanilgan.

Tarixiy misollar:

1) Sankt-Peterburgdagi Pyotr I ga bag‘ishlangan “Mis chavandoz” haykali-shahar muhitidagi badiiy urg‘uni ifodalovchi klassik haykaltaroshlik dominanti.

2) Nevskiy prospekti va Dvortsovaya maydonidagi haykaltaroshlik kompozitsiyalari.

3) Moskvadagi monumental yodgorliklar: Minin va Pojarskiy haykali, Poklonnaya g‘oridagi memorial majmua.

Zamonaviy misollar:

4) Rossiya, Moskvaning “Zaryadye” parkidagi art-obyektlar va installyatsiyalar: shakl, landshaft va zamonaviy arxitektura uyg‘unligi.

5) Rossiyaning Qozon, Yekaterinburg va Sochidagi jamoat makonlaridagi haykallar va dekorativ kompozitsiyalar.

6) Rossiya, Yekaterinburgdagi “Stenograffiya” ko‘cha san’ati festivali doirasida yaratilgan vaqtinchalik va doimiy hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar[3].

Hajmiy-fazoviy kompozitsiyalardan foydalanish.

Yevropa tajribasi. Yevropa mamlakatlarida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar shahar muhitining madaniy, badiiy va ijtimoiy rivojlanishining ajralmas elementi sifatida faol qo‘llaniladi:

1) Parij-Respublika maydoni, Villette bog‘i, Sena daryosi bo‘yidagi sohillaridagi haykaltaroshlik va dekorativ kompozitsiyalar.

2) Berlin-tarixiy xotirani aks ettiruvchi installyatsiyalar bilan boyitilgan jamoat makonlari (masalan, Xolokost qurbonlariga bag‘ishlangan memorial).

3) Barselona-Gaudi tomonidan yaratilgan Guell bog‘i-badiiy kompozitsiyalarning arxitektura-landshaft strukturasiga integratsiyasining yorqin namunasi.

Shimoliy Amerika tajribasi. Nyu-York shahri: Tayms-skver maydoni, Markaziy park va Xay-Line bog‘ida vaqtinchalik va doimiy san’at installyatsiyalari, haykallar hamda interaktiv obyektlar mavjud. Bu elementlar shahar makonini ijtimoiy va vizual jihatdan boyitadi.

Osiyo tajribasi. Seul, Tokio, Pekin: zamonaviy jamoat makonlari nafaqat klassik haykallar, balki yuqori texnologiyali installyatsiyalar, raqamli art-obyektlar bilan ham to‘ldirilmoqda. Bu obyektlar madaniy meros va texnologik yutuqlarni aks ettiradi va makonga zamonaviylik ruhini olib kiradi.

1) Seul (Janubiy Koreya):

- Bolg'ali odam (Gvanxvamun) Seul markazidagi Gvanxvamun maydonida joylashgan bu 22 metrlik monumental haykal amerikalik rassom Jonatan Borofskiyning asaridir. U bir daqiqada bir tebranish tezligida harakatlanib, mehnat va mehnatning muhimligini ko'rsatadi.

Seul shahridagi “Statue of Gangnam Style” -ya’ni, PSYning mashhur “Gangnam Style” qo‘shig‘idagi mashhur “ot minish” raqs harakatini ramziy ifoda etuvchi haykaltaroshlik asari-hajmiy-fazoviy kompozitsiya.

- Statue of Peace. *“Tinchlik haykali”* yoki *“Tichlik qizi”*, ko‘rinishda esa comfort women (urushda Yapon armiyasi tomonidan jinsiy qullikka mahkum qilingan koreyalik ayollar) xotirasiga bag‘ishlangan haykal. Bu haykal Seul shaharsozlik makonida nafaqat estetik, balki siyosiy, madaniy va insoniy adolat nuqtai nazaridan ham muhim ramziy obyektdir.

2) Tokio (Yaponiya):

- Jaume Plensaning "Ildizlar" (monumental haykal) Toranomon tepaliklari, Tokio, Yaponiya. Ispaniyalik rassom Jaume Plensaning 10 metr balandlikdagi ushbu kompozitsiyasi harf shaklida bo‘lib, sakkiz til (arab, xitoy, yunon, ibroniy, hind, yapon, rus va boshqalar) ramzlaridan iborat. U global madaniy xilma-xillik va insoniyat birligini ramziy qiladi.

- "Unicorn Gundam" (haykaltaroshlik + pop madaniyat uslubidagi installyatsiya). DiverCity Tokyo Plaza, Odaiba, Tokio, Yaponiya. Mashhur Mobile jangchi Gandam: Yakka shohli ot anime seriyasidan ilhomlangan bu 19,7 metr balandlikdagi haykal uch o‘lchamli installatsiya hisoblanadi. Kun davomida u oddiy “yaka shoxli” rejimda ishlaydi, kechqurun esa “qirg'in rejimi”ga o'tadi va LED yoritgich yordamida effektlar yaratadi. Bu pop madaniyati va shahar maydoni uyg'unligining noyob namunasidir.

- Tokio shahridagi mashhur hajmiy-fazoviy kompozitsiyalardan biri-rang-barang “Miray” installyatsiyasi. Bu o‘ziga xos installyatsiya Tokyo shahar makonidagi zamonaviylik va badiiy iste’dodni yaxshi ifodalaydi. “Miray” (Kelajak) installyatsiyasi haqida: Mirai-yaponcha “Kelajak” ma’nosini anglatadi.

Markaziy Osiyo tajribasi. O‘zbekiston tajribasida, ayniqsa, Toshkent**,** Samarqand va Buxoro shaharlarida o‘rnatilgan haykallar va zamonaviy installyatsiyalar jamoat joylarini vizual ravishda markazlash, tarixiy xotirani tiklash va sayyohlikni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda[4].

Misol uchun:

1) Toshkent

- Mustaqillik maydoni – Mustaqillik va ezgulik monumenti: Maydon markazidagi “Baxtiyor Ona” haykali milliy ramz sifatida ishlangan. Hudud atrofidagi landshaft dizayni va yoritish tizimi kechki payt jozibador vizual markaz hosil qiladi.

- Amir Temur maydoni – Amir Temur haykali: Tarixiy shaxs siymosi zamonaviy shahar markazida madaniy va tarixiy xotira timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

- Tashkent City Park: Toshkent shahri markazidagi shahar bog‘i, O‘zbekistondagi eng yirik istirohat bog‘i hududi. Tashkent City xalqaro biznes markazi hududida joylashgan. Parkning landshaft dizayni shaharning yangi zamonaviy turistik markaziga aylangan.

- Yangi O‘zbekiston bog‘i: Hajmiy-fazoviy kompozitsiyaning yorqin namunasi sifatida “Buyuk ajdodlar xotirasi” monumental majmuasi o‘rnatilgan. Bu obyekt milliy tarixiy xotira va zamonaviy landshaft dizaynini uyg‘unlashtiradi.

- G‘alaba bog‘i: Ikkinchi jahon urushi qahramonlariga bag‘ishlangan monumental

majmua. Memorial hududdagi haykaltaroshlik asarlari, xotira devori va fazoviy kompozitsiyalar jamoat joyiga chuqur ma’naviy mazmun beradi.

- Ashxobod bog‘i: Zamonaviy rekonstruksiya jarayonida milliy uslubdagi haykallar va dekorativ elementlar o‘rnatilib, dam olish hududi sifatida yangidan shakllantirilgan.

- Milliy bog‘: Markaziy xiyobonlarda o‘rnatilgan skulpturalar va badiiy elementlar, favvoralar va keng ochiq fazolar Toshkentning eng qadimiy jamoat bog‘laridan birini zamonaviy ko‘rinishga keltirgan.

- Adiblar hiyoboni: O‘zbek adabiyoti namoyandalari haykallari va yodgorlik kompozitsiyalari majmuasi. Bu hudud Toshkentda nafaqat madaniy xotira, balki yoshlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu orqali ko‘rinadiki, Toshkentdagi yirik jamoat joylari klassik haykaltaroshlikdan tortib zamonaviy installyatsiyalargacha bo‘lgan badiiy vositalar orqali hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarga boyitilgan. Ularning asosiy funksiyasi:

1) tarixiy xotirani tiklash;-
2) madaniy identitetni mustahkamlash;-
3) turizm va dam olish salohiyatini oshirish[5].

2. Samarqand:

- Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk siymolarni gavdalantirgan monumental haykaltaroshlik namunalari. Bu monumental haykallar shahar tarixini yodga soluvchi hajmiy-fazoviy elementlar hisoblanadi.

- Registon maydoni yaqinidagi hiyobondagi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovga o‘rnatilgan haykal, “Buyuk ajdodlarimiz” guruhli haykaltaroshlik namunasi, “Karvon” kabi haykaltaroshlik namunalari ham yuksak bilim va ma’naviy yetuk ajdodlarimiz siymolarini kompozitsion jihatdan me’moriy ansanblga moslashtirilganligi bilan qiziqarlidir.

- Shu bilan birga Qavmiddin Sheroziy hiyobonidagi “Atoqli o‘zbek baxshi shoirlari” guruhli haykaltaroshlik asari va A.Temur hiyobonidagi “Sherlar” haykali, Afrosiyob mahallasi aylanmasida joylashtirilgan “Karvon” haykaltaroshlik kompozitsiyalari va kichik me’moriy shakllar shahar mehmonlariga afsonaviy Samarqand shahri haqida kuchli tassurot uyg‘otadi.

- 2022 yilda Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar haykaltaroshlari tomonidan yaratilgan asarlar o‘rnatildi. Mazkur haykallar ShHTning Samarqand sammitida ishtirok etish uchun Rossiya, Eron, Hindiston, Gruziya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistondan kelgan ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Shahardagi "Vatanparvar" bog‘ida 7 nafar xorijiy va 7 nafar mahalliy haykaltarosh Zarband marmari, metall va materialda ajoyib haykaltaroshlik asarlarini yaratishgan. 2022 yilda ShHT sammiti davomida “Samarqand ruhi” loyihasi doirasida 10-avgustdan 10-sentabrga qadar Samarqandda “Xalqaro haykaltaroshlar simpoziumi” bo‘lib o‘tgan edi. Bu yana bir bor Samarqand dunyo sivilizatsiyasi markazlaridan biri ekanligiga isbotdir[6].

3. Buxoro:

- Buxoro madaniy markazi bunyodkorlik ishlari doirasida alohida o`rin egallaydi. Prezidentimiz tashabbusi va g`oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar – 700 o`rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo`ljallangan amfiteatr, ular o`rtasida esa “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumentidan iborat.

Madaniy markaz turli burchaklaridan boshlangan yo`laklar balandligi 18 metrli “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumentiga kelib tutashadi. Monumentni taniqli haykaltarosh, O`zbekiston san’at arbobi Ilhom Jabborov ishlagan[7].

Obida zinapoyalari orqali ko`tarilganda, diqqatingizni monument tevaragida zarhal koshinlar tortadi. Unda Buxoroning tuprog`i oltinga teng, degan ma’no mujassam. Chunki

Buxoro azaldan oltin makoni bo`lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu yerdan topilgan. Ayni chog`da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak degan g`oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo`shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G`ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Regariy, Xoja Mahmud Anjir Fag`naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, xalqimizning boshqa asl farzandlari yetishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida “Ilm o`rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan hadis o`zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da’vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma’rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas[8].

“Ko`hna va boqiy buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy obidalar:

- Poykent (er.av. V asr)
- Varaxsha (I-VI asrlar)
- Mag`oki Attor masjidi (IX asr)
- Buxoro arki (V asr)
- Ismoil Samoniy maqbarasi (X asr)
- Minorai Kalon (1127 yil)
- Sayfiddin Boxarziy maqbarasi (XIV-XV asr)
- Xoja Abduxolliq G`ijduvoniy me’moriy majmuasi (XV asr)
- Mir Arab madrasasi (XIV asr)
- Bahouddin Naqshband majmuasi (XIV asr)
- Chorbakr (XIV asr)
- Labi Hovuz majmuasi (XVII asr)
- Chorminor (XIX asr)

“Ko`hna va boqiy buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy shaxslar:

- Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar)
- Imom Buxoriy (810-870 yillar)
- Muhammad Narshaxiy (899-959 yillar)
- Mahmud Torobiy (1238 yilda mo`g`ullarga qarshi ozodlik harakati rahbari)
- Xoja Abduxoliq G`ijduvoniy (1103-1179 yillar)
- Xoja Orif Revgariy (XIII asr)
- Xoja Mahmud Anjir Fag`naviy (XIII asr)
- Xoja Ali Romitaniy (XIII asr)
- Boboi Samosiy (XIV asr)
- Amir Kulol (XIV asr)
- Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar)
- Ahmad Donish (1827-1897 yillar)
- Sadriddin Ayniy (1878-1954 yillar)
- Abdurauf Fitrat (1886-1938 yillar)
- Fayzulla Xo`jayev (1886-1938 yillar)
- Olim Xo`jayev (1910-1977 yillar)
- Mutal Burhonov (1916-2002 yillar)
- Labi-Hovuz maydonida joylashgan Xo‘ja Nasriddin va Karvon mavzusidagi haykaltaroshlik kompozitsiyalari. Ushbu bronza haykal Buxorodagi eng mashhur jamoat obyekti bo‘lib, folkloriy qahramonni eslatadi. Hajmiy joylashuvi, figural shakli va atrofdagi tarixiy muhit

bilan uyg‘unligi orqali makonga o‘ziga xos dramatik markaziy element sifatida xizmat qiladi. Bolalar va sayyohlar tomonidan juda qiziqib ko‘riladi-bu madaniy merosni interaktiv tarzda jonlantirishning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Qozog‘istonda**,** ayniqsa Nursulton (Astana) shahrida, zamonaviy arxitektura va san’atni birlashtiruvchi yondashuv ustuvor. "Bayterek" monumenti va "Hazrat Sulton" masjidi atrofidagi hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar shahar landshaftiga identitet va ramziy ma’no kiritadi[9].

Turkmanistonda esa Ashxobod shahrining markaziy qismlarida marmar bilan qoplangan monumental obyektlar, turli ramziy installyatsiyalar va favvorali kompozitsiyalar milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtiradi[10].

1-jadval

Mahalliy va xorijiy tajribaning taqqoslovchi tahlili

Mezon	**Mahalliy tajriba**	**Xorijiy tajriba**
Tarixiy an’analar	Monumentallik va yodgorliklar ustunligi	Tarixiy va zamonaviy san’at uyg‘unligi
Zamonaviy tendensiyalar	Festival va vaqtinchalik obyektlarning rivojlanishi	Interaktivlik va texnologik yondashuvga urg‘u
Muhitga integratsiya darajasi	Ko‘pincha fragmentar, takomillashtirish zarur	Kompleks yondashuv, kontekstni hisobga olish
Ijtimoiy yo‘nalganlik	Ortib bormoqda, lekin faollik yetarli emas	Aniq ifodalangan ijtimoiy funksiyaga ega
Yangi texnologiyalardan foydalanish	Faol joriy etish bosqichida	Raqamli va interaktiv vositalardan keng foydalanish

Hajmiy-fazoviy kompozitsiyalardan foydalanish-jamoat makonlarini badiiy bezashning eng muhim vositalaridan biridir. Mahalliy va xorijiy tajribaning taqqoslovchi tahlili shuni ko‘rsatadiki, shahar muhitining yuqori sifatga ega bo‘lishi uchun haykallar, installyatsiyalar va boshqa fazoviy badiiy obyektlardan kompleks, kontekstga yo‘naltirilgan va innovatsion asosda foydalanish zarurdir[11].

Shaharsozlik muhitida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarni qo‘llash nafaqat estetik go‘zallik yaratadi, balki jamoat joylarining ijtimoiy, madaniy va psixologik qabul qilinishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[12]. Shaharsozlik muhitida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarni qo‘llash nafaqat estetik go‘zallik yaratadi, balki jamoat joylarining ijtimoiy, madaniy va psixologik qabul qilinishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Haykallar va installyatsiyalar makonga vizual urg‘u beradi, tarixiy va madaniy mazmun yuklaydi, ijtimoiy hayotni faollashtiradi hamda fuqarolarning makon bilan aloqasini mustahkamlaydi. Mahalliy (O‘zbekiston) va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday obyektlar turizmni rivojlantirish, madaniy identitetni mustahkamlash va urbanistik sifatni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa. Hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar jamoat makonlarini shakllantirishda zamonaviy shaharsozlikning ajralmas elementi hisoblanadi. Ularning samarali qo‘llanishi uchun uchta asosiy omil zarur:

1. **Kompleks yondashuv**-obyektlarni arxitektura, landshaft va ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashtirish;
2. **Innovatsion yechimlar**-interaktivlik, raqamli texnologiyalar va zamonaviy san’at usullaridan foydalanish;
3. **Madaniy kontekst**-milliy meros va tarixiy xotirani hisobga olgan holda ijodiy loyihalarni amalga oshirish.

Natijada, hajmiy-fazoviy kompozitsiyalardan oqilona foydalanish shahar muhitining estetik darajasini oshirish, ijtimoiy hayotni jonlantirish va xalqaro miqyosda jozibadorlikni kuchaytirish imkonini beradi[13].

Shaharsozlik muhitida hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarni qo‘llash nafaqat estetik go‘zallik yaratadi, balki jamoat joylarining ijtimoiy, madaniy va psixologik qabul qilinishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Haykallar va installyatsiyalar makonga vizual urg‘u beradi, tarixiy va madaniy mazmun yuklaydi, ijtimoiy hayotni faollashtiradi hamda fuqarolarning makon bilan aloqasini mustahkamlaydi. Mahalliy (O‘zbekiston) va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday obyektlar turizmni rivojlantirish, madaniy identitetni mustahkamlash va urbanistik sifatni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Турсунов, Ш. Ш., & Бегматов, Д. К. (2017). Возможности в процессе создания произведения при использовании приёмов и средств композиции. *Научное знание современности*, (3), 288-291.

2. Турсунов, Ш. Ш. (2022). ШАҲАР МУҲИТИНИ БАДИИЙ ЮКСАЛИШИ–АҲОЛИ ЯШАШ ҚУЛАЙЛИГИНИ ОШИШИ ОМИЛИ СИФАТИДА. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 74-78.

3. Захаров С.В. Муралы и граффити как элемент художественного облика города. — Екатеринбург: УрФУ, 2022. — С. 72–79

4. Karimov N. *Zamonaviy arxitektura va tarixiy an’analar*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

5. Турсунов, Ш. Ш. (2021). Замонавий шаҳарсозлик муҳитида арт-объектларни шаклланиши ва ривожланиши. *Вестник науки и творчества*, (6 (66)), 51-54.

6. Турсунов, Ш. Ш. (2021). Замонавий шаҳарсозлик муҳитида арт-объектларни шаклланиши ва ривожланиши. *Вестник науки и творчества*, (6 (66)), 51-54.

7. Турсунов, Ш. Ш., & Турғунов, О. Т. Ў. (2021). ЗАМОНАВИЙ ШАҲАР МУҲИТНИНГ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТАСВИРЛАШНИНГ ЯНГИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Вестник науки и творчества*, (11 (71)), 29-33.

8. Турсунов, Ш. Ш. (2023). Шаҳарсозлик бадиий ечимида архитектура ва монументал санъатнинг ўзаро уйғунлашуви. *Строительство и образование*, *1*(3), 49-53.

9. Abdullina G. *Qozog‘iston me’morchiligida zamonaviylik va ramziy obrazlar*. – Nursulton: KazGASA, 2020.

10. Durdyyev A. *Turkmaniston shaharsozligi: an’anaviylik va innovatsiya*. – Ashxobod: Türkmendöwletneşir, 2019.

11. Турсунов, Ш. Ш., & Бегматов, Д. К. (2015). Гармония монументальной скульптуры и архитектуры в современном градостроительстве. *Высшая школа*, (5), 69-70.

12. Sharibjonovich, T. S. (2025). SHAHARSOZLIK MUHITIDA ART-OBYEKTLARNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI QO ‘LLASH (YANGI NAMANGAN TUMANIDAGI “PAHLAVON” KO‘P QAVATLI TURARJOY MAVZESI MISOLIDA). *Строительство и образование*, *4*(1), 42-51.

13. Tursunov, S. S. Effective use of decorative lighting in a modern urban environment. *International Journal of Advanced Research in IT and Engineering ISSN*, 2278-6244.

UDK 72.03

OLIY TA’LIM MUASSASALARINING O‘QUV BINOLARIDA BARQAROR ARXITEKTURA TAMOYILLARINI QO‘LLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI

Abdusalomov Ulug‘bek Xabibullo o‘g‘li
Toshkent arxitektura qurilish universiteti “Arxitektura” fakulteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolarida barqaror arxitektura tamoyillarini qo‘llashning dolzarbligi yoritilgan. Unda barqaror arxitektura tushunchasi, uning tarixiy rivojlanishi, ekologik va funksional afzalliklari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, O‘zbekistondagi mavjud o‘quv binolarining holati tahlil qilinib, energiya samaradorligi, ichki mikroiqlim va ekologik xavfsizlik kabi jihatlar bo‘yicha muammolar ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация. В статье раскрыта актуальность применения принципов устойчивой архитектуры в учебных зданиях высших учебных заведений. Представлены понятие устойчивой архитектуры, её историческое развитие, экологические и функциональные преимущества. Также проанализировано текущее состояние существующих учебных корпусов в Узбекистане, обозначены проблемы, связанные с энергоэффективностью, внутренним микроклиматом и экологической безопасностью.

Abstract. В статье раскрыта актуальность применения принципов устойчивой архитектуры в учебных зданиях высших учебных заведений. Представлены понятие устойчивой архитектуры, её историческое развитие, экологические и функциональные преимущества. Также проанализировано текущее состояние существующих учебных корпусов в Узбекистане, обозначены проблемы, связанные с энергоэффективностью, внутренним микроклиматом и экологической безопасностью.

Kalit ao‘zlar: barqaror arxitektura, oliy ta’lim muassasalari,o‘quv binolari, energiyani tejash, ekologik xavfsizlik, passiv dizayn, ichki mikroiqlim, energiya samaradorligi, arxitektura, modernizatsiyasi, ekologik qurilish materiallari.

Ключевые слова: устойчивая архитектура, высшие учебные заведения, учебные здания, энергосбережение, экологическая безопасность, пассивный дизайн, внутренний микроклимат, энергоэффективность, архитектура, модернизация, экологические строительные материалы.

Keywords: sustainable architecture, higher education institutions, academic buildings, energy saving, environmental safety, passive design, indoor microclimate, energy efficiency, architecture, modernization, eco-friendly building materials.



Hozirgi kunda barqaror rivojlanish g‘oyasi arxitektura va shaharsozlik sohasida asosiy strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolarida barqaror arxitektura tamoyillarining qo‘llanilishi muhim masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Bu muassasalarning nafaqat estetik va funksional jihatdan qulay bo‘lishi, balki ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi lozim. Barqaror arxitektura bu-qurilishda ekologik toza materiallardan foydalanish, energiyani

tejash, suv resurslarini oqilona boshqarish va mavjud tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik kabi mezonlarga asoslanadi. Oliy ta’lim binolari ko‘p yillik foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning loyihalanishi va ekspluatatsiyasi davomida barqarorlik tamoyillariga amal qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Barqaror arxitektura konsepsiyasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida, global ekologik inqiroz xavfi yuzaga kelgan davrda shakllana boshladi. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan “sustainable development”-ya’ni barqaror rivojlanish g‘oyasi arxitektura sohasida ham o‘z aksini topdi. 1987 yilda BMTning Brundtland hisobotida barqaror rivojlanish “kelajak avlodlar ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymasdan, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish” deb ta’riflangan. Arxitektura nuqtai nazaridan, bu degani-binolarni qurishda atrof-muhitga minimal zarar yetkazish, energiya tejamkorligi va uzoq muddatli foydalanish imkonini beruvchi dizayn usullarini qo‘llashdir. Tarixiy jihatdan olganda, qadimiy sharq arxitekturasida ham passiv sovitish, quyosh nurlaridan himoyalanish, shamollatish tizimlari tabiiy shaklda qo‘llanilgan. Masalan, Buxoro va Xivaning madrasa va masjidlarida bu kabi elementlar mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga, sovet davrida qurilgan ko‘plab o‘quv binolarida esa barqarorlik mezonlariga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistondagi ko‘plab oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolari eski sovet loyihalariga asoslangan bo‘lib, ular zamonaviy barqaror arxitektura talablari bilan mos kelmaydi. Bunday binolarda energiya sarfi yuqori, issiqlik izolyatsiyasi sust, ichki mikroiqlimni saqlab turish uchun katta miqdorda resurslar talab qilinadi. Shuningdek, aksariyat o‘quv binolarida tabiiy yoritish va shamollatish imkoniyatlari yetarli darajada ta’minlanmagan. O‘quv binolari dizaynida ko‘plab holatlarda ekologik va energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari inobatga olinmaydi. Bu esa talabalar va o‘qituvchilarning sog‘lig‘i va unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘quv binolarining funksional moslashuvchanligi, ya’ni kelajakda ularni oson modernizatsiya qilish imkoniyati mavjud emas. Bu esa ta’lim tizimining doimiy rivojlanib borayotgan ehtiyojlariga javob bera olmaydi.



Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechimlar mavjud. Avvalo, yangi qurilayotgan o‘quv binolari loyihasida passiv arxitektura elementlarini keng joriy etish lozim. Bular quyoshdan himoyalovchi soyabonlar, shamollatish shaxtalari, tabiiy yorug‘likdan maksimal foydalanish va issiqlikni saqlovchi materiallar qo‘llashdir. Bundan tashqari, mavjud binolarni energetik jihatdan modernizatsiya qilish, ya’ni fasadlarni issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplash, energiya tejovchi oynalardan foydalanish, LED yoritgichlar o‘rnatish va quyosh panellarini joriy etish orqali ularni zamonaviy talablar asosida qayta tiklash mumkin. O‘quv binolarida suv tejash texnologiyalari (masalan, yomg‘ir suvini yig‘ish va qayta ishlatish tizimlari) ham muhim ahamiyatga ega. Eng asosiysi, bu binolarni loyihalash bosqichidan boshlab barqarorlik mezonlarini qat’iy inobatga olish zarur. Shuningdek, loyihachilar, arxitektorlar va quruvchilar o‘rtasida ekologik savodxonlikni oshirish maqsadida maxsus o‘quv kurslari, seminarlar va standartlar tizimi joriy etilishi kerak.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolarida barqaror arxitektura tamoyillarini joriy etish-nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda ko‘plab o‘quv binolari zamonaviy barqarorlik

talablariga javob bermaydi, bu esa resurslarning samarasiz sarflanishiga, ichki muhitning noqulayligiga va binolarning uzoq muddatli ishlash imkoniyatining cheklanishiga olib keladi. Shuning uchun yangi binolarni loyihalashda va mavjud binolarni rekonstruksiya qilishda ekologik toza materiallar, energiya tejamkor texnologiyalar va passiv dizayn elementlaridan foydalanish zarur. Shu bilan birga, arxitektorlar, quruvchilar va ta'lim sohasi vakillari o'rtasida barqaror arxitekturaga oid bilim va ko'nikmalarni oshirish maqsadida o'quv dasturlari va seminarlarni tashkil etish lozim. Ushbu yondashuv orqali oliy ta'lim muassasalari nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki ekologik barqarorlikka ham munosib hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Brundtland, G.H. (1987). *Our Common Future*. World Commission on Environment and Development. Oxford University Press.

2. Edwards, B. (2001). *Green Buildings Pay: Design, Productivity and Ecology*. Spon Press.

3. Vale, B. & Vale, R. (1996). *Green Architecture: Design for a Sustainable Future*. Thames & Hudson.

4. Kazarinov, A.A. (2012). *Energoeffektivnaya arxitektura: teoriya i praktika*. Moskva: Arxitektura-S.

5. UNESCO (2020). *Sustainable Development Goals and Education*. https://unesdoc.unesco.org

6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (2022). *Barqaror arxitektura va energiya tejamkor qurilish bo'yicha milliy standartlar*. Toshkent.

7. Tursunov, A., & Mamajonov, I. (2021). "Oliy ta'lim muassasalarining binolarida ekologik muvozanat va barqaror dizayn tamoyillari". *Arxitektura va Qurilish* jurnali, №3, 45–52.

UO‘T::5527. 72.01.03

SHAHAR MUHITIDA SAN’AT TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIR KO‘RSATGAN IJODIY KONTSEPTSIYALAR

Tursunov Shavkat Sharibjonovich
Namangan davlat texnika universiteti “Chizma geometriya va muhandislik kompyuter grafikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar muhitida san’atning transformatsiyasi va uning badiiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatlardagi ifodasi tahlil qilinadi. San’atlar sintezi, gumanizatsiya, postmodernizm, voqelik muhiti va senariyli loyihalash, barcha uchun san’at hamda barqaror rivojlanish konsepsiyalari shahar muhitini shakllantirishdagi roli nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot shaharlarning estetik, madaniy va ijtimoiy jihatdan boyishini ta’minlovchi yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy namunalari bilan izohlanadi.

Аннотация. В данной статье анализируется трансформация искусства в городской среде и её художественные, социальные и экологические проявления. Рассматриваются синтез искусств, гуманизация, постмодернизм, средовой подход и сценарное проектирование, искусство для всех, а также концепции устойчивого развития с точки зрения их роли в формировании городской среды. Исследование поясняется теоретическими основами и практическими примерами подходов, обеспечивающих эстетическое, культурное и социальное обогащение городов.

Abstract. This article analyzes the transformation of art in the urban environment and its artistic, social, and ecological expressions. The synthesis of arts, humanization, postmodernism, environmental approach and scenario-based design, art for all, and sustainable development concepts are examined in terms of their role in shaping the urban environment. The study is supported by theoretical foundations and practical examples of approaches that ensure the aesthetic, cultural, and social enrichment of cities.

Kalit so‘zlar: shahar muhiti, san’atlar sintezi, gumanizatsiya, postmodernizm, ekologik san’at, barcha uchun san’at, voqelik muhiti, shahar dizayni.

Ключевые слова: городская среда, синтез искусств, гуманизация, постмодернизм, экологическое искусство, искусство для всех, средовой подход, дизайн города.

Keywords: urban environment, synthesis of arts, humanization, postmodernism, ecological art, art for all, environmental approach, urban design.

Kirish. XX-XXI asrlarda shaharlar faqatgina iqtisodiy va siyosiy markaz sifatida emas, balki badiiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning asosiy o‘chog‘iga aylandi. Shahar muhitidagi san’at nafaqat estetik quvonch manbai, balki jamoat hayotini boyituvchi, ijtimoiy muloqotni mustahkamlovchi va ekologik ongni rivojlantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda[1]. Ushbu maqolada shahar muhitida san’at transformatsiyasiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy konsepsiyalar tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

1. San’atlar sintezi konsepsiyasi. San’atlar sintezi konsepsiyasi shahar muhitini badiiy shakllantirishda asosiy nazariy poydevorlardan biri bo‘lib, u arxitektura, haykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy san’at va landshaft dizaynini birlashtirishga asoslangan[2]. Bu konsepsiya, san’at va arxitektura elementlarini birlashtirib, jamoat makonlarini yagona, estetik jihatdan boyitilgan va funktsional tarzda yaratishni maqsad qiladi.

San’atlar sintezi g‘oyasining tarixi: San’atlar sintezi g‘oyasi, antik davrga qaytadi. Yunon va Rim madaniyatlarida, masalan, Parfenon (Afina) kabi yirik muhim arxitekturalar, haykaltaroshlik va rangtasvirning uyg‘unlashgan shaklini aks ettirgan. Bu san’atlarning barchasi birgalikda shahar muhitini yaratishda birlashib, aholiga estetik va ma'naviy ta'sir ko‘rsatgan.

1) Uyg‘onish davrida (Renessans), san’at va arxitektura bir-biriga yaqinlashgan. Filippo Brunelleski**,** Leonardo da Vinci va Mikelandjelo kabi san’atkorlar arxitektura va haykaltaroshlikni birlashtirib, shaharlar va jamoat joylarini bezashda yangi yo‘nalishlar yaratganlar. Bu davrda badiiy shakllar har bir binoning va shahar makonining ahamiyatini ko‘rsata boshladi.

2) Barokko davrida esa, san'atlar sintezi yanada rivojlanib, rangtasvir, haykaltaroshlik va arxitektura ko‘plab diniy va dunyoviy obidalar orqali birlashgan. **Berninin**ing **Pyetr cherkovi**dagi ishlarini misol keltirish mumkin. Bu asarda haykaltaroshlik, arxitektura va rangtasvir birgalikda mukammal badiiy kompozitsiya yaratadi.

San’atlar sintezining zamonaviy ifodalari: **20-21-asrlarda san’atlar sintezi jamoat makonlarini kompleks loyihalashning nazariy asosiga aylanadi. Zamonaviy arxitektura va dizaynning bu g‘oyasi quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:**

1) **Haykaltaroshlik va rangtasvir kompozitsiyalarini shahar bog‘lari va maydonlariga integratsiya qilish:** Zamonaviy shahar muhitida haykaltaroshlik va rangtasvirni integratsiya qilish orqali, jamoat joylari faqat amaliy emas, balki badiiy nuqtai nazardan ham boyitiladi. **Haykaltaroshlik va rangtasvir kompozitsiyalari** jamoat joylarida, masalan, **shahar bog‘larida** yoki **maydonlarda**, shaharni estetik jihatdan yuksaltiradi va ularning jamoat ahamiyatini ta’kidlaydi.

Misol: Toshkentdagi Mustaqillik maydoni, undagi monumental haykallar va rangtasvirli bezaklar bu g‘oyaning jonli misolidir[3].

2) **Landshaft dizaynini teng huquqli badiiy element sifatida qo‘llash: Landshaft dizayni** shahar muhitining ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi[4]. Yashil hududlar, bog‘lar, hovlilar va jamoat joylaridagi landshaft dizayni, arxitektura va haykaltaroshlik bilan uyg‘unlashgan holda, odamlarni nafaqat estetik, balki ekologik nuqtai nazardan ham rag‘batlantiradi.

Misol: Park Guell (Barselona)-**Antoni Gaudi**ning shaharlandshaft dizayni va arxitektura elementlari birgalikda ishlatilgan kompozitsiyalarni o‘z ichiga oladi.

3) **Binolar va jamoat makonlarini yagona badiiy kompozitsiya tarzida bezash:** Jamoat makonlarini, binolarni badiiy kompozitsiyalar tarzida bezash, nafaqat arxitektura elementlari, balki rangtasvir, haykaltaroshlik, mozaika va pannolar yordamida amalga oshiriladi[5]. Bu badiiy kompozitsiyalar birlashib, shahar muhitini yaxshilaydi va odamlar uchun qulay muhit yaratadi.

Misol: Sankt-Peterburgdagi Zaryadye Parkida arxitektura, landshaft dizayni, haykaltaroshlik va rangtasvir birgalikda ishlatilgan. Bu yerda barcha badiiy elementlar shahar va tabiat bilan uyg‘unlashgan holda birlashadi.

San’atlar sintezining mahsuli bo‘lgan shaharlar:

1) **Barselona-**Antoni Gaudi tomonidan yaratilgan arxitektura va landshaft dizayni bir-biriga uyg‘unlashgan. Gaudi **Park Guell** va **Sagrada Familiya** kabi asarlari orqali san’atlar sintezining zamonaviy misoliga aylanadi.

2) **Florensiya-**Uyg‘onish davrida san'at va arxitektura o‘rtasidagi chiroyli uyg‘unlikni ko‘rsatadi. **Florensiya katedrali** va uning atrofidagi san'atlar sintezi, renessansning yuksalishi va arxitekturaning badiiy kompozitsiyalarni yaratishda qanday ro‘l o‘ynaganini aks ettiradi.

3) **Milan-**Zamonaviy arxitektura va san'atni uyg‘unlashtirgan shahar. **Viktora Emmanuel II galereyasi** yoki **Pyatstsa del Duomo**dagi jamoat makonlari, arxitektura va badiiy san'atning sinteziga ajoyib misollarni taqdim etadi.

San’atlar sintezi, shahar muhitini shakllantirishda badiiy, estetik va madaniy qiymatni yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Bu konsepsiya arxitektura, haykaltaroshlik, rangtasvir, landshaft dizayni va amaliy san'atning badiiy uyg‘unligini o‘z ichiga oladi[6]. Zamonaviy

shaharlar, jamoat makonlari va transport tizimlarida san'atlarning bunday sintezi shaharni yanada jozibador va yashashga qulay qiladi.

2. Shahar muhitini insonga moslashtirish (gumanizatsiya) konsepsiyasi. Shahar muhitini insonga moslashtirish yoki gumanizatsiya konsepsiyasi 20-asr o‘rtalarida, funksionalizm va texnokratiya kabi yondoshuvlarning ustunligi davrida shakllandi[7]. Bu konsepsiyaning asosiy maqsadi – shahar muhitini inson ehtiyojlariga moslashtirish va jamoat joylarini psixologik va emotsional farovonlikka yo‘naltirishdir.

Shaharlar va ularning makonlari ko‘pincha har tomonlama texnologik va funksional nuqtai nazardan yaratilgan, ammo ular ko‘pincha odamlarning haqiqiy ehtiyojlari va ruhiy holatiga e'tibor bermasdi[8]. Gumanizatsiya esa, bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Konsepsiya g‘oyasi insonning estetik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga asoslanadi.

Gumanizatsiya konsepsiyasining asosiy tamoyillari:

1) **Inson ehtiyojlarini hisobga olish:** Har bir shahar yoki jamoat makoni insonlar uchun qulay, sog‘lom va foydali bo‘lishi kerak[9]. Bu yerda nafaqat fizika, balki psixologiya ham muhim rol o‘ynaydi. Shahar muhitining ijobiy psixologik ta’siri odamlarning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

2) **Emotsional farovonlik:** Gumanizatsiya jarayonida shahar muhitini dizayn qilishda emotsional farovonlikka katta ahamiyat beriladi[10]. Bu qulay, xavfsiz, o‘zgarmas va ruhiy jihatdan iliq makonlarni yaratishga intilishdan iborat.

3) **Psixologik qabul qilish:** Shahar dizaynida psixologik jihatlarni inobatga olish, makonlarni odamlar uchun intuitiv ravishda tushunarli va qulay qilish muhimdir[11]. Bu ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar va umumiy jamoat joylari uchun qo‘llanilishi kerak bo‘lgan tamoyildir.

Gumanizatsiya konsepsiyasi bir necha asosiy jihatlarda o‘z ifodasini topgan:

1) **“Inson o‘lchovida” badiiy loyihalar yaratishga intilish:** Shahar muhitining har bir elementini inson uchun qulay va estetik jihatdan yoqimli qilish[12]. Bu yerda dizaynerlar va arxitektorlar shahar makonini tashkil etishda, odamlarning kundalik hayotini osonlashtirish va ular uchun qulay bo‘lishini ta'minlashga intilishadi.

Misol: Kopengagendagi piyodalar ko‘chalari va yashil hududlar. Bu joylarda insonning ehtiyojlari, qulayligi va farovonligi hisobga olingan. **Kopengagendagi Superkilen Parki** kabi maydonlar odamlarni birlashtirish, ularni sog‘lom yashashga rag‘batlantirish maqsadida yaratilgan[14].

3. Vizual qulaylik va tushunarlilikka urg‘u: Shahar makonlarini yaratishda, insonlar uchun tushunarli va intuitiv bo‘lishi muhim. Ko‘chalar va maydonlar shunday yaratiladi, shunda har bir element, bo‘yoq, naqsh va tasvirlar foydalanuvchilarga aniq va yoqimli bo‘ladi. Shaharlar o‘zlarining vizual ko‘rinishida inson psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni hisobga oladi.

Misol: Singapurda shahar makonlarini qanday qilib vizual qulay va tushunarli qilishga harakat qilinadi. **Marina Bey Sends** (Kema shaklidagi otel) kabi obyektlar faqat zamonaviy emas, balki odamlarni o‘ziga tortadigan va qulay muhit yaratadigan joylar sifatida qaraladi[15].

4. Ko‘cha san’ati, interaktiv obyektlar orqali emotsional jihatdan qulay makonlar yaratish: Ko‘cha san’ati, graffitilar, interaktiv obyektlar va zamonaviy dizayn elementlari yordamida shaharlarning ko‘cha muhitini yanada qiziqarli va emotsional jihatdan boyitish. Bu interaktiv obyektlar nafaqat estetik jihatdan qulay, balki ular odamlarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Misol: Berlindagi “East Side Gallery” yoki **London**dagi ko‘cha san’ati, bu joylarda rang-barang va interaktiv elementlar mavjud. Shuningdek, **New York**da joylashgan "The Vessel" (Kema) kabi arxitektura obyektlari, odamlarni o‘ylashga va ular bilan o‘zaro aloqada

bo‘lishga undaydi[16].

Gumanizatsiya va shahar dizaynida boshqa misollar: Zaha Hadidning arxitekturasi: 21-asrda yangi arxitekturaviy yondoshuvlar gumanizatsiya konsepsiyasiga asoslangan. **Zaha Hadid**ning asarlari, masalan, **Londonning “Aquatics Center**”i (Suv sporti turlari markazi), ko‘proq "inson o‘lchovida" bo‘lgan dizaynni namoyish etadi. Uning ishlari ko‘pincha noaniq va organik shakllarni o‘z ichiga olib, odamlar uchun estetik jihatdan yoqimli va qulay makonlar yaratishga qaratilgan[17]. **Milan Expo 2015**: Bu yirik ko‘rgazmada shahar muhitini inson ehtiyojlariga moslashtirishning bir nechta innovatsion g‘oyalari namoyish etilgan. Shahar dizaynida innovatsion, yashil texnologiyalar va ekologik jihatlar hisobga olingan, odamlar uchun qulay va tabiatga zarar keltirmaydigan makonlar yaratishga harakat qilingan[18].

5. Postmodernizm va madaniy plyuralizm konsepsiyasi. Postmodernizm konsepsiyasi 20-asrning ikkinchi yarmida san’at va arxitektura sohasida yangi yondoshuv sifatida shakllandi. U avvalgi zamonaviyizm va funksionalizmning qat’iy uslublarini inkor etib, san’at va arxitektura sohasida ijodiy erkinlik, madaniy xilma-xillik va tarixiy motivlar bilan o‘ynashni keltirib chiqardi.

Postmodernizm nafaqat arxitektura, balki madaniyatning boshqa sohalarida ham o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu konsepsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri — madaniy plyuralizmga, ya’ni turli xil madaniyatlar, uslublar va tarixiy qatlamlarning birlashishiga katta ahamiyat berishdir.

Postmodernizmning xususiyatlari:

1) **Uslublar o‘yini va ironiya:** Postmodernizmda an’anaviy uslublar bilan o‘ynash, ularni birlashtirish, hamda tarixiy va zamonaviy elementlarni bir joyga to‘plagan ironik yondoshuvlar ko‘p uchraydi. Arxitektura va san’atda mutlaqo yangi va original uslublar yaratish mumkinligi fikri ilgari suriladi[19].

2) **Tarixiy va zamonaviy motivlarni omuxtasi:** Postmodernizm tarixiy uslublardan ilhomlanadi, lekin ularni zamonaviy texnologiyalar va materiallar bilan integratsiya qilishga intiladi. Bu jarayon arxitekturadagi ko‘plab misollarni yaratdi: eski binolar va zamonaviy qurilish elementlari o‘rtasidagi uyg‘unlik[20].

3) **Qat’iy uslubiy qoidalardan voz kechish:** Postmodernizmda qat’iy uslublar va estetik qoidalar o‘rnatilmaydi, balki turli xil estetik va badiiy shakllar birgalikda ishlatiladi. Bu esa har bir loyiha uchun yangi, original va noyob yondoshuvni ta'minlaydi[21].

4) **Vizual xilma-xillik va madaniy qatlamlilikka intilish:** Postmodernizmda madaniy xilma-xillikka katta ahamiyat beriladi. Arxitektura va shahar dizaynida turli madaniyatlar va tarixiy qatlamlar o‘rtasida integratsiya qilishga intilish mavjud. Bunday dizaynlar ko‘plab xilma-xil elementlarning bir joyga to‘planganligi bilan ajralib turadi[22].

Misol uchun:

- **Barselona:** Postmodernizmning bir nechta yirik namunalarini ko‘rish mumkin. **“Barcelona Pavilion”** (Mies van der Rohe) kabi zamonaviy va minimalistik inshootlar bilan birga, **“Sagrada Familiya”** kabilar tarixiy uslublarning integratsiyasini aks ettiradi.

- **Amsterdam**: Bu shahar madaniy xilma-xillik va tarixiy elementlarni birlashtirgan postmodern dizaynlarni o‘zida mujassam etgan. Arxitektura va shahar dizaynida bir nechta yirik postmodern yondoshuvlar amalga oshirilgan.

- **Nyu-York**: Shahar muhitidagi ko‘plab jamoat makonlari va binolarda tarixiy va zamonaviy uslublarning uyg‘unligi ko‘rinadi. **“Metropoliten Museum of Art”** va **“One World Trade Center”** kabi inshootlar zamonaviy arxitekturani tarixiy elementlar bilan uyg‘unlashtiradi.

6. “Voqelik muhiti” va senariyli loyihalash konsepsiyasi. Zamonaviy shahar muhiti — bu voqealarning, ijtimoiy muloqotlarning va hodisalar oqimining dinamik makonidir. Ushbu

yondashuv badiiy obyektlarning madaniy va ijtimoiy faoliyatdagi roli bilan bog‘liq. Yani, har bir shahar muhitida badiiy elementlar faqat estetik funktsiyani bajarmaydi, balki ular biror voqeaga yoki tadbirlarga xizmat qiladi.

Asosiy jihatlar:

1) **Madaniy tadbirlardagi badiiy obyektlarning funksiyasini hisobga olish:** Shahar muhitidagi badiiy obyektlar ko‘pincha madaniy tadbirlar va festivallar uchun yaratiladi. Misol uchun, **Moskva**dagi **“Nur doirasi” festivali**da shahar maydonlarida joylashtirilgan interaktiv installyatsiyalar nafaqat estetik bezak, balki festivalning tematikasi va san’at asarlarini jonlantiruvchi ob’ektlarga aylanishadi. Bu tadbirda badiiy obyektlar maxsus tayyorlangan va har bir ob’ekt festivalning maqsadi va badiiy doirasiga mos ravishda joylashtirilgan[23].

2) **Vaqtinchalik va ko‘chma installyatsiyalarni qo‘llash:** Vaqtinchalik san’at installyatsiyalari shahar muhitiga qisqa vaqt ichida yangi ma’no va ranglar kiritadi. **Berlin** va **London**dagi maydonlarda joylashtirilgan vaqtinchalik art-installyatsiyalar shaharni to‘liq o‘zgartirib, jamoatchilikni interaktiv jarayonga jalb etadi. Masalan, Berlinning **Potsdam** maydonida yil sayin bo‘lib o‘tadigan “Festival of Lights” (Nur festivali)da shaharning eng yirik binolari va inshootlari maxsus yoritish va video-mapping texnologiyalari yordamida san’at asarlariga aylantiriladi. Bu kabi loyiha shaharni kechqurun "yashil" va "jonli" qiladi[24].

3) **Raqamli va multimedia texnologiyalaridan faol foydalanish:** Raqamli texnologiyalar, jumladan, video-mapping, interaktiv ekrannlar va mobil ilovalar orqali shaharlarda yangi madaniy tajribalar yaratish imkonini beradi. Misol uchun, **Rossiya**dagi **“Kreml”** maydonida o‘tkazilgan san’at ko‘rgazmasi va interaktiv mobil ilovalar yordamida shaharni turistik nuqtai nazardan o‘zgartirishda muhim rol o‘ynagan. Shu tarzda, shaharlarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga raqamli texnologiyalar orqali yordam berish mumkin[25].

Voqelik muhiti va senariyli loyihalash konsepsiyasi shaharlar va jamoat makonlarining interaktiv va ko‘rinishdagi o‘zgarishini ta’minlaydi. Badiiy obyektlar va interaktiv texnologiyalar yordamida madaniy tadbirlar va festivallar nafaqat shaharni jonlantiradi, balki aholi va mehmonlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatadi. Shu tarzda, shahar dizayni nafaqat estetik, balki madaniy, psixologik va iqtisodiy nuqtai nazardan ham foydali bo‘lishi mumkin.

7. “Barcha uchun san’at” va ijtimoiy yo‘nalganlik konsepsiyasi. Zamonaviy san’at yondashuvlari san’atni barcha ijtimoiy qatlamlar uchun ochiq qilishga va uni kundalik hayotga integratsiya qilishga intiladi. Bu konsepsiya san’atning ko‘chaga, jamiyatga va hatto individual hayotga kirib borishini ta’minlashni maqsad qiladi. San’atning barcha uchun ochiqligi, uning odamlarning turmush tarziga singib borishidir. Shuningdek, bu san’atning elitaristik bo‘lishi o‘rniga, har bir kishi uchun qulay va mavjud bo‘lishini ta’minlaydi.

Ko‘rinishlar:

1) **Ko‘cha san’ati, murallar va street-art rivoji:** Ko‘cha san’ati va murallar ijtimoiy va madaniy masalalarni aks ettiradigan yirik omilga aylandi. **Nyu-York, Berlin** va **Londondagi** ko‘cha san’ati ko‘plab madaniy va siyosiy xabarlarni tashuvchi murallar va grafitilarga to‘la. Berlinning **East Side Gallery**sida qadimiy devorda joylashgan murallar, jahon tarixidagi mashhur voqealarni aks ettiradi. Shaharlar bu san’atni ko‘chaga olib chiqib, omma uchun mavjud qilib, san’atning ommaviylashishiga imkon yaratadi[26].

2) **Interaktiv, o‘zaro aloqa uchun ochiq obyektlar:** Shahar muhitida interaktiv san’at ob’ektlari muhim o‘rin tutadi. Bunday ob’ektlar jamoatchilikni san’at bilan bevosita aloqada bo‘lishga undaydi. Masalan, **Tokio** shahridagi **“TeamLab Borderless”** interaktiv san’at muzeyida mehmonlar ko‘rgazmalar bilan bevosita aloqada bo‘lishi mumkin, ular harakatlari bilan san’at asarlarini o‘zgartirib, yangi tajribalar yaratadilar[27].

3) **Aholi ishtirokidagi jamoaviy art-loyihalar:** San’atning ijtimoiy funksiyasi o‘zgarib,

jamoaviy art-loyihalar aholi va san’atkorlar o‘rtasidagi ko‘prikni yaratmoqda. **Meksika**dagi **“Noche en Blanco”** (Oydin kecha) festivali shahar bo‘ylab har xil jamoaviy san’at faoliyatlarini o‘tkazib, aholini san’atga jalb qiladi. Bu kabi tadbirlar shahar aholisini birlashtiradi va san’atning aholiga bevosita ta’sirini kuchaytiradi[28].

4) **Elitarizm va san’atning yopiq shakllaridan voz kechish:** Barcha uchun san’at yondoshuvi elitarizm va san’atning yopiq shakllaridan voz kechishga asoslanadi. San’at endi faqat san’atshunoslar va akademik doiralar uchun emas, balki keng omma uchun mavjud bo‘lishi kerak. **Barselona**dagi “Raval Art District”da barcha ijtimoiy qatlamlarga mo‘ljallangan san’at inshootlari va ko‘rgazmalar, jamoatchilikni san’atga jalb qilishga xizmat qilmoqda[29].

“Barcha uchun san’at” konsepsiyasi san’atning ijtimoiy ochiqligi va jamoat joylarida mavjud bo‘lishini ta’minlaydi. Ko‘cha san’ati, murallar va interaktiv obyektlar orqali san’at ommaga yanada qulayroq bo‘ladi. Shuningdek, jamoaviy art-loyihalar va festivallar odamlarni san’atga jalb qilishda katta rol o‘ynaydi. Bu yondoshuv shaharlarning madaniy hayotini boyitadi va san’atni jamiyatning ajralmas qismiga aylantiradi.

8. Barqaror rivojlanish va ekologik san’at konsepsiyasi. Butunjahon ekologik ongning oshib borishi, ayniqsa, so‘nggi yillarda, shahar muhitidagi badiiy yondashuvlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy shaharsozlikda ekologik barqarorlik nafaqat infratuzilma orqali, balki san’at va dizayn elementlari orqali ham ta’minlanmoqda[30].

[2] Wright, A. (1997). Storytelling with Puppets in the Language Classroom. Oxford University Press.
[3] Gardner, H. (1993). Multiple Intelligences: The Theory in Practice. Basic Books.

Student feedback through smiley-face scales.

This study followed a qualitative case study design with elements of action research, allowing the researcher to implement and observe puppet- and toy-based strategies in a natural preschool classroom setting over time[4]. The approach focused on children's behavioral and linguistic responses to interactive learning tools.

Participants

The study involved 20 preschool children (ages 4–5) at a private kindergarten in Tashkent, Uzbekistan. The children had minimal prior exposure to English and were at early stages of language development.

Duration and Setting.

The research was conducted over five weeks, with two 30-minute sessions per week. All sessions were held in the participants' regular classroom environment to maintain consistency and comfort.

Teaching Materials and Activities.

Materials included:

Hand puppets (e.g., animals, characters) for dialogues and stories

Toys (e.g., cars, fruit, stuffed animals) to practice vocabulary related to colors, objects, and actions

Flashcards, songs, and storybooks integrated with puppets/toys for interactive storytelling

Data Collection Instruments.

Observation checklists tracking vocabulary use, participation, and engagement.

Teacher reflective journals.

Video recordings for reviewing non-verbal interaction.

Pre- and post-tests assessing vocabulary acquisition (15 core target words)

Ethical Considerations.

Parental consent was obtained for all participants. Children's identities were anonymized in reporting results.

Results. After five weeks, the following outcomes were observed:

1. Improved Vocabulary Acquisition

On the pre-test, the average child recognized or used only 4 out of 15 target English words.

On the post-test, this number increased to an average of 12 out of 15.

The most retained words were those directly associated with puppets and physical toys, such as "apple," "car," "cat," and "run."

2. Increased Participation and Confidence

Children became increasingly willing to speak English, especially when talking through a puppet.

Shy learners began to engage in greeting exchanges, such as "Hello, my name is Monkey!"

According to teacher journal entries, several children began initiating English phrases spontaneously by week 4.

3. Emotional and Behavioral Engagement

Children showed greater attention spans during puppet-led stories compared to book-only sessions.

Laughter, eye contact, and voluntary mimicry were commonly noted.

Children were more responsive to instructions and group activities involving toys than during standard lessons.

[4] Burns, A. (2010). Doing Action Research in English Language Teaching: A Guide for Practitioners. Routledge.

Discussion. The use of puppets and toys created a play-based learning environment where children were eager to participate, repeat phrases, and initiate interaction. For example, learners who were initially shy began using English greetings and short sentences after several puppet-led sessions. This supports Brewster, Ellis, and Girard's statement that "Puppets help reduce anxiety, encourage creative use of language, and support meaningful communication in the classroom." [5]Children also showed higher engagement and longer attention spans during puppet storytelling compared to book-only storytelling. One notable observation was that learners spoke to the puppet as if it were real, indicating a strong emotional connection that increased motivation. Toys, on the other hand, helped children associate vocabulary with physical objects—a foundational aspect of language acquisition at the preschool level. Games like "Pass the toy and say the color" helped reinforce key adjectives and sentence patterns. However, the teacher must scaffold interactions carefully. Without structure, puppet play can become chaotic. Training is needed to use these materials strategically. Overall, puppets and toys stimulated imagination, encouraged spontaneous speech, and created a classroom culture where English was perceived not as a task, but as a joyful experience.

The findings of this study confirm that puppets and toys are highly effective tools in promoting early English language learning among preschoolers. These materials create a safe, imaginative, and interactive learning environment, in which children can experiment with language without fear of judgment. As Wright explains, "The puppet becomes the voice of the child, giving them courage to speak in the foreign language." In this study, puppets were not just props; they acted as emotional bridges and interactive partners, enhancing learners' confidence and reducing affective barriers to speaking. The use of toys supported tactile learning and real-world language associations. For example, a child handing a red toy car while saying "Red car" demonstrates language-in-action, which aligns with Vygotsky's theory that cognitive and language development are deeply rooted in social, physical interaction [6].This approach also caters to multiple intelligences—kinesthetic, interpersonal, and visual—identified by Gardner as crucial to early learning. Children responded better when lessons incorporated movement, dialogue, and visual stimulation, as opposed to passive learning strategies. Although the study was limited by a small sample size and short duration, the results support broader research on the benefits of interactive, child-centered English teaching[7]. The integration of puppets and toys in teaching English to preschool children has proven to be an effective and engaging method that supports both language acquisition and emotional development. Through the use of playful, hands-on materials, children are given a safe and imaginative environment where they can explore and practice English naturally.

This study demonstrated that learners showed significant improvement in vocabulary recall, increased participation, and more confident verbal expression after only a short intervention period. Puppets in particular encouraged shy or hesitant learners to speak up, as they often used the puppet as a "mask" to reduce anxiety. As Wright observed, "The puppet speaks for the child, who may not otherwise dare to speak for themselves."

Toys, on the other hand, made language input more concrete and meaningful. Children were better able to connect new English words with physical objects, actions, and contexts, which aligns with the principles of multisensory and experiential learning.

Moreover, this method aligns with developmentally appropriate practice, as recommended by early childhood education experts. As Shin and Crandall noted, "Young learners acquire language more effectively when it is embedded in real, playful, and communicative contexts." The joy and laughter observed during puppet-led songs, dialogues, and games are not simply

[5] Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.
[6] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
[7] Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.

behavioral reactions—they are clear indicators of deep cognitive and emotional involvement in the learning process.

However, the success of this approach depends on the teacher's ability to scaffold and guide the interaction. Puppets and toys are not substitutes for instruction, but tools that, when used purposefully, can transform language learning into a joyful, memorable, and effective experience.

In conclusion, the use of puppets and toys should be encouraged in preschool English classrooms, especially in contexts where children are acquiring a foreign or second language. These tools not only enhance language learning outcomes but also nurture children's creativity, confidence, and communication skills.

REFERENCES

1. Gardner, H. (1993). Multiple Intelligences: The Theory in Practice. Basic Books.
2. Wright, A. (1997). Storytelling with Puppets in the Language Classroom. Oxford University Press.
3. Gardner, H. (1993). Multiple Intelligences: The Theory in Practice. Basic Books.
4. Burns, A. (2010). Doing Action Research in English Language Teaching: A Guide for Practitioners. Routledge.
5. Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
7. Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.

UDK: 37.018.43:808.51

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA NOTIQLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, Usmonjon9994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning talabalar notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot nazariy qarashlar va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tajriba natijalariga tayanadi. Loyihaviy ta'lim, raqamli mashg'ulotlar, o'zaro fikr almashinuvi va refleksiya kabi yondashuvlar talabalar nutqining ravonligi, ishonch darajasi, tana tili va ta'sirchanlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga yordam bergani aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar vositasida tashkil etilgan mashg'ulotlar kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Annotation. This article explores the role of extracurricular activities based on innovative technologies in developing students' public speaking skills. The study is grounded in theoretical perspectives and empirical data gathered from higher education institutions in Uzbekistan. Approaches such as project-based learning, digital activities, peer feedback, and reflection were shown to significantly improve students' fluency, confidence, body language, and persuasive abilities. The findings indicate that technology-integrated extracurricular formats play a critical role in enhancing students' communicative competencies.

Аннотация. В статье рассматривается роль внеаудиторных занятий, основанных на инновационных технологиях, в развитии ораторских навыков студентов. Исследование опирается на теоретические положения и данные, полученные в результате экспериментов в вузах Узбекистана. Такие подходы, как проектное обучение, цифровые задания, взаимная обратная связь и рефлексия, значительно повысили беглость речи, уверенность, владение языком тела и убедительность студентов. Результаты показывают, что использование технологий во внеаудиторных форматах играет ключевую роль в формировании коммуникативных компетенций.

Kalit so'zlar: notiqlik mahorati, sinfdan tashqari ishlar, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ kompetentsiya, oliy ta'lim, zamonaviy pedagogika

Ключевые слова: ораторские навыки, внеаудиторные занятия, инновационные технологии, коммуникативная компетентность, высшее образование, современная педагогика

Key words: public speaking skills, extracurricular activities, innovative technologies, communicative competence, higher education, modern pedagogy

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonining tub mohiyati-o'quvchi yoki talabaning faolligini, mustaqil fikrlash salohiyatini va o'z fikrini ochiq, asosli hamda mantiqiy bayon etish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Xususan, notiqlik ko'nikmalari bugungi kunda ta'lim sohasida muhim kompetensiya sifatida qaralib, uni shakllantirish oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimidagi zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, talaba nafaqat bilimga ega bo'lishi, balki u bilimni omma oldida ta'sirchan nutq orqali ifoda eta olishi ham zarurdir. Zero, kommunikatsiya va ijtimoiy muloqot zamonamizning eng muhim kompetensiyalaridan biri bo'lib, ushbu sohalarda muvaffaqiyatga erishgan shaxslar – bu notiq, ishonchli va dalillarga asoslangan fikr bildiruvchi mutaxassislardir.

Bugungi axborot asrida ta'lim texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanar ekan, innovatsion texnologiyalarning o'quv jarayoniga jadal integratsiyalashuvi muhim metodik muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, mobil ilovalar, gamifikatsiya (o'yinlashtirish), AR/VR texnologiyalari, raqamli taqdimot platformalari va onlayn feedback tizimlari kabi zamonaviy vositalar nafaqat o'quvchini rag'batlantiradi, balki uning notiqlik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi.Shu bilan birga, notiqlik ko'nikmalarini faqat an'anaviy auditoriyada o'rgatish yetarli emasligini tajriba ko'rsatmoqda. Zero, talaba dars vaqtida nutqiy faollik ko'rsata olmasligi mumkin, ammo auditoriyadan tashqari tashkil etilgan ixtiyoriy faoliyatlarda (debatlar, taqdimotlar, video chiqishlar, interaktiv o'yinlar, loyiha himoyalari, ijodiy yozuvlar va boshqalar) o'z fikrini erkinroq, mustaqil va dadil ifoda eta oladi[5]. Bunday mashg'ulotlar erkin psixologik muhitni shakllantirib, talabaning o'z fikriga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi[6]. Aynan shu sababli, ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda auditoriyadan tashqari faoliyatlar orqali notiqlik kompetensiyasini rivojlantirish ilg'or pedagogik yechim sifatida qaralmoqda.

Bunday interaktiv, raqamli vositalar esa aynan auditoriyadan tashqari mustaqil mashg'ulotlarda samarali ishlatiladi. Zero, o'qituvchining oldindan berilgan vazifasini talaba o'zi mustaqil bajarar ekan, u o'z nutqini yozib, tahrirlab, qayta eshitib, yakuniy variantni taqdim etishga intiladi. Buning natijasida, "repetitsiya–tahlil–korreksiya" uchligini o'zida mujassam etgan yangicha notiqlik metodikasi shakllanadi. Shuningdek, notiqlik nafaqat til yoki ritorika masalasi, balki shaxsiy psixologik holat, jamoa oldida chiqishdagi xavotirni yengish, sahna madaniyati, tana tili va ovoz boshqaruvi bilan bog'liq kompleks ko'nikmalar majmuidir. Shu bois notiqlikni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar aynan ana shu elementlarga yo'naltirilgan modullarni taqdim eta oladi: virtual auditoriya oldida chiqishlar, VR simulyatsiyalar, videoanalizlar va ovoz tahlilchisi kabi vositalar buni isbotlab bermoqda.

Adabiyotlar tahlili: so'nggi yillarda oliy ta'limda notiqlik mahoratini shakllantirish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu soha hanuzgacha o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Jumladan, A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida nutq madaniyati, so'zning kuchi va ta'siri borasida ilk pedagogik qarashlar ilgari surilgan bo'lib, bu g'oyalar zamonaviy notiqlik ko'nikmalarining shakllanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Shuningdek, J. Dewey, P. Freire kabi g'arb mutafakkirlari ta'limda interaktivlik, shaxsiy yondashuv va faol fikrlashni rag'batlantirish zarurligini urg'ulaydi [2].

O'zbekiston kontekstida esa notiqlik bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'pincha an'anaviy dars jarayonlariga yo'naltirilgan bo'lib, auditoriyadan tashqari faoliyatning bu boradagi imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmagan. M. Quronov, Z. Yusupova va I. Shodmonovlarning tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari yoritilgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi an'anaviy nutq madaniyati yoki adabiy nutq doirasidan chekinmaydi [3]. Boshqa tomondan, xorijiy adabiyotlarda (xususan, UNESCO, OECD, Cambridge Education nashrlarida) notiqlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli, ayniqsa, reflektiv tahlil, peer-assessment va multimodal yondashuvlar orqali erishiladigan natijalar ancha batafsil ochib berilgan.

Tadqiqot metodlogiyasi. Metodologik yondashuv aralash tadqiqot (mixed-methods research) modeliga asoslangan bo'lib, bunda miqdoriy va sifatli metodlar uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Bu uslub tanlanishining sababi-nafaqat statistika orqali o'zgarishlarni aniqlash, balki talabalarning subyektiv tajribalari va psixologik holatini ham chuqur o'rganish imkonini berishidir. Tajriba Andijondagi ADPI (Andijon davlat pedagogika instituti), ADU (Andijon davlat universiteti) ning Filologiya va Pedagogika fakultetlari talabalari ishtirokida o'tkazildi. Har bir OTMdan 20 nafardan, jami 40 nafar 2- va 3-kurs talabasi tanlab olindi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida innovatsion

texnologiyalar — ya'ni mobil ilovalar (Orai, Speeko), onlayn suhbat platformalari (Zoom, Padlet), video taqdimotlar (Flipgrid, Canva), AI tahlil vositalari (Yoodli, Grammarly's tone detector), interaktiv tahlil mashqlari (Kahoot, Mentimeter) kabi vositalar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga integratsiya qilindi. Mashg'ulotlar 10 hafta davomida olib borildi. Har hafta 2 marotaba auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'tkazildi. Bu jarayonda talabalar o'z nutqini videoga yozib, platformaga yuklashdi, o'zaro feedback (fikr almashish) sessiyalari orqali baho olishdi, mashg'ulotlarda jamoaviy interaktiv rolli o'yinlar, debatlar, erkin chiqishlar, mini-loyihalar asosida nutqiy faollik namoyon qilishdi.

Tajriba oldidan va yakunida pre-test/post-test baholash o'tkazildi. Baholash indikatorlari quyidagicha edi: 1) so'zlash tezligi (fluency), 2) talaffuz va grammatik aniqlik (accuracy), 3) psixologik ishonch va xavotir darajasi (confidence/anxiety), 4) muloqot samaradorligi (communicative effectiveness). Baholov uchun ekspertlar guruhi 4 darajali rubrika (A1–C2) asosida ishladi[4]. Videotasvirlar tahlili orqali nutqdagi pauzalar, ortiqcha so'zlar, auditoriyaga murojaat madaniyati, tana tili (body language) elementlari kodlandi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalar notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishda nafaqat samarali, balki doimiy natijaga olib keluvchi ta'limiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Eksperimental guruhda o'tkazilgan pre-test va post-test natijalari tahlili shuni tasdiqladiki, ushbu guruhda ishtirok etgan talabalar nutqiy faoliyatning barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishdi. Jumladan, so'zlash ravonligi, grammatik aniqlik, auditoriya oldida chiqish ishonchi va psixologik xavotir darajasi kabi parametrlar yuzasidan nazorat guruhiga nisbatan ijobiy farq kuzatildi. Bu esa innovatsion vositalar yordamida talabalarda mustahkam psixologik tayyorgarlik, nutqiy muloqotga kirishishning ichki motivatsiyasi va chiqish jarayonini nazorat qilish ko'nikmasi shakllanganligini anglatadi. Ayniqsa, o'z fikrini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, so'zlar orasidagi pauzalarni to'g'ri belgilash va ovozning baland-pastlik diapazonini boshqarish ko'nikmalarida ijobiy dinamika kuzatildi.

Tajriba guruhida o'qituvchilar tomonidan Flipgrid, Canva, Orai kabi mobil ilovalar, Yoodli kabi sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari va Mentimeter, Kahoot kabi interaktiv platformalardan faol foydalanilgan mashg'ulotlar o'tkazildi. Bu vositalar yordamida har bir talaba haftasiga ikki marotaba mustaqil tarzda nutq tayyorladi, uni videoga oldi va platforma orqali joylashtirdi. Peer feedback sessiyalari esa ularning nutqni tahlil qilish, boshqa ishtirokchilarning chiqishlariga konstruktiv fikr bildirish, o'z kamchiliklarini anglash, mustaqil xulosa chiqarish va takomillashtirish imkoniyatini yaratdi.[4] Bu jarayon davomida talabalar nafaqat o'z nutqidagi grammatik yoki talaffuz xatolarini aniqlashdi, balki boshqalarning chiqishlarini baholash orqali ritorik madaniyat, savol-javobda faol qatnashish, muloqot jarayonida ijtimoiy moslashuvchanlik, tana tili (body language), hissiy ifoda va ovozning ohangdorligini boshqarish bo'yicha ham amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdi[4]. Shuningdek, talabalar mobil ilovalar orqali nutqlarini qayta-qayta eshitish, tahrirlash va qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lganlari sababli, nutq ustida reflektiv tahlil va o'z-o'zini baholash (self-assessment) orqali o'z ustida mustaqil ishlash madaniyatini shakllantira boshlashdi. Bu esa zamonaviy notiqni tarbiyalashda juda muhim psixopedagogik natija hisoblanadi.[5]

SPSS 26.0 dasturi asosida o'tkazilgan t-test statistik tahlili eksperimental guruhdagi talabalar pre-test va post-test ko'rsatkichlari o'rtasida ishtirokchi natijalarining ishonchli o'zgarishini aniq namoyon qildi ($p < 0.05$). Statistik tahlil natijalariga ko'ra, nutq tezligi-ya'ni talabalar bir daqiqada ayta olgan so'zlar soni – dastlabki 112 ta ko'rsatkichdan tajriba yakunida o'rtacha 135 taga yetgani kuzatildi, bu esa ravonlik (fluency) ko'rsatkichi 20% ga oshganini bildiradi[1]. Talaffuzdagi grammatik aniqlik esa 74% dan 86% gacha ko'tarildi, bu esa

talabalarning nafaqat leksik-morfologik bilimlari, balki ularni og‘zaki nutqda faol va to‘g‘ri qo‘llay olish salohiyatining ortganidan dalolat beradi. Shuningdek, nutq jarayonidagi pauzalar soni – ya’ni fikrni davom ettirishda yuzaga keladigan to‘xtalishlar – 7.8 tadan 4.3 taga kamaydi. Bu esa talabalar chiqish davomida so‘z boyligini kengroq qo‘llay boshlaganliklari, mantiqiy bog‘lovchi iboralar va gap qurilishida mustahkamlik paydo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bunday aniq va raqamli farqlar nafaqat ta’lim samaradorligini, balki psixologik holatdagi ijobiy dinamikani ham aks ettiradi. Chunki pauzalar sonining kamayishi, nutq ravonligining ortishi va grammatik xatolarning kamayishi – barchasi notiqning o‘z fikrini ongli, ishonchli va ichki barqarorlik asosida ifoda etayotganini bildiradi. Statistik natijalar talabaning nutqiy kompetensiyasida qanday transformatsiya sodir bo‘layotganini matematik isbot bilan ko‘rsatib beradi, bu esa ta’limni baholashda obyektivlikning muhim vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, sifatli tahlil (content analysis) metodologiyasiga asoslangan fokus-guruh intervyulari ham o‘ziga xos ilmiy asosli ma’lumotlarni berdi. Bu intervyular davomida talabalar texnologiyalar asosida o‘z nutqlarini yozib olish orqali ilgari o‘zlari ham sezmagan nutqiy kamchiliklarini anglaganliklarini ta’kidlashdi. Jumladan, “self-assessment” – ya’ni o‘z-o‘zini baholash jarayoni orqali ular nafaqat nutqni tahlil qilishni, balki chiqishga tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik va auditoriya bilan o‘zaro aloqani ongli tarzda nazorat qilishni ham o‘rganishgan.

Fokus-guruhdagi suhbatlarda talabalarning aksariyati interaktiv texnologiyalar orqali ishlash jarayoni ularni ruhlantirganini, chiqishga bo‘lgan qo‘rquvni kamaytirganini, o‘z ustida mustaqil ishlashga ichki motivatsiya uyg‘otganini aytishdi. “Avval sahnaga chiqishdan qo‘rqardim, endi esa gapirgim keladi”, degan iboralar esa nafaqat mahorat ortishini, balki talabaning ichki psixologik holatidagi o‘zgarishni ifodalaydi. “Video orqali nutqimni 3 martalab eshitdim, ovozim, tana tilim qanday chiqayotganini ko‘rdim”, degan fikrlar esa o‘z nutqini tahlil qilish jarayonida audio-vizual refleksiya (o‘zini tashqaridan kuzatish) mexanizmining qanchalik samarali ishlaganini ko‘rsatadi.

Bu kabi natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar nafaqat ko‘nikma shakllantirish vositasi, balki pedagogik tahlil, o‘z-o‘zini baholash va ruhiy o‘sishni ta’minlovchi ko‘p funksiyali vosita sifatida ishlaydi. Talabalarda psixologik barqarorlik, ijodiy ifoda, sahna madaniyati, tinglovchini ushlab turish strategiyasi va kommunikativ ishonch kabi ko‘nikmalarning paydo bo‘lishi ham aynan shu texnologik yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu esa auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni zamonaviy ta’limda shunchaki yordamchi usul emas, balki asosiy metodik yo‘nalishlardan biri sifatida qabul qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Andijon davlat pedagogika instituti doirasida olib borilgan eksperimentda talabalar nafaqat haftalik nutqiy mashg‘ulotlarda qatnashdilar, balki ularning chiqishlari oldindan belgilangan mavzuga emas, balki real hayotiy muammolar va kundalik ijtimoiy mavzular asosida shakllantirildi. Bu esa talabalarni tayyor matnni yodlashdan ko‘ra, fikrni vaziyatga qarab shakllantirishga va erkin ifoda qilishga majbur qildi. Aynan shu jarayon notiqlikni faqat sahnadagi chiqish emas, balki har qanday ijtimoiy muloqotda faol ishtirok etish vositasi sifatida shakllantirdi. Shuningdek, tanqidiy fikr bildirish va “savolga savol bilan javob berish” ko‘nikmasi ham chuqurlashganini kuzatish mumkin bo‘ldi. Ko‘p hollarda talabalar nafaqat savollarga javob berishdi, balki o‘z chiqishlariga savol qo‘yib, ixtilofli nuqtalarni o‘zlari tahlil qilishdi. Bu esa ularda reflektiv tafakkur va ritorik javobgarlikni shakllantirishga olib keldi. Bunday metodik yondashuv, ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish va case-study mashg‘ulotlariga yaqinlashgan tarzda olib borildi, bu orqali nutq strukturasi, dalillash va mantiqiy ketma-ketlik singari ko‘nikmalar mustahkamlandi.

Tajriba jarayonida talabalar tomonidan ilgari ko‘proq passiv qabul qilingan axborot

vositalari — masalan, telefon, planshet va internet — endilikda faol o‘quv vositasiga aylandi. Intervyu natijalariga ko‘ra, aksariyat ishtirokchilar ilk haftalarda texnologik vositalardan faqatgina ko‘rsatma olish va topshiriq bajarish uchun foydalangan bo‘lsa, tajribaning ikkinchi yarmida ularni o‘z nutqini tahlil qilish, yaxshilash va vizual ravishda boyitish uchun ishlata boshlashgan. Ba'zi talabalar esa, o‘z nutqini to‘liq transkriptsiya qilish orqali matn ustida ishlash, sinonimlar tanlash, ritorik savollar yaratish, va hatto gap ichidagi urg‘u punktlarini o‘zgartirish orqali nutqning ta'sirchanligini oshirishni mashq qilishgan. Bu holat, talabalarning o‘z nutqiga mulk sifatida qarashni o‘rganayotganini anglatadi. Ular faqat "aytish" emas, balki "tashqi auditoriyada o‘qish, eshitish, ko‘rish va his qilish" kabi ko‘pkanalli ta'sirning samaradorligini tushuna boshlashgan. Bu esa o‘z-o‘zini tahlil qilish madaniyatining shakllanishiga, tanqidiy mushohada qilish, muloqotga kirishish, va boshqalar fikrini baholashdagi yetuklik darajasining ortishiga olib kelgan.[6]

Yuqorida bayon etilgan yangi fakt va holatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda innovatsion texnologiyalardan maqsadli va didaktik asosda foydalanilgan taqdirdagina, u nafaqat notiqlikni o‘stiradi, balki shaxsiy, ijtimoiy, muloqotga oid va axborotga nisbatan ongli munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning zamonaviy ta'lim strategiyasi – raqamli pedagogika, multimodal yondashuv va kommunikativ kompetensiyalar integratsiyasini to‘laqonli amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Munozara. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar O‘zbekiston talabalari orasida nafaqat nutqiy ko‘nikmalar, balki kommunikativ, psixologik va didaktik jihatlarning ham uyg‘un rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Asosiy o‘zgarishlar so‘zlash tezligi, grammatik aniqlik, auditoriya oldida ishonch va tana tili aloqasi kabi ko‘rsatkichlarda bo‘lgan bo‘lsa, psixologik xavotir darajasidagi kamayish ham shu natijalar ichida muhim o‘rin egallaydi. Bu xulosalar Vygotsky sosial konstruktsionizm nazariyasi bilan mos keladi [7]. Task-Based Learning (TBL) (Vazifaga asoslangan o‘qitish) va Project-Based Learning (PBL) (Loyihaga asoslangan o‘qitish) metodologiyalari O‘zbekiston pedagogik makonida avvaldan ma'lum bo‘lgan, ammo innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi so‘nggi yillarda kuchaydi. Tajribada talabalar real hayotiy mavzular asosida taqdimotlar, debatlar va video chiqishlar qilishdi; bu esa nutq repertuarini kengaytirishga imkon berdi. Masalan, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘tkazilgan bir tadqiqotda PBL metodi talabalarning "prepared spontaneity" salohiyatini oshirgani, auditoriya bilan interaktivlik va talaffuzdagi noaniqliklar kamayganligi qayd qilingan Nonverbal komponentlar-tana tili, vizual aloqalar (ko‘z qarashi, mimika), ovoz balandligi va pauzalar-nutq samaradorligini belgilovchi "kommunikativ kompetensiyalar modeli" da muhim elementlar sifatida ko‘riladi. Tajribamizda talabalar video yozuvlar orqali tana tilini qayta ko‘rib chiqib, peer feedback sessiyalarida so‘z bo‘lmagan signallarga e'tibor qaratishi natijasida tana tilining auditoriya bilan aloqa (interaction) foizi 48% dan 71% gacha oshdi. Psixologik foyda jihatidan tajriba guruhida nutq qilishdagi qo‘rqinch va xavotir sezilarli darajada kamaygan. Bu holat Holmquist, et al. tomonidan olib borilgan virtual nutq mashqlari va video-feedback asosida o‘quvchilarda anxiety darajasining pasayishi bilan mos tushadi. Metodologik jihatdan, mashg‘ulotlar davomiyligi, haftalik intensivligi va interaktivlik darajasi yuqori bo‘lgani natijaning barqarorligini ta'minladi [9]. Haftasiga ikki marta video chiqish tayyorlash, peer feedback va tahlil mashqlari, mustaqil refleksiya elementlari kombinatsiyasi nutqiy va psixologik o‘sishni tezlashtirdi. Bu tajriba metodologiyasida "feedback loop" va "multimodal ta'lim" uslublari integratsiyasi muhim o‘rin egalladi. Shuningdek, ayrim cheklovlar ham aniqlandi: texnologik infratuzilma bilan bog‘liq muammolar va baholash mezonlarining noaniqligi ayrim talabalarning ishtirokiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi. Umuman

olganda, O‘zbekiston kontekstida innovatsion texnologiyalar asosida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar til ta’limida integratsiyalashgan metodikasining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar orqali talabalar notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv talabaning shaxsiy faolligini rag‘batlantirish, o‘z ustida ishlashga undash, mustaqil fikrlash va omma oldida o‘z fikrini asosli ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Tajriba asosida aniqlanishicha, texnologik vositalar (video monitoring, virtual feedback, interaktiv platformalar) yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar nutqidagi psixologik to‘siqlarni kamaytirgan, tana tili, ko‘z bilan aloqa, ovoz balansi kabi noverbal vositalarni ongli boshqarishga o‘rgatgan va eng muhimi, nutq strukturasi, mantiqiylik va ta’sirchanlik darajasini oshirgan. Bu holat esa ta’lim jarayonining an’anaviy shakldan samarali ko‘p komponentli, ya’ni multimodal shaklga o‘tishini taqozo etmoqda.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirilgan mashg‘ulotlarda talabalar Project-Based Learning, Task-Based Learning, mikro-nutq tahlili, debatlarga tayyorlanish, chiqish transkriptsiyasi va peer feedback metodlari orqali faol ishtirokchilar sifatida namoyon bo‘lishdi. O‘zbekistondagi turli oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunday mashg‘ulotlar auditoriyadagi an’anaviy, ko‘proq o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lgan o‘qitish shaklidan farqli o‘laroq, talabalarni mustaqil nutqiy fikrlashga, ijodiy yechim topishga va o‘z nutqini baholashga yo‘naltiradi.

ADABIYOTLAR

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 23-bet.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan, 114-bet.
3. Yusupova, Z. & Quronov, M. (2018). Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: Fan, 87-bet.
4. Turakulov, A., & Mardonov, S. (2019). Innovatsion pedagog texnologiyalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Rogers, T., & Freiberg, H. J. (2018). Freedom to Learn (3rd ed.). Pearson Education.
6. Murodov, S. & Ahmedova, G. (2021). Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
7. Vygotsky, L. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press, 118–120-betlar.

UO'T:37.034.3

NUTQ ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TAFAKKURINI FAOLLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Daminova Dilbar Melimurodovna
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, dilbardaminova9@gmail.com

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini rivojlantirishda nutqning markaziy vosita ekanligini ilmiy-amaliy asoslaydi. Maqolada kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining aqliy salohiyatini faollashtiruvchi, ularning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantiruvchi o'ziga xos nutqiy mexanizmlar yoritiladi.

Аннотация. Научно-практическое обоснование центральной роли речи в развитии мышления учащихся начальных классов. В статье освещаются специфические речевые механизмы, активизирующие интеллектуальный потенциал младших школьников и формирующие их логическое, критическое и творческое мышление.

Abstract. This article provides a scientific and practical justification for the central role of speech in developing the thinking abilities of primary school students. The paper highlights specific speech mechanisms that activate the mental potential of younger schoolchildren and shape their logical, critical, and creative thinking.

Kalit so'zlar: nutqiy mexanizmlar, boshlang'ich sinflar, tafakkurni faollashtirish, mantiqiy fikrlash, tanqidiy nutq, muloqot ko'nikmasi, interaktiv usullar

Ключевые слова: речевые механизмы, начальные классы, активизация мышления, логическое мышление, критическая речь, коммуникативные навыки (или: навыки общения), интерактивные методы.

Keywords: speech mechanisms, primary schools, activation of thinking, logical thinking, critical discourse (or: critical speech), communication skills, interactive methods.

Kirish. Nutq orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini faollashtirish mexanizmlari-psixologiya va pedagogikaning muhim yo'nalishidir. Ilmiy manbalarga asoslangan holda, nutq va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ayniqsa boshlang'ich sinf davrida (6-10 yosh), asosiy e'tiborni talab qiladi. Nutq orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini faollashtirish mexanizmlariga boshlang'ich sinf davri til, tafakkur va nutqiy faollikni shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Bu bosqichda bolaning ongli tafakkuri faol nutq faoliyati orqali rivojlanadi, chunki nutq fikrni ifodalash va shakllantirishning eng muhim vositasidir. Nazariy asos nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik psixologik va pedagogik nazariyalarga ko'ra, nutq va tafakkur ajralmasdir deb takidlagan rus psixologlari tomonidan keng ilmiy asoslab berilgan. (Vigotskiy, Luriya, Leontyev nazariyalari]1

So'zning semantik funksiyasi o'quvchi so'zni o'zlashtirishi bilan birga, u bilan bog'liq bo'lgan tushunchani, ya'ni fikrni ham o'zlashtiradi. Lug'at ishlari orqali so'zning ma'nosini tushuntirish, faol lug'atga kiritish bevosita mantiqiy tafakkur faollashadi. Fikrni tizimlashtirishda o'quvchining yozma va og'zaki nutqi gap tuzish, matn bilan ishlash uning fikrlash jarayonini tartibga soladi va aniqlashtiradi. Tilning grammatik tuzilishini sintaktik tushunchalar o'rganish fikrni aniq va lo'nda ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi. Grammatika–fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun ichki nutq boshlang'ich maktab yoshida tashqi nutq asta-sekin ichki nutqqa aylanadi. Bu ichki nutq tafakkur jarayonining asosiy mexanizmiga aylanib, muammolarni yechish va o'z-o'zini boshqarishda ishtirok etadi. Nutq orqali tafakkurni faollashtirishning asosiy mexanizmlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni nutq yordamida faollashtiruvchi asosiy pedagogik va didaktik mexanizmlar mavjud:

1. Muammoli o'qitish va savol-javob mexanizmi-Nutq orqali tafakkurni

faollashtirishning eng samarali usuli bu muammoli vaziyatlarni yaratishdir. Zidiyatlarni paydo qilish o‘quvchida hayratlanish yoki qiyinchilik hissini keltirib chiqaradigan zidiyatga duch kelish. Bu o‘quvchini muammoni anglashga va savol qo‘yishga majbur qiladi. Savollar turlari o‘qituvchi tomonidan beriladigan maxsus savollar tafakkur turini faollashtiradi. Oddiy savollar asosiy bilimlarni aniqlaydi. Tushuntiruvchi savollar esa sabab-oqibat bog‘liqligini o‘rnatishga undaydi (Nima uchun? Sababi nima?). Ijodiy (Faraziy) savollar: “Agar ... bo‘lsa nima bo‘ladi?”, “Nima o‘zgaradi, agar...” kabi savollar orqali mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

2. Muloqot va o‘zaro fikr almashish mexanizmi-Tafakkur faqat ichki jarayon emas, balki ijtimoiy faoliyat natijasidir. Fikrlar to‘qnashuvi turli mualliflar yoki o‘quvchilarning bir muammo bo‘yicha qarama-qarshi fikrlarini taqqoslash va muhokama qilish. Bu o‘quvchini o‘z fikrini himoya qilishga, asoslashga va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Jamoaviy ish guruhli mashqlar. Guruhda munozara qilish, guruh g‘oyasini og‘zaki ifodalash kommunikativ faoliyatni rivojlantirib, mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.

3. Lug‘at va matn bilan ishlash mexanizmi-Nutq madaniyatining leksik va grammatik tarkibiy qismlari tafakkurga bevosita ta’sir qiladi. So‘zning ma’nosiga aniqlik kiritish yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ularning ma’nosini kontekstda gap, matn aniqlash orqali bolaning kognitiv tuzilmasi boyiydi va tushunchaviy tafakkur rivojlanadi. Matnni tahlil qilish matn ustida ishlash, uni tushunish, savol berish va javob qaytarish kabi faoliyatlar tinglab tushunish va ifodalash malakalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar nutquni o‘stirishda o‘z metodik vositalariga ega o‘zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog‘lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o‘stirishning izchillik to‘tr shartni ya’ni mashqlarni izchilligi, istiqbolli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq, mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmalarini amalga oshirish bilan taminlanadi.]2

Tafakkurni faollashtiruvchi amaliy usul va metodlar nutqiy faoliyatni rag‘batlantirish orqali tafakkurni rivojlantiradigan ilmiy-pedagogik metodlar.

Metod. Interfaol metodlar, ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, didaktik o‘yinlar, proyekt va tadqiqot faoliyati

Asosiy mixanizm. Faol ishtirok, subyekt-subyekt munosabati, ijodiy fikrlash, g‘oyalarni ishlab chiqish, ma’lumotni tahlil qilish, baholash, kognitiv qiziqish, motivatsiya, mustaqil fikrlash, muammo yechish, “Insert”(belgilash), “Klaster” tuzish, “Haqiqiy/Yolg‘on fikrlar” muhokamasi.

Nutqiy faollashtirish: o‘z fikrini erkin ifodalash, bahslashish, xulosa chiqarish, hikoya tuzish, sahnalashtirish, tasvirni so‘z bilan ifodalash, “Insert” (belgilash), “Klaster” tuzish, “Haqiqiy-yolg‘on fikrlar” muhokamasi, o‘yin qoidalarini so‘zlab berish, o‘yin natijasini muhokama qilish, tadqiqot natijalarini og‘zaki taqdim etish va himoya qilish.

Boshlang‘ich sinfda nutq orqali tafakkurni faollashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmlari nutqiy faollikni yaratishga, mustaqil va mantiqiy fikrlashga undashga qaratilgan. Bunda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayon o‘quvchining shaxsiy nutqiy salohiyatini yuzaga chiqarib, uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi .

Tahlil va natijalar. Nazariy asosning tasdig‘i nutq– fikrni shakllantirish vositasidir.

Natija. Nutq va tafakkur ajralmasdir Vigotskiy, Luriya, Leontyev nazariyalari. So‘zning semantik funksiyasi o‘quvchi so‘zni o‘zlashtirishi bilan u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchani fikrni ham o‘zlashtiradi. Grammatika-fikrning aniq va lo‘nda ifodasi tilning grammatik sintaktik tuzilishini o‘rganish fikrni aniq va lo‘nda ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tahlil. Rus psixologlari nazariyasi tasdiqlaydiki, boshlang'ich sinf davri til, tafakkur va nutqiy faollikni shakllantirishda poydevor hisoblanadi. Bolaning ongli tafakkuri faol nutq orqali rivojlanadi**.** Tashqi nutqning ichki nutqqa aylanib borishi. Boshlang‘ich maktab yoshida tashqi

nutq asta-sekin ichki nutqqa aylanadi va u tafakkur jarayonining asosiy mexanizmiga muammolarni yechish va o‘z-o‘zini boshqarish aylanadi. Rus psixologlari nazariyasi tasdiqlaydiki, boshlang‘ich sinf davri til, tafakkur va nutqiy faollikni shakllantirishda poydevor hisoblanadi. Bolaning ongli tafakkuri faol nutq orqali rivojlanadi. Bu shuni anglatadiki, grammatika shunchaki qoidalar yig‘indisi emas, balki fikrni tizimlashtirish va uning aniqligini ta’minlash vositasidir. Gap tuzish va matn bilan ishlash fikrlash jarayonini tartibga soladi. Bu natija, bolaning nutqiy faolligini rivojlantirish orqali uning kognitiv o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) qobiliyati shakllanishini anglatadi

Tafakkurni faollashtiruvchi asosiy pedagogik mexanizmlar tahlili

Taqdim etilgan ma’lumotlarda 3 ta asosiy mexanizm ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ular nutq yordamida tafakkurni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

1. Muammoli o‘qitish va savol-javob mexanizmi- tafakkurning asosiy motivatori. zidiyatlarni keltirib chiqarish o‘quvchini hayratlanish yoki qiyinchilik hissi orqali muammoni anglashga majbur qiladi. Bu kognitiv faollikni rag‘batlantiradi. Ijodiy (faraziy) savollar “agar ... bo'lsa nima bo'ladi?” o‘quvchida mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki u mavjud bilimlardan tashqariga chiqishga majbur bo‘ladi.

2. Muloqot va o‘zaro fikr almashish mexanizmi-ijtimoiy tafakkurning rivoji. Bu mexanizm tafakkurning ijtimoiy faoliyat natijasi ekanligini tasdiqlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi (munozara) orqali o‘quvchi o‘z fikrini asoslash, himoya qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallaydi. Jamoaviy ish kommunikativ faollik orqali mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.

3. Lug‘at va matn bilan ishlash mexanizmi-tushunchaviy tafakkurning kengayishi. Yangi so‘zlarning ma’nosini kontekstda aniqlash orqali bolaning kognitiv tuzilmasi boyiydi va tushunchaviy tafakkuri rivojlanadi. matnni tahlil qilish esa tinglab tushunish va ifodalash malakalarini shakllantiradi.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda nutq orqali tafakkurni faollashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmlari nutqiy faollikni yaratishga, mustaqil va mantiqiy fikrlashga undashga qaratilgan. Ushbu jarayonda, ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Nutqni rivojlantirishdagi izchillik, istiqbollilik va mashqlar xilma-xilligi talabi taqdim etilgan amaliy usullarni muvaffaqiyatli qo'llashning metodik asosini tashkil etadi. Bu jarayon o‘quvchining shaxsiy nutqiy salohiyatini yuzaga chiqarib, uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

ABIYOTLAR

1. Lev Vygotskiy L.S. Выготский “Мышление и речь” (Tafakkur va nutq) 1934-yil

2. Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI. Toshkent” METODIST NASHRIYOTI”2023.

3. PIRLS 2011 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin, Enn M. Kennedi, Keti L. Trong, Marian Sainsberi.

4. Daminova Dilbar Melimurodovna METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal . -October -2023, 2023-yil.88-92-bet

5. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 03, March. (2023). -3-4-mart 2023, 2023-yil.307-311-betlar

6. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna

PEDAGOGPEDACOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. WEB OF SCINTIST: WEB OF SCINTER: INTERNATIONAL SCINTIFIC RESEARCH JOURNAL. 3. Mar..2023, 2023-yil.971-976-bet

7. Daminova Dilbar Melimurodovna. TIMSS TADQIQOTLARIDA MATEMATIK BILIM VA KO'NIKMALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH. Globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalar va oliy ta`limning dolzarb muammolari. Metodist nashriyoti" 2023-yil. 532-534-bet

8. Daminova Dilbar Melimurodovna ONA TILINI FANLARARO O`QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. INTER EDUGATION.CLOBAL STUDY. - 2024.N4(1), B:122-128-bet

9. Daminova Dilbar Melimurodovna.Ona tilini fanlararo o`qitishda nutqiy faoliyatni rivoglantirish metodikasi. Til va adabiyotlar.uz 84-86-betlar

10. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Salimova Ruxshona Chori qizi. KICHIK YOSHDAGI O`QUVCHILAR NUTQINI O`STIRISHNING VAZIFALARI ,METODLARI VA VOSITALARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS.53-57-betlar.

UDK. 37.014.5:331.548(575.1)

O'ZBEKISTONDA KASB-HUNAR VA TEXNOLOGIK TA'LIMDA DUAL TA'LIMNI MAHALLIY ISHLAB CHIQARISH VA XUSUSIY USTAXONALAR BILAN INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xamroqulov Abdurahmat Karimovich
Namangan davlat texnika universiteti, dotsent, abduraxmathamroqulov@gmail.com

Tursunmuhammadov Bunyodjon Komiljon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti magistranti, bunyodbektursunmuhammadov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kasb-hunar va texnologik ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etish jarayonlari hamda uni mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va xususiy ustaxonalar bilan integratsiyalash muammolari keltirilgan. Dual ta'limning afzalliklari, mavjud imkoniyatlari va qo'llash jarayonida uchraydigan muammolar yoritilib, ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Abstract. This article analyzes the processes of introducing the dual education model in the vocational and technological education system of Uzbekistan, as well as the issues of integrating it with local manufacturing enterprises and private workshops. The advantages of dual education, existing opportunities, and the challenges encountered during its implementation are highlighted, and proposals and recommendations for their solution are put forward. This approach serves as an important factor in training qualified specialists, strengthening the close relationship between education and production, and ensuring youth employment in the country.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы внедрения модели дуального образования в систему профессионального и технологического образования Узбекистана, а также вопросы её интеграции с местными производственными предприятиями и частными мастерскими. Рассмотрены преимущества дуального образования, существующие возможности и проблемы, возникающие в процессе его реализации. Представлены предложения и рекомендации по их решению. Такой подход служит важным фактором в подготовке квалифицированных специалистов, укреплении тесной связи между образованием и производством, а также в обеспечении занятости молодежи в стране.

Kalit so'zlar: kasb-hunar ta'limi, texnologik ta'lim, dual ta'lim, ishlab chiqarish korxonalari, xususiy ustaxonalar, integratsiya, mutaxassis tayyorlash, ta'lim sifati, amaliy ko'nikma, bandlik.

Keywords: vocational education, technological education, dual education, manufacturing enterprises, private workshops, integration, specialist training, education quality, practical skills, employment.

Ключевые слова: профессиональное образование, технологическое образование, дуальное образование, производственные предприятия, частные мастерские, интеграция, подготовка специалистов, качество образования, практические навыки, занятость.

Kirish

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish sharoitida ta'lim tizimining eng muhim vazifasi-mehnat bozorida raqobatbardosh, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. O'zbekistonda kasb-hunar va texnologik ta'lim sohasida islohotlar olib borilmoqda, ayniqsa, dual ta'lim modelini joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Dual ta'lim-bu nazariya bilan amaliyotning uyg'unlashgan shakli bo'lib, ta'lim oluvchi bir vaqtning o'zida ta'lim muassasasida bilim oladi va ishlab chiqarish korxonalari yoki xususiy ustaxonalarda

ishlab amaliy tajribaga ega bo‘ladi. Mazkur tizimning joriy etilishi yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni ishlab chiqarish talablariga mos kadrlar sifatida tayyorlash va xususiy sektor faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jarayonda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular yechimini topishi zarur.

Dual ta’lim tizimining nazariy asoslari

Dual ta’lim-bu ta’lim oluvchilarning bir vaqtning o‘zida ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni egallashi va ishlab chiqarish korxonalari yoki xususiy ustaxonalarda amaliyot o‘tashini nazarda tutuvchi ta’lim modeli hisoblanadi. Bu modelda ta’lim jarayoni faqat darslik va nazariy mashg‘ulotlar bilan cheklanib qolmay, balki ishlab chiqarishning real sharoitlarida talabalar mustaqil ish olib borish orqali amaliy ko‘nikma va tajriba hosil qiladi. Nazariy jihatdan, dual ta’limning asosiy vazifasi-ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlashdir.


Dual ta’lim tizimi uch asosiy tamoyilga asoslanadi:

1. Nazariya va amaliyotning uyg‘unligi-talaba olgan bilimini darhol amaliyotda qo‘llab, uni mustahkamlaydi.

2. Ishlab chiqarish bilan bevosita integratsiya-ta’lim muassasalari o‘z dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtiradi.

3. Talabaning mehnat bozoriga tayyorligi-bitiruvchilar malakali kadr sifatida tayyorlanadi va bandlik darajasi ortadi.

Shuningdek, dual ta’lim tizimi pedagogik jarayonda “uch tomonlama hamkorlik” konsepsiyasiga tayanadi. Ya’ni, ta’lim muassasasi, ishlab chiqarish korxonasi (yoki xususiy ustaxona) va talabaning o‘zi birgalikda ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi bo‘ladi. Bu hamkorlik natijasida talaba nafaqat kasbiy bilimlarni egallaydi, balki mehnat intizomi, jamoada ishlash qobiliyati va mas’uliyatlilik kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi. Nazariy jihatdan qaralganda, dual ta’lim tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat: ta’lim sifati oshadi, ishlab chiqarish korxonalari uchun zarur mutaxassislar tayyorlanadi va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam beradi.



Rasm 1. Dual ta’lim tizimining nazariy modeli

Ushbu sxemada dual ta’limning nazariy modeli tasvirlangan bo‘lib, unda ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasida talaba asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ko‘rsatilgan. Nazariya va amaliyot bir vaqtning o‘zida olib boriladi hamda ular o‘zaro uzviy bog‘langan.

O‘zbekistonda dual ta’lim tizimini joriy etish imkoniyatlari

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunar va texnologik ta’limni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish korxonalari va xususiy sektorga tayyor malakali kadrlar yetkazib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ushbu jarayonda

dual ta'lim tizimini keng joriy etish katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Birinchidan, mamlakatda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalari va xususiy ustaxonalar soni yil sayin ortib bormoqda. Ularning aksariyati malakali ishchi kuchiga ehtiyoj sezmoqda. Bu esa dual ta'lim uchun tabiiy asos yaratadi. Ikkinchidan, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va dasturlar, jumladan, "Kasb-hunar ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Yoshlar–kelajagimiz" dasturlari dual ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratmoqda. Uchinchidan, texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyotning kengayishi hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi yangi kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bunday sharoitda dual ta'lim tizimi orqali yoshlarning amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda dual ta'lim tizimini keng joriy etish uchun: ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, davlatning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash, talabalarda amaliyotga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarur.

Dual ta'lim tizimini mahalliy ishlab chiqarish va xususiy ustaxonalar bilan integratsiyalash samarali bo'lishi uchun bir qator shart-sharoitlar talab etiladi. Ammo amaliyotda ushbu jarayon turli muammolarga duch kelmoqda. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tashkiliy muammolar.



2-rasm. O'zbekistonda dual ta'lim tizimini joriy etish imkoniyatlari.

1. Dual ta'lim tizimini integratsiyalash jarayonida uchraydigan muammolar. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi. O'quv rejalari ishlab chiqarish talablari bilan to'liq mos kelmasligi. Amaliyot bazalarining cheklanganligi va yetarlicha moddiy-texnik resurslarning mavjud emasligi.

2. Moliyaviy muammolar. Xususiy ustaxonalar va kichik korxonalar talabalarni qabul qilish va ularga sharoit yaratishda yetarli mablag' ajrata olmasligi. Amaliyotchi talabalarga moddiy rag'batlantirish mexanizmlarining sustligi.

3. Kadrlar bilan bog'liq muammolar. Amaliyot jarayonida talabalarga rahbarlik qiluvchi ustoz-trenerlarning yetishmasligi. Ishlab chiqarish korxonalarida malakali mutaxassislarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga qiziqishi pastligi.

Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi. O'quv rejalari ishlab chiqarish talablari bilan to'liq mos kelmasligi. Amaliyot bazalarining cheklanganligi va yetarlicha moddiy-texnik resurslarning mavjud emasligi.

2. Moliyaviy muammolar. Xususiy ustaxonalar va kichik korxonalar talabalarni qabul qilish va ularga sharoit yaratishda yetarli mablag‘ ajrata olmasligi. Amaliyotchi talabalarga moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarining sustligi.

3. Kadrlar bilan bog‘liq muammolar.

Amaliyot jarayonida talabalarga rahbarlik qiluvchi ustoz-trenerlarning yetishmasligi. Ishlab chiqarish korxonalarida malakali mutaxassislarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga qiziqishi pastligi.

4. Huquqiy va normativ muammolar.

Dual ta'lim tizimini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi. Ta'lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining aniq belgilab berilmaganligi.

Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim tizimini integratsiyalashda uchraydigan muammolarni hal qilish uchun davlat siyosati, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim muassasalari va jamiyatning o‘zaro hamkorligi talab qilinadi.

Muammolarni hal etish yo‘llari va takliflar

Dual ta'lim tizimini samarali joriy etishda uchraydigan muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Quyida ularni yechish yo‘llari va amaliy takliflar keltiriladi:

1. Huquqiy va normativ yechimlar: Dual ta'lim bo‘yicha alohida qonun yoki normativ hujjatlarni ishlab chiqish. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tartibga soluvchi yagona metodik qo‘llanmalarni joriy etish. Hamkorlik shartnomalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash.

2. Ijtimoiy-psixologik yechimlar: Talabalar orasida kasb-hunarga qiziqishni oshirish uchun targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. Ota-onalar uchun kasb-hunar ta'limining afzalliklarini tushuntiruvchi seminar va uchrashuvlar o‘tkazish. Talabalarni ishlab chiqarish muhitiga moslashtirish uchun psixologik treninglar tashkil qilish.

Xulosa

O‘zbekistonda kasb-hunar va texnologik ta'lim tizimida dual ta'limni joriy etish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va ishlab chiqarish bilan uzviy aloqani kuchaytirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirib, ularni mehnat bozoriga tayyorlaydi. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va xususiy ustaxonalar bilan hamkorlik dual ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tizimni keng joriy etishda tashkiliy, moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy muammolar mavjudligi sezilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatini kuchaytirish, ishlab chiqarish korxonalarini rag‘batlantirish va ustoz-trenerlarni tayyorlash zarur.

Dual ta'limni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yoshlarning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlash ham tizimning asosiy afzalliklaridan biridir. Shuningdek, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Kelgusida dual ta'limning bosqichma-bosqich joriy etilishi O‘zbekistonda malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Demak, mazkur yondashuv nafaqat ta'lim tizimini takomillashtiradi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3775-son qarori. – Toshkent, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasb-hunar ta'limi tizimida dual ta'limni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.

3. Karimov A. Dual ta'lim tizimi: nazariy asoslari va amaliy tajribalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.

4. Xasanov B., Yo'ldoshev M. Kasb-hunar ta'limida ishlab chiqarish bilan integratsiya masalalari. // "Ta'lim va innovatsiya" ilmiy jurnali. – №2, 2022. – B. 45–52.

5. Niyozov U. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

6. Сорокин С.В. Дуальное образование: мировой опыт и перспективы внедрения. – Москва: Академия наук, 2020.

UDK 378:37.013.46

YAPONIYA OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY TARBIYANI AKT ASOSIDA TASHKIL ETISH: O'ZBEKISTON UCHUN IMKONIYATLAR

Jakbarov Odiljon Otamirzayevich
"Namangan davlat texnika universiteti", t.f.n., professor, JakbarovOdiljon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaponiya oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tashkil etish amaliyoti tahlil qilinadi. Yaponiyaning bu boradagi tajribasi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotda Yaponiya va O'zbekiston oliy ta'lim tizimlarining ma'naviy tarbiyaga oid yondashuvi solishtiriladi, AKT vositalarining samaradorligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ma'naviy tarbiyani AKT asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется практика организации нравственного воспитания на основе информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в системе высшего образования Японии. Опыт Японии рассматривается с точки зрения возможностей развития нравственного воспитания в системе высшего образования Узбекистана. В исследовании сравниваются подходы к нравственному воспитанию в системах высшего образования Японии и Узбекистана, а также определяется эффективность использования ИКТ. На основе результатов исследования предложены рекомендации по совершенствованию нравственного воспитания в Узбекистане с использованием ИКТ.

Abstract. This article analyzes the practice of organizing moral education based on information and communication technologies (ICT) in Japan's higher education system. Japan's experience in this regard is examined from the perspective of opportunities for developing moral education in Uzbekistan's higher education system. The study compares the approaches to moral education in the higher education systems of Japan and Uzbekistan and identifies the effectiveness of ICT tools. Based on the research results, recommendations are provided for improving moral education in Uzbekistan through ICT.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, oliy ta'lim, AKT, Yaponiya, O'zbekiston, raqamli texnologiyalar, ta'lim sifati.

Ключевые слова: нравственное воспитание, высшее образование, ИКТ, Япония, Узбекистан, цифровые технологии, качество образования.

Key words: moral education, higher education, ICT, Japan, Uzbekistan, digital technologies, education quality.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-4479-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va talabalarning ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish vazifalari belgilangan. Ushbu qarorda "raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish va talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish" muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Yaponiya ta'lim tizimi esa ma'naviy tarbiya va AKT integratsiyasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yaponiyada ma'naviy tarbiya "shūshin" (axloqiy tarbiya) konsepsiyasi asosida oliy ta'limda faol qo'llanib, AKT vositalari orqali zamonaviylashtirilmoqda. O'zbekistonda ushbu tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish oliy ta'limda ma'naviy tarbiyani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'naviy tarbiya va AKT integratsiyasi bo'yicha tadqiqotlarda Yaponiya ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilgan. M.Junayedi va F.Syukur [1] o'z ishlarida Yaponiyada ma'naviy tarbiya "shūshin" konsepsiyasi asosida amalga oshirilib, talabalarning ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, Yaponiyada ma'naviy tarbiyaga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni talabalarning mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

N.Yoqubova va B.Salomova [2] Yaponiya ta'lim tizimining 6+3+3+2/4 strukturasini tahlil qilib, ma'naviy tarbiyaning barcha ta'lim bosqichlarida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Ular Yaponiyada ma'naviy tarbiyaning mustahkam metodologik asosga ega ekanligini va AKT vositalari orqali interaktiv usullar bilan boyitilayotganini ta'kidlaydi.

E.Elmurodov [3] O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikni tahlil qilib, Yaponiya universitetlari bilan tadqiqot va ta'limda AKTni qo'llash bo'yicha loyihalarni rivojlantirish muhimligini qayd etadi. Uning fikricha, Yaponiyaning AKT asosidagi ta'lim tajribasi O'zbekistonda innovasion yondashuvlarni joriy etish uchun muhim manba bo'lishi mumkin.


Z.R.Isaqova [4] ilmiy tadqiqot metodologiyasiga bag'ishlangan ishida AKTni ta'limda qo'llashning metodologik asoslarini tahlil qiladi. Uning xulosalariga ko'ra, AKT vositalari ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi, ammo bu jarayonda madaniy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Yaponiya va O'zbekiston oliy ta'lim tizimlarida ma'naviy tarbiyani AKT asosida tashkil etishning samaradorligini o'rganish uchun solishtirma tahlil va miqdoriy usullar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Adabiyot tahlili.** Yaponiya va O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaga oid ilmiy manbalar, davlat dasturiy hujjatlari va ta'lim standartlari o'rganildi.
2. **Solishtirma tahlil.** Yaponiya va O'zbekiston oliy ta'lim tizimlarida ma'naviy tarbiyaning mazmuni, metodlari va AKTning qo'llanish darajasi solishtirildi.
3. **Miqdoriy tahlil.** Namangan davlat texnika universiteti va Yaponiyaning Tokio universitetida ma'naviy tarbiyaga oid AKT vositalarining qo'llanish samaradorligini baholash uchun 200 nafar talaba va 50 nafar o'qituvchi ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi.
4. **Matematik modellashtirish.** AKT vositalarining ma'naviy tarbiyaga ta'sirini baholash uchun korrelyasiya tahlili va SPSS dasturlaridan foydalanildi.

Solishtirma jadval

Kriteriya	Yaponiya	O'zbekiston
Ma'naviy tarbiya mazmuni	"Shūshin" konsepsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlarga urg'u	Ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analarga asoslangan tarbiya
AKT vositalari	Onlayn platformalar, VR, interaktiv darslar	E-learning platformalar, asosan Moodle va Zoom
Qo'llanish darajasi	Yuqori (90% dan ortiq universitetlarda AKT qo'llaniladi)	O'rtacha (50% ga yaqin universitetlarda AKT qo'llaniladi)
Natijalar	Talabalarning axloqiy saviyasi va mustaqil fikrlash ko'nikmasi yuqori	Talabalarning ma'naviy saviyasi oshmoqda, ammo AKT integratsiyasi cheklangan



Grafik: AKTning ma'naviy tarbiyaga ta'siri

Grafikda Yaponiya va O'zbekistonda AKT vositalarining talabalarning ma'naviy-axloqiy saviyasiga ta'siri foizlarda ko'rsatilgan. Yaponiyada 85% talabalar AKT vositalarining ijobiy ta'sirini qayd etgan, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 60% ni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Yaponiya oliy ta'lim tizimida AKT vositalari ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Tokio universitetida virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali talabalarga axloqiy dilemmalarni hal qilish ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu usul talabalarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda esa AKT vositalari asosan Moodle va Zoom kabi platformalar orqali qo'llaniladi, ammo ularning ma'naviy tarbiyaga integratsiyasi hali to'liq amalga oshirilmagan.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekistonda talabalarning 60% AKT vositalari ma'naviy tarbiyada ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etgan, ammo o'qituvchilarning 70% ushbu vositalarning mahalliy sharoitga moslashtirilmaganligini ta'kidlagan. Yaponiyada esa talabalarning 85% va o'qituvchilarning 90% AKTning ma'naviy tarbiyaga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan. Korrelyasiya tahlili (r=0.78) AKTning talabalarning ma'naviy-axloqiy saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Yaponiya oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani AKT asosida tashkil etish tajribasi O'zbekiston uchun muhim o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Yaponiyaning "shūshin" konsepsiyasi va AKT vositalarining integratsiyasi talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatadi. O'zbekistonda esa ma'naviy tarbiyaning milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda AKT vositalarini kengroq qo'llash zarur.

Takliflar:

1. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiyaga bag'ishlangan maxsus onlayn platformalar yaratish (masalan, VR asosidagi interaktiv darslar).
2. Yaponiya universitetlari bilan ta'lim va tadqiqot sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, xususan, ma'naviy tarbiyaga oid AKT loyihalarini amalga oshirish.
3. O'qituvchilar uchun AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilish.
4. Ma'naviy tarbiyaning samaradorligini baholash uchun AKT asosidagi monitoring tizimini joriy etish.

ADABIYOTLAR

1. Junaedi M., Syukur F. Moral education in Japanese schools: a model for improving character education in Indonesia // Analisa: Journal of Social Science and Religion. – 2017. – T. 2. – №. 1. – S. 23-40.
2. Yoqubova N., Salomova B. Ta'lim tizimi rivojlanishi davlat taraqqiyotining omili sifatida (Janubiy Koreya va Yaponiya misolida) // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). – 2017. – S. 3397-427.
3. Elmurodov E. Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik va mavjud loyihalar: tahlil va yechimlar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – S. 487-32.

4. Isaqova Z.R. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2023. – 84 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-4479-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // tma.uz.

6. Takahashi K. ICT-based moral education in Japanese universities: A case study of Tokyo University // Journal of Educational Technology. – 2020. – T. 15. – №. 3. – S. 45-60.

7. Nakamura T. Shūshin education and its integration with digital tools in Japan // International Journal of Moral Education. – 2019. – T. 10. – №. 2. – S. 12-25.

8. Kim S., Lee J. Comparative analysis of moral education systems in East Asia // Asia-Pacific Education Review. – 2018. – T. 19. – №. 4. – S. 301-315.

9. Sato M. Digital transformation in Japanese higher education: Opportunities and challenges // Journal of Higher Education Policy. – 2021. – T. 22. – №. 1. – S. 89-104.

10. Mirzayeva G. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // tma.uz. – 2019. – S. 1-10.

11. Hashimoto Y. Virtual reality in moral education: A new approach in Japanese universities // Technology and Society Journal. – 2022. – T. 25. – №. 5. – S. 67-80.

12. Abdullaev A. O'zbekistonda oliy ta'limda ma'naviy tarbiya masalalari // Pedagogika. – 2023. – T. 5. – №. 2. – S. 15-25.

UDK. 352.735.3

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA ONA TILI O‘QITISHNING O‘RNI VA ROLI

Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, jovliyevjorabek86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida ona tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozilgan bo‘lib, ona tilini o‘qitish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini tahlil etadi. Maqolada, milliy qadriyatlar bilan birga, inson huquqlari, erkinlik, tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar ham ona tilini o‘qitishda qanday aks ettirilishi kerakligi muhokama qilinadi. Shuningdek, ona tili orqali yosh avlodga milliy madaniyat va an'analarni singdirish, ularni global miqyosda yashashga tayyorlash maqsadlari ko‘rsatilgan.

Аннотация. Данная статья написана на тему "Особенности обучения родному языку в духе национальных и общечеловеческих ценностей" и анализирует роль и значение национальных и общечеловеческих ценностей в процессе обучения родному языку. В статье рассматривается, как наряду с национальными ценностями в преподавании родного языка должны быть отражены и такие общечеловеческие ценности, как права человека, свобода, равенство. Также обозначены цели привития подрастающему поколению национальной культуры и традиций через родной язык, подготовки их к жизни в глобальном масштабе.

Abstract. This article is written on the topic "Peculiarities of teaching a native language in the spirit of national and universal values" and analyzes the role and importance of national and universal values in the process of teaching a native language. The article examines how, along with national values, such universal values as human rights, freedom, and equality should be reflected in the teaching of the native language. The goals of instilling national culture and traditions to the younger generation through their native language and preparing them for life on a global scale are also outlined.

**Kalit so`zlar**: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona tili, jamiyat, o`quvchilar, dars jarayoni.

Ключевые слова: национальные и общечеловеческие ценности, родной язык, общество, учащиеся, процесс урока.

Keywords: national and universal values, native language, society, students, lesson process.

Kirish. Ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonini loyihalash, aslida, ma'naviyatni shakllantirish, o‘zligini anglashi va global madaniyatga moslashishini ta'minlashga qaratilgan.

Bag‘rikenglik xalqimizning oliy qadriyatlaridan biridir. Bu tuyg‘u qonimizga ulug‘ ajdodlarimizdan o‘tgan bo‘lib, qalbimizni munavvar tutadi,dunyo afkor ommasi orasida xalqimizga cheksiz ehtirom baxsh etib turadi. Xalqimizning Olloh in’om etgan bu fe’li turli og‘ir yillar sinovlarida ham o‘zini bukilmasligi va mustahkamligini namoyish etgandir.

Bu ulug‘ tuyg‘u endilikda, mustaqillik yillarida yanada yorqinlik bilan o‘z ifodasini topib turibdi. Har yili Mustaqillik bayramini nishonlar ekanmiz, uning timsolida, avvalo, mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda millatlararo ahillik va hamjihatlikni ta’minlashga doimiy muhim ahamiyat berib kelinayotganining dalolatini ko‘ramiz.

Bu ulug‘ tuyg‘u xalqimizning tinchligi va omonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakat rahbari va hukumatimiz xalqimizni xalqaro miqyosdagi turli tahlikali

vaziyatlardan ogoh etib, bu masalaga yuksak ahamiyat bermoqda. "Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'imizdek saqlashimiz, yurtimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak", deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [1,10.].

Ona tilini o'rgatish jarayonida o'quvchilarga nafaqat grammatik va lingvistik bilimlar berish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ham muhimdir. Buning uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak.

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mintaliteti asosini tashkil etadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Qadriyatlar va jamiyat munosabatlariga oid masalalar u yoki bu qarashlar tarkibida antik davr mutaffakkirlari Aristotel, Aflotun, Konfutsiy, Suqrot asarlarida, o'rta asr musulmon Sharqi falsafasida insonning zohiriy va botiniy o'zligini anglashga oid masalalar Abu Nasr Forobiy, Aziziddin Nasafiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Ibn Sino asarlarida yoritilgan.

Respublikamiz ilm-fan sohasida esa milliy g'oya, milliy qadriyatlar va siyosiy madaniyatning nazariy hamda amaliy jihatlari bilan bog'liq muammolar A.Ashirov, Q.Nazarov, R. Mavlonovaning "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" kitobi, N.Saidmuhammedov "Yangi pedagogik texnologiyalar", kabi olimlarning asarlarida yoritib berilgan.

MDH davlatlarida taniqli olimlardan S.A.Arutyunyan, L.P.Bueva, A.Butenko, A.Lektorskiy, P.I.Kushner chop ettirgan asarlarda insonning ijtimoiy borliqda o'zini idrok etishi, u orqali ijtimoiy jarayonlar holatiga ta'sir qilishi bilan bog'liq muammolar muhokama qilingan.

Rivojlangan mamlakatlarda N.Berdyaev, T.Gobss, G.Gegel, R.Dekart, I.Kant, Sh.Monteske, Z.Freyd, E.Fromm singari mutafakkirlar qarashlarida inson aqlu idroki, qadriyatlar va siyosat uyg'unligi tajribalari murakkab ijtimoiy-ruhiy holat ekani ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik hamda totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbilash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi.

Milliy qadriyatlarni targ'ib qilish: O'quvchilarga o'z xalqining tarixiy, madaniy, adabiy merosi haqida ma'lumotlar berish. Masalan, adabiyot darslarida milliy yozuvchilar, shoirlar va tarixiy shaxslarning asarlari orqali milliy qadriyatlarni o'rgatish.

Umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatish: O'qitishda adolat, tenglik, erkinlik, tinchlik, hurmat va mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz-O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda. Millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni eemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash nihoyatda muhimdir. Hech shubhasiz,

bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston o'z tashqi siyosati sohasida horijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida keyingi yillarda sezilarli natijalarga erishib kelayotir.

"O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bosh ustuvor yo'nalish" tamoyilini amalda tadbiq etishga kirishildi. Natijada mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda diniy bag'rikenglik masalalari ham o'ziga xos o'rin topadi. Ma'lumki, bizning Vatanimiz ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar muloqotga kirishgan va bir-birini to'ldirgan Buyuk ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashgan. Bu zaminda turli madaniyat va din vakillari tinch-totuv va hamjihatlikda yashagan, musulmon dunyosi taraqqiyotida ulkan rol o'ynagan xalqimiz mintalitetining asosini tom ma'nodagi bag'rikenglik, oliyjanoblik va ezgulik kabi fazilatlar tashkil etadi.

Movarounnahrning go'zal va betakror shaharlari, avvalo, Samarqand va Buxoro, Toshkent, Xiva ko'p asrlar davomida islom ilm-fani, madaniyati va butun musulmon sivilizatsiyasining markazlari sifatida shuxrat qozongan. Bu saxovatli zamindan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Motrudiy, Abu Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahoviddin Naqshband kabi ko'plab buyuk alloma va aziz-avliyolar yetishib chiqdi.

Insoniyat tarixidagi noyob hodisa bo'lgan musulmon Renessansi ana shu buyuk ajdodlarimizning diniy bag'rikenglik va insonparvarlik borasidagi ezgu g'oyalari bilan yo'g'rilgan edi. Bu g'oyalar bizning davrimizda, O'zbekiston mustaqilligi yillarida alohida, yanada teran ma'no-mazmun kasb etib bormoqda.

Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va diniy konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va bunday yondashuv ijobiy natija bermoqda.

Bu masalaga aynan bugungi kunda, dunyoning turli mintaqalarida keskinlik va radikalizm kuchayib, diniy ekstrimizm va terrorizm tobora avj olib borayotgani hozirgi vaqtda, ayniqsa, muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Shu ma'noda O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolotsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani chuqur mantiqiy asosga egadir. Zero, muqaddas dinimiz bag'rikenglikka, ezgu amallar va baxtu saodatga olib boradigan yo'l aynan ma'rifat ekanligini alohida uqtiradi.

Bugungi kunda bugun dunyo, ayniqsa, islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosatlashtirish va musulmon yoshlarini radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqazo etmoqda.

Dunyodagi ayrim doiralar islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog'lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi. Bu omil islom olamini yanada jipslashishga chorlamoqda. Islom hamjihatligi jahondagi keskinlikni yumshatishda muhim rol o'ynashi mumkin.

"Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam manbai sifatida bexad qadrlaymiz, - deydi muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoev-Biz buyuk dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, hayotda esa asl insoniy fazilatlarni qaror toptirishga da'vat etadi." [2,4,5,7].

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinliki, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash,

ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etishga mamlakatimizda o'ziga xos dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Keyingi vaqtda shu yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilib, tabarruk qadamjolar obod qilinib, yangi-yangi ilmiy, madaniy va diniy markazlar, ta'lim maskanlari tashkil etilmoqda.

O'zbekistonning "Jaholatga qarshi ma'rifat" degan tamoyil vsosida jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vijdon erkinligi va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va dunyo ahliga yetkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda"[3].

Darhaqaqat, islomiy ma'rifatning xalqlar o'rtasida o'zaro hurmatni mustahkamlash, shaxsni qadrlash, ayniqsa, farzandlar tarbiyasidagi ahamiyati o'ziga xosdir. Islom ta'limotiga ko'ra, farzand Alloh taolo tomonidan ato etilgan ulug' ne'mat, shu bilan birga, ota-onaga topshirilgan mas'uliyati juda ulkan imkoniyatdir ham. Naslu nasab davomchisini aqlan va jismonan sog'lom holda parvarishlash, odob-axloq va musulmonchilikka doir boshlang'ich ma'lumotlarni o'rgatib borish o'ta muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Tahlil va natijalar. O'qituvchilar turli metodlarni qo'llab, o'quvchilarga tilni o'rgatishda va tarbiyaviy jihatdan muvaffaqiyatga erishishda yordam berishlari kerak:

Interaktiv metodlar. Muammoli vazifalar, guruhli ishlar, rolli o'yinlar va muhokamalar orqali o'quvchilarni fikr yuritishga, muloqotga kirishishga va qadriyatlarni baholashga undash.

Darslarni qadriyatlar orqali boyitish. Masalan, biror asar yoki matnni o'qitishda o'quvchilarga qanday axloqiy yoki ijtimoiy masalalar haqida o'ylash, tahlil qilish va o'z fikrini ifodalashni o'rgatish.

Mamlakatimizda diniy bag'rikenglikning ezgu qadriyat sifatida ulug'lanishi xalqaro do'stona aloqalarning yo'lga qo'yilishda ham ahamiyatli ekanligi xorijlik ulamolar tomonidan ham samimiy e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda dunyodagi barcha musulmon ahli islomning O'zbekistondagi ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlayotgani bejis emas. Ma'rifat, madaniyat, bag'rikenglik, ta'lim-tarbiya, ayollar va yoshlarga g'amxo'rlik, keksalarga hurmat, o'zga din ahli izzatini joyiga qo'yish kabi insonparvarlikka yo'g'rilgan g'oyalarning barchasi islomga xosdir. Ular bugungi O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgani islom ta'limotining to'g'ri yo'nalishini belgilab olish naqadar zarurligini aks ettiradi."[4].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni dars mazmuniga kiritish. Darslar davomida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni o'rgatish uchun:

Adabiyot. Milliy adabiyot vakillarining asarlari, xalq ertaklari, rivoyatlari va qahramonlari orqali o'quvchilarni milliy o'zlikni anglashga undash.

Tarix. O'quvchilarga milliy tarixiy voqealar va shaxslar haqida ma'lumot berish, ular orqali vatanparvarlik, mardlik va fidoyilik kabi qadriyatlarni o'rgatish.

Madaniyat va san'at. O'quvchilarga milliy musiqamiz, raqsimiz, tasviriy san'atimiz orqali milliy madaniyatni tanitish, shu bilan birga, umuminsoniy san'atning ahamiyatini tushuntirish.

"O'zbek zamini azal-azaldan islom ilmlarining o'chog'i sifatida dunyoga mashhur bo'lgan. Buxoro, Samarqand shaharlarida istiqomat qilgan aziz-avliyolar jahon tamadduniga beqiyos ulush qo'shganlar. Ular ilgari surgan insonparvarlik g'oyalari asrlar davomida dolzarb bo'lib, bugungi kunda ham dunyo afkor ommasining e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Qadimiy hamda biz uchun yaqin va qadrdon o'zbek Zaminida bugungi kunda ro'yobga chiqarilayotgan savobli ishlarni diqqat va mamnuniyat bilan kuzatar ekanmiz, Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosat asosida ulug' allomalar, ma'rifatrarvar shaxslarning ezgu g'oyalari yotganiga ishonch hosil qilamiz.

O'zbekiston Rahbarining tashabbusi bilan BMT Bosh Assamleyasi tomonidan "Ma'rifat

va diniy bag‘rikenglik" rezolitsiyasi qabul qilindiki, bu xujjat barchaga ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash, savodsizlikka va jaholatni tugatish, bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish, diniy erkinlikka erishish, dindorlar huquqini himoya qilish va ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik singari xayrli ishlarga da'vat qiladi. Shu bois ham u butun sayyoramiz aholisi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. O‘zbekistonda ulug‘ mutafakkirlar va allomalar xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha tadbirlar bilan bir qatorda, ularning ta'limotlarini o‘rganish, targ‘ib etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilayotgani tahsinga loyiqdir. Faoliyat yuritayotgan diniy o‘quv yurtlari– O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti va qator madrasalar yuksak e'tirofga sazavordir. Ularda Buxoro dinshunoslik maktabining an'analari bilan hozirgi zamon fan-texnikasi taraqqiyotining yutuqlari mujassamlashgan."[5].

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yurtimizdagi ziyoratgohlarni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarilishi, islom dinining insonparvarlik, ezgulik mohiyatini yanada chuqur his ettiradigan darajaga yetkazilishi kerak.

Shunday qilib, mamlakatimizda yosh avlodni chin vatanparvar, insonparvar kishilar qilib tarbiyalashda xalqimizning ezgu qadriyatlari, xususan, mehr-muruvvat, himmatlilik, saxovatlilik, o‘zaro hurmat, xalqlar do‘stligi, diniy bag‘rikenglik kabi xalqimizga xos ulug‘ qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tilini o‘qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash jarayoni orqali o‘quvchilar faqat tilni o‘rganish bilan cheklanmay, balki butun dunyo bo‘ylab axloqiy, madaniy va estetik qadriyatlarni ham anglab yetadilar. Bu ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: "O‘zbekiston" HMUY, 2018. II TOM.

2. Mirziyoyev Sh. Erkin vafaravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.:"O‘zbekiston" HMUY, 2018

3. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5 tom. T.: – "O‘zbekiston" , 1997. 111-112-betlar.

4. Boronsov V., Tafakur gulshani. Toshkent 1989 Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi.

5. Boronsov, V. Tafakkur gulshani. Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi. T.

UDK. 378.147:004:62

"MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O'QITISHDA TALABALAR MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Karimova Dilfuza Abduraxmat qizi
Namangan texnika universiteti doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'qitishda talabalar muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ahamiyati yoritilgan. Bugungi kundagi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida amaliy mashg'ulotlarni interaktiv tashkil etish yo'llari, muhandislik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar tahlil qilingan.

Аннотация. В статье рассматривается значение формирования и развития инженерных компетенций у студентов при преподавании дисциплины «Инженерная и компьютерная графика». Анализируются методы интерактивной организации практических занятий на основе современных цифровых технологий, а также подходы, способствующие развитию инженерного мышления.

Abstract. The article discusses the importance of forming and developing students' engineering competencies when teaching the subject "Engineering and Computer Graphics". The article analyzes the methods of interactive organization of practical classes based on modern digital technologies, as well as approaches that promote the development of engineering thinking.

Kalit so'zlar: muhandislik kompetensiyalari, kasbiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kompyuter grafikasi, 3d modellashtirish, muhandislik fikrlash, raqamli ta'lim.

Ключевые слова: инженерные компетенции, профессиональные компетенции, личностные компетенции, компьютерная графика, 3D-моделирование, инженерное мышление, цифровое образование.

Key words: engineering competencies, professional competencies, personal competencies, computer graphics, 3D modeling, engineering thinking, digital education.

Dunyo rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan bo'lib, ushbu rivojlanish jarayonlarida tadqiqotchi va talabalarning o'rni beqiyos.Ularning ilm fanni rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatlari va innovatsion yondashuvlari bu jarayonni samarli kechishiga olib kelmoqda. Dunyoning eng rivojlangan va tez rivojlanaoytagn davlatlari oliy ta'lim tizimini o'rganib, ayniqsa talabalarga muhandislik fanlarini o'qitishda talablarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaralib o'quv dasturlarida bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Metodlar: mavzuga tegishli o'quv uslubiy va ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, xoriy tajribalarni o'rgnish, qiyosiy tahlil, kuzatish.

Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. compete-erishyapman, munosibman, loyiqman)–muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. "Kompetensiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha" campetere"-muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Kompetensiya–bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli

bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. Kompitensiyalar umumiyroq qilib quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Umumiy kompetensiyalar;
- Kasbiy kompetensiyalar;
- Shaxsiy kompetensiyalar

Bugungi kunda barcha fanlarni o'qitishda o'ziga hos bo'lgan kompetensiyalar mavjud bo'lib, zamonaviy muhandislik ta'limi yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani orqali muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi[1].

Muhandislik kompetensiyasi-bu texnik masalalarni tahlil qilish, yechish, modellashtirish, loyihalash va natijalarni vizual ifodalash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir[2]. Bunda kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- Grafik savodxonlik (chizma tuzish, o'qish, tahlil qilish);
- Kompyuter grafik dasturlaridan foydalanish (AutoCAD, SolidWorks va boshqalar);
-Muhandislik fikrlash (sistemali yondashuv, muammo echish);
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati.

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani bu kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi metodik yondashuvlar talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi:

Darslar mavzulari modullarga ajratilib, har bir modulda quyidagi komponentlar ko'zda tutiladi:

- Nazariy asoslar;
- Amaliy topshiriqlar;
- Interaktiv simulyatsiyalar;
- Muammoli vaziyatlar va ularni yechish.

Bu yondashuv Bloom taksonomiyasi asosida ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi[3].

AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D kabi dasturlardan foydalangan holda, grafik topshiriqlarni bajarish orqali:

- Proyeksiyalash usullarini o'rganish;
- 3D modellashtirishni amalga oshirish;
- Grafik tafakkurni rivojlantirishga erishiladi[4].

Global tarmoq va suniy intelekt tizmlari kuchaygan bu davrda talabalarga muhandislik muammolarini tahlil qilish va ularni yechish bo'yicha real yoki yaqinlashtirilgan vaziyatlar asosida topshiriqlar berish va ulardan berilgan topshiriqlarni mustaqil va o'z fikrlariga asoslanib yechim taklif qilishlarini talab qilish ayniqsa jiuda ahamiyatli bo'moqda. Bu yondashuv talabalarning:

- Tanqidiy fikrlashi;
- Mustaqil qaror qabul qilishi;
- Jamoa bilan ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi[5].

Google Classroom, Moodle yoki Mahara kabi platformalar orqali topshiriqlarni topshirish, baholash va qayta aloqa berish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa talabalar faoliyatining monitoringi va diagnostikasini osonlashtiradi [6].

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitish samaradorligini ta'minlash, yakunda ushbu fanni o'qtishdan ko'zlangan maqsadga erishish

uchun talablarning kompetensiyalarini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlariha alohida e’tibor qaratilishi zarur:

- Adaptiv o‘quv modullari: har bir talabaga o‘ziga mos darajadagi topshiriq va vazifalarni taqdim etish;
- Gamifikatsiya (o’yin) elementlarini joriy etish: o‘yinli metodlar orqali talablarning fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyani oshirish;
- Ko‘p bosqichli baholash tizimini amalga oshirish: o‘zaro baholash, o‘zini baholash va o‘qituvchi bahosini birlashtirish amaliyitlarini joriy qilish;
- Portfolio yaratish: talabalarning amalda bajargan grafik ishlarini raqamli formatda jamlash va monitoring qilib borish.

IT va suniy intelekt rivojlangan raqamlashtirilgan jamiyatda boshqa yo‘nalish talablari qatorida Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘zlashtiruvchi talabalarning bilim olish samaradorligini ta’minlashda albatta ularning muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim masalardan biridir. Talabalarning muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalashgan, interaktiv va raqamli metodik yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Taklif etilayotgan metodik yechimlar, ayniqsa, talabalarning nazariy olgan bilimlarini texnologik jarayonlarda amaliy ko‘nikmalari bilan rivojlantirish va mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov, S. (2021). Muhandislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. *Texnik ta’lim jurnali*, №2, 34-39.
2. UNESCO.(2020).Engineering Competency Framework. https://unesdoc. unesco.org 3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing*. NY: Longman.
4. Alimov, B. (2022). Kompyuter grafikasi fanida 3D modellashtirish usullari. *Ilm va taraqqiyot*, №1(18), 44-50.
5. Tursunova, N. (2023). Muhandislik fikrlashni rivojlantirishda Case-Study yondashuvi. *Pedagogika va psixologiya muammolari*, №3(45), 22-27.
6. Rahimova, G. (2021). Raqamli ta’lim platformalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni. *Ta’limda innovatsiyalar*, №4(10), 59-63.
7. S.B.Qorayev. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA’LIMNING ASOSIY JIHATLARI. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-Cite Factor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-. 1075 bet.

UDK: 371.334:004.032.6

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATI UCHUN VEB-PLATFORMA YARATISH TALABLARI

Axmedov Yodgorbek Olimjonovich
Ichki ishlar vazirligi Navoiy akademik litseyi direktori, p.f.f.d. (PhD), dotsent, vatanvarparlitsey@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga mo'ljallangan veb-platforma ishlab chiqishda tayaniladigan talablarga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлены предложения и рекомендации относительно требований, на которые следует опираться при разработке веб-платформы, предназначенной для организации самостоятельной учебной деятельности учащихся академических лицеев Министерства внутренних дел.

Annotation. This article presents proposals and recommendations regarding the requirements for developing a web platform designed to organize independent learning activities for students of academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilari, mustaqil o'quv faoliyati, veb-platforma, yaratish, talablar.

Ключевые слова: учащиеся академических лицеев Министерства внутренних дел, самостоятельная учебная деятельность, веб-платформа, разработка, требования.

Keywords: Ministry of Internal Affairs academic lyceum students, independent learning activities, web platform, development, requirements.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalarida, xususan, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kasbiy-ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Raqamli ta'lim muhitining joriy etilishi o'quvchilarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, individual va guruhiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Xususan, veb-platformalar mustaqil ta'lim uchun qulay virtual muhit yaratib, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quv resurslarini tizimlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, o'quvchilarning erishgan natijalarini onlayn monitoring qilish imkoniyatini tadqim etadi [2-3].

Shu bois, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uchun mo'ljallangan veb-platforma ishlab chiqish lozim. Bunday veb-platformani ishlab chiqishda esa ma'lum bir talablarga asoslanish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bu borada, ya'ni mamlakatimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida veb-platformalar, axborot-ta'lim muhitlar hamda ularga joylashtiriladigan raqamli ta'lim resurslarini yaratishga qo'yiladigan talablar A.K.Jamolov [4], A.V.Muxamedshina [5], S.Q.Tursunov [6], J.A.Elmurodov [7], V.I.Solovev [8], T.V.Sigankova [8] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mazkur olimlarning tadqiqotlarida veb-platformalar, axborot-ta'lim muhitlar hamda ularga joylashtiriladigan raqamli ta'lim resurslarini yaratishga qo'yiladigan talablarga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Jumladan, A.K.Jamolov tadqiqotida, raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqishda quyidagi

asosiy psixologik-pedagogik talablarga asoslanish kerakligini ta'kidlagan: "pedagogika, psixologiya, kibernetika, tizimli dizayn nazariyasining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda o'quv faoliyatining mazmunini shakllantirishni ta'minlash; ta'lim oluvchiga ta'lim-tarbiya berishning maqsadlari hamda maqsadga erishish uchun axborotlar bilan ta'minlash; motivlashtirish kompyuterning o'zigagina bo'lgan qiziqish hisobiga bo'lmasligi kerak; fanga oid o'quv topshiriqlarining qiyinlik darajasiga hamda o'quvchilarning psixofiziologik imkoniyatlariga mos kelishi lozim" [4].

A.V.Muxamedshinaning fikriga ko'ra, fanlarga oid raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish texnologiyasi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, pedagogik jihatlarini inobatga olish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi: didaktik maqsadlarini aniqlash; o'quv resursining tarkibiy qismlarini shakllantirish; texnik ishlarni bajarish; ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish va aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish; metodik takliflar va tavsiyalarni tizimlashtirib, o'quv jarayoniga joriy etish [5].

S.Q.Tursunovning tabiri bilan aytganda, "raqamli ta'lim resurslarini yaratishda psixofiziologik, didaktik, mazmun va tuzilishiga, tovushlarga, tasvir va ranglarga, dastur ishining uzluksizlikka, interfeysga oid talablar bo'lishi lozim" [6].

J.A.Elmurodovning fikriga ko'ra, "fanlarga oid axborot-ta'lim muhitlarini ishlab chiqishda quyidagi talablarga amal qilish lozim: har bir mavzuga oid vizual va audio ma'lumotlar bo'lishi; vaqti-vaqti bilan ranglarning yorqinligi o'zgarishi; vizual tarzda tayyorlangan o'quv-ma'lumotlarning mazmuni juda oddiy yoki o'ta murakkab bo'lmasligi" [7].

V.I.Solovev va T.V.Sigankovalarning bildirishicha, raqamli ta'lim resurslarining komponent tarkibi va tuzilmasini shakllantirishda quyidagi talablarga asoslanish lozim [8]:

- fanni o'rganish bo'yicha o'quv jarayonini ta'minlaydigan axborot va amaliyotga yo'naltirilgan resurslarni, nazorat qiluvchi materiallarni o'z ichiga olgan elektron ta'lim resurslarining mavjud bo'lishi;
3. **AutoCAD va boshqa grafik dasturlarni qo‘llash**–talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy loyihalash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bunday dasturlar orqali yaratilgan chizmalar va 3D modellar ta'lim jarayonini vizuallashtirishga, talabaning darsdagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

4. **Metodlarning bosqichma-bosqich qo‘llanishi**–motivatsiya, yangi bilimlarni berish, mustahkamlash va nazorat bosqichlarida turli metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, loyiha asosida topshiriqlarni bajarish talabalarni mustaqil ishlashga, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashga undaydi.

5. **Pedagogik jarayonning integratsiyalashuvi**–muhandislik grafikasini boshqa texnik fanlar bilan uyg‘un holda o‘qitish bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini yanada boyitadi. Shuningdek, interfaol usullar va AKT imkoniyatlari integratsiyasi zamonaviy ta'lim muhiti uchun muhim hisoblanadi.

6. **Amaliy ahamiyat**–ishlab chiqarish korxonalari va muhandislik loyihalarida talab etiladigan ko‘nikmalar (loyihalash, chizma o‘qish, texnik hujjatlarni tayyorlash) talabalarda ta'lim jarayonida shakllantiriladi. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasini zamonaviy talablarga moslashtirish, ta'lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish talabalarni kasbiy tayyorgarligini samarali rivojlantirishning asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Axmedov A., Jo‘rayev A. Muhandislik grafikasi asoslari.–Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 240 b.

2. Xudoyberdiyev A. Kompyuter grafikasi va dizayn. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. –198 b.

3. Norqulov B., Mahmudov O. Chizmachilik va loyihalash asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 210 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2018.

5. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 320 b.

6. Nurmatov Sh. AutoCAD dasturida chizmachilik ishlari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 185 b.

7. Карпов В.Е. Компьютерная графика. Учебник для вузов. – Москва: Академия, 2019. – 352 с.

8. Кузнецов С.Ю. AutoCAD: основы проектирования. – Санкт-Петербург: Питер,

2020. – 400 c.

9. Чупахин В.Н. Инженерная графика. – Москва: Юрайт, 2018. – 298 с.
10. Савельев А.А. Методика преподавания инженерной графики. – Екатеринбург: УрФУ, 2017. – 276 с.
11. International Federation of Engineering Education Societies (IFEES). Engineering Graphics Education Standards. – Berlin, 2020.
12. Autodesk Inc. AutoCAD User Guide 2023. – California, 2023.
13. Shodmonov Q. Texnik fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlar. – Toshkent: Universitet, 2016. – 192 b.
14. Tursunov I., Alimov M. Muhandislik ta'limida raqamli texnologiyalar. – Andijon: AndijonDU, 2022. – 215 b.
15. UNESCO. Engineering Education for the 21st Century. – Paris, 2017.
16. Гусев В. Компьютерная графика в инженерном образовании. – Москва: ИНФРА-М, 2021. – 250 с.
17. Hasanov M., Sayfullayev A. Chizmachilik va muhandislik grafikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 280 b.
18. Xolmatova D. Ta'lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish metodlari. – Namangan: NamDU, 2021. – 145 b.
19. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris, 2019.
20. Jalolov J. Ta'lim metodikasi va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Noshir, 2022. – 230 b.

UDK: 81'22, 811.93

YO'L MUHANDISLARINI TAYYORLASHDA TALABALARNING GAPIRISH (SPEAKING) KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Ermatova Yulduz Alisher qizi
Namangan davlat texnika universiteti, Tayanch doktorant @yulduzermatova

Annotatsiya. Maqolada yo'l muhandislari ta'lim yo'nalishlariga kasbiy ingliz tilini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimlari ko'rsatib berilgan. Texnika yo'nalishi talabalarining gapirish(speaking) ko'nikmalarini rivojlantirishning intensiv usullari va vositalari tadqiq etilgan. Yo'l muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Annotation. The article presents the problems and solutions in teaching professional English to road engineers. Intensive methods and tools for developing speaking skills of technical students are studied. Recommendations are developed for developing English speaking skills of road engineering students.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы и пути решения в обучении профессиональному английскому языку студентов-дорожников. Изучаются интенсивные методы и средства развития навыков говорения студентов технических специальностей. Разработаны рекомендации по развитию навыков говорения на английском языке у студентов-дорожников.

Kalit so'zlar: yo'l, muhandis, ingliz tili, mutaxassislik, gapirish, ko'nikma.

Keywords: road, engineer, English, specialty, speaking, skills.

Ключевые слова: дорога, инженер, английский язык, специальность, говорение, навыки.

Kirish.

Hozirgi kunda muhandislik sohalarida mutaxassislar nafaqat kasbiy bilim, balki mukammal muloqot ko'nikmalariga ham ega bo'lishi talab etiladi. Xususan, yo'l muhandisligi kabi texnik va loyihaga yo'naltirilgan sohalarda kommunikativ kompetensiya, ayniqsa gapirish(speaking) ko'nikmalari, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda barcha innovatsion ishlanmalar, ixtirolar, texnika va texnologiyalar bo'yicha texnik ma'lumotlar, foydalanish yo'riqnomalari va ma'lumotlar ingliz tilida berilishi, bu tilga bo'lgan extiyojni belgilab beradi.

Texnika yo'nalishlarida ingliz tili fanini o'qitish, soha bo'yicha fanlarni ingliz tilida o'qitilishi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini ingliz tilada o'qitish tajribasi amalga oshirilmoqda. Ayniqsa iqtisodiy, ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarda bu tajriba yo'lga qo'yilgan. Biroq texnika yo'nalishlarida bu kabi ishlar qoniqarli emas. Buning asosiy sabablaridan birinchisi - o'qituvchilarning tayyorgarligi hamda auditoriyaning(ingliz tili guruhlari) yo'qligini ko'rish mumkin. Lekin texnika OTMlarida ham mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirish ishlari boshlanganligi quvonarlidir.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Adabiyotlar taxlili. Chet tillar o'qitish metodikasi bo'yicha Tohirov, S, Xudayberdiyeva G. Salexova L.L., J.Jalalov, Maksudova, H. F., S. L. Salixova, S.J. Dushayeva, Gafarova A.S va boshqa o'zbek olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlar O'Reilly, T, Marsh, D., Mehisto, P., Wolff, D., & Frigols, M. J, Richards, J. C, Dudley-Evans, T. & St. John, M. J. Marsch D., Coyle D., Hood P., Marsh D va boshqalar tomonidan ingliz tilini o'qitishning nazariy metodologik jixatlarini ochib berishgan.

MDX davlatlarida V.V. Davidov, E.V. Ilyenkov, V.S. Nurgaleyev, V.G. Afanasyev, I.V.

Blauberg, N.V. Popova, V.A. Slastenin, E.G. Yudin, S.A. Zolotareva, M.S. Pak, I.P. Yakovlev, N.V. Avaluyeva, I.A. Kolesnikova, Ye.N. Mixaylova, A.Ya. Nayn, Ye.V. Yakovlev va boshqalar tomonidan sohalar bo'yicha ingliz tilini o'qitishning metodologik, pedagogik-psixologik va integrativ metodlari bo'yicha izlanishlar olib borishgan. I.A. Bredixina, N.D. Galskova, Ye.A. Gasanenko, N.I. Gez, R.P. Milrud, Ye.A. Pikalova, Yu.A. Savinova M.B. Balikayeva, N.V. Gafurova, Ye.K. Gitman, A.M. Kabanov, Z.I. Konnova, S.L. Suvorova, A.V. Faxrutdinova, L.P. Xalyapina, A.N. Shamov va boshqalar kasbiy ingliz tilini o'qitishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etishgan, va boshqalar ilmiy izlanish olib borganlar.

Gapirish (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muammolar.

Yurtimizdagi texnik OTMlarda talabalarning ingliz tilida texnik mavzularda erkin gapira olish darajasi yetarli emas. Buning asosiy sabablari:

- Ta'lim jarayonida aktiv nutqiy faoliyatga kam e'tibor berilishi;
- Loyiha, taqdimot, munozara, simulyatsiya kabi faol mashg'ulotlarning yetishmasligi;
- Muloqotga oid fanlarning nazariylikka asoslanishi, amaliy yo'nalishning yetarli emasligi;
- Talabalarning nutqda texnik atamalarni qo'llash bo'yicha tajribasizligi kabi muammolar mavjud.

Mavjud muammolarni ilmiy asalangan yechimlarini topishda kasbiy ingliz tilini o'qitish, ayniqsa texnika sohalarida kadrlar tayyorlashda kasbga yo'naltirilgan o'qitish usullari va metodikasini ishlab chiqish dolzabr masala xisoblanadi.

Muhokama.

Yo'l muhandisligi ta'limida muloqot ko'nikmalarining ahamiyati. Yo'l muhandislari faoliyati ko'p holatda jamoaviy ishni, loyiha muhokamasini, texnik vazifalarni izohlash va ishchi jamoalarni boshqarishni talab qiladi. Bunda talabalar:

- Yo'l qurilishiga oid texnik ma'lumotlarni yozma va og'zaki tarzda aniq ifoda eta olishi;
- Yo'l qurilishidagi loyihalarni yaratish, himoya qilishi, taqdimot qilishi;
- Soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar hamda hamkasblar bilan munosabat o'rnatishi va uning faol a'zosi bo'lishi;
- Xalqaro xamjamiyatda va soha bo'yicha xorijiy xamkorlar, mutaxassislar bilan ingliz tilida muloqot qilishi kerak.

Natija. Yondashuvlar va yechimlar

ESP (English for Specific Purposes) metodikasi asosida gapirish mashqlari orqali "Yo'l loyihasini taqdim qilish", "Qurilish maydonida muhandis va ishchi muloqoti", "Xalqaro tenderda chiqish qilish" kabi topshiriq mashqlari ishlab chiqish lozim. Albatta bu kabi mashqlarni talabalarga taqdim etilganda birinchi navbatda o'zbek tilida matn tuzish, zaruriy chizmalar diagrammalar asosida taqdimot tayyorlanadi. So'ngra ularni ingliz tiliga tarijama qilinadi. Tarjimadagi xato va kamchiliklarni to'g'rilashda lug'atlar bilan ishlash, terminologik iboralarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatiladi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) usuli orqali mutaxassislik fani va ingliz tili birgalikda o'rgatiladi. Masalan, yo'l tuzilmasi haqida ma'lumot berish bilan birga, shu mavzuda talabalarni gapirishga undash, garchi xatolar bilan bo'lsada gapirish o'rgatiladi.

Munozara va debatlar: talabalarga yo'l qurilishidagi zamonaviy usullar, xorijiy tajribalar, iinovatsion texnologiyalar va texnikalar xaqida gapirish orqali so'z boyliklarini oshirish, yangi so'zlarni yodlashga o'rgatiladi.

Taqdimot tayyorlash: PowerPoint yordamida yo'l muhandisligi bo'yicha ma'ruza tayyorlab, guruh oldida gapirish va shu orqali o'zining bilimlarini mustaxkamlashga o'rgatiladi.

Rolli o'yinlar: "muhandis – rahbar", "muhandis – davlat nazorati vakili" kabi professional

muloqotni imitatsiya qilish. Bu usul orqali talabalar kasbiy faoliyatda o'zini sinab ko'rish, kasbiy ko'nikma hosil qilishga yo'naltiriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

- Videokonferensiyalar, Zoom/telegram/ google meet va boshqalar orqali onlayn muhokamalarda qatnashish hamda shu muhitda gapirishga o'rgatish.
- Padlet, Flipgrid yoki Edmodo platformalari orqali ovozli fikr bildirish mashg'ulotlari yordamida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatini yaratib berish.

Xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar.

Bo'lajak yo'l muhandislarini tayyorlashda gapirish(speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish uchun:

- "Kasbiy muloqot" fanlarini joriy etish va muhandislik fanlari ingliz tilida o'qitishni tashkil etish;
- "Loyiha asosida ta'lim" (PBL) asosida talabalarni o'z fikrini ifoda qilishga undash, ularga ingliz tilida muloqot qilish muhitini yaratib berish;
- OTMda nutqiy faoliyatni baholash (presentation, oral exam) tizimini kuchaytirish;
- Sohaga oid mutaxassislik fan doirasida "texnik gapirish" mashg'ulotlari (mini-presentation, peer talk) kiritish va ularni amalga oshirishni tashkil etish zarur.

Xulosa

Yo'l muhandislarini tayyorlashda gapirish (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish — bu mutaxassisni har tomonlama shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Tanlab olingan metodlar, amaliy mashg'ulotlar va kasbiy mutaxassislik fanlari bilan ingliz tili fanini integratsiya qilish orqali talabalarning texnik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga erishish mumkin. Albatta kabiy ingliz tilini o'qitishda fan o'qituvchilari sohaga oid terminologiya, iboralar va matnlardan dars jarayonlarida foydalanishda talabalarga ulardan unumli foydalanish hamda gap tuzishda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish orqali birinchidan ta'lim sifati oshishi, uning samaradorligi, ikkinchidan xam ingliz tili fani va sohaga oid mutaxassislik fanlarini o'rganishga yordam beradi. Yo'l muhandisligi sohasida kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalar va ularning metodikasini o'rganish hamda uni moslashtirib joriy etish, o'quv dasturlarini o'zimizdagi dasturlarga integratsiya qilish jarayonlarini yanada jadallashtirish kun tartibida masala hisoblanadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan mavjud muammolar va ularning taklif etilayotgan yechimlarini o'quv jarayonlariga tatbiq etish orqali belgilangan talablarni bajarishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1996 – 367 b.

2. Чувашова А. Д. Формирование интегративной готовности будущих инженеров к профессиональной деятельности на иностранном языке. к.п.н., ...дисс. Челябинск, 2023, с 209

3. Qahharov Abdurahim Abdubannayevich, & Ermatova Yulduz Alisher Qizi (2024). Qurilish ta'lim yo'nalishlari talabalariga ingliz tili fanini o'qitishga qo'yiladigan talablar. Строительство и образование, 3 номер 6 , 148-152.

4. A.A.Kahharov. Intensive Methods of Developing Students' Spatial Imagination in the Teaching of Graphic Sciences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 11885 – 11892

5. Abdubannayevich, Qahharov Abduraxim. "Intellektual o'yinlarni kompyuter yordamida tashkil etish yo'li bilan ta'lim samaradorligini oshirish." Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan) 2 (2018): 56-61.

6. Abdubannaevich K. A., Sharifjanovna Q. M. Tools for developing students'design skills in technical fields //international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 08. – S. 1-6.

7. Abdubannaevich Q. A. TEXNIKA OTM TALABALARNING GRAFIK LOYIHALASH KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV USULLARI //Research Focus. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 274-279.

8. Khamrakulov A. Organization of effective use of the AutoCAD feature in teaching descriptive geometry //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – S. 2644-2648.

9. Abdubannayevich, Q. A., & Amandjonovna, I. D. (2024). Texnika oily ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitilishi: texnika oily ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitilishi.

10. Karimovich, K. A., Sherzod, A., Khomitovich, M. K., Usmonjanovich, M. G., & Abdubannauevich, K. A. (2023). Use of The 2d and 3d Graphic Programs Feature in Teaching Descriptive Geometry. *Journal of Advanced Zoology*, *44*.

11. Maksudova, H. F. (2021). Fanlararo aloqadorlik kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning asosiy tamoyili sifatida. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 2), 608-612.

12. Kahharov A. A. et al. Intensive Methods of Developing Students' Graphic Competencies in the Training of Competitive Personnel. – 2023.

13. Shoxboz D. THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

14. Abdubannaevich Q. A., Ismoilovich J. B. The Role and Importance of Graphic Sciences in the Training of Competitive Engineers. – 2023

15. Швайкина Н.С., Попель А.А.. Использование инфографики для обучения говорению студентов инженерных специальностей на занятиях по иностранному языку. DOI: https://doi.org/10.17673/vsgtu-pps.2022.4.15

16. Qahharov Abduraxim Abdubannayevich, Ismoilov Axror Muxammadibroximovich, Xamrayev Xurshid QURILISH TA'LIM YO'NALISHDAGI TALABALARING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH // Stroitelstvo i obrazovaniye. 2023. №5-6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/qurilish-ta-lim-yo-nalishdagi-talabalaring-kasbiy-kompetensiyasini-rivojlantirishda-raqamli-texnologiyadan-foydalanish (data obrashcheniya: 13.07.2025).

17. Xudayberdiyeva G. "Kasbiy yo'naltirilgan chet tilini o'qitishda CLIL metodi samaradorligi" // "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali. – 2022, №4. – B. 56–60.

18. Dudley-Evans, T. & St. John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.

19. Richards, J. C. (2008). *Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.

20. Marsh, D., Mehisto, P., Wolff, D., & Frigols, M. J. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.

21. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.

22. O'Reilly, T. (2019). *Communication Skills for Engineers*. Springer Nature.

23. Tohirov, S. "Engineering Students' Speaking Competence: Analysis of Challenges and Solutions in Uzbek Technical Universities" // *International Journal of Education and Research*. – 2023, Vol. 11, No. 2.

UDK. 377.112.4: 377.12

KREDIT-MODUL TIZIMINING YEVROPA KREDIT TRANSFER TIZIMI (ECTS) BILAN UYG'UNLIGI

Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich
Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti, iskandar0881@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola kasbiy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish va uning Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bilan uyg'unligini ta'minlash masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida O'zbekistondagi kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini samarali joriy etish mexanizmlari, ECTS standartlariga muvofiqlashtirish yo'llari va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar hamda ularning yechim yo'llari tahlil qilingan. Maqolada kredit-modul tizimining nazariy asoslari, xalqaro tajriba, milliy ta'lim tizimiga moslashtirish metodologiyasi va amaliy tatbiq etish natijalari keltirilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению вопросов внедрения кредитно-модульной системы в систему профессионального образования и обеспечения её совместимости с Европейской системой перевода и накопления кредитов (ECTS). В ходе исследования проанализированы механизмы эффективного внедрения кредитно-модульной системы в профессиональных образовательных учреждениях Узбекистана, пути гармонизации со стандартами ECTS, а также возникающие при этом проблемы и способы их решения. В статье раскрыты теоретические основы кредитно-модульной системы, международный опыт, методология адаптации к национальной системе образования и практические результаты применения.

Abstract. This article is devoted to the study of introducing the credit-module system into the vocational education system and ensuring its compatibility with the European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS). The research analyzes mechanisms for the effective implementation of the credit-module system in vocational education institutions of Uzbekistan, approaches to harmonization with ECTS standards, as well as emerging challenges and their solutions. The article highlights the theoretical foundations of the credit-module system, international experience, methodology of adaptation to the national education system, and practical results of its implementation.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, ECTS, kasbiy ta'lim, ta'lim sifati, xalqaro standartlar, talabalar harakatchanligi, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, ECTS, профессиональное образование, качество образования, международные стандарты, академическая мобильность студентов, компетентностный подход.

Keywords: credit-module system, ECTS, vocational education, quality of education, international standards, student mobility, competency-based approach.

1. Kirish. XXI asrda global ta'lim makonining shakllanishi, xalqaro ta'lim standartlarining rivojlanishi va talabalar harakatchanligining ortishi ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida kasbiy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, shu jumladan kredit-modul tizimini joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u talabalarning o'quv yuklamasini ob'ektiv baholash, ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash va xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvni osonlashtirish imkonini beradi. Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) esa Yevropa oliy ta'lim hududida talabalar harakatchanligini ta'minlash,

ta'lim dasturlarining bir-biriga mosligini oshirish va diploma hamda malakalarni o'zaro tan olishni soddalashtirish maqsadida ishlab chiqilgan [13].

O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, milliy ta'lim an'analari va xalqaro standartlar o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati mavjud. Ikkinchidan, kasbiy ta'limning amaliy yo'naltirilganligi kredit-modul tizimini tatbiq etishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Uchinchidan, ECTS standartlariga to'liq muvofiqlikni ta'minlash uchun institutsional, metodologik va texnologik jihatdan tayyorgarlik ko'rish lozim [10].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Xalqaro integratsiya zarurati. Globallashuv sharoitida O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu jarayon milliy kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun zarur.

Ta'lim sifatini oshirish talabi. Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonini standartlashtirish, o'quv natijalarini aniq belgilash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Talabalar harakatchanligi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar harakatchanligi muhim o'rin tutadi. Kredit-modul tizimi va uning ECTS bilan uyg'unligi talabalarning turli ta'lim muassasalarida, shu jumladan xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Institutsional rivojlanish. Kredit-modul tizimini joriy etish ta'lim muassasalarining institutsional salohiyatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish texnologiyasini ishlab chiqish va uni Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat [8].

Tadqiqot vazifalari:

- Kredit-modul tizimi va ECTS ning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish
- Xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish yo'llarini aniqlash
- Kasbiy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish modelini ishlab chiqish
- ECTS standartlariga muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish
- Amaliy tatbiq etish natijalarini baholash va takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish

2. Metodlar.

2.1. Tadqiqot dizayni.

Ushbu tadqiqot aralash metodlar (mixed methods) yondashuviga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot dizayni uch bosqichli tuzilmaga ega:

Birinchi bosqich-nazariy tahlil va kontseptual modellashtirish. Bu bosqichda kredit-modul tizimi va ECTS ga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro hujjatlar, milliy me'yoriy-huquqiy baza va amaliy tajribalar o'rganildi. Sistematik tahlil metodidan foydalanib, kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari, ECTS standartlari va ularning kasbiy ta'limga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlandi.

Ikkinchi bosqich-empirik tadqiqot. Bu bosqichda O'zbekistondagi kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni kuzatildi, stakeholderlar bilan intervyu va so'rovnomalar o'tkazildi. Miqdoriy va sifatiy ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi.

Uchinchi bosqich-model ishlab chiqish va validatsiya. To'plangan ma'lumotlar asosida kasbiy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish modeli ishlab chiqildi va pilot loyihalar orqali sinovdan o'tkazildi.

2.2. Tadqiqot ob'ekti va tanlanma.

Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi 12 ta kasbiy ta'lim muassasasi tanlandi. Tanlanmaga turli viloyatlardagi texnikumlar, turli yo'nalishlar (texnika, iqtisod, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi) bo'yicha ta'lim beradigan muassasalar kiritildi.

Tadqiqotda qatnashganlar:

- Ta'lim muassasalari rahbarlari va ma'muriyat vakillari (36 kishi)
- O'qituvchilar va metodistlar (124 kishi)
- Talabalar (486 kishi)
- Ish beruvchilar vakillari (28 kishi)
- Ta'lim sohasidagi ekspertlar (15 kishi)

2.3. Ma'lumotlar to'plash usullari.

Hujjatlar tahlili. Quyidagi hujjatlar tahlil qilindi:

- Xalqaro hujjatlar (Bologna deklaratsiyasi, ECTS foydalanuvchi qo'llanmasi, UNESCO tavsiyalari)
- Milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar (ta'limga oid qonunlar, qarorlar, nizomlar)
- Ta'lim muassasalarining ichki hujjatlari (o'quv rejalari, dasturlar, yo'riqnomalar)

So'rovnomalar. Strukturalashtirilgan so'rovnomalar yordamida respondentlardan miqdoriy ma'lumotlar to'plandi. So'rovnomalar quyidagi bloklarni o'z ichiga oldi:

- Kredit-modul tizimi haqidagi bilim darajasi
- Joriy etish jarayonidagi qiyinchiliklar
- ECTS standartlariga muvofiqlik darajasi
- Kutilayotgan natijalar va takliflar

Chuqurlashtirilgan intervyular. Yarim strukturalashtirilgan intervyular orqali sifatiy ma'lumotlar to'plandi. Intervyular davomida quyidagi mavzular muhokama qilindi:

- Kredit-modul tizimini joriy etish tajribasi
- Asosiy muammolar va ularning sabablari
- Muvaffaqiyatli amaliyotlar
- Takomillashtirish yo'llari

Kuzatuvlar. Ta'lim jarayonini bevosita kuzatish orqali kredit-modul tizimining amaliy tatbiqi baholandi. Kuzatuv protokollari ishlab chiqildi va quyidagi jihatlar baholandi:

- O'quv jarayonining tashkil etilishi
- Kredit birliklarini hisoblash amaliyoti
- Baholash tizimining qo'llanilishi
- Hujjatlarni yuritish sifati

Ekspert baholash. Delphi metodi yordamida ekspertlar guruhining fikrlari o'rganildi. Ikki raundli so'rov o'tkazildi va ekspertlarning konsensusga kelishi ta'minlandi.

2.4. Ma'lumotlarni tahlil qilish.

Miqdoriy tahlil. SPSS 26.0 dasturi yordamida statistik tahlil amalga oshirildi:

- Deskriptiv statistika (o'rtacha qiymatlar, standart og'ish, chastotalar)
- Korrelyatsion tahlil (Pearson va Spearman koeffitsientlari)
- Regressiya tahlili (ko'p o'zgaruvchili linear regressiya)
- Farqlar tahlili (t-test, ANOVA)

Sifatiy tahlil. NVivo 12 dasturi yordamida tematik tahlil o'tkazildi:

- Transkripsiya va kodlash
- Kategoriyalarni aniqlash
- Mavzularni shakllantirish
- Nazariy modelni yaratish

Triangulyatsiya. Tadqiqot ishonchliligini oshirish maqsadida ma'lumotlar, metodlar va

tadqiqotchilar triangulyatsiyasi qo'llanildi. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi va tekshirildi.

2.5. Etik masalalar.

Tadqiqot Respublika ta'lim markazi etika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan protokolga muvofiq o'tkazildi. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi. Ma'lumotlarning maxfiyligi va anonimlik tamoyillariga rioya qilindi.

3. Natijalar.

3.1. Kredit-modul tizimining joriy etilish darajasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan 12 ta kasbiy ta'lim muassasasidan 8 tasi (66.7%) kredit-modul tizimini to'liq yoki qisman joriy etgan. Qolgan 4 ta muassasa (33.3%) esa joriy etish bosqichida turibdi.

1-Jadval

Kredit-modul tizimini joriy etish holati

Ko'rsatkich	To'liq joriy etilgan	Qisman joriy etilgan	Joriy etish bosqichida	Joriy etilmagan
Muassasalar soni	3 (25%)	5 (41.7%)	4 (33.3%)	0 (0%)
O'qituvchilar tayyorgarligi	72%	58%	31%	-
Hujjatlar tayyorligi	85%	64%	42%	-
Texnik ta'minot	68%	51%	38%	-

Kredit-modul tizimini to'liq joriy etgan muassasalarda o'rtacha 2.5 yillik tajriba to'plangan, qisman joriy etganlarda esa 1.2 yil. Bu muassasalarda quyidagi asosiy o'zgarishlar amalga oshirilgan:

O'quv rejalarini qayta tuzish. Barcha o'quv fanlar va modullar kredit birliklari bilan ifodalangan. Bir akademik yil 60 kredit, bir semestr 30 kreditni tashkil etadi. Har bir kredit 25-30 soat o'quv yuklamasiga teng.

Baholash tizimini o'zgartirish. An'anaviy 5 ballik tizimdan 100 ballik tizimga o'tilgan. Yakuniy baho joriy nazorat (40%), oraliq nazorat (30%) va yakuniy nazorat (30%) natijalaridan shakllanadi.

O'quv jarayonini moslashuvchan qilish. Talabalar majburiy va tanlov fanlarini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'lishgan. Tanlov fanlar ulushi o'quv rejaning 20-25% ni tashkil etadi.

3.2. ECTS standartlariga muvofiqlik darajasi.

ECTS standartlariga muvofiqlik darajasini baholash uchun quyidagi mezonlar qo'llanildi:

2-Jadval

ECTS standartlariga muvofiqlik

Mezon	Muvofiqlik darajasi (%)	Kamchiliklar
Kredit hajmi	78	Amaliy mashg'ulotlar kreditlari kam baholanmoqda
O'quv yuklamasi hisoblash	65	Mustaqil ta'lim soatlari aniq hisoblanmaydi
O'quv natijalari	52	Kompetensiyalar to'liq ifodalanmagan
Baholash shaffofligi	71	Baholash mezonlari yetarli aniq emas
Hujjatlashtirish	68	Transcript va diploma ilovasida kamchiliklar

Tahlil shuni ko'rsatdiki, eng katta muammo o'quv natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalashda (52%) va mustaqil ta'lim yuklamasini to'g'ri hisoblashda (65%) kuzatilmoqda.

3.3. Asosiy muammolar va qiyinchiliklar.

So'rovnoma va intervyular natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

Tashkiliy muammolar:

- Boshqaruv tizimining o'zgarishga tayyor emasligi (68% respondentlar)
- Koordinatsiya mexanizmlarining yetishmasligi (54%)
- Resurslarning cheklanganligi (71%)

Metodologik muammolar:

- O'qituvchilarning metodologik tayyorgarligining pastligi (62%)
- O'quv-uslubiy ta'minotning yetishmasligi (58%)
- Baholash tizimining murakkabligi (49%)

Texnologik muammolar:

- Axborot tizimlarining rivojlanmaganligi (73%)
- Elektron ta'lim resurslarining kamligi (65%)
- Monitoring tizimining yo'qligi (56%)

Psixologik muammolar:

- O'qituvchilarning qarshiligi (41%)
- Talabalarning yangi tizimga moslashish qiyinchiliklari (38%)
- Ish beruvchilarning tushunmasligi (52%)

3.4. Model va mexanizmlar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kasbiy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi komponentlardan iborat:

Institutsional komponent:

- Strategik rejalashtirish
- Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish
- Resurslarni boshqarish
- Sifatni ta'minlash tizimi

Akademik komponent:

- O'quv rejalarini modernizatsiya qilish
- Modulli dasturlarni ishlab chiqish
- Kreditlarni hisoblash metodikasi
- Baholash tizimini takomillashtirish

Texnologik komponent:

- Axborot tizimlarini joriy etish
- Elektron ta'lim platformalarini yaratish
- Ma'lumotlar bazasini shakllantirish
- Monitoring va tahlil vositalari

Inson resurslari komponenti:

- Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash
- Motivatsiya tizimini yaratish
- Professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash
- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish

4. Muhokama.

4.1. Natijalarning talqini.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni faol davom etmoqda, ammo bu jarayon bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. ECTS standartlariga to'liq muvofiqlikka erishish uchun tizimli yondashuv va uzoq muddatli strategiya zarur.

Eng muhim yutuqlardan biri - ko'pchilik muassasalarda kredit-modul tizimining asosiy elementlari joriy etilgan va o'quv jarayoniga integratsiyalashgan. Bu esa ta'lim tizimining

modernizatsiyaga tayyorligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ECTS standartlariga muvofiqlik darajasining nisbatan pastligi (o'rtacha 65%) tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

4.2. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash.

Yevropa mamlakatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, ECTS ni to'liq joriy etish uchun o'rtacha 5-7 yil vaqt ketadi. O'zbekistonda bu jarayon nisbatan tezroq sur'atlarda ketmoqda, bu esa ijobiy holat. Ammo tezlikka intilish sifat hisobiga bo'lmasligi kerak [2, 3, 4].

Polsha, Chexiya va Vengriya kabi mamlakatlarning tajribasi bizning sharoitimizga yaqin. Bu mamlakatlarda ham dastlabki yillarda o'xshash muammolar kuzatilgan [8, 13, 14]:

- Milliy an'analar va xalqaro standartlar o'rtasidagi ziddiyatlar
- O'qituvchilarning yangi tizimga moslashish qiyinchiliklari
- Texnik va metodologik ta'minotning yetishmasligi

Bu mamlakatlarning muvaffaqiyat omillari:

- Davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash
- Xalqaro hamkorlikning kengayishi
- O'qituvchilarni tizimli tayyorlash
- Bosqichma-bosqich yondashuv

4.3. Milliy xususiyatlarni hisobga olish.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari kredit-modul tizimini joriy etishda maxsus yondashuvni talab qiladi:

Amaliy yo'naltirilganlik. Kasbiy ta'limda amaliy ko'nikmalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti va laboratoriya ishlarini kreditlarda to'g'ri ifodalash muhim.

Sohaviy standartlar. Turli kasb-hunar yo'nalishlari o'z standartlariga ega. Kredit-modul tizimi bu standartlarga muvofiq kelishi va kasbiy kompetensiyalarni to'liq qamrab olishi kerak.

Ish beruvchilar talablari. Mehnat bozori talablari va ish beruvchilarning kutilmalarini hisobga olish zarur. Kredit-modul tizimi bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi kerak.

4.4. Takomillashtirish yo'llari.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takomillashtirish yo'llari taklif etiladi:

Qonunchilik bazasini mustahkamlash:

- Kredit-modul tizimi to'g'risida maxsus nizom qabul qilish
- ECTS standartlarini milliy me'yorlarga kiritish
- Diplomlarni o'zaro tan olish mexanizmlarini yaratish

Institutsional salohiyatni oshirish:

- Ta'lim muassasalarining avtonomiyasini kengaytirish
- Sifatni ta'minlash tizimini joriy etish
- Ichki va tashqi baholash mexanizmlarini yaratish

Kadrlar tayyorlash:

- O'qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish
- Xalqaro tajriba almashish dasturlarini kengaytirish
- Metodologik qo'llab-quvvatlash markazlarini yaratish

Texnologik modernizatsiya:

- Yagona axborot tizimini yaratish
- Elektron ta'lim resurslarini rivojlantirish
- Ma'lumotlar almashinuvi platformasini yaratish

4.5. Cheklovlar va kelajak tadqiqotlar

Ushbu tadqiqot bir qator cheklovlarga ega:

- Tanlanma hajmining cheklanganligi
- Vaqt chegaralari (2 yillik kuzatuv)
- Regional farqlarning to'liq hisobga olinmaganligi

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- Kredit-modul tizimining ta'lim sifatiga ta'sirini chuqur o'rganish
- Talabalar harakatchanligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish
- Raqamli texnologiyalarning rolini baholash
- Xalqaro hamkorlik modellarini ishlab chiqish

5. Xulosa.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish va uni ECTS standartlari bilan uyg'unlashtirish masalalarini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni faol davom etmoqda va ijobiy natijalar bermoqda. Ko'pchilik muassasalar bu tizimning asosiy elementlarini muvaffaqiyatli tatbiq etishgan, bu esa ta'lim tizimining modernizatsiyaga tayyorligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, ECTS standartlariga to'liq muvofiqlikka erishish uchun hali ko'p ishlar qilish zarur. Ayniqsa, o'quv natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash, mustaqil ta'lim yuklamasini to'g'ri hisoblash va baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha jiddiy sa'y-harakatlar talab etiladi.

Uchinchidan, kredit-modul tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu nafaqat texnik va metodologik masalalarni hal qilishni, balki institutsional o'zgarishlar, kadrlar tayyorlash va madaniy transformatsiyani ham o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, milliy xususiyatlar va xalqaro standartlar o'rtasida muvozanat saqlash muhim. O'zbekiston kasbiy ta'limning o'ziga xos jihatlari, amaliy yo'naltirilganligi va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ECTS standartlarini moslashtirish lozim.

Beshinchidan, davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonunchilik bazasini mustahkamlash, moliyaviy resurslarni ajratish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kredit-modul tizimini muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy shartlari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan model va mexanizmlar kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini samarali joriy etish va ECTS standartlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro integratsiyalashuvini tezlashtirish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Kelajakda kredit-modul tizimining yanada rivojlanishi va takomillashtirilishi kutilmoqda. Bu jarayon uzluksiz monitoring, baholash va tuzatishlarni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba almashish, innovatsion yechimlar qo'llash va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini ta'minlash muhim.

Yakunida shuni ta'kidlash joizki, kredit-modul tizimi va uning ECTS bilan uyg'unligi - bu nafaqat texnik masala, balki ta'lim falsafasi va yondashuvining tubdan o'zgarishidir. Bu o'zgarish talaba markazli ta'lim, o'quv natijalariga asoslangan yondashuv va hayot davomida o'rganish tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.12.2023 y. 648-son “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Assefa M., Sedgwick, R. Evaluating the Bologna degree in the US. Worldeducation

news and reviews, March/April 2004.

3. Bologna Declaration. Joint Declaration of the European Ministers of Education Convened in Bologna on the 19th of June 1999.

4. Credit Transfer and Accumulation - the Challenge for Institutions and Students, EUA/Swiss Confederation Conference, ETH Zurich, 11-12 October, 2002.

5. Kennedy, D. (2007). Writing and Using Learning Outcomes: A Practical Guide.

6. Kubayeva Y.I. Kredit-modul tizimini tashkil etish – ta'limda dolzarb masala sifatida // "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi O'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: 2024. – B. 121-124.

7. Maxmanov U.A. Oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etilishi va imkoniyatlari // Zamonaviy ta'lim. –Toshkent: 2021. –№1. – B. 4-11.

8. Smith, J. (2018). Modular Education: Theory and Practicye.

9. UNESCO. (2019). Digital Transformation in Education.

10. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish // O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 b.

11. Xabibullayev B.,Topildiyev V., Innazarov M. Kredit-modul tizimi va o'quv jarayoni tashkil etish // O'quv-uslubiy majmua – Toshkent, 2020. – 149 b.

12. Zaripov L., Xayitov N., Tuxtayeva M. Kredit-modul tizimi bo'yicha xorij tajribasi // Metodik qo'llanma. – Toshkent: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 32 b.

13. Андриенко А.С. Развитие иноязычной профессиональной компетентности студентов технического вуза (на основе кредитно-модульной технологии обучения): Дис. ... канд. пед. наук 13.00.08. -Ростов н/Д., 2007. - 282 с.

14. Маслов И.В. Методика информационной подготовки юристов с применением кредитно-модульной системы: Автореф. дис. … канд. пед. наук. –Ростова-на-Дону: 2011. – 22 с.

15. Методические рекомендации по внедрению в вузе системы зачетных единиц (кредитов) / [Текст] /. Государственный университет управления, Центр качества [сост. О.В. Давыдова, В.И. Звонников, М.Б. Челышкова]. – М.: ГУУ, 2010. – 50 с

UDK. 372.22:371.03

KREATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TALQINLARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ichta'lim kafedrasi o'qituvchisi, qulmuminovoral@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kreativlikning shaxs rivojlanishidagi o'rni, ta'lim jarayonida kreativ ko'nikmalarni shakllantirishning metodologik tamoyillari va zamonaviy nazariy qarashlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik usullar, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va yangicha yondashuvlarni shakllantirishda nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы развития креативных навыков, а также современные педагогические и психологические подходы. Научно обосновано значение креативности в развитии личности, методологические принципы формирования креативных навыков в образовательном процессе и современные теоретические концепции. Кроме того, рассмотрена эффективность дидактических методов, инновационных технологий и интерактивных методик, способствующих развитию креативного мышления. Результаты исследования служат теоретико-практической основой для формирования у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и новых способов решения задач.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of developing creative skills as well as modern pedagogical and psychological approaches. It scientifically substantiates the role of creativity in personal development, the methodological principles of fostering creative skills in the educational process, and contemporary theoretical perspectives. Furthermore, the effectiveness of didactic methods, innovative technologies, and interactive techniques that contribute to the development of creative thinking is examined. The research findings serve as a theoretical and practical basis for cultivating independent thinking, creativity, and innovative approaches among students.

Kalit so'z: kreativ ko'nikmalar, kreativ tafakkur, nazariy talqin, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, ijodkorlik, innovatsion metodlar.

Ключевые слова: креативные навыки, креативное мышление, теоретическая интерпретация, современные подходы, образовательный процесс, педагогические технологии, творчество, инновационные методы.

Keywords: creative skills, creative thinking, theoretical interpretation, modern approaches, educational process, pedagogical technologies, creativity, innovative methods.

Kirish. XXI asr ta'limi va mehnat bozori sharoitida kreativlik-nafaqat individual salohiyat, balki jamiyatning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omilga aylangan. Globalizatsiya, texnologik inqilob va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida o'quvchilarni faktlarni yodlashga emas, balki muammolarni yangicha yondashuv bilan hal qila olishga, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish talab etiladi. Shu sababli pedagogika va psixologiya fanlari so'nggi yillarda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini izchil o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda.

Maqolaning muammosi shundan iboratki, garchi kreativlik va uning pedagogik

shakllantirishga oid g‘oyalar keng tarqalgan bo‘lsa-da, ularni ta’lim jarayoniga tizimli, nazariy jihatdan mustahkamlangan va milliy-pedagogik kontekstga moslashtirilgan tarzda joriy etish bo‘yicha aniq metodologik tamoyillar va konseptual yondashuvlar yetarlicha shakllantirilmagan. O‘quv dasturlari, dars rejalari va baholash tizimlarida kreativ ko‘nikmalarni qanday o‘lchash, baholash va rivojlantirish usullari haqida bir xilda qarashlar mavjud emas; natijada pedagogik amaliyotda metodlarning samaradorligi va ularning ta’siri ilmiy asosda kam tahlil qilinadi.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. Kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarda metodologik yondashuv aralash va integratsiyalashgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik-kognitiv, emosional-motivatsion va ijtimoiy jihatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab hodisa bo‘lib, uni butunlay tushunish uchun nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar, balki sifatli kontekstual ma’lumotlar ham talab etiladi.

O‘rganilish darajasi nuqtai nazaridan, kreativlik masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro ilm-tadqiqot maydonida chuqur o‘rganilgan; J. P. Guilford va E. P. Torrance kabi psixologlar divergent fikrlash va ijodiy diagnostika sohasiga asos solganlar, H. Gardner va R. Sternberg intellekt va kreativlikning turli qirralarini tadqiq etganlar, M. Csikszentmihalyi ijodiy jarayonlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tushuntirishga hissa qo‘shgan, E. de Bono lateral fikrlash texnikalarini ishlab chiqqan, pedagogik saheda esa D. Craft va K. (Ken) Robinson ta’lim tizimida kreativlikni qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ilgari surganlar. Ushbu xalqaro adabiyot o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning turli aspektlarini yoritadi va metodologik asboblarga boylik kiritadi. O‘zbekiston kabi mamlakatlarda mavzu bo‘yicha so‘nggi yillarda ilmiy qiziqish ortib bormoqda: mahalliy olimlar va amaliyotchilar pedagogik tafakkur, milliy-madaniy kontekst va ta’lim siyosati bilan bog‘liq tadqiqotlar olib bormoqdalar, biroq kompleks integratsiyalashgan modeli va keng miqyosli empirik ma’lumotlar yetishmaydi. Ko‘pchilik milliy tadqiqotlar kichik miqyosli sinovlar, kuzatuvlar va ta’lim jarayonidagi amaliy tajribalarni o‘z ichiga oladi, lekin eksperimental-kontrolli, uzoq muddatli va keng statistik tahlilga asoslangan tadqiqotlar kamroq.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan intervensiya va metodik yondashuvlar o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini umumiy jihatdan mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Miqdoriy tahlillar pretest–posttest dizaynida eksperimental guruhda kreativlik indekslari va uning asosiy komponentlari-fikrlar soni (fluency), fikrlarning xilma-xilligi (flexibility), originalik (originality) va tafsilotlarga boylik (elaboration) bo‘yicha barqaror o‘sishlarni namoyish etdi; nazorat guruhida esa o‘zgarishlar sezilarli darajada past yoki statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘ldi. Guruhlararo taqqoslashlar eksperimental yondashuvning samaradorligini qo‘llab-quvvatladi: intervensiyadan so‘ng o‘lchovlarda qayd etilgan o‘sishlar bir qator statistik testlar natijasida ishonchli deb topildi va effekt kattaliklari amaliy jihatdan ham sezilarli ekanligi ko‘rsatildi. Shuningdek, modellashtirish natijalari intervensiyaning yaratgan o‘quv muhitiga moslashuvchanligi va o‘qituvchilarning faol ishtirok etish darajasi bilan bog‘liqligini ochib berdi-ya’ni darslarda loyiha ishlari, muammoga asoslangan topshiriqlar va interfaol texnologiyalarni muntazam qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy natijalarini yanada oshirdi.

Sifatli ma’lumotlar tahlili pedagogik amaliyot kontekstidagi o‘zgarishlarni chuqurroq yoritdi. Fokus-guruhlar va yarim strukturalangan intervyularda o‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilar faoliyatining diversifikatsiyalanganini, mustaqil fikrlash va bir nechta yechimlarni sinab ko‘rish odatining ortganini qayd etdilar. O‘quvchilar hisobotlari va portfoliolar tahlili esa ularda muammolarni multitarsilli ko‘rib chiqish, g‘oyalarni tez ishlab chiqish va ularni boshqalar bilan samarali muhokama qilish ko‘nikmalari rivojlanganini ko‘rsatdi; ayniqsa, loyiha vazifalariga oid ijodiy mahsulotlarda original yechimlar va mavhum kontseptlarni konkretlashtirish qobiliyatining kuchaygani ko‘zga tashlandi. Ekspert baholashlari asosida ishlab

chiqilgan rubrikalar yordamida amalga oshirilgan baholashlar intervensiyaning o‘quvchilarning ijodiy mahsulot sifatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi-bu o‘z navbatida testlarga qo‘shimcha ravishda real ijodiy vazifalar va portfoliolarga asoslangan baholashlarning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar guruh va demografik faktorlarga qarab tahlil qilinganda, intervensiyaning samaradorligi umumiy tendensiya bo‘yicha barqaror bo‘lsa-da, sinf darajasi va boshlang‘ich qobiliyatlar ta’siri sezildi: yuqori boshlang‘ich indikatorlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar originalik va elaboration ko‘rsatkichlarida ko‘proq o‘sish namoyish etishgan, kamroq boshlang‘ich darajaga ega o‘quvchilarda esa dastlab fluency va flexibility jihatlari tezroq o‘zgarib, keyinchalik original fikrlarni shakllantirishda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash talab etilgani aniqlandi. Jinsiy farqlar yengil yoki statistik jihatdan ahamiyatsiz darajada bo‘lib, pedagogik amaliyotda genderga yo‘naltirilgan maxsus chora-tadbirlar kerakligi to‘g‘risida aniq xulosalar chiqarish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar zarurligi belgilandi. Amaliy tatbiq etilish davomida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi-elektron platformalar, interaktiv ilovalar va multimediya materiallari-kreativ jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashda yordam bergan, ayniqsa guruh faoliyati va hamkorlik asosidagi topshiriqlarda ishtirokni oshirishda samarali bo‘lgani kuzatildi.

Triangulyatsiya printsipi asosida miqdoriy va sifatli ma’lumotlar bir-biri bilan mos keluvchi natijalar bergan: test ko‘rsatkichlaridagi o‘sishlar o‘qituvchilarning va ekspertlarning kuzatuvlari bilan tasdiqlandi, o‘quvchilarning portfoliolari esa amaliy o‘zgarishlarni vizual tarzda qo‘llab-quvvatladi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan asosiy cheklovlar natijalarni talqin qilishda e’tiborga olinishi zarur: namunaviy hajm va geografik sektorlarning cheklanganligi natijalarni kengaytirishda to‘liq ishonch hosil qilishga to‘sqinlik qilishi mumkin, intervensiyaning davomiyligi nisbatan qisqa bo‘lgani sababli uzoq muddatli barqarorlik va qanchalik mustahkam natijalar yuzasidan qo‘shimcha longitudal kuzatuvlar talab etiladi, shuningdek, ba’zi sinflarda dars jadvali cheklovlari va o‘qituvchilar yukining yuqoriligi intervensiyani to‘liq va ideal rejimda amalga oshirishga xalaqit bergan.

Tadqiqot natijalari kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli ta’lim-metodik aralashuvlarning ta’siri salmoqli ekanligini ko‘rsatadi va bunday yondashuvlarni maktab dasturlariga integratsiyalash, o‘qituvchilar uchun professional rivojlanish kurslarini kengaytirish hamda baholash instrumentlarini mahalliy kontekstga moslashtirish orqali ommaviy tatbiq etish mumkinligini tasdiqlaydi. Bundan kelib chiqib, amaliy tavsiyalar qatorida ta’lim muassasalarida loyiha va muammoga asoslangan o‘qitish elementlarini muntazam joriy etish, o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini oshirishga yo‘naltirilgan treninglar o‘tkazish va intervensiyaning uzoq muddatli ta’sirini baholovchi keng ko‘lamli longitudal tadqiqotlarni tashkil etish zarurligi ta’kidlanadi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligi turli metodlar asosida o‘rganildi. Miqdoriy va sifatli ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, yangi pedagogik yondashuvlar, xususan loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va interfaol metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning kreativ fikrlash jarayonida fikrlar soni, xilma-xilligi, yangiligi va tafsilotlar darajasi bo‘yicha sezilarli o‘sish qayd etildi. Bu esa kreativ ko‘nikmalar faqatgina nazariy bilimlar emas, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali samarali shakllanishini ko‘rsatadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, eksperimental guruhda ishtirok etgan o‘quvchilar nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori natijalarni namoyon qildi. Masalan, ular topshiriqlarni yechishda bir nechta muqobil yechimlar taklif qila olishdi, o‘z fikrlarini erkin ifodalash va yangicha g‘oyalarni ilgari surishda faolroq bo‘lishdi. Shu bilan birga, sifatli tahlillar-intervyu va

kuzatuvlar natijalari-o'quvchilarning mustaqil fikrlash va guruh bo'lib ishlash jarayonida yanada faollashganini tasdiqladi. O'qituvchilar esa dars jarayonida ijodiy faoliyatning ortgani, o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishi kuchaygani hamda hamkorlik muhitining yaxshilangani haqida qayd etishdi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, kreativ ko'nikmalarning rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq: darsning metodik tashkiloti, o'qituvchining kompetensiyasi, topshiriqlarning murakkablik darajasi va o'quvchilarning individual tayyorgarligi. Tadqiqot jarayonida yuqori boshlang'ich darajaga ega bo'lgan o'quvchilar asosan yangilik va tafsilotlarda yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, pastroq darajadagi o'quvchilarda fikrlar soni va moslashuvchanlik ko'nikmalari tezroq rivojlangan. Bu esa individual yondashuv zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonida shaxsiy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarni samarali qo'llashni talab etadi. Kreativlik shaxs rivojlanishida nafaqat ijodiy tafakkurni kuchaytiradi, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish va o'z g'oyalarini erkin ifodalash kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy tahlil, solishtirma va kuzatuv metodlari kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligini tasdiqladi.

Olingan natijalar shuni anglatadiki, o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishda interfaol metodlar, loyiha asosida ishlash, muammoli topshiriqlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatida kreativ yondashuvlarni qo'llay bilishi ham ta'lim jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bu jarayonni tizimli ravishda yo'lga qo'yish, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va o'quvchilarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, jamiyat uchun yangicha fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirov, A. (2018). Pedagogika nazariyasi va metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".

2. Nishonova, D. (2020). Ta'limda kreativ tafakkurni rivojlantirish usullari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

3. To'raqulov, N. (2019). "Kreativlik tushunchasining pedagogik talqini." O'zbekistonda pedagogika fanlari jurnali, №2, 34–39.

4. Xolbekov, R. (2021). O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

5. G'ulomova, X. (2022). "Kreativ yondashuvning zamonaviy ta'limdagi o'rni." Boshlang'ich ta'lim metodikasi jurnali, №3, 21–27.

7. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.

8. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-technical manual. Lexington, MA: Personnel Press.

9. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.

10. Sternberg, R. J. (2006). The Nature of Creativity. Cambridge: Cambridge University Press.

11. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. New York: Harper Collins.

12. De Bono, E. (1992). Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to

Create New Ideas. New York: Harper Business.

13. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Oxford: Capstone Publishing.

14. Craft, A. (2005). Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge.

UDK 342.725.3

ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Erdanova Zamira Olimovna
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ichta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Zamiraerdanova8@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida yoritilgan. Unda mavjud metodik muammolar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari va o'quvchilarning tafakkuriy hamda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование технологии работы с текстом на уроках родного языка как актуальная педагогическая проблема. Анализируются существующие методические проблемы, возможности использования современных технологий, их значение в развитии мышления и речевых навыков учащихся с научной, теоретической и практической точки зрения.

Abstract. This article discusses the improvement of the technology of working with text in native language lessons as a topical pedagogical problem. It analyzes the existing methodological problems, the possibilities of using modern technologies, and their importance in developing students' thinking and speech skills from a scientific, theoretical and practical perspective.

Kalit so'z: ona tili, matn, dars, pedagogik muammo, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnologiya, interaktiv usullar, insert, klaster, nutq, tafakkur, kompetensiya, o'qituvchi, o'quvchi, tahlil, savol-javob, ijodiy topshiriq, Venn diagrammasi, samaradorlik.

Ключевые слова: Родной язык, текст, урок, педагогическая проблема, начальное образование, методика, технология, интерактивные методы, вставка, кластер, речь, мышление, компетентность, учитель, ученик, анализ, вопрос и ответ, творческое задание, диаграмма Венна, эффективность.

Keywords: Mother tongue, text, lesson, pedagogical problem, primary education, methodology, technology, interactive methods, insert, cluster, speech, thinking, competence, teacher, student, analysis, question and answer, creative task, Venn diagram, efficiency.

Kirish. Ona tili darslari boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy va muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda o'quvchilarga nafaqat til tizimi haqidagi bilimlar, balki to'g'ri va ravon fikr yuritish, o'z fikrini ifoda etish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish ko'nikmalari ham shakllantiriladi. Ayniqsa, matn ustida ishlash bu jarayonning markazida turadi. Chunki matn tahlili orqali o'quvchilar axborotni tushunish, uni qayta ishlash, baholash va izohlay olish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ona tili darslarida matn ustida ishlash hali ham ko'p hollarda an'anaviy yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Bu holat darslarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, chunki o'quvchilarda tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, mustaqil xulosa chiqarish kabi muhim kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmayapti. Shu bois, matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Ushbu masala zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yechim topilishi kerak bo'lgan dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Mazkur ishda ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi, mavjud kamchiliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Mazkur tadqiqotda ona tili darslarida matn ustida

ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha mavjud metodik yondashuvlar, ularning samaradorligi hamda zamonaviy texnologiyalarning tatbiq etilishi o‘rganildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi: Tahlil va sintez metodi–mavjud nazariy manbalar, o‘quv dasturlari, dars ishlanmalari va ilg‘or pedagogik tajribalar asosida matn ustida ishlashga doir usullar o‘rganildi va tahlil qilindi; Taqqoslash metodi–an'anaviy va zamonaviy matn bilan ishlash texnologiyalari o‘zaro solishtirildi; Kuzatish metodi–boshlang‘ich sinf dars jarayonlari bevosita kuzatilib, o‘quvchilarning matn bilan ishlashdagi ishtirok darajasi va faolligi baholandi; So‘rovnoma va suhbat usullari–amaliyotchi o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning bu boradagi tajriba va qarashlari o‘rganildi; Eksperimental metod (tajriba-sinov ishlari) –ayrim sinflarda yangi yondashuvlar asosida darslar tashkil qilinib, ularning natijalari tahlil etildi.Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, ona tili darslarida interaktiv va innovatsion texnologiyalar asosida matn ustida ishlash o‘quvchilarning bilim sifati, tafakkur faoliyati, nutqiy kompetensiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ushbu mavzuning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega pedagogik muammo sifatida o‘rganilishini taqozo etadi. Ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish muammosi murakkab didaktik jarayon bo‘lib, uni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish uchun turli xil metodlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Tadqiqot davomida masalani chuqur tahlil qilish, mavjud tajribalarni umumlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni baholash va takliflar ishlab chiqish uchun quyidagi asosiy metodik yondashuvlar qo‘llanildi:

Tahlil va sintez usuli: Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud adabiyotlar, davlat ta'lim standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklar, metodik qo‘llanmalar, ilg‘or tajribalar va zamonaviy innovatsion texnologiyalar tahlil qilindi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta'lim bosqichida matn bilan ishlashga oid metodik qarashlar sintez qilinib, umumlashtirildi. Bu metod o‘rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Kuzatish va diagnostika usullari: Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari jarayonida bevosita kuzatish ishlari olib borildi. O‘qituvchilarning dars o‘tish jarayonida matn ustida qanday usullardan foydalanayotgani, o‘quvchilarning faollik darajasi, ularning matnni tahlil qilish, asoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarishdagi ishtiroki qayd etildi. Bu usul real holatni ob'ektiv baholashga yordam berdi. So‘rovnoma va suhbat metodi: Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchilar, metodistlar va pedagogik amaliyotchilar bilan so‘rovnoma va intervyular tashkil etildi. So‘rovnoma savollari orqali o‘qituvchilarning matn ustida ishlash bo‘yicha metodik bilim darajasi, foydalanilayotgan usullar, duch kelayotgan muammolar va yangiliklarga bo‘lgan munosabati aniqlashtirildi. Suhbatlar orqali esa chuqur fikrlar va individual tajribalar tahlil qilindi. Tajriba-sinov (eksperimental) metod: Tadqiqotning amaliy bosqichida ayrim sinflarda yangi metodik yondashuvlar (klaster, insert, fishbone, Venn diagrammasi, loyiha ishlari va interaktiv o‘yinlar) asosida matn ustida ishlash bo‘yicha tajriba-sinov darslari o‘tkazildi. Tajriba natijalari nazorat guruhi bilan solishtirilib, bu yondashuvlarning samaradorligi baholandi. O‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi, ifoda qobiliyati va matnni tahlil qilish ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Statistik tahlil va baholash: Tajriba natijalari asosida olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. O‘quvchilarning bilim darajasi, matn asosida bajarilgan topshiriqlar sifati, test natijalari va og‘zaki ifodalar baholandi. Diagnostik tahlillar orqali ilgari qo‘llanilgan an'anaviy yondashuvlar bilan yangi metodik texnologiyalar ta'siri o‘rtasidagi farq aniqlandi. O‘rganilish darajasi: Matn ustida ishlash texnologiyasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar ayrim xorijiy va mahalliy pedagoglar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu masalaning boshlang‘ich ta'lim kontekstida, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar asosida kompleks yondashuvda tahlil qilinishi yetarli darajada emas. Xususan, quyidagilar aniqlashtirildi: Matn ustida ishlashning didaktik asoslari bo‘yicha M.Mahkamova, X.Salomova, O.Masharipov, G.Xolboeva kabi pedagog-olimlarning ishlarida ayrim jihatlar

yoritilgan; Interaktiv metodlar asosida matn bilan ishlashga doir nazariy izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy tatbiqi, darsdagi aniq modellar bilan boyitilishi talab etiladi; Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi va psixologik xususiyatlariga mos matn tahlil texnologiyalari bo‘yicha izchil ilmiy izlanishlar yetarli emas; AKT vositalaridan foydalangan holda matn ustida ishlash sohasida esa maktab amaliyoti uchun maxsus ishlab chiqilgan dars ishlanmalari, metodik ko‘rsatmalar kam. Shuning uchun mazkur tadqiqot ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish muammosini chuqurroq ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga xizmat qiladi. Bu boradagi tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik yo‘riqnoma sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, kuzatishlar, so‘rovnomalar, suhbatlar va tajriba-sinov darslari asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi: Amaldagi holatning baholanishi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayoni ko‘plab hollarda an’anaviy yondashuvlar asosida olib borilayotganligi aniqlandi. O‘qituvchilar asosan quyidagilarga tayanmoqda:

Matnni o‘qish va qayta aytib berish;

Yuzaki savol-javoblar;

Tayyor xulosalarni yod olish.

Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning fikrlash, tahlil qilish, izohlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini to‘laqonli rivojlantirishga xizmat qilmayotgani aniqlandi. So‘rovnoma va suhbatlar natijasi. So‘rovnomada ishtirok etgan 50 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining 68 foizi matn ustida ishlashda asosan an’anaviy metodlardan foydalanishini ma’lum qildi. 22 foizi esa ba’zan interaktiv metodlardan foydalanadi, ammo tizimli qo‘llamaydi. Faqatgina 10 foiz o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalar (insert, klaster, Venn diagrammasi, loyiha usuli) asosida doimiy ishlashini bildirdi. Bu esa yangi metodlarning maktab amaliyotida yetarli darajada ommalashmaganini ko‘rsatadi.

Kuzatuvlar orqali aniqlangan holatlar.

10 ta dars jarayoni bevosita kuzatildi. Natijada quyidagilar kuzatildi:

Matnlar ko‘pincha o‘quvchilar yoshiga mos emas;

Faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar yetarli emas;

Dars davomida o‘quvchilarning faolligi past, ko‘p hollarda faqat kuchli o‘quvchilar ishtirok etadi;

O‘quvchilar matnni qayta aytib berishda ko‘pincha so‘zma-so‘z yodlashga harakat qilmoqda, bu esa tahliliy fikrlashning yetishmasligidan dalolat beradi. Tajriba-sinov darslari natijalari: Tajriba darslari 4-sinfning ikki guruhida o‘tkazildi: nazorat guruhi (an’anaviy metodlar) va eksperimental guruh (zamonaviy metodlar asosida). Bir oylik darslar yakunida quyidagi natijalar qayd etildi:

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Matn mazmunini anglash	61%	84%
Tahlil qilish ko‘nikmasi	48%	79%
Og‘zaki fikrni ifodalash	53%	85%
Ijodiy topshiriqlarni bajara olish	42%	77%

Bu raqamlar interaktiv va innovatsion texnologiyalarning matn ustida ishlash samaradorligini oshirishdagi muhim rolini yaqqol ko‘rsatmoqda. Eksperimental darslardan so‘ng o‘quvchilarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi: Matnni mustaqil tushunish, asosiy g‘oyani ajratib olish; Matn asosida savol tuzish, xulosa chiqarish, baholash; O‘z fikrini ifodalashda aniqlik va ravonlik; Ijodiy ishlarga (ertak yozish, dialog tuzish, matnni davom ettirish) bo‘lgan qiziqishning oshishi. O‘qituvchilar esa yangi texnologiyalarning o‘quvchilarning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshirganini e’tirof etdilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida matn

ustida ishlash texnologiyasining takomillashuvi bevosita o‘quvchilarning tafakkuriy, nutqiy va ijodiy rivojiga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo‘llash, darslarni interfaol, qiziqarli va faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish muhim omil hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb didaktik va pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan kuzatishlar, tajriba-sinovlar va o‘qituvchilar bilan suhbatlar asosida olingan ma’lumotlar tahlil qilinar ekan, bir nechta asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha muhim xulosalar chiqarildi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida matn ustida ishlash hali ham an’anaviy usullar asosida olib borilmoqda. Ko‘pgina darslarda quyidagi kamchiliklar qayd etildi: Matnlar tanlashda tizimlilik yetarli emas; ular o‘quvchilar yosh xususiyatlariga va bilim darajasiga mos kelmasligi mumkin; O‘qituvchilar matn bilan ishlashni faqat o‘qish va mazmunini aytib berish bilan cheklashmoqda;

Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar kam qo‘llaniladi;

Matn asosida tahliliy, reflektiv savollar berilmaydi;

Matn ustida ishlash ko‘pincha bir tomonlama (o‘qituvchi markazli) tarzda tashkil etiladi.

Bu kamchiliklar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va yozma nutqini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. O‘tkazilgan so‘rovnomalarda 50 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining fikrlari quyidagicha tahlil qilindi:

68% o‘qituvchilar matn ustida ishlashni darsning yordamchi qismi deb hisoblaydi;
22% o‘qituvchilar ba’zida interaktiv metodlardan foydalansa-da, ularni doimiy va tizimli qo‘llamaydi; Faqat 10% o‘qituvchilar doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar (klaster, insert, fishbone, Venn diagramma) asosida ishlashini bildirdi; Suhbatlar davomida o‘qituvchilar zamonaviy metodlardan foydalanish istagi borligini, ammo buning uchun amaliyotiy yo‘riqnomalar va metodik ko‘mak zarurligini ta’kidladilar. Tajriba-sinov darslari asosida olingan ma’lumotlar chuqur tahlil qilinar ekan, quyidagi farqlar aniqlandi: Nazorat guruhi o‘quvchilari an’anaviy yondashuvlar asosida darslarda ishtirok etdilar. Ular matnni asosan yodlab aytishga harakat qildilar, tahlil qilishga qiynaldilar, ijodiy topshiriqlarga qiziqish sust bo‘ldi. Tajriba guruhi o‘quvchilari esa interaktiv metodlar (klaster tuzish, savol-javob, matn asosida munozara, insert jadvali, Venn diagrammasi) asosida ishladilar. Ularning darsga bo‘lgan qiziqishi ortdi, fikrini mustaqil ifodalash, asosiy g‘oyani ajratib olish, baholash va izohlash ko‘nikmalari ancha yaxshilandi.

Xulosa. Ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayoni boshlang‘ich ta’limda bolalar tafakkuri, nutqiy rivoji va kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Matn-bu o‘quvchi tafakkurining asosiy obyektidir, uni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, qayta ishlab ifodalash, uni yozma va og‘zaki tarzda o‘zlashtirish orqali bola bilimini mustahkamlaydi, uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyati shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish masalasi nafaqat dolzarb, balki ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida ona tili darslarida matn ustida ishlashga doir mavjud holat chuqur o‘rganildi, amaliyotda qo‘llanilayotgan metodlar, o‘qituvchilarning yondashuvi, dars jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matn ustida ishlashda an’anaviy, ya’ni faqat o‘qish va mazmunini so‘zlab berish kabi cheklangan usullardan foydalanmoqdalar. Bu yondashuvlar o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlay olmaydi, uning tafakkuriy va ijodiy salohiyatini to‘laqonli namoyon qilishga imkon bermaydi. Bu holatni bartaraf etish uchun matn ustida ishlashning innovatsion texnologiyalari, interaktiv yondashuvlari, tanqidiy fikrlash elementlari, faoliyatga asoslangan topshiriqlar joriy qilinishi zarur. So‘rovnoma va suhbat natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning bir qismi

zamonaviy metodik yondashuvlardan xabardor bo‘lsada, ularni dars amaliyotiga tatbiq etishda muayyan to‘siqlar mavjud. Jumladan, vaqt tanqisligi, uslubiy qo‘llanmalarning yetishmasligi, o‘quvchi yoshiga mos matnlar va topshiriqlarning yo‘qligi, AKT vositalarini to‘liq o‘zlashtirmaganlik kabi muammolar aniqlangan. Shu bois matn bilan ishlash bo‘yicha darslik va metodik ko‘rsatmalarning yangilanishi, o‘qituvchilar uchun amaliy seminar-treninglar tashkil etilishi, ularni interaktiv vositalardan foydalanishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba-sinov ishlarining tahlili matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish orqali o‘quvchilarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilishini isbotladi. Jumladan, tajriba guruhida o‘tkazilgan interaktiv darslar (insert, klaster, Venn diagrammasi, savol-javobli tahlil, munozara, ijodiy topshiriqlar) o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini, tahlil qilish ko‘nikmalarini, mustaqil fikr bildirishi va ijodiy yondashuvini kuchaytirgan. Bu natijalar darsda o‘quvchi faolligini oshirish, fikrlash madaniyatini shakllantirishda matn asosidagi faoliyatning katta ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Xususan, interfaol metodlardan foydalangan darslarda o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘la boshlaydi:

Matnning asosiy mazmunini tushunish va qayta ifodalash;
Asosiy g‘oya va muammolarni ajratib ko‘rsatish;
Matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish, fikr yuritish;
Matn asosida savol tuzish va unga izohli javob qaytarish;
Matnni o‘z nuqtai nazari asosida tahlil qilish, xulosa chiqarish;
O‘z fikrini erkin va asosli tarzda og‘zaki va yozma ifoda etish.

Bu esa ona tili darslarining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini kuchaytiradi. Shu jihatdan, matn ustida ishlash texnologiyalarini takomillashtirish-o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning muloqot madaniyatini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ona tili darslarida matn bilan ishlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: Metodik qo‘llanmalarning takomillashuvi: Darsliklar va metodik materiallarda matn ustida ishlashga oid zamonaviy metodlar, didaktik topshiriqlar, tahliliy savollar tizimli berilishi lozim. O‘qituvchilar malakasini oshirish: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun seminar, trening va vebinarlar orqali yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatlari kengaytirilishi kerak. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos matnlar tanlash: Matnlar o‘quvchilarning psixologik, intellektual va axloqiy rivojlanishiga mos ravishda tanlanishi, ularning faolligini rag‘batlantiruvchi bo‘lishi zarur.

AKT vositalarini tatbiq etish. Ona tili darslarida multimedia, interaktiv taqdimotlar, onlayn platformalar orqali matn ustida ishlashni tashkil etish samaradorlikni oshiradi. Ish faoliyatiga yo‘naltirilgan topshiriqlar: Matn asosida loyiha, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar, guruhli tahlil ishlari orqali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish zarur. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish-bu nafaqat o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, balki ularni mustaqil fikrlovchi, tahliliy yondasha oladigan, hayotiy muammolarga yechim topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi zamonaviy metodik yondashuvlarni egallagan, o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlaydigan pedagog bo‘lishi lozim. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol uslublarni faol qo‘llash, o‘quvchilarni mustaqil fikrga undaydigan topshiriqlar asosida darslarni tashkil etish, matn tahliliga ijodiy yondashuvni kiritish zarur. Shunday ekan, matn ustida ishlash texnologiyasini takomillashtirish bugungi ta’lim islohotlari, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining uzviy tarkibiy qismi sifatida e’tiborga olinmog‘i lozim. Zero, bu orqali ta’limning asosiy maqsadi-fikrlovchi, muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini mustaqil ifoda eta oladigan barkamol shaxsni shakllantirish yo‘lida muhim qadam

qo'yiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rahmonov S. **Pedagogik texnologiyalar asoslari**. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Marhamatov Sh. **O'qitishning interfaol usullari**. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
3. Vygotskiy L.S. **Pedagogik psixologiya**. – Moskva: Pedagogika, 1991.
4. Zimnyaya I.A. **Pedagogik texnologiyalar nazariyasi**. – Moskva: Logos, 2006
5. Joyce B., Weil M. & Calhoun E. **Models of Teaching**. – Boston: Allyn and Bacon, 2015.
6. John Dewey. **How We Think**. – New York: D.C. Heath & Co, 1910.
7. Quronboyeva M. **Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
8. G'ulomova X., To'ychieva M. **Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish**. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
9. Xolboeva G. **Boshlang'ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash** // Boshlang'ich ta'lim, 2022, №4.
10. Salomova X. **Matn ustida ishlash usullari va ularning turlari** // Ta'lim va fan, 2021, №2.

UDK UDC 621.3

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISH METODIKASI

Jumanazarova Zuxraxon Qosımjanovna
Namangan davlat texnıka unıversıtet. PhD

Annotatsiya. Ushbu ish "Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitish metodikasi" mavzusini atroflicha ko'rib chiqadi. Ishda fan mazmunining nazariy va amaliy tarkibiy qismlari, metodologik va pedagogik yo'llar (an'anaviy, interaktiv, multimedia, loyihaviy, hamda muammoli metodlar) tahlil qilinadi. Ta'limda vizualizatsiya, fazoviy tasavvur, va CAD-dasturlarining o'rni, shuningdek kompetensiyalarni shakllantirish va baholash usullari yoritiladi. Muammolar aniqlanadi va zamonaviy texnologiyalar orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar beriladi.

Аннотация. Данная работа посвящена исследованию методики преподавания инженерной и компьютерной графики. В ней анализируются теоретические и практические компоненты содержания предмета, педагогические методы (традиционные, интерактивные, мультимедийные, проектные, проблемные). Рассматривается роль визуализации, пространственного воображения, CAD-программ, а также формирование компетенций и методы оценивания. Выявляются проблемы и предлагаются пути повышения эффективности обучения с помощью современных технологий.

Abstract. This study focuses on the methodology of teaching engineering and computer graphics. It analyzes the theoretical and practical components of the subject matter, pedagogical methods (traditional, interactive, multimedia, project-based, problem-based). It examines the role of visualization, spatial imagination, CAD programs, as well as competency formation and assessment methods. Problems are identified and recommendations are given to enhance teaching effectiveness using modern technologies.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi; kompyuter grafikasi; cad-dasturlar; amaliy mashg'ulotlar; projektsion chizish; vektor va raster grafikasi; visualizatsiya; fazoviy tasavvur; kompetensiyaviy yondoshuv; innovatsion metodlar; multimedia vositalari; interaktiv o'quv muhit; 3d-modellashtirish.

Ключевые слова: инженерная графика; компьютерная графика; сапр (cad-программы); практические занятия; проекционное черчение; векторная и растровая графика; визуализация; пространственное воображение; компетентностный подход; инновационные методы; мультимедийные средства; интерактивная учебная среда; 3d-моделирование.

Keywords: engineering graphics; computer graphics; cad software; practical workshops; projection drawing; vector and raster graphics; visualization; spatial imagination; competency-based approach; innovative methods; multimedia tools; interactive learning environment; 3d modeling.

Kirish. Muhandislik va kompyuter grafikasi-hozirgi zamonda texnika, arxitektura, dizayn, kasb-hunarga oid ta'lim sohalarida muhim fan hisoblanadi. Ushbu fan orqali talabalar loyiha chizmalari, texnik hujjatlar, konstruksiya qismlari, diagramma va sxemalarni chizish, tahrirlash va kompyuter vositalari yordamida loyihalash ko'nikmalarini egallashadi.

Fan maqsadi va vazifalari.

Fundamental maqsadi-talabalarni chizma-grafik tili, proyeksiya usullari, ikki va uch o'lchovli diagramma chizish, kompyuter grafikasi dasturlaridan (masalan, AutoCAD, CorelDRAW, SketchUp va boshqa CAD/CAM vositalar) foydalana bilish, hamda ijodiy fikrlash, fazoviy tasavvur, texnik matn va grafik axborotni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Vazifalari qatoriga kiradi:

- Grafik chizmalar va texnik rasm standartlarini o‘rgatish;
- Amaliy ish-tayyorgarlikni kuchaytirish, kompyuter grafikasi dasturlarini integratsiyalash;
- Talabalarni mustaqil ishga, loyihalar va takliflar berishga yo‘naltirish;
- Muammoli masalalar yechimi, kreatiiv va ijodiy usullar orqali dars jarayonini faollashtirish.

Metodik jihatlar.

- Nazariy metodlar: proyeksiya nazariyasi, chizma geometriya, grafik axborotni vizualizatsiya qilish, chizma tahrir va o‘lcham belgilash qoidalari.
- Loyiha asosida o‘qitish metodlar: Tayyorlov bosqichi, amalga oshirish bosqichi, himoya bosqichi
- Innovatsion va interaktiv usullar: pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari, e-o‘quv resurslari, onlayn darslar, video demonstratsiyalar, virtual-va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) metodlari.
- Kompetensiyaviy yondoshuv: fan asosida ko‘nikmalar, bilim, malaka va shaxsiy fazilatlarni o‘zaro bog‘lab shakllantirish.
- Baholash usullari: diagnostik, formatif va summativ baholash, loyihalar va ijodiy ishlar, tekshiruvlar, muloqot va hamkorlik faoliyati orqali baholash.

Loyiha asosida o‘qitish metodining bosqichlari

1. **Tayyorlov bosqichi**-muammo qo‘yiladi, loyiha mavzusi aniqlanadi.
2. **Amalga oshirish bosqichi**-talaba loyiha ustida ishlaydi, grafik chizmalar tayyorlaydi.
3. **Himoya bosqichi**-loyiha natijalari taqdim etiladi va tahlil qilinadi.

Loyihaviy metodning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi	Ko‘p vaqt talab etadi
Amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi	Barcha talabalar faol ishtirok etmasligi mumkin
Ijodkorlikni kuchaytiradi	O‘qituvchi doimiy nazoratni talab qiladi
Real hayotiy muammolarni yechishga tayyorlaydi	Resurs va texnik vositalar yetishmasligi mumkin

LOYIHAVIY METODNING QO‘LLANISH JARAYONI



Keys-stadi bosqichlari

1 Masala (Problem Situation)

- O‘quvchilarga real hayotga yaqin, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyat yoki muammo taqdim etiladi.
- Masala ochiq bo‘lishi kerak, ya’ni bir nechta yechim yo‘li mavjud bo‘ladi.
- Bu bosqichda talabalarda qiziqish uyg‘otiladi va mustaqil fikrlashga undaladi.

2 Tahlil (Analysis)

- Talabalar muammoni turli tomonlardan o‘rganadi.

- Zarur ma'lumotlar yig'iladi (nazariy bilimlar, statistik ma'lumotlar, tajribalar).
- Guruhlar bo'lib ishlash mumkin, bunda hamkorlik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

3 Yechim (Solution)

- Turli variantlar ishlab chiqiladi, muqobil qarorlar taqqoslanadi.
- Har bir yechimning afzallik va kamchiliklari baholanadi.
- Optimal yechim tanlanadi va asoslab beriladi.

4 Taqdimot (Presentation)

- Talabalar tanlagan yechimlarini grafik chizmalar, diagrammalar, taqdimotlar orqali himoya qiladi.
- Guruhlararo munozara bo'lib, qarorlar tanqidiy tahlil qilinadi.
- O'qituvchi umumlashtiradi va eng samarali yechimni ta'kidlab beradi.

Asosiy afzalliklari:

- Real muammolarni hal qilish ko'nikmasini beradi.
- Tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, qaror qabul qilishni rivojlantiradi.
- Nazariya va amaliyotni integratsiya qiladi.

Kamchiliklari:

1 Vaqt ko'p talab etadi

- Har bir bosqich (masala → tahlil → yechim → taqdimot) uzoq vaqtni oladi.
- Qisqa dars mashg'ulotlarida to'liq amalga oshirish qiyin bo'lishi mumkin.

2 Barcha talabalar faol ishtirok etmasligi mumkin

- Guruh ishida ba'zi talabalar passiv qolib ketadi.
- Faol talabalar boshqalardan ustun chiqib, jarayonni to'liq egallashi mumkin.

3 O'qituvchi yuqori tayyorgarlikni talab qiladi

- O'qituvchi dolzarb, real hayotga yaqin masalalarni tanlashi va ularni metodik jihatdan to'g'ri tuzishi kerak.
- Bu ko'p mehnat va vaqt talab qiladi.


4 Resurslar cheklangan bo'lsa, qiyinchilik tug'iladi

- Keys-stadi ko'p hollarda qo'shimcha materiallar, ma'lumotlar bazasi, texnik vositalar (kompyuter, internet, dasturiy ta'minot)ni talab qiladi.
- Hamisha bunday sharoit bo'lavermaydi.

5 Baholash sub'ektiv bo'lishi mumkin

- Guruh ishi va taqdimotlarda baholash ko'p hollarda sub'ektiv bo'ladi.
- Har bir talabaning individual hissasini aniq o'lchash qiyin.

KEYS – STADI METODINING BOSQICHLARI



Muammolar va takliflar.

- Kompyuter va zamonaviy dasturiy vositalar bilan ta'minot yetishmasligi;
- O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, yangiliklardan boxabar bo'lmasligi;
- Oquv reja va dasturlar mazmunining amaliyotga mos kelmasligi;
- Talabalar qiziqishini oshirish, ijodiy va interaktiv metodlarni keng joriy etish zarurati;
- Darslar orasida amaliy va loyiha ishlari bo'lishi, mustaqil va guruhdagi ishlar ko'payishi.

Gamifikatsiya jarayoni–motivatsiya, faollik va natija haqida batafsil ma'lumot:

1. Motivatsiya

- O'quvchilarda o'yin elementlari (ball, reyting, mukofot, badge, level) orqali **darsga qiziqish** uyg'otiladi.
- Darsni "maqsadga erishish yo'li" sifatida qabul qilishadi.
- Ichki motivatsiya (bilim olish zavqi) va tashqi motivatsiya (rag'bat, mukofot) uyg'unlashadi.

2. Faollik

- Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadi, chunki o'z natijalarini darhol ko'rishadi.
- Guruhli musobaqalar, reyting jadvali, tezkor topshiriqlar orqali **raqobat muhiti** yaratiladi.
- O'yin mexanikasi orqali talaba **ko'proq shug'ullanishga** undaladi.

3. Natija

- Dars samaradorligi oshadi, o'quvchilar bilimni tezroq o'zlashtiradi.
- Mustaqil o'rganish va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalari rivojlanadi.
- Talabalarda "dars → mukofot → yangi bosqich" jarayoni orqali **uzluksiz o'sish** mentaliteti shakllanadi.


Afzalliklari:

- Talabalarni darsga jalb qiladi.
- Bilim olishni qiziqarli qiladi.
- Raqobat va hamkorlikni uyg'unlashtiradi.

Kamchiliklari:

- O'yin elementlariga haddan tashqari berilib ketish xavfi bor.
- Mukofotlar bo'lmasa, qiziqish pasayishi mumkin.
- O'qituvchi gamifikatsiyani to'g'ri rejalashtirmasa, dars "o'yin"ga aylanib ketishi mumkin.

GAMIFIKATSIYA JARAYONI



Xulosa. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida loyihaviy metoddan foydalanish, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan baholash tizimi va amaliy mashg'ulotlarning kattaroq ulushi bilan samarali bo'ladi. Agar yuqoridagi omillar to'liq amalga oshsa, talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki professional jihatdan zarur bo'lgan grafik loyihalash va interpretatsiya ko'nikmalariga ega bo'ladilar va talabalarni amaliy faoliyatga

tayyorlashda, ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod yordamida talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanib, real loyihalar ustida ishlash tajribasi orttiriladi shu bilan birga texnika va dizayn sohasida ishga tayyor bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. “Chizmachilik va muhandislik grafikasi darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi” maqolasi, Abduvali B. Muxitdinov. openscience.uz
2. “Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati” maqolasi, Abduvaxob A. Muxitdinov. openscience.uz
3. “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasida innovatsiyalardan foydalanish” maqolasi, Faxriddinov Muhammad Faxriddin o‘g‘li. nauchniyimpuls.com
4. “Muhandislik va kompyuter grafikasi fanining predmeti va usullari” sayti (kompy.info) maqolasi. Компи
5. “Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida kompyuter grafikasi dasturidan foydalanish” (CyberLeninka) maqolasi. КиберЛенинка
6. “Kompetensiyaviy yondoshuv asosida ‘Muhandislik va kompyuter grafikasi’ fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi” maqolasi. КиберЛенинка
7. “Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan pedagogik axborot-kommunikatsion texnologiyalar mazmuni va uning o‘rni” maqolasi.

UDK 378.14.015.62

DUAL TA'LIM: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA KELAJAK

Buzrukov Zakiryo Sattixodjaevich
Namangan davlat texnika universiteti, t.f.n., prof., zsbuzrukov@mail.ru.

Annotatsiya. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida ta'limni tashkil etishning eng yangi shakllaridan biri sifatida qaralayotgan oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim texnologiyasidan foydalanish masalalariga bag'ishlangan.

Ushbu maqolada dual ta'lim texnologiyasining oliy ta'lim tizimi uchun muhandis kadrlarni tayyorlashda universitetlar oldiga qo'yilgan muammolarni hal qilish yo'llari ko'rsatilgan. Dual ta'lim tizimi zamonaviy bozor sharoitida turli faoliyat sohalarida korxonalar tomonidan talab qilinadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beruvchi samarali va moslashuvchan mexanizmdir.

Аннотация. Статья посвящена вопросам использования в учреждениях высщего образования дуальной системы обучения, которая в современном образовании рассматривается как одна из новейших форм организации образования.

В работе показано, что данная технология позволяет решить задачи, поставленные перед техническим вузом по подготовке инженерных кадров для системы высщего образования. Система дуального образования является эффективным и гибким механизмом, позволяющим готовить высококвалифицированных специалистов, востребованных предприятиями различных сфер деятельности в современных рыночных условиях.

Abstract. The article is devoted to the issues of using the dual system of education in higher education institutions, which in modern education is considered as one of the newest forms of educational organization.

The work shows that this technology allows solving the problems set before a technical university in training engineering personnel for the higher education system. The dual education system is an effective and flexible mechanism that allows training highly qualified specialists in demand by enterprises in various fields of activity in modern market conditions.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, duallik, dual tizim, o'quv jarayoni, oliy ta'lim, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim, talabalar.

Ключевые слова: дуальное обучение, дуальность, дуальная система, учебный процесс, высщая образования, производственные предприятия, образование, студенты.

Key words: dual education, duality, dual system, educational process, higher education, manufacturing enterprises, education, students.

Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoq va sohalaridagi keng ko'lamli islohotlar, xususan, ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ta'lim sohasidagi islohotlar orasida oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar asosiy o'rinni egallaydi.

Xususan, Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"da oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, o'qish jarayoniga ilg'or xorijiy ta'lim texnologiyalarini jalb etish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy qilish belgilangan.

Jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy

ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish kabi ustuvor vazifalar ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda nazariy ta'lim bilan bir vaqtda korxona va tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi "Dual ta'lim"-O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 15-moddasida ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritilgan, shuningdek, mazkur qonunning 17-moddasida esa "Dual ta'lim"ni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ham ta'kidlab o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori bilan "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi.

Mazkur Nizomda quyidagi vazifalar nazarda tutilgan:

• dual ta'limning nazariy va amaliy qismi muddatlarini hamkor korxona va tashkilotlar bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilash;

• ta'lim jarayonining nazariy qismidagi talabalar ishtirokini oliy ta'lim tashkilotida tegishli professor-o'qituvchi, ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismidagi ishtirokini esa korxonadan biriktirilgan amaliyot rahbari (ustoz) tomonidan muvofiqlashtirib borish;

• oliy ta'limda "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tashkil etish tartibini belgilash.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-son qaroriga asosan, arxitektura va qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro andozalar asosida transformatsiya qilish, xususan, o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarida o'zaro integratsiyani yanada mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1].

Mazkur qarorda arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish hamda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini mustahkamlash, xususan, mutaxassislik kafedralari tarmoq korxonalari, tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalariga biriktiriladi hamda hamkorlikda professor-o'qituvchilar va iqtidorli yuqori kurs talabalarining amaliy ko'nikmalarini oshirish, tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va ilmiy loyihalardagi ishtiroki kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Iqtisodiyotning faol rivojlanishi o'z ishini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash zaruriyatiga olib keladi. SHu bois so'nggi yillarda dual ta'lim ommalashmoqda.

Dual ta'limning asosiy maqsadi ishlab chiqarishda ishlash uchun asosiy ko'nikmalarni shakllantirgan malakali va bilimli bitiruvchini tayyorlash, oliy ta'lim tizimida dual ta'limning O'zbekiston modelini ishlab chiqishdir.

Oddiy qilib aytganda, dastlabki kunlardanoq ishga kirisha oladigan va uni yuqori professional darajada bajara oladigan mutaxassisni tayyorlash. Bundan tashqari, dual ta'lim muayyan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar uchun ish beruvchilarning buyurtmasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Dual ta'limning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, bitiruvchilarning yuqori foizini ishga joylashtirishni ta'minlaydi, chunki ular ish beruvchining talablariga to'liq javob beradi. Ta'lim olish ishlab chiqarish korxonalarining talablariga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Shunisi e'tiborga loyiqki, eng kichik korxona dual ta'lim ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bilim olish uchun yuqori motivatsiyaga erishiladi, kelajakda ishchining psixologiyasi shakllanadi.

Mutaxassislarga ehtiyoji mavjud bo'lgan korxona dual ta'lim jarayonlarini amaliyotga tatbiq etish uchun ta'lim tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Shuningdek, talaba va ish beruvchi o'rtasida shartnoma, talaba, ish beruvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Shartnomalarda barcha tomonlarning majburiyatlari va moliyaviy sharoitlari ko'rsatiladi.



Dual ta'lim samarali, ammo universal bo'lmagan ta'lim shaklidir. Maqsadlari, qobiliyatlari va hayotiy sharoitlariga qarab, ma'lum toifadagi talabalar uchun idealdir. Keling, dual ta'limdan kimlar foyda olishi mumkinligini aniqlaymiz:

1. Ta'lim oluvchilar va amaliy mehnatdagi kishilar faoliyatini birlashtirmoqchi bo'lganlar uchun. Agar siz uchun nafaqat darsliklardan o'qish muhim bo'libgina qolmay, balki ushbu bilimlarni amaliyotda darhol qo'llash muhim bo'lsa, dual tizimi ajoyib tanlovdir.

2. Amaliy soxadagi kasblar bo'yicha faoliyat olib boruvchi mutaxassislar. Muhandislar, texnologlar, IT mutaxassislari, shifokorlar, avtomexaniklar, oshpazlar-bularning barchasi va boshqa ko'plab kasblardan ishonchli amaliy ko'nikmalar talab qilinadi.

3. O'qishni tugatgandan so'ng darhol ishga joylashmoqchi bo'lganlar. Talaba shunchaki o'qimaydi-u jamoaning bir qismiga aylanadi, ish jarayonlari bilan tanishadi va keyingi ishga joylashish uchun shartnoma imzolash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ish beruvchilar allaqachon ishlab chiqarish sharoitlariga moslashgan va qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lmaganlarni ishga olishga tayyor [2].

Dual ta'limning afzalliklari.

1. Amaliy yo'naltirilganlik. Talabalar olgan bilimlarini darrov xaqiqiy ishlab chiqarishda qo'llaydilar, ta'lim ularning bo'lajak kasbiga imkon qadar yaqin hisoblanadi.

2. O'qishni tamomlagandan keyin ishga joylashish imkoniga ega bo'lish. Dasturda ishtirok etuvchi kompaniyalar ko'pincha talabalarni ishga oladi.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Ko'pgina korxona va tashkilotlar amaliyot uchun stipendiya yoki ish haqi to'laydi.

4. Zamonaviy bilim va malakalarga ega bo'lish. Ta'lim olish zamonaviy texnologiyalar va bozor talablariga asoslanadi-talabalar nafaqat o'quv ustaxonalarida, balki haqiqiy jihozlarda ham ishlaydi.

5. Moslashuvchan dasturlar asosida ishlash. Nazariy va amaliy jarayonni ketma-ket o'zgartirgan holda aniq soxa talablariga ko'ra ta'limni moslashingiz mumkin.

Dual ta'limning kamchiliklari.

1. Kasblarni tanlashning cheklanganligi. Barcha mutaxassisliklar (ko'pincha texniklar, ishchilar, IT soha xodimlari uchun) uchun ham qulay emasligi. Gumanitar va ijodiy kasb egalari bunday dasturlarda kamroq ishtirok etishadi.

2. Ish beruvchiga qaramlik. Agar kompaniya xodimlar sonini qisqartirsa, talaba amaliyot o'rnisiz qolishi mumkin.

3. Yuqori yuklamaning mavjudligi. Talaba o'qishga ham, ishlashga ham ulgurishi kerak.

4. Amaliy ish jarayoni sifati korxona va tashkilotlarga bog'liqlik. Agar kompaniya o'qitishdan manfaatdor bo'lmasa, amaliyot shunchaki yuzaki bo'lishi mumkin.

Albatta, har bir narsaning kamchiliklari bor, shuning uchun dual ta'lim dasturi talabaga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlash uchun biz uning mumkin bo'lgan kamchiliklari bilan tanishishimiz lozim.

Shuningdek, dual ta'limning afzalliklari bilan birgalikda qo'shimcha ravishda, quyidagi kamchiliklarini keltirish muhim:

• universitetlar har doim ham korxona talab qiladigan o'quv materialini o'z vaqtida taqdim etishga ulgurmasligi;

• ish o'rinlarining chegaralanganligi sababli korxonalarning cheklangan miqdordagi mutaxassislarni qabul qilishga tayyor emasligi;

• moliyaviy resurslarning yetishmasligi tufayli tashkilotlar ishlab chiqarayotgan mahsulot tannarxini oshirish orqali dual ta'limni tashkil etish uchun pul mablag'larini ishlashga majbur bo'lishi.

1-jadval

An'anaviy ta'limga nisbatan dual ta'limning afzalliklari

Taqqoslash me'zonlari	**Dual ta'lim olish**	**An'anaviy ta'lim olish**
Ta'limda nimaga erishiladi?	Ta'lim olish vaqtida 60% amaliy bilimga ega bo'ladi.	Ta'lim olish vaqtida 60% nazariy bilimga ega bo'ladi.
Ishlab chiqarish amaliyoti	Ta'lim olish vaqtining 75% gacha qismini egallaydi. Ishlab chiqarish amaliyoti haqiqiy ish sharoitida o'tadi, talaba haqiqiy muammolarni hal qiladi.	Ta'lim olish vaqtining 40% gacha qismini egallaydi. Ishlab chiqarish amaliyoti potentsial ish beruvchilarning talablariga javob bermaydi.
Ta'lim dasturi qanday tuzilgan?	Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartiga, kasbiy standartlarga muvofiq tuzilgan va haqiqiy ish beruvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.	Ta'lim dasturi va o'quv rejasi Davlat ta'lim standartiga muvofiq tuzilgan.
Korxonadagi korporativ madaniyat bilan tanishish	Korxonada haqiqiy korporativ madaniyat bilan tanishish imkonini beradi.	Amaliyotning qisqa muddatliligi hisobiga tashkilotning korporativ madaniyatini tushunishga imkon bermaydi.

Ta'lim olish uchun to'lovlar	Ta'lim olishuchun ish beruvchi tomonidan homiylik qilinadi.	Tijorat yoki byudjet asosida.
Kurs ishlari	Kurs ishining mavzusi, yakuniy malakaviy ishlar, individual loyihalar hamkor korxonaning potentsial ehtiyojlariga yo'naltirilgan.	Kurs ishi va diplom ishlari ko'pincha amaliy ahamiyatga ega emas va rasmiyatchilikdan iborat.
Ustozlik faoliyati	Ustozning faoliyati o'zaro manfaatli hamkorlik sifatida qaraladi va har ikki tomon asosida tartibga solinadi.	Ko'pincha ustozlik juda rasmiyroq holatga ega bo'ladi.

Dual ta'lim dasturining asosiy komponenti korxonadagi amaliyot va universitetdagi nazariy mashg'ulotlar-ma'ruzalar va seminar kurslarining kombinatsiyasi hisoblanadi. Talabalar o'qishning boshidanoq kompaniya bilan mehnat munosabatlarida bo'ladilar: masalan, ular semestr davomida o'qiydilar, semestr oralig'idagi tanaffuslarda esa amaliyot o'taydilar. Yoki amaliyot uchun butun bir semestr yoki hatto ikkitasi ham ajratilishi mumkin.

Ya'ni, dual ta'lim, birinchi navbatda, universitetda o'qish va korxonada ishlash o'rtasidagi o'zaro yaqin munosabat hisoblanadi. Bu, so'zsiz katta afzallik, chunki o'qishni tugatgandan so'ng talaba nafaqat diplomga, balki ish beruvchilar tomonidan juda qadrlanadigan ish tajribasiga ham ega bo'ladi.

Ikki tomonlama ta'lim dasturlarini taklif qiladigan universitet ko'pincha mukammal o'qish sharoitlariga ega bo'lishi kerak. O'quv jihozlari ham zamonaviy, bugungi kun talablariga javob berishi zarur.

Korxonalar–dual ta'lim oluvchilar talablariga to'liq javob beradigan malakali mutaxassislar faoliyat olib boradigan tizim hisoblanadi.

Universitetlar-bitiruvchilarning kafolatlangan bandligi, o'qituvchilar va bitiruvchilar uchun amaliyot o'tash imkoniyati, ijtimoiy sheriklik doirasidagi dasturlarni amalga oshiruvchi ta'lim muassasasidir. Davlat va jamiyat – davlat byudjetini tejash, ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal etish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi yagona tizimdir.

Odatda, o'qitish yoki amaliyot o'tash bilan shug'ullanadigan korxona dastur davomida talabaga ish haqi to'laydi. Bu esa talaba o'qishi uchun to'lanadigan kontrakt to'lovlarini qoplashga birmuncha yordam bo'ladi.

Korxonalar birinchi navbatda malakali yosh kadrlarni tayyorlash va ularni boshidanoq o'z korxonasida saqlab qolish uchun dual ta'lim dasturlarini taklif qilishadi. O'qish davomida hamkor korxona talabaga belgilangan mablag'ni sarflaydi, shuning uchun ular talabalarni o'qishni tugatgandan so'ng korxonada qolishiga qiziqishlari ajablanarli emas. SHu sababli, dual ta'lim bo'yicha talabalar ko'p hollarda o'qishni tugatgandan so'ng ish qidirishlari shart emas. Va bu, albatta, katta yutuq hisoblanadi!

Odatda talaba ikki tomonlama ta'lim dasturini tanlashga qaror qilib, o'qishni yakunlashi zarur. Lekin birinchi semestrdan keyin talaba tanlagan kasbidan qoniqmasa va o'qishni umuman yoqtirmasachi degan savol bo'lishi mumkin. Oddiy talabalar uchun fanlarni o'zgartirish yoki o'qishni tashlab ketish katta muammo emas. Afsuski, dual ta'limda vaziyat biroz boshqacha: bunday hollarda ish beruvchi o'qishdan chetlatilgan davrgacha to'langan to'lovni qaytarishni talab qilishi mumkin. Ayrim holatlarda, bu "dualist" talabalarni, korxona raxbarlari hatto noto'g'ri qaror qabul qilganliklarini bilsalar ham, o'qishni tugatishga majbur qiladilar.

O'zbekistonda dual ta'limni tashkil etish ta'lim muassasalari va korxonalarning hamkorligi

va birgalikda ishlashini nazarda tutadi. Talabalar ta'lim muassasalarida korxona talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi kerak. Buning uchun esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning korxonada malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tishi zarur.

Bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalari dual ta'limni amalga oshirishga tayyor emas. Biroq, amalga oshirish jarayoni ta'lim muassasasi bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'lgan korxonalarni tanlash bilan murakkablashadi.

Universitetlar uchun eng yaxshi variant innovatsion va iqtisodiy rivojlangan korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Bu yerda, kichik bir muammo bor, ya'ni bunday korxonalarning hammasi ham talabalarni o'z qanotlari ostiga olishga tayyor emas.

Ikki tomonlama dual ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun korxona va tashkilotlarni tanlashda universitetlar qanday me'zonlardan foydalanadilar:

- tashkilot faoliyat yuritayotgan profil (u universitetdagi ta'lim yo'nalishiga mos kelishi kerak);
- tashkilotning universitet va talaba bilan dual ta'lim dasturini amalga oshirish doirasida hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma tuzishga tayyorligi;
- ishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning mavjudligi;
- dual ta'limni amalga oshirish uchun sharoitlarning mavjudligi;
- dual ta'lim jarayonida talabalar uchun korxonada ustoz bo'lishga tayyor mutaxassislarning mavjudligi;
- tashkilotning talabaga dual ta'lim uchun ish haqi to'lashga imkoniyatining yetarliligi.

Dual ta'limdan foydalanuvchi xorijiy universitetlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, universitetlarda dual ta'lim turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Darhaqiqat, oliy o'quv yurtlari tijorat korxonalari negizida talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazuvchi kafedralar tashkil etishi maqsadga muvofiq. Asosiysi, tashkilot universitetdagi talabalarning ta'lim profiliga mos kelishi kerak [3].

O'qituvchilar uchun dual ta'lim tizimida ishlashning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

Dual ta'lim professor-o'qituvchilardan dual ta'lim elementlarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy bazasi va imkoniyatlarini, ta'lim dasturini ishlab chiqish tamoyillarini (o'quv rejasi, o'quv fanlari dasturlari, dastur natijalarini baholash usullari) bilishni talab qilinadi.

Qo'shimcha ravishda, dual ta'lim doirasida o'qituvchilar quyidagilarga ega bo'lishlari kerak:

• ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

• ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqish va yuritish;

• ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalarini monitoring qilish va baholash ko'rsatkichlarini aniqlash.

O'quvchilarning o'ziga kelsak, ular maktabdan keyin har doim ham kelajakda egallashi mumkin bo'lgan kasbi xaqida tasavvur qilavermaydi, yoki tanlangan kasb o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishiga shubha qiladi. Agar kishi dual modelga ko'ra o'zi uchun noto'g'ri ish va kompaniya tanlasa, u o'ziga qo'yilgan mablag'lardan foydalanishi kerak bo'ladi. Keyinchalik, bu mutaxassis uchun achinarli bo'lishi mumkin.

Bunday sharoitda o'quvchilar chinakam foydali va zarur bilim olishlari uchun ta'lim tizimini isloh qilish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Ma'lumki, ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni ancha vaqt talab qilishi va muammoni hal qilish uchun ko'plab resurslarni jalb qilish kerak bo'ladi. Ammo, oxir-oqibat hamma talabalar, universitetlar va ish beruvchilar ham ijobiy natijaga erishadi.

Bugungi kunda o'quv yili avvalida ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalar va qilinishi zarur bo'lgan ishlarni quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- har yili tasdiqlangan chora-tadbirlar asosida talabalarni dual ta'lim dasturlari asosida o'qishga jalb etish ishlarini tashkil etadi;
- dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlik yo'lga qo'yilishini hamda kelishilgan o'quv rejasi va o'quv jarayoni jadvali tasdiqlanishini ta'minlaydi;
- talabalarni belgilangan muddatlarda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlaydi;
- oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayoni tashkil etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatadi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda dual ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad, eng avvalo, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida malakali va zamonaviy professional o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarning kasb va mutaxassisliklarga ega bo'lishga qiziqishini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Shunday qilib, dual ta'lim korxonaning malakali xodimlarni o'qitish va tayyorlashda faol ishtirokini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Korxonalarning dual ta'limda ishtirok etishi ijtimoiy mas'uliyatning elementi hisoblanadi, chunki aynan yaxshi tayyorgarlikka ega mutaxassislar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qodir hisoblanadi.

Umuman olganda, universitetda dual ta'lim olish mamlakatimiz rivojlanishining istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ammo shuni tushunish kerakki, dual ta'limning afzalliklariga qo'shimcha ravishda, kamchiliklari ham mavjud bo'lib, u ham bo'lsa korxonalarda yetarli mablag'larni va ish beruvchilar tomonidan yangi talabalarni qabul qilishga qiziqishning yo'qligi hisoblanadi.

Shunday qilib, loyihani amalga oshirishning samarasi aniq. Gap oliy kasbiy ta'lim sohasida mutlaqo yangi usullar haqida bormoqda. Biz kasbiy texnik tayyorgarlikning dual modeli dolzarb va hayotiy ekanligini hamda hududni kompleks innovatsion rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdik.

Muxtasar qilib aytganda, dual ta'lim tizimi asosida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bitiruvchilari o'qishni tugatgandan keyin, nafaqat o'z sohasida mutaxassislik diplomiga ega bo'lishi, balki dual ta'lim jarayoni o'tkazilgan korxona yoki tashkilotlar xususiyatlari hisobga olingan holda har qanday kasbiy vazifalar yoki topshiriqlarni mustaqil hal eta oladigan tayyor kadr bo'lib yetishish imkoniga ham ega bo'lishadi.

ADABIYOTLAR

1. I. Davletov. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida dual ta'lim. O'zbekiston bunyodkori gazetasi. 4.07.2025 yil, №53.

2. Дуальная модел обучения как основа механизма взаимодействия образовательных учреждений и предприятий // Заочные электронные конференции. Режим доступа: http://econf.rae.ru/pdf/2014/09/3687.pdf (дата обращения 21.01.2016).

3. Опыт дуального обучения в Германии, Казахстане, России // Аккредитация в образовании. Режим доступа: http://www.akvobr.ru/opyt_dualnogo_obuchenia.html (дата обращения 21.01.2016).

UO‘T 621.852

TAKOMILLASHTIRILGAN TASMALI UZATMA SIQUVCHI ROLIGINI TASMA VA YETAKLANUVCHI SHKIV ZONASIDAGI TA’SIRINI ANIQLASH VA BIKIRLIGINI HISOBLASHNING MATEMATIK MODELI

Djurayev Anvar Djo‘rayevich
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instiuti professori

Abduvaxobov Dilshod Abduvaxidovich
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, t.f.f.d(PhD)., dotsent

Sodikjanov Axrormirzo Asqar o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

Madraximova Muyassarxon Boqijonovna
Namangan davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada tavsiya etilgan qayishqoq elementli siquvchi roliklari bo‘lgan tasmali uzatmaning kinematik sxemasi va uning ish jarayoni keltirilgan. Analitik usulda tasmali uzatmaning siquvchi roliklari bikirlik koeffitsiyentlarini hisoblash ifodasi asosida uchta siquvchi roliklar qayishqoq elementlari bikirlik koeffitsiyentlarini uzatma parametlariga bog‘liqlik grafiklari qurilgan, ularni tahlili asosida tavsiya etilayotgan tasmali uzatmaning parametrlarini tavsiya qiymatlari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена кинематическая схема рекомендуемой ременной передачи с прижимными роликами с упругим элементом и процесс ее работы. На основе выражения расчета коэффициентов жесткости зажимных роликов ременной передачи аналитическим методом построены графики зависимости коэффициентов жесткости упругих элементов трех зажимных роликов от параметров передачи, на основе их анализа приведены рекомендуемые значения параметров рекомендуемой ременной передачи.

Abstract. The article presents the kinematic diagram of the recommended belt drive with pressure rollers with an elastic element and its operation. Based on the expression for calculating the stiffness coefficients of the clamping rollers of the belt drive using the analytical method, graphs of the dependence of the stiffness coefficients of the elastic elements of the three clamping rollers on the transmission parameters were constructed, and based on their analysis, the recommended values of the parameters of the recommended belt drive were given.

Kalit so‘zlar: tasmali uzatma, shkiv, siquvchi roliklar, qayishqoq element, bikirlik koeffitsiyenti, tortuvchi kuch, taranglik, deformatsiya, ishqalanish, sirpanish, qoplash burchagi.


Ключевые слова: ременная передача, шкив, нажимные ролики, упругий элемент, коэффициент жесткости, тяговое усилие, натяжение, деформация, трение, скольжение, угол перекрытия.

Keywords: belt drive, pulley, pressure rollers, elastic element, stiffness coefficient, traction force, tension, deformation, friction, sliding, overlap angle.

Ma’lumki, tasmali uzatmalar - mexanik uzatmalar turiga kiradi va aylanma harakatni bir valdan ikkinchisiga tasma orqali uzatadi. Ular asosan yetakchi va yetaklanuvchi shkivlar, ularni o‘rab turuvchi tasmadan iborat bo‘lib, tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish kuchi orqali burovchi momentni uzatishga xizmat qiladi. Tasmali uzatamalar tuzilish oddiy, tannarxi arzon, shuningdek, harakatni uzoq masofaga uzatish bilan birga shovqinsiz ishlashi natijasida

mexanizmlarni ortiqcha zo‘riqishdan himoya qilish xususiyatlariga ega. Biroq, harakat davrida tasmaning sirpanishi tufayli uzatish sonini o‘zgarishi natijasida tasmani tez yeyilishiga va cho‘zilishiga hamda val va shkivlarga katta kuch tushishiga olib keladi [1].


Maqolada, biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlar va patent-informatsion materiallar tahlili asosida takomillashtirilgan qayishqoq elementli siquvchi roliklari bo‘lgan tasmali uzatma [2] ning kinematik sxemasi va uning ish jarayoni keltirilgan (1-rasm).



1, 2-yetakchi va yetaklanuvchi shkivlar; 3-tasma; 4, 5, 6-elastik vtulkali siquvchi roliklar;

1-rasm. Takomillashtirilgan tasmali uzatma sxemasi

Tavsiya etilgan tasmali uzatmada yetaklanuvchi shkiv, u bilan kontaktdagi tasmaga siquvchi rolik ta’sir qilib ishqalanish kuchini oshiradi, natijada sirpanish keskin kamayadi. Ushbu ta’sirni ifodalovchi hisob sxema 2-rasmda keltirilgan.



1-yetaklanuvchi shkiv; 2-tasma; 3-siquvchi rolik.

2-rasm. Yetaklanuvchi shkiv, tasma va siquvchi rolik o‘zaro tas’iri hisob sxemasi

Hisob sxemasiga asosan siquvchi rolik siqish kuchi F_c ning ta’siri naijasida tasmaga ta’sir etadi. Natijada tasma va rolik deformatsiyalanadi. Bunda deformatsiyalar asosan qayishqoq elementlarni (tasma, rolik) tiklash kuchlariga mos ravishda bo‘ladi [3, 4], ya’ni

$$\begin{aligned} P_1 &= C_1 \cdot \Delta_1 \\ P_2' &= C_2 \cdot \Delta_2' \\ P_2 &= C_2 \cdot \Delta_2 \end{aligned} \qquad (1)$$

bu yerda P_1' P_2, P_2 - siquvchi rolik 3 va tasma 2 ni tiklash kuchlari;

C_1, C_2 - rolik va tasmani chiziqli bikirlik koeffitsiyentlari;

Δ_1, Δ_2, Δ_2', - tasma va rolikni deformatsiyalanish qiymatlari.

Hisob sxemasiga asosan tasmani tortish kuchi, siquvchi rolik va yetaklanuvchi shkivni tasma bilan ta'sirlashuvidagi ishqalanish kuchlari o'zaro muvozanatda [5, 6] bo'ladi, ya'ni

$$F_{\text{T}} > F_{u_1} + F_{u_2} \tag{2}$$

Keltirilgan (2) shart bajarilganda tasma harakatlanadi. Mos ravishda ishlanish kuchlari [6, 7] ga asosan

$$\begin{aligned} F_{uuu} &= N \cdot f = N \cdot (f_1 + f_2) \\ F_{uuu} &= F_{u_1} + F_{u_2}; \\ N &= Fe - P_1 - P_2 + P_2' + (m_y + m_p)g \end{aligned} \tag{3}$$

bu yerda, f_1, f_2 - ishqalanish koeffitsiyenti;

m_y, m_p - siquvchi rolik va uning o'qi massalari;

g - erkin tushish tezlanishi.

Siquvchi rolik va tasma deformatsiya qiymatlarini aniqlaymiz. Hisob sxemasiga asosan ΔO_1BK va ΔO_1B dan

$$\begin{aligned} \Delta_1 &= r(1-\cos\ \beta); \\ \Delta_2 &= r(1-\cos\ \alpha_1) \end{aligned} \tag{4}$$

Mos ravishda yetaklanuvchi shkiv va tasma ta'siridagi tasmani deformatsiyasi [8] esa quyidagicha bo'ladi

$$\Delta_2' = R_2(1-\cos\ \alpha_2) \tag{5}$$

bu yerda, r, R_2 - siquvchi rolik va yetaklanuvchi shkiv radiuslari;

α_1, β, α_2 - tishlash qamrov burchaklari.

U holda (3) ga asosan [9, 10] :

$$N = F_c - c_1 r(1-\cos\beta) - c_2 r(1-\cos\alpha_1) + c_2 R_2(1-\cos\alpha_2) + (m_y + m_p)g \tag{6}$$

Mos ishqalanish kuchlari va tasmani tortish kuchini inobatga olinganda:

$$F_{\text{T}} \geq (f_1+f_2)F_c - c_1 f_1 r(1-\cos\beta) - c_2 f_1 r(1-\cos\alpha_1) + c_2 R_2 f_2(1-\cos\alpha_2) + (m_y+m_p)(f_1+f_2)g \tag{7}$$

Olingan (7) ifodadan siquvchi rolikning bikirlik koeffitsiyentini hisoblash ifodasini hosil qilamiz. [11]:-

$$c_1 \geq \frac{(f_1+f_2)[F_c + (m_y+m_p)g] - F_{\text{T}} - c_2[f_1 r(1-\cos\alpha_1) - f_2 R_2(1-\cos\alpha_2)]}{f_1 r(1-\cos\alpha_1)} \tag{8}$$

Tavsiya etilgan tasmali uzatma siquvchi rolik bikirligini uzutama parametriga bog'liqligini hisoblash.

Olingan (7) ifodaning sonli yechimini tasmali uzutma parametrlari quyidagi qiymatlarida amalga oshirildi:

$$R_2 = 16\cdot 10^{-2} m;\ f_1 = (0,3 \div 0,35);\ F_c = (5,5 \div 7,5)N;\ \alpha_1 = (8^\circ \div 15^\circ);\ \beta = (10^\circ \div 15^\circ);$$

$$r = 2.5\cdot 10^{-3} m;\ f_2 = (0,15 \div 0,25);\ F_{\text{T}} = (5,5 \div 7,5)10N;\ \alpha_2 = (7^\circ \div 10^\circ);$$

$$m_y = (45 \div 55)\cdot 10^{-3} kg;$$

$$m_p = (10 \div 15)\cdot 10^{-3} kg;\ c_2 = (1,5 \div 2,5)\cdot 10^4\ {}^{N}\!/_{m};$$


Keltirilgan qiymatlarda olingan (8) ning yechimi asosida tavsiya etilgan tasmali uzatma qayishqoq elementlari bo'lgan yetaklanuvchi shkivga ta'sir qismidagi bikirlik koeffitsiyentlarini o'zgarishini uzatma shkivlari va siquvchi roliklar radiuslari, tasma bikrligi, ishqalanish koeffitsiyentlariga hamda siquvchi va tortuvchi kuchlarning nisbatini o'zgarishiga bog'liqlik qonuniyatlari grafiklar shaklida aniqlangan (3, 4, 5, 6-rasmlar). Jumladan 3-rasmda tavsiya

etilgan tasmali uzatma siquvchi roliklarni bikirlik koeffitsiyentlari o‘zgarishi rolik va yetaklanuvchi shkiv radiuslari nisbatiga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan [11-13].

Ularga asosan r/R_2 qiymatlari 0,025 dan 0,15 gacha ortganda birinchi rolik qayishqoq elementli vtulkaning bikirlik koeffitsiyenti mos ravishda $0{,}72\cdot10^4$ N/m dan $0{,}24\cdot10^4$ N/m gacha nochiziqli bog‘lanishda kamayib borgan bo‘lsa, ikkinchi rolikda $0{,}97\cdot10^4$ N/m dan $0{,}42\cdot10^4$ N/m gacha kamayadi. Huddi shuningdek, uchinchi siquvchi rolik bikirlik koeffitsiyenti C_1 ning qiymatlari $1{,}23\cdot10^4$ N/m dan $0{,}53\cdot10^4$ N/m gacha chiziqli bo‘lmagan qonuniyatda kamayib boradi. Tasvirlanganidek siquvchi roliklar qayishqoq elementlari bikirlik koeffitsiyentlariga tasma harakat yo‘nalishida ortib borish tartibida joylashgan bo‘ladi. Ushbu tartibni ta’minlash uchun rolik va yetaklanuvchi shkiv radiuslari nisbati qiymatlari (0,04÷0,06) oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda tavsiya qiymatlari: $C_{11}=0{,}52\cdot10^4$ N/m; $C_{12}=0{,}74\cdot10^4$ N/m va $C_{13}=0{,}96\cdot10^4$ N/m.

Grafiklar tahlilidan ko‘rinadiki, ya’ni mos 1,1′; 2,2′ va 3,3′ grafiklari kesishish nuqtalari deyarli bir nuqtada chiquv joylashgandir.


3-rasmda tasmani bikirlik koeffitsiyentiga bog‘liqlik qonuniyatlari keltirilgan.



1, 2, 3 – $C_1=f(r/R_2)$

1, 1′-birinchi siquvchi rolik uchun; 2, 2′-ikkinchi siquvchi rolik uchun; 3, 3′-uchinchi siquvchi rolik uchun

3-rasm. Tasmali uzatma siquvchi roliklari bikrlik koeffitsiyentlari o‘zgarishi rolik va yetaklanuvchi shkiv radiuslari nisbatiga bog‘liqlik grafiklari



1, 2, 3 – $C_1=f(r/R_2)$

1, 1′ - birinchi siquvchi rolik uchun; 2, 2′ - ikkinchi siquvchi rolik uchun; 3, 3′ - uchinchi siquvchi rolik uchun


4-rasm. Tasmani bikirlik koeffitsiyentiga bog‘liqlik qonuniyatlari

Tahlillarga ko‘ra tasmali uzatma vertikal yo‘nalishdagi chiziqli bikirlik koeffitsiyenti

qiymatlari $0{,}65\cdot10^4$ N/m dan $0{,}11\cdot10^4$ N/m gacha ortganda birinchi siquvchi rolik bikirlik koeffitsiyenti $0{,}75\cdot10^4$ N/m dan $0{,}23\cdot10^4$ N/m gacha nochiziqli bog‘lanishda kamaygan bo‘lsa, ikkinchi rolikda C'_{12} qiymatlari $1{,}1\cdot10^4$ N/m dan $0{,}44\cdot10^4$ N/m gacha kamayadi. Huddi shuningdek, uchunchi rolik bikirligi C_{13} qiymatlari $1{,}41\cdot10^4$ N/m dan $0{,}71\cdot10^4$ N/m gacha chiziqli bo‘lmagan qonuniyatda kamayishini ham ko‘rish mumkin. (4-rasm, 4-grafik).

Demak, roliklarning tavsiya etilgan bikirlik koeffitsiyentlari qiymatlarini ta’minlash uchun tasma chiziqli bikirlik koeffitsiyenti qiymatlarini $(0{,}65\div0{,}91)\cdot10^4$ N/m oralig‘ida tanlash maqsadga muvofiqdir.

5-rasmda roliklar va yetaklanuvchi shkivni tasma bilan ishqalanish koeffitsiyentlari nisbatiga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.




1, 2, 3 – $C_1=f(r/R_2)$

1, 1′ - birinchi siquvchi rolik uchun; 2, 2′ - ikkinchi siquvchi rolik uchun; 3, 3′ - uchinchi siquvchi rolik uchun

5-rasm. Roliklar va yetaklanuvchi shkivni tasma bilan ishqalanish koeffitsiyentlari nisbatiga bog‘liqlik grafigi

Mos ravishda f_1/f_2 qiymatlari 1,1 dan 1,72 gacha ortganda birinchi rolik uchun C_{13} qiymatlari $0{,}245\cdot10^4$ N/m dan $0{,}51\cdot10^4$ N/m gacha nochiziqli qonuniyatda ortib borgan bo‘lsa, ikkinchi rolik uchun C_{13} $0{,}365\cdot10^4$ N/m dan $0{,}89\cdot10^4$ N/m gacha ortsa, uchinchi rolik uchun esa $0{,}52\cdot10^4$ N/m dan $1{,}25\cdot10^4$ N/m gacha ortib borishini ko‘rish mumkin (5-rasm 1, 2, 3-grafiklar). Buning asosiy sababi shundan iboratki, roliklar ketma-ketlikda tasma bilan ishqalanish koeffitsiyentlarini ortib borishi mos rolik bikirliklarini yuqori bo‘lishi kerak bo‘ladi. Roliklar bikirliklari tavsiya qiymatlari (5-rasm, 1′, 2′, 3′ - grafiklar) ta’minlashi uchun $f_1/f_2=(1{,}59\div1{,}64)$ oralig‘ida bo‘lishi (grafiklar kesishish nuqtalari chegaralari) maqsadga muvofiqdir.

6-rasmda Roliklarni siquvchi va tasmani tortish kuchiga nisbatan bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.



1, 2, 3 – $C_1=f(r/R_2)$

1, 1′ - birinchi siquvchi rolik uchun; 2, 2′ - ikkinchi siquvchi rolik uchun; 3, 3′ - uchinchi siquvchi rolik uchun

6-rasm. Roliklarni siquvchi va tasmani tortish kuchiga nisbatan bog‘liqlik grafigi

Tavsiya etilgan tasmali uzatmada siquvchi roliklarni tasmaga siqilish kuchlari tasmaga

tortish kuchiga nisbat qiymatlari 0,5 dan 0,32 gacha ortganda birinchi siquvchi rolik bikrlik koeffitsiyenti qimatlari $0{,}123\cdot10^4$ N/m dan $0{,}51\cdot10^4$ N/m gacha nochiziqli qonuniyatda ortgan bo‘lsa, ikkinchi rolikda $0{,}26\cdot10^4$ N/m dan $0{,}95\cdot10^4$ N/m gacha ortadi. Huddi shuningdek uchinchi siquvchi rolik bikirlik koeffitsiyenti qiymatlari $0{,}481\cdot10^4$ N/m dan $1{,}31\cdot10^4$ N/m gacha chiziqli bo‘lmagan qonuniyatda ortishini ham ko‘rish mumkin (6-rasm 1,2,3-grafiklar). Buning asosiy sababi shundan iboratki, roliklarni tasmaga siqish kuchini ortishi uning deformatsiyasini oshiradi, kontakt zonasi ortadi ishqalanish ko‘payadi. Shuning uchun roliklarni bikirliklarini kamaytirish mumkin bo‘ladi. Roliklar bikirlik koeffitsiyentlari tavsiya qiymatlarini ta’minlash maqsadida F_c/F_T qiymatlari birinchi rolik uchun F_c/F_T =0,32 ikkinchi rolik zonasida F_c/F_T =0,18 hamda uchinchi rolik zonasida F_c/F_T =0,085 bo‘lishi tavsiya etiladi.

Xulosa. Tasmali uzatmani siquvchi qayishqoq elementli roliklari bo‘lgan konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan. Nazariy tadqiqotlar natijasida olingan bog‘lanish grafiklari tahliliga asosan roliklarning ketma-ketlikdagi qayishqoq elementlari tavsiya qiymatlari aniqlangan, tasmali uzatma parametrlari asoslangan.

ADABIYOTLAR

1. М.Н.Иванов. Детали машин, учебник, М.Изд. Высшая школа, с. 124-125.

2. Ременная передача. Патент Рес. Узб., IAP 8195, 2025. / Джураев А., Юнусов С., Абдувахобов Д., Содиканов А., Орибжанов В., Абдувахобов Д. // Расмий ахборотнома. – 2025. № 9(293)

3. S.M.Plekhanov, A.F., Mamatova, D.A.Djuraev, A., Sattarova, L.T., Dikenova, D.B. Justification parametrs of belt transmission with a composition tensional roller with elastic elements// Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii Seriya Teknologiya Tekstil noi Promshyshlennosti 389(5), pp. 99-104, 2020.

4. Djuraev, A., Kuliev, T. Creation of a design and justification of parametrs of a single-stage fiber cleaner// International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), pp. 196-203, 2020.

5. Djuraev A., Kuliev T.M. Improvement of the construction and justification of parametrs of the fibrous material regenerator// International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8 Special Issue), pp. 444-452, 2020.

6. Djuraev A., Kuliev T.M. Designing and methods of calculating parametrs of a fibrous material cleaner from large litter// International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8 Special Issue), pp. 4522-4529, 2020.

7. Djuraev A., Beknazarov J.K., Kenjaboyev Sh.Sh. Development of an effective resource-saving design and methods for calculating the parametrs of gears with compound wheels// International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering 9 (1), pp. 2385-2388, 2019.

8. Behbudov, S.H., Djuraev, A.D., Amanov, A.R., Qodirova, D.X. Teoretiko-experimental method of definition of parameters of the roller with the rubber plug of the device for drawing of the polymeric composition on lines of sewed materials// International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering 9 (1), pp. 2069-274, 2019.

9. Khojiyev, M.T., Djuraev, A.D., Murodov, O.D., Rakhimov, A.K. Development of design and substantiation of the parameters of the separator for fibrous materials// International Journal of Recent Technology and Engineering 8(2), pp. 5806-5811, 2019

10. Djuraev, A., Tashpulatov, D.S., Elmonov, S.M., Plekhanov, A.F., Zhilisbayeva, R.O. Effective technology of natural fiber cleaner from impurities on elastic supports and justification of grate parameters, Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zvedenii, Seriya Teknologiya Tekstilnoi Promyshlennosti, 378 2018-January (6), pp.70-75.

11. Djuraev, A., Tashpulatov, D.S., Elmonov, S.M., Plekhanov, A.F., Zhilisbayeva, R.O. Development of resource-saving technology of a natural fiber cleaner from vegetable impurities and justification of grate prameters on elastic supports// Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zvedenii, Seriya Teknologiya Tekstilnoi Promyshlennosti, 378 2018-January (6), pp.75-79.

12. Korabelnikov, R.V., Mansurova, D.S., Djuraev, A.D., Tadjibaev, Z.Sh. Laying the foundations for the parameters for the flexible connection of lower thread pusher on a double chain-stitch sewing machine// Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zvedenii, Seriya Teknologiya Tekstilnoi Promyshlennosti, (2), pp. 81-83, 2005.

13. Tojiboev, Z.Sh., Djuraev, A.D., Mansurova, M.A., Mansurova, D. Dynamics of a mechanism with flexible connection to the lower thread pusher on a sewing machine// Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zvedenii, Seriya Teknologiya Tekstilnoi Promyshlennosti, (6), pp. 102-104, 2004.

UO‘T 631.316.2

TAKOMILLASHTIRILGAN CHIZEL-KULTIVATORNING TAYANCH TEKISLIGIDAN PASTKI OSISH NUQTALARIGACHA BO‘LGAN TIK MASOFANI UNING ISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Abduvaxobov D. A.
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, t.f.f.d(PhD)., dotsent

Annotatsiya. Maqolada 1,4-2,0 sinfga mansub traktorlar bilan agregatlanadigan takomillashtirilgan tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashina-chizel-kultivatorning konstruktiv sxemasi va uning parametrlari, shuningdek, u tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar asosida olingan natijalar tahlili keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена конструктивная схема и параметры усовершенствованного предпосевного почвообрабатывающего агрегата-чизельного культиватора, агрегатируемого с тракторами тяговых классов 1,4-2,0, а также анализ результатов, полученных на основе экспериментальных исследований по изучению влияния вертикального расстояния от опорной плоскости до нижних точек навески на ее агротехнические и энергетические показатели работы.

Abstrac. This article presents the design and parameters of an improved pre-seeding tillage unit (chisel cultivator) coupled to tractors of traction classes 1.4-2.0, as well as an analysis of the results obtained from experimental studies examining the influence of the vertical distance from the supporting plane to the lower hitch points on its agrotechnical and energy performance.

Kalit so‘zlar: takomillashtirilgan chizel-kultivator, ish organlari, chizel-kultivatorning qamrash kengligi, chizel-kultivatorning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, o‘rtacha kvadratik chetlanish, tortishga qarshilik, harakat tezligi.

Ключевые слова: усовершенствованный чизель-культиватор, рабочие органы, ширина захвата чизель-культиватора, вертикальное расстояние от опорной плоскости чизель-культиватора до нижних точек навески, среднеквадратическое отклонение, тяговое сопротивление, скорость движения.

Keywords: improved chisel cultivator, working tools, chisel cultivator working width, vertical distance from the supporting plane of the chisel cultivator to the lower hitch points, standard deviation, draft resistance, travel speed.

Ma’lumki, yerlarga ekish oldidan ishlov berishda ish unumini oshirish, mehnat va yonilg‘i sarfi hamda boshqa xarajatlarni kamaytirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashinalardan biri chizel-kultivator quyidagi talablar asosida dalalarga ishlov berilishini ta’minlashi kerak, ya’ni:

bahor davrida: kuzgi shudgordan keyin sho‘ri yuvilgan yoki nam to‘plash uchun yaxob suvi berilgan dalalar;

yoz davrida: kuzgi don yig‘ishtirib olinib, shudgorlangandan keyingi dalalar;


kuz davrida: takroriy ekinlar yig‘ishtirib olinib, shudgorlangan dalalar;

lalmi dehqonchilik mintaqalarida bahor, yoz va kuz davrida: turli ekinlardan bo‘shagan va shudgorlangan dalalar [1-3].

Maqolada yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib, paxtachilik, g‘allachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklarida paxta, don va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun yerlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan yuqori ish sifati va unumiga ega 1,4-2,0 sinfga mansub traktorlar bilan agregatlanadigan takomillashtirilgan tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashina -

chizel-kultivator (keying o‘rinlarda chizel-kultivator) ishlab chiqildi hamda ularning belgilangan talablar darajasida ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan parametrlarini asoslangan, shuningdek, chizel-kultivatorning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarda olingan natijalar tahlili keltirilgan [4].

O‘tkazilgan ilmiy-texnik adabiyotlar, patent-informatsion materiallar tahlillari asosida chizel-kultivatorning konstruktiv sxemasi va u bajaradigan texnologik ish jarayoni ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Takomillashtirilgan chizel-kultivatorning konstruktiv sxemasi

1-rasmda keltirilgan chizel-kultivator traktorga osish mexanizmi bilan jihozlangan bo‘lib, ish organlari ramada shaxmat tartibida ikki qator etib joylashtirilgan. Bunda birinchi va ikkinchi qatorlarga qamrash kengligi ega o‘qyoysimon panjalar o‘rnatildi.

Ishlab chiqilgan chizel-kultivatorning texnologik ish jarayoni quyidagi tartibda bajaradi, ya’ni birinchi va ikkinchi qatorlarga o‘rnatilgan ish organlari dastlab tuproqqa ta’sir etib, keyin belgilangan sharoitlarda ishlashini ta’minlash uchun yumshatilgan (yonbosh) zonalarni hosil qilib ketadi va mavjud bo‘lgan palaxsalarga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda ular tomonidan ishlov berilayotgan palaxsalar yonbosh yumshatilgan zonalar tomonga deformatsiyalanadi va buning natijasida energiyahajmdorlik kamayishiga erishilinadi [5]. Shunindek, bu jarayonda ishlov berish chuqurligi tayanch g‘ildiraklar vositasida rostlanib turiladi.

Quyidagilar chizel-kultivatorning ayrim asosiy parametrlari hisoblanadi:

α_{chk} – ish organlarining uvalash burchaklari, °;

$2\gamma_{chk}$ – ish organlari qanotlarining ochilish burchaklari, °;

a_{chk} – ish organlari izlarining kengligi, m;

L_{chk} – birinchi va ikkinchi qatorlarda joylashgan ish organlari orasidagi bo‘ylama masofa, m;

B_{chk}–chizel-kultivatorning qamrash kengligi, m;

H_{1chk}– chizel-kultivatorning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, m.

b_{chk} – birinchi va ikkinchi qatorlarda joylashgan ish organlarining qamrash kengligi, m.


Tuproqqa ishlov berish mashinalari, shu jumladan ishlab chiqilgan takomillashtirilgan chizel-kultivatorning asosiy ish sifat ko‘rsatkichlaridan biri bu tuproqqa ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi (bir tekisligi) hisoblanadi [6]. Qolaversa, mazkur ish sifat ko‘rsatkichini belgilangan talablar bo‘yicha ta’minlanishi natijasida ekilgan o‘simliklarning barqaror rivojlanib boradi va belgilangan vaqtda

hosilga kiradi hamda yuqori hosildorlikka erishilinadi.

Mazkur ko‘rsatkichni nazariy tadqiqotlarda olingan natijalarini tekshirib ko‘rish maqsadida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi [7-10] va uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlandi. Ya’ni, **c**hizel-kultivatorning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa H_1 ni ishlov berish chuqurligi va uning bir tekisligiga hamda tortishga qarshiligiga ta’sirini o‘rganish uchun bu masofa 5 cm interval bilan 50 cm dan 65 cm gacha oraliqda o‘zgartirildi. Bunda agregatning harakat tezligi 6 va 8 km/h, ishlov berish chuqurligi 20 cm, ish organlari izlarining kengligi 200 mm, ish organlari orasidagi bo‘ylama masofa 700 mm etib belgilab olindi.

Tajribalarni o‘tkazishda, chizel-kultivatorning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa H_1 traktor osish mexanizmi pastki tortqilarini qurilmaga ulanish balandligini o‘zgartirish hisobiga o‘zgartirildi. Bunda qurilmaning pastki va yuqori osish nuqtalari orasidagi tik masofa H_2 o‘zgarmas va 610 mm ga teng etib olindi.

Tajribalarning natijalari grafik ko‘rinishda 2-rasmda tasvirlangan.



a) ***b)***


a) mos ravishda agregat harakat tezligi - 6 km/h da; b) mos ravishda agregat harakat tezligi - 8 km/h da

2-rasm. Chizel kultivator tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani ishlov berish chuqurligi (1) va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi(2)ga ta’siri

2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, agregat har ikkala harakat tezligida ham H_1 masofani 50 cm dan 60 cm gacha ortishi ishlov berish chuqurligini ortishiga va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishini kamayishiga olib kelgan, 60 cm dan 65 cm gacha ortishi esa ishlov berish chuqurligi va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishiga deyarli ta’sir ko‘rsatmagan, ya’ni 6 va 8 km/h harakat tezliklarida H_1 masofa 50 cm dan 60 cm gacha o‘zgarganda ishlov berish chuqurligi mos ravishda 15,8 cm dan 19,6 cm ga va 15,5 cm dan 19,2 cm ga ortgan, uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa ±2,54 cm dan ±1,74 cm ga va ±2,57 cm dan ±1,76 cm ga kamaygan, bu masofa 60 cm dan 60 cm gacha ortganda ishlov berish chuqurligi mos ravishda 19,6 cm dan 19,8 cm ga va 19,2 cmdan 19,4 cm ga ortgan, uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi ±1,74 cm dan ±1,70 cm ga va ±1,76 cm dan ±1,73 cm ga kamaygan. Bu shundan dalolat beradiki H_1=50 va 55 cm bo‘lganda qurilma belgilangan chuqurlikka botmasdan va tayanch g‘ildiraklar dala yuzasiga tegmasdan ishlagan, H_1=60 va 65 cm bo‘lganda qurilma belgilangan chuqurlikka botib va uning tayanch g‘ildiraklari dala yuzasiga tegib ishlagan.

3-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, agregat har ikkala harakat tezligida ham H_1 masofani 50 cm dan 65 cm gacha ortishi tortishga qarshiligi ortgan, ya’ni

harakat tezligi 6 km/h bo‘lganda ushbu ko‘rsatkich 7,18 kN dan 9,01 kN ga, 8 km/h bo‘lganda 7,56 kN dan 9,48 kN ga ortgan. Buni ishlov berish chuqurligini ortishi bilan izohlash mumkin.



1- va 2-mos ravishda agregat harakat tezligi 6,0 va 8,0 km/h bo‘lganda

3-rasm. Chizel kultivator tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani тортишга қаршилигига ta’siri

Demak, o‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalar bo‘yicha chizel-kultivatorning ish organi belgilangan chuqurlikka botishi va shu chuqurlikda barqaror, ya’ni ishlov berish chuqurligini o‘gartirmasdan ishlashi uchun uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa kamida 60 cm bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Кленин Н.И., Сакун В.А. Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. – Москва: Колос, 2005. – 671 с.

2. Пахтачилик маълумотномаси. – Тошкент, Fan va texnologiya, 2016. – 540 б.

3. Пахтачилик ва ғаллачилик машиналарини ростлаш ва самарали ишлатиш. – Тошкент: Фан, 2012. – 200 б.

4. Abduvaxobov D.A. Yerlarga ekish oldidan ishlov berish texnologiyalari va takomillashtirilgan texnika vositalari// Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology.– Namangan, Vol. 9 Special Issue 1, 2024. – pp.378-382.

5. To‘xtaqo‘ziyev A. Imomqulov Q.B. Tuproqni kam energiya sarflab deformatsiyalash va parchalashning ilmiy-texnik asoslari. – Toshkent: KOMRON PRESS, 2013. – 120 b.

6. To‘xtaqo‘ziyev A., Nabixo‘jayeva N. Keng qamrovli chizel-kultivatorning ishlov berish chuqurligi bo‘yicha bir tekis yurishini ta’minlash // Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari Respublika ilmiy texnik anjumani. – Jizzax, JizPI, 2021. – B. 299-302.

7. Аугамбаев М., Иванов А.З., Терехов Ю.И. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Ташкент: Укитувчи, 1993. – 336 с.

8. ГОСТ 10677-2001 // Устройство навесное заднее сельскохозяйст-венных тракторов классов 0,6–8. – Минск: Изд-во стандартов, 2002. – 11 с.

9. O‘z DST 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari” // Rasmiy nashr. – Toshkent, 2019. – 52 b.

10. DGU 53517 O‘z.R. IMM. daturiy guvohnoma: 0,9-1,4 sinfga mansub traktorlar uchun takomillashtirilgan chizel-kultivatorning maqbul parametrlarini hisoblash dasturi // To‘xtakuziyev A., Umurzaqov A.X., Abduvaxobov D.A., Rasuljonov A.R., Madrahimova M.B. T. 07.07.2025.chop etilgan

UO‘T 631.314.1

TAKOMILLASHTIRILGAN MOLA-TEKISLAGICHNING TAYANCH TEKISLIGIDAN PASTKI OSISH NUQTALARIGACHA BO‘LGAN TIK MASOFANI UNING ISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Abduvaxobov D.A.
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, t.f.f.d(PhD)., dotsent

Annotatsiya. Maqolada 1,4-2,0 sinfga mansub traktorlar bilan agregatlanadigan takomillashtirilgan tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashina-mola-tekislagichning konstruktiv sxemasi va uning parametrlari, shuningdek, u tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar asosida olingan natijalar tahlili keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена конструктивная схема и параметры усовершенствованного предпосевного почвообрабатывающего агрегата-мола-выравнивателя, агрегатируемого с тракторами тяговых классов 1,4-2,0, а также анализ результатов, полученных на основе экспериментальных исследований по изучению влияния вертикального расстояния от опорной плоскости до нижних точек навески на ее агротехнические и энергетические показатели работы.

Abstract. This article presents the design and parameters of an improved pre-seeding tillage unit (a leveler-mow) coupled to tractors of traction classes 1.4-2.0, as well as an analysis of the results obtained from experimental studies examining the influence of the vertical distance from the supporting plane to the lower hitch points on its agronomic and energy performance.

Kalit so‘zlar: takomillashtirilgan mola-tekislagich, ish organlari, mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, o‘rtacha kvadratik chetlanish, tortishga qarshilik, harakat tezligi.

Ключевые слова: усовершенствованный мола-выравниватель, рабочие органы, вертикальное расстояние от опорной плоскости мола-выравнивателя до нижних точек навески, среднеквадратическое отклонение, тяговое сопротивление, скорость движения.

Keywords: improved leveler-mow, working tools, vertical distance from the leveler-mow support plane to the lower hitch points, standard deviation, draft resistance, travel speed.

Ma’lumki, yerlarga ekish oldidan ishlov berishda ish unumini oshirish, mehnat va yonilg‘i sarfi hamda boshqa xarajatlarni kamaytirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashinalardan biri mola-tekislagich tuprog‘i har xil mexanik tarkibga ega bo‘lgan quyidagi dalalarga ishlov berishi kerak:

bahor davrida: kuzgi shudgordan keyin sho‘ri yuvilgan yoki nam to‘plash uchun yaxob suvi berilgandan keyin chizellangan dalalar;

yoz davrida: kuzgi don yig‘ishtirib olinib, shudgorlangan va chizellangandan keyingi dalalar;


kuz davrida: takroriy ekinlar yig‘ishtirib olinib, shudgorlangan va chizellangandan keyingi dalalar;

lalmi dehqonchilik mintaqalarida bahor, yoz va kuz davrida: turli ekinlardan bo‘shagan va shudgorlangan dalalar.

Maqolada yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib, paxtachilik, g‘allachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklarida paxta, don va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun yerlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan yuqori ish sifati va unumiga ega 1,4-2,0 sinfga mansub traktorlar bilan agregatlanadigan takomillashtirilgan tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mashina–

takomillashtirilgan mola-tekislagich (keying o‘rinlarda mola-tekislagich) ishlab chiqildi hamda ularning belgilangan talablar darajasida ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan parametrlarini asoslangan, shuningdek, mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarda olingan natijalar tahlili keltirilgan [4].

O‘tkazilgan ilmiy-texnik adabiyotlar, patent-informatsion materiallar tahlillari asosida mola-tekislagichning konstruktiv sxemasi va u bajaradigan texnologik ish jarayoni ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Takomillashtirilgan mola-tekislagichning konstruktiv sxemasi

1-rasmda keltirilgan takomillashtirilgan mola-tekislagich osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, tekislaydigan ishchi qism, ya’ni tekislagich va zichlovchi g‘altakmoladan iborat.

Mola-tekislagichning quyidagi tartibda texnologik jarayyoni bajaradi, ya’ni: agregat ish jarayonida mola-tekislagichning tekislagichi ma’lum bir balandlikdagi notekisliklar (do‘ngliklar) ni kesishi hisobiga, dala maydoning notekis, ya’ni pastki qismlariga surishi natijasida ishlov berilayotgan dala maydonining yuza qismini agrotexnika talablari bo‘yicha tekislaydi, g‘altakmola esa tekislagich tomonidan tekislangan dala yuzasini talab darajasida zichlaydi.

Quyidagilar mola-tekislagichning ayrim asosiy parametrlari hisoblanadi:

$D_{mt‘}$ – mola-tekislagich g‘altakmolasining diametri, m;

H_{mt} – mola-tekislagich tekislagichining balandligi, m;

l_{mt} – mola-tekislagich g‘altakmolasining qamrash kengligi, m;

H_{1mt} – mola-tekislagich tekislagichining pastki qismi(nuqtasi)dan uning osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, mm.

L_{mt} – mola-tekislagich umumiy qamrash kengligi, m.

Tuproqqa ishlov berish mashinalari, shu jumladan ishlab chiqilgan takomillashtirilgan mola-tekislagichning asosiy ish sifat ko‘rsatkichlaridan biri mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa va uning barqarorligi (bir tekisligi) hisoblanadi [6]. Qolaversa, mazkur ish sifat ko‘rsatkichini belgilangan talablar bo‘yicha ta’minlanishi natijasida ekilgan o‘simliklarning barqaror rivojlanib boradi va belgilangan vaqtda hosilga kiradi hamda yuqori hosildorlikka erishilinadi.

Mazkur ko‘rsatkichni nazariy tadqiqotlarda olingan natijalarini tekshirib ko‘rish

maqsadida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi [7-10] va uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlandi.

Bunda mola-tekislagich tekislagichining pastki qismidan uning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa 50 cm, tekislagichning balandligi 35 cm, tekislagich va g‘altakmola orasidagi tik masofa 3 cm, g‘altakmolaning diametri 35 cm va o‘zgarmas etib qabul qilindi. Harakat tezligi 6 va 8 km/h ni tashkil etdi.

Bu tajribalarni o‘tkazishda mola-tekislagich tekislagichining balandligi 35 cm, zichlagichining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi 30 ishchi sirtining uzunligi 30 cm va unga beriladigan tik yuklanish 2,4 kN/m ga teng va o‘zgarmas qabul qilindi, uning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa 10 cm interval bilan 40 cm dan 80 cm gacha o‘zgartirildi. Bunga traktor osish mexanizmining bo‘ylama tortqilarini mola-tekislagichning osish qurilma-sida ochilgan teshiklarga ulash nuqtalarini o‘zgartirish orqali erishildi.


O‘tkazilgan tajribalarning natijalari jadval va 2-rasmda keltirilgan. Ular bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani ortishi dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishini kamayishi, tuproqning uvalanish darajasi va zichligini hamda tortishga solishtirma qarshilikni ortishiga olib keladi. Bularning asosiy sababi shuki, mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani ortishi bilan uning tuproqqa bosimi ortadi va ta’sir darajasi kuchayadi;

1-Jadval

Mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Mola-tekislagich-ning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, cm	Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, ±cm	Tuproq fraksiyalarining miqdori, %			Tuproqning zichligi, g/cm^3	Tortishga solishtirma qarshilik, kN/m
		>50 mm	50-25 mm	<25 mm		
Agregatning harakat tezligi, 6 km/h						
40	2,52	14,0	7,3	78,7	1,08	0,90
50	2,09	9,5	8,2	82,3	1,12	1,36
60	1,76	6,8	7,6	85,5	1,16	1,79
70	1,65	4,8	6,9	88,3	1,16	2,18
80	1,62	4,4	5,0	90,6	1,19	2,53
Agregatning harakat tezligi, 8 km/h						
40	2,43	12,6	6,6	80,8	1,05	0,92
50	2,03	8,5	7,4	84,1	1,09	1,41
60	1,68	6,2	6,9	87,0	1,12	1,84
70	1,56	4,3	6,2	89,5	1,13	2,25
80	1,53	3,9	4,5	91,5	1,15	2,61



1-6,0 km/h harakat tezligida; 2-8,0 km/h soat harakat tezligida

2-rasm. Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi (a), tuproqning uvalanish darajasi (b) va zichligi (c) hamda mola-tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi (d) ni uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani ortishi bilan barcha ko‘rsatkichlar parabola qonuniyati bo‘yicha o‘zgargan hamda ushbu masofa ortishi bilan ularning ortish yoki kamayish intensivligi kamaygan, ya’ni ular oldin tezroq, keyin esa sekinroq ortgan yoki kamaygan;

olingan natijalar mola-tekislagichning ish ko‘rsatkichlarini uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofaga bog‘liq ravishda keng oraliqda o‘zgartirish mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Demak, tuproqning turi (yengil, o‘rta, og‘ir), namligi, unga molalashdan oldin qanday chuqurlikka ishlov berilganligi va bunda tuproq qay darajada uvalanganligi(maydalanganligi)ga qarab mola-tekislagichning tuproqqa ta’siri(bosimi)ni unga butun qamrash kengligi bo‘yicha qo‘shimcha yuklar(metal yoki beton ballastlar, qoplangan qum yoki tuproq) qo‘yish yoki ularni olib tashlash yo‘li bilan emas, uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani o‘zgartirish hisobiga rostlash mumkin ekanligini ko‘rsatadi

Demak, o‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalar bo‘yicha

takomillashtirilgan mola-tekislagichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani tajribalar o‘tkazilgan tuproq sharoiti uchun 500-550 mm oralig‘ida tavsiya etish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Кленин Н.И., Сакун В.А. Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. – Москва: Колос, 2005. – 671 с.

2. Пахтачилик маълумотномаси. – Тошкент, Fan va texnologiya, 2016. – 540 б.

3. Пахтачилик ва ғаллачилик машиналарини ростлаш ва самарали ишлатиш. – Тошкент: Фан, 2012. – 200 б.

4. Abduvaxobov D.A. Yerlarga ekish oldidan ishlov berish texnologiyalari va takomillashtirilgan texnika vositalari// Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology.– Namangan, Vol. 9 Special Issue 1, 2024. – pp.378-382.

Ko‘pchitilgan vermikulit bo‘laklari bir-biridan havo qatlamlari bilan ajratilgan 0,02…0,05 mm qalinlikdagi plastinkalardan tashkil topgan bo‘lib, ushbu plastinkalar yirikroq bo‘laklarga birlashadi va o‘zaro tutashib, mayda “garmoshkasimon” shakllarni hosil qiladi. Shuning uchun ham ko‘pchitilgan vermikulitning haqiqiy solishtirma yuzasi boshqa g‘ovak to‘ldiruvchilarnikiga nisbatan ancha katta bo‘ladi. Bu esa sementli bog‘lovchi matritsa bilan mustahkam bog‘lanishni ta’minlaydi.

Mexanik xossalariga ko‘ra, ko‘pchitilgan vermikulit bo‘laklarining siqilishga chidamliligi quyidagicha:

- qatlamlarga perpendikulyar yo‘nalishda-0,15…0,3 kg/sm²**,**
- qatlamlarga parallel yo‘nalishda-0,5…0,9 kg/sm²**.**

Ko‘pchitilgan vermikulitning suv shimuvchanligi zichligi va donadorlik fraksiyasiga qarab massa bo‘yicha 120 % dan 400 % gacha o‘zgaradi. Shuningdek, vermikulit donalarining issiqlik o‘tkazuvchanligi qatlamlar bo‘ylab ularga perpendikulyar yo‘nalishga nisbatan deyarli 2

baravar yuqori bo‘lib, bu uning issiqlikni ushlab qolish xususiyatlarini ta’minlaydi.

Vermikulitning tuzilishi nozik qatlamlanishi, shishgan qatlamlar orasida joylashgan ko‘plab yirik va mayda g‘ovaklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu g‘ovaklar asosan cho‘zinchoq va yopiq shaklda bo‘lib, materialning yengilligi va issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlarini belgilaydi.

Mikrotarkib tahlillari shuni ko‘rsatadiki:

- yirik g‘ovaklar butun kesma maydonining taxminan 30 % ini,
- modda (qattiq faza) egallagan maydon esa 5,5 % ni,
- mayda va juda mayda g‘ovaklar esa 64,5 % ni tashkil etadi.

Shishgan (kengaytirilgan) vermikulit zarrachalari kub shakliga yaqin, g‘adir-budir yuzaga ega bo‘lib, ular qorishma tarkibida tartibsiz joylashadi va bog‘lovchi modda (portlandsement) bilan yaxshi birikadi. Bu xususiyat tufayli, ishlab chiqarishda kamroq sement sarflanadi va hosil bo‘layotgan kompozit materialning mustahkamligi ortadi (2-rasm).

Ko‘pchitilgan vermikulitning issiqlik o‘tkazuvchanligi uning zichligi, harorati, bo‘laklarining o‘lchami hamda issiqlik oqimiga nisbatan joylashish yo‘nalishiga bog‘liq. N.N. Kalyanov ma’lumotlariga ko‘ra, harorat oshishi bilan issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti ortadi, bu esa g‘ovaklar ichida konvektiv issiqlik almashinuvi kuchayishi bilan izohlanadi.


100 °C gacha bo‘lgan haroratlarda mayda fraksiyalarning issiqlik o‘tkazuvchanligi zichligi past bo‘lgan yirik fraksiyalarnikidan yuqori bo‘ladi. Biroq yuqori haroratlarda aksincha — yirik fraksiyalarda konvektiv issiqlik almashinuvi mayda fraksiyalardagiga qaraganda kuchliroq sodir bo‘ladi.

Shu sababli:

- oddiy (past) haroratlarda issiqlik izolyatsiyasi uchun yirik fraksiyali vermikulit,
- yuqori haroratlarda esa mayda fraksiyali vermikulitdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2-rasm. Vermikulitning tuzilishi



3-rasm. Bog‘lovchi modda bilan tutashgan joyda kengaygan vermikulit

Ishning maqsadi ko‘pchitilgan vermikulitdan foydalanib, zichligi past va mustahkamligi bo‘yicha kerakli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan samarali issiqlik izolyatsiyalovchi qorishmalarni olishdan iborat.

Materiallar va usullar. Sinov ishlarini olib borishda xomashyo sifatida solishtirma yuzasi 308 m²/kg bo‘lgan O‘z DSt 1025:2019 bo‘yicha CEM I 42,5N portlandsementi ishlatildi. Ushbu sement O‘zbekiston sement zavodlarida ishlab chiqariladigan, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bog‘lovchi material sifatida tanlandi.

Yengil to‘ldiruvchi sifatida O‘zbekiston hududida mavjud tabiiy gilli jinslarni termik

qayta ishlash orqali olingan kengaytirilgan vermikulit qo‘llanildi. Ushbu vermikulit yuqori g‘ovaklik, past zichlik va katta solishtirma yuzaga ega bo‘lib, issiqlik izolyatsiyalovchi qorishmalar tarkibida samarali to‘ldiruvchi sifatida ishlatiladi.

Vermikulit namunalarining kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, u asosan kremniy, alyuminiy, magniy, temir, kalsiy, kaliy va suv molekulalaridan iborat.

1-jadval

Vermikulitning kimyoviy tarkibi (massa bo‘yicha, %)

SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	FeO	MgO	CaO	Na_2O	K_2O	Boshqalar
43,3	15,3	13,4	2,2	17,4	1,3	0,4	2,6	4,1

Turli tarkibdagi bog‘lovchi kompozitsiyalarni mexanik faollashtirish jarayoni VM-20 rusumli vibratsion (titrash) tegirmonda amalga oshirildi. Tayyorlangan kompozitsiyalarning gidratatsiya jarayonida hosil bo‘lgan mahsulotlari ARL X’TRA Thermo Fisher Scientific rentgen-fazaviy tahlil qurilmasida o‘rganildi.

Bog‘lovchi kompozitsiyalarning mikrostruktura tuzilishi esa yuqori aniqlikka ega TESCAN MIRA 3 LMU rusumli skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida tekshirildi.

Fizik-mexanik xossalarni aniqlash: Bog‘lovchi kompozitsiyalarning zichlik, mustahkamlik va texnologik xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy hujjatlari (O‘z DSt va QMQ) talablariga muvofiq aniqlanadi.

- Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti 150×150×20 mm o‘lchamdagi, doimiy massagacha quritilgan namunalarda o‘lchandi.
- Ushbu sinovlar uchun ITS-1 qurilmasidan foydalanildi.

Asosiy qism Past zichlikka ega issiqlik izolyatsiyalovchi qorishmalarning eng samarali tarkibini aniqlash maqsadida, dastlabki bosqichda turli sement miqdorlariga ega bog‘lovchi kompozitsiyalar tayyorlandi: sement-90%, 80%, 70%, kengaytirilgan vermikulit-10%, 20%, 30%.

Qorishmalarda bir xil plastiklik va shaklni yaxshi ushlab turishni ta’minlash uchun suv-sement nisbati (S/S) o‘zgartirildi: S/S=0,3; 0,35; 0,4.

Tarkibiy komponentlar bir xil sharoitda, 3 litrli idishda 5 daqiqa davomida silkitish orqali qo‘lda aralashtirildi. Olingan yangi qorishmadan 30×30×30 mm o‘lchamli kubsimon sinov namunalar tayyorlandi. Qoliplangan namunalar 20±3 °C haroratdagi normal sharoitda 28 kun davomida saqlanib, to‘liq qotishiga imkon berildi.


28 kunlik saqlash davridan so‘ng, siqilishga chidamlilik sinovlari PGM-100MG4 rusumli gidravlik pressda amalga oshirildi. Bu bosqichda har bir tarkibiy variant bo‘yicha kamida 3 ta sinov namunasining o‘rtacha qiymatlari hisoblandi.

Fizik-mexanik xossalar natijalari va tahlil

Bog‘lovchi kompozitsiyalarning fizik-mexanik xossalarini o‘rganish natijalari (4-rasm) shuni ko‘rsatdiki:

- 90% sement va 10% vermikulit tarkibida tayyorlangan qorishmalar 1094 kg/m³ zichlik va 1,7 MPa siqilishga mustahkamlik ko‘rsatdi.
- S/S=0,35 va S/S=0,3 nisbatlarda tayyorlangan tarkiblar past va juda past plastiklik namoyon etgan. Bu esa suv miqdorining yetarli bo‘lmagani sababli qoliplash jarayonini qiyinlashtirgan.
- Biroq, aynan shu tarkiblar 1048–959 kg/m³ zichlik va 1,2–0,8 MPa siqilishga mustahkamlik qiymatlarini ko‘rsatgan.

Mazkur natijalar shuni tasdiqlaydiki, sement miqdori kamaytirilgan tarkiblar ham yetarli mustahkamlikni ta’minlay oladi, lekin plastiklikni oshirish uchun suv miqdorini me’yoriy darajada tanlash zarur.



Suv-sement nisbati

4-rasm. Turli suv/sement nisbatlarida bog‘lovchi kompozitsiyalarning fizik-mexanik xususiyatlari

Tarkibida 20 % va 30 % kengaytirilgan (ko‘pchitilgan) vermikulit mavjud bo‘lgan bog‘lovchi qorishmalarning zichligi 468–363 kg/m³ oralig‘ida bo‘ldi. Biroq, bunday namunalar pressda siqilishga sinov o‘tkazish uchun yetarli darajada mustahkam emas edi-ular sinovlarga tayyorlash jarayonining o‘zida qo‘lda bosilganda parchalanib ketdi**.**

Shu sababli, keyingi bosqichdagi tadqiqotlarda bunday yuqori (20–30 %) vermikulit miqdoriga ega tarkiblar o‘rganilmadi. Bu esa, yuqori vermikulit ulushi qorishmaning zichligi va mustahkamligini keskin pasaytirishini ko‘rsatadi.

Sement 90 % va vermikulit 10 % nisbatdagi bog‘lovchi kompozitsiyalarni sinovdan o‘tkazish natijalari ularning samarali ishlash imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatdi. Bunda olingan qorishmalar 1094–959 kg/m³ zichlik va 0,8–1,63 MPa siqilishga chidamlilik ko‘rsatkichlarini namoyon etdi.

Biroq, ushbu tarkiblar issiqlik izolyatsiyasi uchun zarur bo‘lgan past zichlikka erishishni ta’minlay olmadi, ya’ni issiqlik o‘tkazuvchanlikni pasaytirish talablari to‘liq bajarilmadi. Shu sababli, eritmaning zichligini pasaytirish bilan birga, yetarli mustahkamlikni saqlab qolishga qaratilgan yangi yechim izlash vazifasi qo‘yildi.

Quruq issiqlik izolyatsiyalovchi aralashma tarkibini tahlil qilish jarayonida uning tarkibiy qismlarining sochilma zichliklari orasida sezilarli farq mavjudligi aniqlandi:

- Portlandsement-1000…1100 kg/m³,
- kengaytirilgan (ko‘pchitilgan) vermikulit-60…100 kg/m³.

Mazkur farq zichligi past, biroq siqilishga yetarli darajada chidamli bog‘lovchi kompozitsiyalarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday kompozitsiyalar keyinchalik past zichlikka ega issiqlik izolyatsiyalovchi qorishmalarni tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin.

Qo‘yilgan maqsadga muvofiq, portlandsement va kengaytirilgan vermikulitning turli nisbatlardagi aralashmalarini VM-20 rusumli tebranma tegirmonda mexanik faollashtirish orqali bog‘lovchi kompozitsiyalar tarkiblari tayyorlandi (2-jadval).

2-jadval

Tebranma tegirmonda tayyorlangan bog‘lovchi kompozitsiyalarning tarkibi va ularning fizik-mexanik xususiyatlari

№	Tegirmonda maydalanish vaqti, min	Tarkibi, % (vermikulit / sement)	Solishtirma yuzasi, m²/kg	Mustahkamlik, MPa (7 sutka)	Mustahkamlik, MPa (28 sutka)	Zichlik, kg/m³
–	0	0 / 100	308	19,2	48,1	2200
1-0	0	10 / 90	308	3,8	9,6	1459
1-1	5	10 / 90	504	14,6	36,4	1620
1-2	10	10 / 90	583	18,2	45,5	1803
1-3	15	10 / 90	597	20,0	50,1	1917
1-4	30	10 / 90	612	23,3	58,2	1933
1-5	40	10 / 90	600	20,4	51,0	1920
2-0	0	20 / 80	275	3,1	7,9	1043

2-1	5	20 / 80	517	11,96	29,9	1510
2-2	10	20 / 80	604	16,0	40,2	1650
2-3	15	20 / 80	612	18,0	45,2	1790
2-4	30	20 / 80	643	20,3	50,9	1881
2-5	40	20 / 80	620	18,6	46,5	1795
3-0	0	30 / 70	275	2,0	5,2	951
3-1	5	30 / 70	546	7,8	19,7	1400
3-2	10	30 / 70	616	11,1	27,8	1530
3-3	15	30 / 70	642	13,6	34,2	1650
3-4	30	30 / 70	722	17,1	42,8	1720
3-5	40	30 / 70	650	14,2	35,5	1665

Vibratsion tegirmonda tayyorlangan barcha bog‘lovchi kompozitsiyalar uchun (5-rasm) maydalash vaqti ortishi bilan solishtirma yuzaning oshishi kuzatiladi. Eng katta o‘sish ayniqsa 10 daqiqagacha bo‘lgan maydalash oralig‘ida qayd etildi.

Biroq, 10–20 % vermikulit saqlovchi kompozitsion bog‘lovchilarda 10 daqiqadan keyin maydalash samaradorligi pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, 30 % vermikulit tarkibli bog‘lovchi kompozitsiyalarda esa solishtirma yuzaning oshishi davom etgan. Bu hodisa vermikulitning genezisi-ya’ni nuragan cho‘kindi jins sifatidagi tabiiy kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda mineral to‘ldiruvchi zarrachalarining yassi plastinkasimon shakli va yumshoq tuzilishi maydalash jarayonida yanada maydalanib ketishini osonlashtiradi.


Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, maydalash davomiyligi haddan tashqari ortganda, mineral to‘ldiruvchining ortiqcha maydalanishi tufayli bog‘lovchi kompozitsiyalar mustahkamligi pasayadi**.** Bu esa**,** kompozitning kristall tuzilmasi shakllanishi uchun zarur bo‘lgan mineral asosning yo‘qolishiga olib keladi.


Turli tarkibli gidratlangan bog‘lovchi kompozitsiyalarning o‘rtacha zichligi va siqilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlari (2-jadval, 6 va 7-rasmlar) vibratsion tegirmonda mexanik faollashtirish jarayonining samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.

- Boshlang‘ich holatda faqat portlandsement (100%) ishlatilganda, gidratatsiyadan so‘ng hosil bo‘lgan materialning zichligi 2200 kg/m³ ni tashkil etdi.
- Qo‘lda aralashtirilgan 90 % portlandsement va 10 % vermikulit tarkibli aralashma esa 1459 kg/m³ zichlikka ega bo‘ldi (1-0 tarkib).
- Ushbu tarkibni 30 daqiqa davomida vibratsion tegirmonda mexanik faollashtirish natijasida zichlik 1933 kg/m³ gacha oshdi (1-4 tarkib).
- Biroq, maydalash davomiyligi 40 daqiqagacha uzaytirilganda, ya’ni 1-5 tarkibda, zichlik 1920 kg/m³ gacha pasaydi.

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, mexanik faollashtirishning optimal davomiyligi 30 daqiqa atrofida bo‘lib, undan keyin zarrachalarning ortiqcha maydalanishi va tuzilmaning bo‘shashishi sababli zichlik pasayadi. Shu bilan birga, bu holat siqilishga mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ham bevosita ta’sir qiladi.

5-rasm. Maydalash davomiyligining bog‘lovchi kompozitsiyalarning solishtirma yuzasiga ta’siri





80 % portlandsement va 20 % vermikulitli aralashmalar


80 % portlandsement va 20 % vermikulit tarkibli gidratlangan bog‘lovchi mpozitsiyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki:

- Qo‘lda aralashtirilgan 2-0 tarkib 1043 kg/m³ zichlikka ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich 1-5 tarkibdagiga nisbatan past bo‘lib, bu holat tarkibdagi portlandsement miqdorining kamayishi bilan izohlanadi.
- 2-1 dan 2-4 gacha bo‘lgan tarkiblarda zichlik 1510 kg/m³ dan 1881 kg/m³ gacha oshdi. Bu o‘sish maydalash (mexanik faollashtirish) davomiyligining 30 daqiqagacha ortishi bilan bog‘liq.
- Biroq, mexanik faollashtirish 40 daqiqagacha uzaytirilganda (2-5 tarkib) zichlik 1795 kg/m³ gacha pasaydi. Bu holat kompozitsiyadagi zarrachalarning ortiqcha maydalanishi va solishtirma yuzaning kamayishi bilan tushuntiriladi.

Tarkibda boshlang‘ich zichligi, mineral tarkibi va tuzilishi har xil bo‘lgan komponentlarning mavjudligi ham bu jarayonni kuchaytiradi.

70 % portlandsement va 30 % vermikulitli aralashmalar

- Qo‘lda aralashtirilgan 3-0 tarkib 951 kg/m³ zichlikka ega bo‘ldi. Bu qiymat vermikulitning g‘ovak tuzilishga ega va sezilarli miqdorda qo‘shilganligi bilan bog‘liq.



- 3-1 → 3-4: mexanik faollashtirish vaqti oshishi bilan o‘rtacha zichlik 1400 kg/m³ dan 1720 kg/m³ gacha barqaror oshdi.
- 3-5 (40 daqiqa): faollashtirish davomiyligi uzaytirilganda o‘rtacha zichlik 1665 kg/m³ gacha pasaydi.

Bu holat 30% vermikulitli tarkibda uzoq maydalashda zarrachalarning ortiqcha maydalanishi va tuzilmaning bo‘shashishi tufayli zichlikning biroz kamayishi bilan izohlanadi (6-rasmga qarang).

Portlandsement va vermikulitning turli nisbatlarda tayyorlangan tarkiblarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, mexanik faollashtirish davomiyligi 30 daqiqagacha bo‘lganida barcha tarkiblarda maksimal zichlikka erishiladi**.** Bu vaqtda bog‘lovchi kompozitsiyalarning eng optimal, ixcham va barqaror tuzilishi shakllanadi**.**

Shuningdek, gidratlangan bog‘lovchi kompozitsiyalarning siqilishga chidamlilik chegarasi (2-jadval) ularning o‘rtacha zichligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib ravishda oshishi aniqlangan. Ya’ni, zichlik ortishi bilan mustahkamlik ham oshadi.

Mexanik faollashtirish, ishlov berish davomiyligiga qarab, faollashtirilmagan aralashmalarga nisbatan 28 kunlik davrda siqilishga chidamlilikni sezilarli oshiradi**:**

- 1-0 tarkib (9,6 MPa) uchun — 3,8–6,1 barobar

- 2-0 tarkib (7,9 MPa) uchun — 3,8–6,5 barobar
- 3-0 tarkib (5,2 MPa) uchun — 3,8–8,2 barobar

Bu natijalar mexanik faollashtirish jarayoni bog‘lovchi kompozitsiyalarning tuzilmasini mustahkamlash orqali zichlik va mustahkamlikni oshiruvchi asosiy omil ekanligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan bog‘lovchi kompozitsiyalarni tebranma (vibratsion) tegirmonda 30 daqiqagacha mexanik ishlov berish orqali faollashtirish, ularning siqilishga chidamlilik chegarasini sezilarli darajada oshiradi.

- 90% portlandsement va 10% vermikulit (1-4 tarkib) uchun siqilishga chidamlilik dastlabki sement ko‘rsatkichlariga nisbatan 20,1% ga yuqori bo‘ldi.
- 80% portlandsement va 20% vermikulit (2-4 tarkib) uchun esa bu ko‘rsatkich 6% ga oshdi.

Shuningdek, mexanik faollashtirish usuli qimmatbaho va energiya talab qiluvchi sement sarfini 10–20% gacha tejash imkonini yaratadi.

Bog‘lovchi kompozitsiyaning issiqlik o‘tkazuvchanligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar esa uning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti 0,06 Vt/(m·K) ga teng ekanligini ko‘rsatdi.


Portlandsement va vermikulit asosidagi bunday bog‘lovchi kompozitsiyalarni ko‘pchitilgan vermikulit to‘ldiruvchisi bilan birgalikda qo‘llash (strukturalar o‘xshashligi qonuniga muvofiq) yuqori issiqlik himoyasi xususiyatlariga va kafolatlangan mustahkamlikka ega issiqlik izolyatsiyalovchi qorishmalar olish imkonini beradi.

1-4 tarkibli gidratlangan bog‘lovchi kompozitsiya va gidratlangan portlandsementning rentgen-fazaviy tahlili


28 kunlik davrda olingan 1-4 tarkibli gidratlangan bog‘lovchi kompozitsiya (9-rasm) va gidratlangan portlandsement (8-rasm) namunalarining rentgen-fazaviy tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- Bog‘lovchi kompozitsiyalar portlandsementga xos bo‘lgan barcha asosiy gidratatsion fazalarni o‘z ichiga oladi:
  - (Ca)OH_2 (d = 4,93; 3,11; 2,63; 1,93; 1,79 Å)
  - CSH (I) (d = 3,04; 2,88; 1,83; 2,78; 1,66 Å)
  - CSH (II) (d = 9,8; 3,04; 2,88; 2,81; 1,84 Å)
  - $3CaO·Al_2O_3·3CaSO_4·32H_2O$ (d = 9,83; 5,62; 4,69; 5,88; 3,48; 3,25; 2,72; 2,55; 2,25; 2,19 Å)
- Bundan tashqari, vermikulitga xos difraksion maksimumlar ham qayd etilgan:
  - (d = 11,38; 4,54; 3,45; 2,66; 2,43; 2,19; 1,70; 1,44 Å)

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, vermikulitli bog‘lovchi kompozitsiyalarda portlandsement asosiy gidratatsion fazalari saqlanib qoladi, shu bilan birga vermikulit zarrachalari gidratatsiya mahsulotlari bilan birgalikda mustahkam karkas hosil qiladi.



28 KUNLIK GIDRATLARGAN BOG’LOVCH KOMPOZITSIYANING DIFRAKTUGRAMMASI




9-r asm. 28 kunlik 1-4 tarkiblli gidratlangan boglovchi kompozitsiyaning difraktogrammasi


1-4, 2-4 va 3-4 tarkibli eng yaxshi bog‘lovchi kompozitsiyalar sement toshlarining 7 va 28 kunlik davrda shakllangan mikrostrukturalarini ko‘rsatadi.

- Struktura shakllanishi: Barcha namunalar g‘ovakli vermikulit to‘ldiruvchisi ishtirokida hosil bo‘lgan ko‘p miqdordagi g‘ovaklar va yaxlit sement tosh strukturasi bilan tavsiflanadi.
- Kristall o‘sishi: G‘ovaklar ichida kalsiy va alyuminiy gidrosilikatlar o‘sib, vermikulit to‘ldiruvchisi bilan kontakt zonalar hosil qiladi.
- Bir tekis kristall tuzilma: To‘ldiruvchi yuzalarida butun hajm bo‘ylab bir tekis tarqalgan kristallogidratlar qatlamlari shakllanadi.
- Davomiy mustahkamlanish: 7 va 28 kunlik mikrotasvirlarda gidroalyuminatlar va gidrosilikatlarning o‘sishda davom etayotganini ko‘rish mumkin, bu esa vaqt o‘tishi bilan mustahkamlik oshib borishini tasdiqlaydi.


Mikroskopik tadqiqotlar natijalari fizik-mexanik sinovlar bilan to‘liq muvofiq keladi.




1-4 tarkibli bog’lovchi kompozitsiyadan olingan sement toshining 7 kunlik va 28 kunlik mikrostrukturasi




2-4 tarkibli bog‘lovchi kompozitsiyadan olingan sement toshining 7 kunlik davrdagi mikrostrukturasi



28 kunlik 2-4 tarkibli bog‘lovchi kompozitsiyadan olingan sement toshining mikrostrukturasi



3-4 tarkibli bog‘lovchi kompozitsiyadan olingan sement toshining 7 kunlik mikrostrukturasi



3-4 tarkibli bog‘lovchi kompozitsiyadan olingan sement toshining 28 kunlik mikrostrukturasi

Xulosa. O‘zbekistonning iqlim sharoitini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bog‘lovchi kompozitsiyalar asosida sement toshi g‘ovak mineral to‘ldiruvchi – vermikulit yordamida fazoviy karkas hosil qilish orqali shakllantiriladi. Vermikulitning yuqori dispersligi tufayli u tarkibda sezilarli hajmni egallaydi va uning yuzasida kalsiy gidrosilikatlar hamda gidroalyuminatlar kristall tuzilmalari shakllanadi. Ushbu jarayonda mayda dispersli vermikulit plastinalarida yangi kristall hosilalar o‘sadi va natijada ikkilamchi karkas hosil bo‘ladi.

Shu tarzda yaratilgan bog‘lovchi kompozitsiya vermikulit to‘ldiruvchisi qo‘shilishi hisobiga g‘ovakli tuzilishga ega bo‘lib, bu O‘zbekistonning yozda juda issiq va qishda sovuq iqlim sharoitida issiqlik o‘tkazuvchanlikni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

Mustahkamligi 58,2 MPa gacha va zichligi 1933 kg/m³ bo‘lgan ishlab chiqilgan bunday bog‘lovchi kompozitsiyalarni qo‘llash, fazoviy yuqori mustahkam karkas hosil qilish orqali issiqlikni yaxshi ushlab turuvchi qurilish qorishmalari olish imkonini beradi. Bu esa O‘zbekistonda qurilayotgan binolarning issiqlikni saqlovchi va yuqori haroratlarga chidamli xususiyatlarini ta’minlaydi hamda energiya tejamkorligi talablariga javob beruvchi zamonaviy qurilish materiallarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov, A. A., & Jo‘rayev, S. S. *Qurilish materiallari texnologiyasi.*-Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. -312 b. (Beton va bog‘lovchi moddalarning xossalari, issiqlik izolyatsiyasi materiallari haqida umumiy ma’lumotlar.)

2. To‘xtayev, O. R., & Sattorov, B. R. *Qurilish materiallari va buyumlari.* -Toshkent: “Toshkent arxitektura-qurilish instituti” nashriyoti, 2020. -280 b. (Yengil betonlar, g‘ovak to‘ldiruvchilar, jumladan vermikulit haqida bo‘lim mavjud.)

3. Usmonov, I. M. *Vermikulit asosida yengil issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallari olish texnologiyasi.* -“O‘zbekiston qurilish muammolari” ilmiy-texnik jurnali, 2021, №3, b. 45–50. (Vermikulitning issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlari, mahalliy xomashyo asosida tadqiqot.)

4. G‘ulomov, R. A., & Xudoyberdiyev, D. N. *Qurilish materiallarida mahalliy xomashyolardan foydalanish imkoniyatlari.* -“Muhandislik va qurilish” jurnali, 2022, №1, b. 15–21. (O‘zbekiston hududida mavjud tabiiy materiallar, jumladan vermikulit zaxiralari haqida.)

5. Normurodov, B. E., & Qo‘ziev, M. Sh. *Energiyani tejovchi issiqlik izolyatsiyalovchi aralashmalar.*-Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2018. -196 b. (Issiqlik izolyatsiyalovchi kompozitsiyalar, ularning fizik-mexanik xossalarini oshirish yo‘llari.)

UDK: 625.7.084:667.6

AVTOMOBIL YO‘LLARIDA CHIZIQLARNI BO‘YASH TEXNOLOGIYALARIDA QO‘LLANILADIGAN BO‘YOQLAR: XUSUSIYATLARI VA SAMARADORLIGI

Mahmudov Sanjarbek Toxirjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti stajyor-o‘qituvchi, msanjarbek1003@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada avtomobil yo‘llarida chiziqlarni bo‘yash texnologiyalarida qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning asosiy turlari, ularning fizik-mexanik xususiyatlari va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda chiziq belgilari muhim ahamiyat kasb etishi sababli, bo‘yoqlarning yorqinligi, chidamliligi, ekologik xavfsizligi va iqtisodiy jihatlari alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va zamonaviy innovatsion bo‘yoqlar bilan milliy amaliyot o‘rtasidagi solishtirma tahlillar keltirilib, yo‘l qurilishida foydalanish uchun samarali yechimlar taklif etilgan.

Аннотация. В статье анализируются основные виды красок, применяемых в технологиях дорожной разметки, их физико-механические свойства и практическая эффективность. Поскольку дорожная разметка играет важную роль в обеспечении безопасности дорожного движения, отдельно рассматриваются яркость, долговечность, экологическая безопасность и экономические аспекты красок. Также представлен сравнительный анализ международного опыта и современных инновационных красок с отечественной практикой, а также предложены эффективные решения для использования в дорожном строительстве.

Abstract. This article analyzes the main types of paints used in road marking technologies, their physical and mechanical properties and practical effectiveness. Since road markings play an important role in ensuring road safety, the brightness, durability, environmental safety and economic aspects of paints are considered separately. Also, comparative analyses of international experience and modern innovative paints with national practice are presented, and effective solutions for use in road construction are proposed.

Kalit so‘zlar: yo‘l chiziqlari, bo‘yoqlar, bo‘yash texnologiyalari, yo‘l belgisi, chidamlilik, yorqinlik, samaradorlik, ekologik xavfsizlik, xalqaro standartlar, innovatsion materiallar.

Ключевые слова: дорожная разметка, краски, технологии окраски, дорожная разметка, долговечность, яркость, эффективность, экологическая безопасность, международные стандарты, инновационные материалы.

Keywords: road markings, paints, painting technologies, road markings, durability, brightness, efficiency, environmental safety, international standards, innovative materials.

Kirish. Avtomobil yo‘llarida chiziqlarni belgilash va ularni sifatli bo‘yoqlar yordamida bo‘yash yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Yo‘l belgilarining aniq va ravshan ko‘rinishi haydovchilar hamda piyodalar uchun yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bois yo‘l chiziqlarini belgilashda qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning tarkibi, chidamliligi, yorqinligi va ekologik xavfsizligi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Avtomobil yo‘llarini rivojlantirishni jadallashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4303-sonli qaror (2019-yil 30-aprel)da ham avtomobil yo‘llarida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yo‘l-transport infratuzilmasini xalqaro talablarga moslashtirish hamda xavfsizlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur talablar yo‘l qurilishi va ta’mirlash jarayonida qo‘llaniladigan materiallar,

xususan, yo‘l chiziqlarini belgilashda ishlatiladigan bo‘yoqlarni yangilash va takomillashtirishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yo‘l chiziqlarini bo‘yash texnologiyalarida qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning xususiyatlari va samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Yo‘l chiziqlarini bo‘yash texnologiyalarida qo‘llaniladigan bo‘yoqlar masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Yevropa va AQShda olib borilgan tadqiqotlarda yo‘l belgilarining yorqinligi, kechasi qaytuvchanlik xususiyati (retroreflektivlik) hamda uzoq muddatli chidamliligi asosiy mezon sifatida baholanadi (Smith J., 2018; EuroRAP, 2020). Xalqaro yo‘l federatsiyasi (IRF) hisobotlarida esa bo‘yoqlarning ekologik xavfsizligi va atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Rossiya va Qozog‘iston olimlarining izlanishlarida esa termoplastik va sovuq plastik asosidagi bo‘yoqlarning iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, yuqori harorat va yog‘ingarchilikka chidamliligi tadqiq etilgan (Ivanov A., 2019; Sarsembayev K., 2021).

O‘zbekiston olimlarining ishlanmalarida (T. Abdullayev, 2022; Yo‘l ilmiy-tadqiqot instituti materiallari) mahalliy iqlim sharoitida qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning xizmat muddati, narxi va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Ayniqsa, PQ–4303-son Prezident qaroridan kelib chiqqan holda yo‘l qurilishida zamonaviy, xalqaro standartlarga mos materiallardan foydalanish dolzarb masala sifatida ta’kidlanadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bo‘yoqlarning turli hududlarda samaradorligi, chidamliligi va iqtisodiy foydasi bo‘yicha umumiy metodik yondashuv mavjud bo‘lsada, mahalliy sharoitga mos keladigan maxsus yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Ushbu tadqiqotda avtomobil yo‘llarida chiziqlarni bo‘yash texnologiyalarida qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning xususiyatlari va samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqildi.

Metodologik yondashuv quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

a) **Nazariy tahlil**–xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, O‘zDSt va ISO standartlari) o‘rganildi.

b) **Tasniflash**–bo‘yoqlar turlari (termoplastik, sovuq plastik, suv asosidagi va boshqa innovatsion bo‘yoqlar) xususiyatlariga ko‘ra guruhlandi.

c) **Eksperimental tahlil**–bo‘yoqlar namunalarini laboratoriya sharoitida quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinovdan o‘tkazish:

- Yorqinlik va retroreflektivlik darajasi;
- Harorat va namlik ta’siriga bardoshliligi;
- Ekologik xavfsizlik ko‘rsatkichlari.

d) **Amaliy kuzatuv**–yo‘llarning turli uchastkalarida qo‘llanilgan bo‘yoqlarning xizmat muddatini, qayta bo‘yash oralig‘ini va iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish.

e) **Taqqoslash va tahlil** – mahalliy amaliyot natijalari xalqaro tajribalar bilan qiyoslanib, samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi.


Mazkur metodologiya asosida bo‘yoqlarni ilmiy baholash va yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda eng maqbul materiallarni tanlash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot jarayonida yo‘l chiziqlarini bo‘yashda qo‘llaniladigan turli bo‘yoqlar–termoplastik, sovuq plastik, suv asosida va eko-bo‘yoqlar–o‘zaro taqqoslab tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda ularning asosiy ko‘rsatkichlari 1-rasmda berilgan:

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, **termoplastik bo‘yoqlar** eng yuqori yorqinlikka (250 cd/lx/m²) ega bo‘lib, bu ularni tungi haydovchilik sharoitida eng samarali qiladi. Suv asosidagi bo‘yoqlar esa eng past yorqinlikka ega.


Termoplastik bo‘yoqlar o‘rtacha **36 oy**gacha xizmat qilsa, sovuq plastik **30 oy**, suv asosida qo‘llaniladigan bo‘yoqlar esa atigi **12 oy**dan keyin qayta bo‘yashni talab qiladi. Bu esa

iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan muhim farqni ko‘rsatadi.




1-rasm. Bo‘yoqlarning yorqinligini taqqoslanishi.

Bo‘yoqlarning xar xil ob-xavo sharoiti va texnik omillarga chidamlilik ko‘rsatkichlari esa quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Bo‘yoqlarning chidamliligini taqqoslash.

Taqqoslashdan ko‘rinadiki, suv asosidagi bo‘yoqlar narx jihatdan eng arzon bo‘lsa-da, ularning chidamliligi past. Buni quyidagi infografikada ko‘rish mumkin(3-rasm).



3-rasm. Bo‘yoqlarni xarajat va ekologik xavfsizlik jihatdan taqqoslanishi

Eko-bo‘yoqlar o‘rtacha xarajat talab qilsada, ekologik xavfsizlik bo‘yicha eng yuqori ball (5)ga ega. Bu ularni kelajakda atrof-muhitga zarar keltirmasdan keng qo‘llash imkonini beradi.

Termoplastik bo‘yoqlar–chidamlilik va yorqinlik jihatdan eng yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qildi, biroq xarajat jihatidan eng qimmat hisoblanadi.

Sovuq plastik bo‘yoqlar–chidamlilik va iqtisodiy jihatdan optimal yechim bo‘lishi mumkin.

Suv asosidagi bo‘yoqlar – arzon narxiga qaramay, xizmat muddati qisqaligi sababli uzoq muddatli foydalanishda samarasizdir.

Eko-bo‘yoqlar–ekologik xavfsizlik jihatidan ustun, kelajakda “yashil yo‘l qurilishi” konsepsiyasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtomobil yo‘llarida chiziqlarni bo‘yash texnologiyalarida qo‘llaniladigan bo‘yoqlar turlicha samaradorlik ko‘rsatib bunda **Eko-bo‘yoqlar**–ekologik xavfsizlik bo‘yicha yetakchi bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilishda istiqbolli hisoblanadi. Umuman olganda, bo‘yoqlarni tanlashda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki xavfsizlik va ekologik talablarga ham e’tibor qaratish zarur bo‘lib, bunda quyidagi amaliy tavsiyalarni inobatga olinsa jarayon yanada samarali kechadi:

1. Shahar markazlari va magistral yo‘llarda yuqori yorqinlik va chidamlilikka ega bo‘lgan termoplastik bo‘yoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.
2. Viloyat va tuman darajasidagi ikkinchi toifadagi yo‘llar uchun iqtisodiy va chidamlilik jihatidan maqbul bo‘lgan sovuq plastik bo‘yoqlar qo‘llanishi mumkin.
3. Past transport oqimiga ega yo‘llarda arzon bo‘yoqlar – suv asosidagi bo‘yoqlar qisqa muddatli yechim sifatida ishlatilishi mumkin.
4. Ekologik toza hududlar (turistik zonalar, tabiat qo‘riqxonalari, shahar ichidagi ekologik hududlar)da eko-bo‘yoqlardan foydalanish tavsiya etiladi.
5. Bo‘yoqlarning xizmat muddatini uzaytirish uchun mexanizatsiyalashgan bo‘yash texnologiyalarini keng joriy etish va sifat nazoratini kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Мухаммаджонов А., Махмудов С. определение эластичности и температуры размягчения мастики, применяемой на автомобильных дорогах //экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – с. 776-780.
2. Махмудов С. Т. у., Мухаммадюсуф Э., угли т. пути совершенствования системы подготовки конкурентоспособных специалистов-дорожников //механика и технология. – 2022. – т. 1. – №. 6. – с. 187-194.
3. Toxirjon o‘g‘li M. S. avtomobil yo‘llarida tirbandliklarni hosil bo‘lish sabablari va uni bartaraf etish choralari avtomobil yo‘llarida tirbandliklarni hosil bo ‘lish sabablari va uni bartaraf etish choralari: avtomobil yo‘llarida tirbandliklarni hosil bo ‘lish sabablari va uni bartaraf etish choralari avtomobil yo‘llarida tirbandliklarni hosil bo‘lish sabablari va uni bartaraf etish choralari. – 2023.
4. Mahmudov S. avtomobil yo‘llari chorrahalarida xavfsiz harakatni tashkil etish: avtomobil yo‘llari chorrahalarida xavfsiz harakatni tashkil etish. – 2023.
5. o‘g‘li M. S. T. et al. shaharlar ko‘cha va yo‘llarida yuzaga kelayotgan tirbandliklarning sabablari va ularni bartaraf etishning samarali usullari //строительство и образование. – 2023. – т. 4. – №. 5-6. – с. 321-325.
6. Mahmudov S., Tolliboyeva M. qumli hudularda avtomobil yo‘llarini loyihalashning xususiyatlari: qumli hudularda avtomobil yo‘llarini loyihalashning xususiyatlari. – 2023.
7. Makhmudov S.Tt. advantages of the wide use of geotextile materials in the construction of road surfaces //экономика и социум. – 2023. – №. 6-2 (109). – с. 260-263.
8. Mahmudov S. T. avtomobil yo‘llarini qurishda atrof-muxitni ko‘kalamzorlashtirish //механика и технология. – 2021. – т. 4. – №. 5. – с. 124-127.

UO‘K: 621.742

PO‘LATDAN MURAKKAB SHAKLLI QUYMALARNI VAKUUM QOLIPIDA OLISH TEXNOLOGIYASI

Xusanov Doniyor
Namangan davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti, doniyorbekxusanov77@gmail.com

Kenjaboyev Shukurjon Sharipovich
Namangan davlat texnika universiteti, t.f.d., professor

Nishanov Botirjon Muxammadjonovich
Namangan davlat texnika universiteti, t.f.f.d., dotsent

Babayev Narimon Otabayevich
Namangan davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi

Eshimov Doston Tulqin o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Vakuum qolipida quyish jarayoni-bu maxsus quyish usuli bo‘lib, unda polimer ko‘pikdan tayyorlangan qolip sifatida olovbardosh qoplamali andozalar qo‘llaniladi. Ushbu ishda to‘rt turdagi modellardan: kengayuvchi polietilen, kengayuvchi polipropilen va kengayuvchi polistirol modellari ikki xil zichlikda namuna materiali sifatida ishlatildi. Har ikkala quyish jarayoni 1580 °C da amalga oshirildi. Kimyoviy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, uglerod bilan ifloslanish darajasi yuqori bo‘lib, bu namuna turiga bog‘liq hisoblanib. Metallografik tadqiqotlar barcha yonuvchan model namunalarda perlit fazasining ulushi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Ishlab chiqarilgan namunalar zichligi hisoblab chiqildi va mahsulotlarning g‘ovaklik darajasi baholandi. Aniqlanishicha, yonuvchan model namunalarining zichligi qum qolipida quyilgan taqqoslama namunaga (RS) nisbatan pastroq bo‘lgan. Shuningdek, Vickers qattiqlik sinovlari ham o‘tkazildi va uglerod miqdori oshishi bilan qattiqlik qiymatlarida ortish kuzatildi.

Аннотация. Процесс литья в вакуумную форму-это специальный метод литья, при котором в качестве моделей используются полимерные пенопласты с огнеупорным покрытием. В данной работе в качестве модельного материала применялись четыре типа моделей: вспененный полиэтилен, вспененный полипропилен и вспененный полистирол в двух различных плотностях. Оба процесса литья проводились при температуре 1580 °C. Результаты химического анализа показали, что степень загрязнения углеродом была высокой и зависела от типа модели. Металлографические исследования выявили, что во всех образцах с выгораемыми моделями доля перлитной фазы значительно возросла. Была рассчитана плотность полученных образцов и оценена пористость изделий. Установлено, что плотность образцов с выгораемыми моделями была ниже по сравнению с контрольным образцом (RS), отлитым в песчаную форму. Кроме того, были проведены испытания на твердость по Виккерсу, которые показали увеличение значений твердости с ростом содержания углерода.

Abstract. The vacuum mold casting process is a special casting method in which polymer foam patterns with refractory coatings are used as molds. In this study, four types of patterns were used as the sample material: expanded polyethylene, expanded polypropylene, and expanded polystyrene with two different densities. Both casting processes were carried out at

1580 °C. The results of chemical analysis showed that the level of carbon contamination was high and depended on the type of pattern. Metallographic investigations revealed that in all expendable pattern samples, the fraction of the pearlite phase significantly increased. The density of the produced samples was calculated and the porosity of the products was evaluated. It was found that the density of expendable pattern samples was lower compared to the reference sample (RS) cast in a sand mold. In addition, Vickers hardness tests were conducted, and an increase in hardness values was observed with increasing carbon content.

Ko‘lit so‘zlar: vakuum qolip, metall, quyish, po‘lat, quyma, zichlik, kvars qum, induksion pech.

Ключевые слова: вакуумная форма, металл, литьё, сталь, отливка, плотность, кварцевый песок, индукционная печь.

Keywords: vacuum mold, metal, casting, steel, casting product, density, quartz sand, induction furnace.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi–po‘lat quyma mahsulotlarini vakuum qolipida yonuvchan (ko‘pik asosidagi) modellardan foydalanib olish texnologiyasini o‘rganish, turli model materiallari (EPS, EPE, EPP) va ularning zichligi quyma mahsulotlarning kimyoviy tarkibi, mikrostrukturasi, zichligi hamda qattiqlik xossalariga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdir.

Usullar.

- Tadqiqotda kengaytiriladigan polistirol (EPS-1, EPS-2), kengaytiriladigan polietilen (EPE) va kengaytiriladigan polipropilen (EPP) modellari ishlatildi.
- Modellar olovbardosh bo‘yoq bilan qoplandi, kvars qumida joylashtirildi va vakuum qolip tayyorlandi.
- Kam uglerodli po‘lat induksion pechda eritilib, 1580 °C da quyildi.
- Kimyoviy tahlillar optik emissiya spektrometri yordamida 5 marotaba takrorlanib o‘tkazildi.
- Metallografik tahlillar Nikon Eclipse MA100 mikroskopida olib borildi.
- Zichlik Arximed qonuni asosida Precisa zichlik o‘lchagichi yordamida aniqlandi.
- Qattiqlik Brinell usulida o‘lchandi.
- Solishtirma ma’lumot olish uchun yashil qum qolipida ham nazorat namunasi quyildi.

Natijalar.

- Yonuvchan modeldan foydalanilganda, quyma tarkibida uglerod miqdori ortib ketishi aniqlandi. EPE namunasi bundan mustasno, qolgan modellarda C miqdori ASTM standarti bo‘yicha ruxsat etilgan chegaradan yuqori bo‘ldi.
- Metallografik tadqiqotlar barcha yonuvchan modellarda perlit fazasining ulushi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.
- Yonuvchan model asosida olingan namunalar zichligi nazorat namunasi (RS)ga nisbatan pastroq bo‘ldi.
- Uglerod miqdorining oshishi qattiqlik qiymatlarida ortish bilan bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Xulosa.

- Yonuvchan model texnologiyasi murakkab shaklli quyma olish imkonini beradi, biroq model materialidan uglerod ifloslanishi muammosi kuzatildi.
- EPE materiali tarkibiy talablarni qondirgan yagona model bo‘ldi, ammo undagi uglerod miqdori ham maksimal ruxsat etilgan chegaraga yaqinlashdi.
- Yonuvchan modeldan foydalanishda mikrog‘ovakliklar hosil bo‘lib, mahsulot zichligini pasaytirishi aniqlandi.
- Uglerod miqdoriga mutanosib ravishda qattiqlik ortdi, bu esa materialning mexanik

xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

KIRISH

Metall quyish texnologiyasi mashinasozlik, energetika, neft-gaz sanoati va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, yuqori mustahkamlik, issiqqa chidamlilik va murakkab shakl talab qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda po‘lat quymalar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi [1, 2]. Oddiy qoliplash usullarida murakkab shaklli detallarni yuqori sifatda olish qiyin bo‘lgani uchun so‘nggi yillarda vakuum qoliplash texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda.

TADQIQOT USULLARI

Taxminan 100 × 40 × 35 mm o‘lchamdagi turli zichlikka ega polipropilen namunadan, 26 × 52 × 46 mm atrofidagi quyish qismlari bilan termoplastik namuna yopishtirgichi yordamida birlashtirildi [3, 4]. Shundan so‘ng, penopolistrol namunalar quyish jarayonida qum yemirilishining oldini olish maqsadida suyuq holatdagi olovbardosh bo‘yoqqa botirilib, qoplandi va xona sharoitida 24 soat davomida quritildi. Foydalanilgan namuna materiallari va ularning hisoblangan zichliklari 1-jadvalda keltirilgan. Zichlik o‘lchovlari Precisa zichlik o‘lchagichi yordamida aniqlandi. Birlashtirilgan namuna qismlarini 1-rasmda ham ko‘rish mumkin [5].

1-jadval

Turli model materiallari uchun o‘lchangan zichliklar

Polipropilin namuna	Zichlik (kg/m³)
Kengaytiriladigan polistirol 1 (EPS-1)	10.90
Kengaytiriladigan polistirol 2 (EPS-2)	23.24
Kengaytiriladigan polietilen (EPE)	35.60
Kengaytiriladigan polipropilen (EPP)	22.44



1-rasm. Birlashtirilgan, qoplangan va quritilgan model qismlari

Qolip tayyorlashda ishlatilgan namunalar pastki qismidan ma’lum balandlikkacha bo‘sh, quruq kvars qumi (40–47 AFS) bilan to‘ldirildi. So‘ngra modellari joylashtirildi va namuna butunlay bo‘sh [6, 7], quruq kvars qumi bilan to‘ldirildi. Tayyorlangan qolip namunasi 2-rasmda keltirilgan.

Kam uglerodli po‘lat induksion pechda eritilib, 1580 °C da quyildi. Suyuqlangan metallning kimyoviy tarkibi 2-jadvalda keltirilgan. Turli xil model turlarining yakuniy quyma mahsulotning turli xossalariga ta’sirini baholash maqsadida, ma’lumot sifatida yashil qum qolipida xuddi shu haroratda quyilgan namunaviy qolip tayyorlandi [8]. Qotgandan so‘ng namunalari qolipdan chiqarildi va tavsiflash bosqichlari uchun 3-rasmda ko‘rsatilganidek uch xil

zonadan kesib olindi.



2-rasm. Quyish jarayoni uchun tayyorlangan qolip

Barcha namunalar turli xil quyma mahsulotlar yoki har bir namunadagi turli qismlar o‘rtasidagi tarkibda o‘zgarish yuz berganligini aniqlash uchun optik emissiya spektrometri (Oxford Instruments Foundry-Master Pro) yordamida kimyoviy tahlildan o‘tkazildi. Kimyoviy tahlillar 5 marta takrorlandi va o‘rtacha kimyoviy tarkiblar aniqlandi. Murakkab quyma mikrostrukturani mayda qilib yaxshilash maqsadida, quyma mahsulotlar uchun standart jarayon hisoblangan normallashtirish issiqlik bilan ishlov berish barcha namunalar uchun qo‘llandi.


2-jadval


Suyuq metallning kimyoviy tarkibi (massa %)

C	Si	Mn	P	Cu	Ni	Cr	Mo	Fe
0.204	0.6	0.872	0.15	0.3	0.5	0.221	0.056	97.7

Namunalar silliqlanib, jilolangan va 2% li nital eritmasi bilan o‘yib ko‘rsatildi. Metallografik tadqiqotlar Nikon Eclipse MA100 yorug‘lik mikroskopida olib borildi; perlit/ferrit nisbati va g‘ovakliklarning ekvivalent diametrlari NIS-Elements Br dasturi yordamida aniqlandi [9]. Keyinchalik, namunalarning zichligi Precisa zichlik to‘plami yordamida Arximed qonuniga asosan belgilandi. Namunalarning qattiqlik qiymatlari esa Brinell qattiqlik usuli orqali 2,5 mm shar diametri va 187,5 kgk yuklama bilan o‘lchandi.

TADQIQOT NATIJALAR





3-rasm. Turli xil yonuvchi model yordamida olingan namunalar mikrostrukturasi

Quyma mahsulotlarni termik ishlovi berilgan namunalar mikrostrukturasi 3-rasmda keltirilgan. Mikrostrukturasi tarkibida ferrit va perlit mavjud bo‘lib, ularning nisbati kimyoviy tarkibga qarab farq qiladi. Mikrostrukturalardagi yorqin rangli sohalar ferrit fazasini, quyuqroq rangli sohalar esa perlitni ifodalaydi. Chap tomondagi mikrostrukturalar barcha quyish jarayonlari uchun quyma namunalariga tegishli, o‘ng tomonda esa termik ishlovi berilgan namunalar mikrostrukturalari joylashgan [10]. Po‘lat qotishmalari qotishni δ-ferrit bilan boshlaydi, biroq xona haroratiga yetguniga qadar δ-ferrit → γ-austenit va γ-austenit → α-ferrit faza o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. γ → α o‘zgarishi jarayonida α fazasi γ donachalar chegarasida markalashadi va shu chegaralar bo‘ylab o‘sadi. Ushbu o‘zgarish mexanizmi Fe-Mn-C uchlamchi qotishmalar uchun xos bo‘lib, hosil bo‘lgan α fazasi allotriomorf ferrit deb ataladi.

XULOSA

Bir martalik qolipda quyilgan namunalar tarkibidagi C miqdori 0,214% ni tashkil etdi. Tegishli ASTM standartiga ko‘ra, berilgan qotishma uchun C miqdori 0,3% dan oshmasligi kerak. Ammo yonuvchan model jarayoni orqali ishlab chiqarilgan namunalar (EPE namunasi bundan mustasno) qolip materialidan kelib chiqqan uglerod ifloslanishi sababli C miqdori chegaradan oshib ketdi. EPE namunasi yonuvchan model usulida olingan barcha namunalar ichida yagona holatda tarkibiy talablarni qondirdi, biroq uning uglerod miqdori qo‘llanilgan qotishma uchun ruxsat etilgan maksimal qiymatga juda yaqin ekanligi aniqlandi.

Yonuvchan model namunalarida mikrog‘ovakliklar mavjudligi tufayli ularning zichligi pastroq chiqdi. Uglerod miqdoriga bog‘liq holda yonuvchan model namunalarida RSga nisbatan qattiqlik qiymatlarining mutanosib ortishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Nosir S. et al. Improvement of the Technology of Pouring Thin–Walled Gray Cast Iron into a Sand–Clay Mold. – 2023.

2. Saidmakhamadov N. M. et al. Development of technology for liquefaction of steel alloys: development of technology for liquefaction of steel alloys. – 2023.

3. Tashbulatov S. et al. Qora metall qotishmalarini suyuqlantirish jarayonida shlaklarni quymaning sifatiga ta’sirini tadqiq qilish //Uz Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.

4. Salimovich X. T. et al. Po'lat qotishmasiga purkash orqali ishlov berishda qotishmaning mikrostrukturasi va g'ovakligiga ta'sirini o'rganish //Uz Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 10.

5. Tadjiyev N. X., Saidmaxamadov N. M. Xromomolibden po‘latiga bor elementini kiritish orqali qotishmaning mexanik xossalariga ta’sirini tahlil qilish //Строительство и образование. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 259-262.

6. Saidmaxamadov N. M. Induksion va elektr yoy pechlarida po‘lat suyuqlantirib olishda energiya balansi //Uz Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.

7. Saidmaxamadov N. M. et al. Eritilgan po‘latni shlakda past darajadagi oksid bilan qayta oksidlash //Uz Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.

8. Volida B. et al. Induksion pechida po'lat qotishmasini suyuqlantirib olish

tehnologiyasini takomillashtirish //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 212-218.

9. Khasanov J. et al. Development of technology for obtaining thin-walled details from gray cast iron in sand-clay moulds //International Journal of Mechatronics and Applied Mechanics. – 2024. – №. 18. – C. 199-209.

10. Saidmakhamadov N. M., Abdullah T. Development of a micro-structured photonic crystal fiber as a biological or chemical sensor based plasmonic application //Development of a micro-structured photonic crystal fiber as a biological or chemical sensor based plasmonic application.-2023.

УДК. 537.312.62

ВЛИЯНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОЙ ДЕФОРМЦИИ ПОДЛОЖЕК НА ТЕНЗОРЕЗИСТИВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПЛЕНОК НА ОСНОВЕ $(Bi,Sb)_2Te_3$

Онаркулов Каримберди Егамбердиевич
Konarqulov58@gmail.com

Жураева Гулноза Фазлитдиновна
jgulnoz2010@gmail.com

Annotasiya. Maqolada $(Bi,Sb)_2Te_3$ asosidagi yupqa pardali tenzodatchiklarning tenzoqarshilik xarakteristikalariga taglikning dastlabki deformatsiyasini ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Аннотатция. В работе приведены результаты исследования по влиянию предварительной деформации подложек на тензорезистивные характеристики пленочных тензодатчиков на основе $(Bi,Sb)_2Te_3$.

Annotation. The work presents the results of a study on the effect of preliminary deformation of film strain gauges based on $(Bi,Sb)_2Te_3$ influences of the tensoresistive characteristics.

Kalit so'zlar: deformasiya, tenzosezgirlik, tenzodatchik, taglik, tenzoqarshilik, xarakteristikalar nochiziqliligi, dastlabki deformatsiya, cho'zilish, siqilish.

Ключевые слова: деформация, тензочувствителность, тензодачик, подложка, тензорезистор, нелинейность характеристики, предварительная деформация, растяжение, сжатие.

Key words: deformation, strain sensitivity, load cell, substrate, strain gauge, nonlinearity of characteristic, preliminary deformation, stretching, compression.

Пьезорезистивный эффект обнаруживается у многих веществ, в том числе и у металлов, но сильнее всего он проявляется в полупроводниках, что позволяет использовать полупроводниковые материалы Ge, Si, GaSb, InSb, PbTe, Bi_2Te_3 для изготовления из них чувствительных тензодатчиков, т. е. приборов, преобразующих механические деформации (напряжения) в электрические величины [1,2].

Одной из основных задач, в использовании пленочных преобразователей механической энергии в электрическую, заключается получение тензочувствительных пленок с линейной деформационной характеристикой. Проведенные исследования по влиянию одноосной деформации на электрофизические свойства пленок на основе $(Bi,Sb)_2Te_3$ показали, что большая область нелинейности тензорезистора соответствует деформации растяжения [3]. С целью исключения возможной нелинейности деформационных характеристик нами проводились исследования по влиянию предварительной деформации подложек на деформационные характеристики тензочувствительных пленок на основе $(Bi,Sb)_2Te_3$.

Условия получения чувствительных датчиков сильно влияют на электрические свойства полученных плёнок [4,5]. Предварительная деформация подложки производилась на растяжение и сжатие. Если подложка до напыления пленки подвергалась растяжению, то после осаждения, в момент потери устойчивости, происходило суммирование внешних (в результате сжатия растянутой подложки) и внутренних напряжений. При этом возникает опасность разрушения пленки, поскольку оба фактора действуют в одну сторону:

$$\sigma = \sigma_0 + \sigma^* \quad (1)$$

где σ -общее напряжение, $\sigma_o=\varepsilon \cdot E$ - механическое напряжение пленки под действием предварительно деформированной подложки, $\sigma^* = \sigma_c+\sigma_т$ - внутренние напряжения.

Если до напыления к подложке приложена сжимающая сила, то после образования пленки, она снимается и тензорезистор приходит в состояние растяжения.

Изменив температуру подложки и величину предварительной деформации, можно добиться того, что внутренние напряжения пленки (σ^*) может компенсироваться внешним механическим (вследствие предварительной деформации) напряжением $(\sigma_0 = -\sigma^*)$. В результате тензорезистор будет практически одинаково реагировать на последующие деформации растяжения и сжатия [6,7].

Предварительная деформация подложек осуществлялась на установке, конструкция которого приведена на рис.1. Подложка - 2 крепилась на вогнутом подложкодержателе - 4 так, чтобы между ними осуществлялся хороший тепловой контакт и она могла быть равномерно нагретой от нагревателя - 3. При этом вогнутая поверхность держателя позволяла изгибать подложки (одновременно можно закреплять до 6 шт.) напрягая их до необходимых величин и затем наносить на них тензочувствительную пленку.

Abstract. The negative effects that highly toxic substances can have on the human body and the environment, as well as existing problems in their protection, are aggravated. The importance of directives to prevent such accidents is also mentioned, as well as information on the powers and responsibilities of civil defense leaders in the event of an accident.

Kalit so‘zlar: kimyoviy xavfli obyekt, kuchli ta’sir etuvchi zaharli modda, fuqaro muhofazasi boshlig‘i, xavf, zaharlanish, qutqaruv tuzilmalari, razvedka, shaxsiy himoya vositalari, yo‘riqnoma, muhofaza.

Ключевые слова: сильнодействующее отравляющее вещество, химически опасный объект, руководитель гражданской защиты, опасность, отравление, спасательные структуры, разведка, средства индивидуальной защиты, инструктаж, защита.

Keywords: strong-acting poisonous substance, chemically dangerous object, concentration, danger, poisoning, rescue structures, intelligence, personal protective equipment, instruction, protection.

Kirish. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar orasida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog‘liq obyektlardagi avariyalar o‘zining keltiradigan talofatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday obyektlarda avariya sodir bo‘lgan taqdirda, faqat obyekt ishchilarining salomatligiga xavf tug‘dirmasdan, balki uning atrofida joylashgan hudud aholisiga ham xavf tug‘diradi. Shu sababli ham bunday turdagi avariyalar sodir bo‘lganda aholi xavfsizligini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga zarurat tug‘ilmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili. Muallif tomonidan mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borish mobaynida ko‘plab xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar va ishlanmalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganib chiqilib, tahlil qilindi. Xususan, soha bo‘yicha xorij mutaxassislari A.V.Zyuzin, V.I.Semenovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida qishloq xo‘jaligi va sanoatda eng ko‘p foydalaniladigan kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari, yonish va portlashga xavfliligi, ularning inson organizmiga ta’siri va atmosferadagi holati o‘rganilgan [3, 4]. Shuningdek, F.A.Abidova va A.B.Abidovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish natijasida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmada [2] kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar hamda ba’zi suyuqliklarning xususiyatlari, reaksiyaga kirishish qobiliyatlari, ularning fizik-kimyoviy

xossalari va inson organizmiga ta’siri hamda ulardan muhofazalanishda ishlatiladigan shaxsiy himoya vositalari batafsil yoritib berilgan. Milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kuchli ta’sir etuvchi zaharli modda atrof-muhitga tarqalib, inson organizmida zaharlanish holati yuzaga kelsa, u teri, oshqozon-ichak yo‘llari hamda nafas olish organlari orqali qonga so‘riladi. Qon orqali barcha organizm va to‘qimalarga tashiladi hamda organizmning umumiy zaharlanishiga, ba’zan esa insonlarning qurbon bo‘lishiga olib keladi. R.S.Sobirov tomonidan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarning yuzaga kelish sabablari, ularni oldini olish tadbirlari hamda avariya sharoitida va avariyadan so‘ng fuqarolarning harakatlari, shuningdek kimyoviy xavfli obyektlardagi yong‘inlar va ularning ikkilamchi omillarini bartaraf etish tadbirlari o‘rganilib, tahlil qilingan [3]. S. Kulpinov hamda Moskva davlat universitetining bir qator olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarning yuzaga kelish sabablari, obyektlarning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari o‘rganilgan [4, 5] hamda zaharli modda ta’siridan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar. Milliy va xorijdagi soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari o‘rganildi. Tahlil natijalariga asosan kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar ta’siridan fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi: kimyoviy xavfli obyekt va hudud aholisiga favqulodda vaziyat chog‘ida to‘g’ri harakatlanish bo‘yicha davriy va zaruratga qarab navbatdan tashqari yo‘riqnomalar tashkil etish, kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish, kimyoviy avariya yuzaga kelgan taqdirda aholining barcha qatlamini ogohlantirish, himoya inshootlariga (panagoh) yashirish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, shikastlangan hududlarda xavfsizlik talablariga rioya qilish, zararlangan hududlardagi odamlarni evakuatsiya qilish, jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatish, fuqarolarni sanitar-qayta ishlov, kiyim-kechak, inshootlarni, transport va texnikalarni degazatsiya qilish.

Yo‘riqnoma bu insonlarning hayot faoliyati jarayonida ularning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xavfsizlik texnikasi qoidalari majmuidir. Yo‘riqnomalar kirish yo‘riqnomasi va ish joyida o‘tkaziladigan yo‘riqnomalardan iborat. Yo‘riqnomalar maxsus jihozlangan xonalarda, yetakchi mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. Yo‘riqnoma o‘tish jarayonida fuqaro muhofazasi boshliqlarining majburiyat va vakolatlariga alohida to‘xtalib o‘tiladi [6].

Hududlarda kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo‘lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo‘lgan tadbirlari

Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni tarqalishi xavfi yuzaga kelganda [6]:

- zaharlanish ehtimoli mavjud hudud aholisini xabardor qilish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig‘ish, vaziyat to‘g‘risida xabardor qilish va vazifalar qo‘yish;
- radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka maskanlarini tashkil etish;
- muhofaza inshootlarini aholini qabul qilishga tayyorlash;
- FVDT tuzilmalarini shay holatga keltirish;
- tuman, shahar, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalari bilan o‘zoro hamkorlikni tashkil etish va aloqa o‘rnatish;
- shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta’minlanmagan aholini evakuatsiya qilish tadbirlariga tayyorlash.

Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi sodir bo‘lganda [6]:

- “Diqqat, barchaga!” signalini berish va aholini ogohlantirish;
- avariya sodir bo‘lgan ob’ektda, zaharlanish ehtimoli mavjud zonalarda razvedka ishlarini tashkillashtirish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig‘ish va vazifalar qo‘yish;

- radiatsiyaviy va kimyoviy nazorat maskanlarini tashkil etish va ular bergan ma'lumotlarni yig'ish;
- zaharlanish zonasidagi ob'ektlarning ish faoliyatini tugatish;
- avariya ro'y bergan obyekt xolati bilan tanishish;
- aholini panagohlarga, radiatsiyadan yashirish joylari, oddiy muhofaza inshootlariga yashirish;
- FVDT tuzilmalarini, otryadlarini shay xolatga keltirish va ularga vazifalar qo'yish;
- jabrlanganlarga yordam ko'rsatish, ularni xavfsiz joylarga ko'chirish;
- aholini zaharlanish zonasidan tashqariga ko'chirish.

Obyektlarda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo'lgan tadbirlari

Kimyoviy avariya xavfi yuzaga kelganda [6]:

- favqulodda vaziyat xavfi to'g'risida yuqori tashkilotlarga, favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi, bo'limlariga, tegishli hudud raxbarlariga va obyekt rahbariga, ishchi xodimlariga hamda aholiga xabar berish;
- manbadan moddani tarqalishini oldini olish tadbirlarini amalga oshirish;
- ishchilarni zaruriy shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;
- panagohlarni, radiatsiyadan yashirinish joylarini tayyorlash;
- yong'in-portlash xavfini kamaytirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
- obyekt territoriyasini neytrallash uchun moddalarni, asbob-uskunalarni tayyorlash;
- havodagi mavjud gaz miqdorini kamaytirish maqsadida havoga suv purkash uchun suv zahirasi va mashinalarni tayyorlash;
- radiatsion-kimyoviy nazorat maskanlarini o'rnatishni tashkillashtirish;
- korxonadagi barcha tuzilma, otryadlarni shay holga keltirish;
- korxonada ob'ekt rahbariyatidan kechayu-kunduz navbatchiliklar tashkil etish;
- navbatchi-dispetcherlik xizmatini ish faoliyatini kuchaytirish;
- maxsus operativ guruhlar tuzish;
- evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun avtotransport va qabul qilish punktlari tayyorlash;
- taqvim rejaga aniqliklar kiritish;
- sex ichidagi suv tomchilatish (suv to'sig'i) tizimining holatini tekshirib ko'rish.

Kimyoviy avariya sodir bo'lganda [6]:

- kimyoviy avariya to'g'risida favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi yoki bo'limlariga, yuqori tashkilotga, tuman yoki shahar hokimiyatiga, rahbarlarga va ishchilarga xabar berish;
- FV sodir bo'lgan manbani, ob'ektni razvedka qilish ishlarini amalga oshirish;
- shtab a'zolarini boshqaruv punktiga yig'ish;
- zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- manbani lokalizatsiya qilish bo'yicha zaruriy tadbirlar o'tkazish;
- atrof muxitda gazning konsentratsiyasini kamaytirish bo'yicha suv to'siqlarini yaratish, suv purkash ishlarini o'tkazish;
- ishchilarga shaxsiy muhofaza vositalarini tarqatish;
- ishchi va xizmatchilarni muhofaza inshootlariga yashirish;
- sharoitni hisobga olingan holda ishchi va xizmatchilarni shahardan tashqaridagi zonalarga evakuatsiya qilish;
- yordamga kelgan xizmatlar bilan hamkorlikda ish olib borish;
- energetika, kanalizatsiya, suv, bug' tizimlaridagi shikastlanishlarni bartaraf etish;
- zaxarlanish manbasiga, ob'ektga kirish-chiqishni nazorat qilish va jamoat tartibini saqlash;

- maxsus kiyimlarni, avtomashinalarni, hududni degazatsiya qilish.

Xulosa. Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonida, qishloq xo‘jaligi va hayotimiz mobaynida yuzlab har xil kimyoviy birikmalar ishlatilmoqda. Ular insoniyat, hayvonot olami va o‘simlik dunyosi uchun zararli hisoblanib, ularning soni kun sayin ortayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli ham, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar xavfi ortaveradi. Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar, avariyalar va fojialar oqibatlarini tugatish bo‘yicha to‘plangan tajribalar, fuqarolar muhofazasida olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta’kidlangan FVlarda, fuqarolarni ongli ravishda tez, qat’iyan harakat qilishga, iqtisodiyot tarmoqlarini tezda qayta tiklab, uni ishga tushirib yuborishga va talofot ko‘rganlarga o‘z vaqtida kerakli yordamlarni ko‘rsata olishga o‘rgatadi. Albatta, bu vazifalar, tabiiy ofatlar, avariya va talofotlarning tabiati, tavsifi, kelib chiqish sabablari va ularni keltiradigan oqibatlarini chuqur o‘rganish natijasidagina amalga oshiriladi. Shu sababdan fuqaro muhofazasi xodimlari oldiga juda katta ma’suliyat (harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham) fuqarolarni FVlar ruhida o‘qitish vazifasini qo‘yadi.

O‘zbekistonda turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, talofatlar ko‘lamini toraytirish, insonlar hayoti va ular tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarga yetadigan zararlarning oldini olish yoki ularni kamaytirishni ta’minlashda ishtirok etadigan barcha xizmatlarning o‘zaro munosabatlarini belgilovchi va tartibga soluvchi qator qonunlar va shu sohaga taaluqli bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan hamda hayotga joriy etilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Nigmatov I., Tojiyev M. „Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”, darslik . - T.:Iqtisod-Moliya, 2011. – 262 b.

2. Sapayev M.S., Qodirov F.M. “Favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyati xavfsizligi”, ma’ruzalar matni. TATU – 2013. – 194 b.

3. O‘.R.Yo‘ldoshev, O.D.Rahimov, R.T. Xo‘jaqulov, O.T.Hasanova. “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”, o‘quv qo‘llanma. Toshkent – “Davr” – 2013. – 200 b.

4. J.M.Qurbonov, J.S.Fayziev. “Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi”, o‘quv qo‘llanma. SamISI - 2009. – 284 b.

5. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarasulov. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, o‘quv qo‘llanma. SamISI - 2016. – 272 b.

6. F.A.Abidova, A.B.Abidov. “Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari”. O‘zR FVV FMI – 2013. – 530 b.

UDK. 614.8:005.96

FAVQULODDA VAZIYATLARNI BARTARAF ETISHDA KO‘NGILLI QUTQARUVCHILARNI JALB ETISHNING AYRIM JIHATLARI

Xodjayev Abdug‘ani Atamirzayevich
Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Xoldorov Azizjon Rasulovich
Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘ngilli qutqaruvchilar, ular faoliyati tashkil etishning huquqiy asoslari, vazifalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ko‘ngillilarni jalb etish masalalari atroflicha o‘rganilgan.

Аннотация. В данной статье изучены вопросы добровольцев, задачи их деятельности, а также привлечение добровольцев к ликвидации чрезвычайных ситуаций.

Abstract. This article examines the issues ofvolunteers, the tasks of their activities, as well as the involvement of volunteers in emergency response.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyat, favqulodda vaziyatlar hududi, ko‘ngillilar, ko‘ngilli yong‘in-qutqaruvchilar, boshqaruv organlari.

Ключевые слова: чрезвычайная ситуация, зона чрезвычайной ситуации, добровольны дбровольные пожарные-спасатели, органы управления.

Key words: emergency situation, emergency zone, voluntary, voluntary firefighters-rescuers, management bodies.

Kirish. Davlatning turli xil favqulodda vaziyatlarga barqarorligini oshirish va ular bilan samarali kurashish jamiyatni birlashtirmasdan amalga oshirish mumkin emas. Mamlakatimizda ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar ko‘pincha halokatli oqibatlarga olib kelgan, atrof-muhitga zarar etkazgan hamda katta moddiy va moliyaviy yo‘qotishlar, ba'zida esa ko‘plab odamlarning halok bo‘lishi bilan birga kuzatilgan. Favqulodda vaziyatlar paytida mamlakatimiz aholisi tabiatan birlashishga moyil bo‘lib, o‘zaro yordam ko‘rsatishadi, bunga 2020-yilda Sirdaryo viloyatida yuz bergan suv toshqini va uning oqibatlarini bartaraf etishda aholining harakatlarini misol qilishimiz mumkin. Respublikamizda odamlarning zarur, qiyin daqiqalarda birlashish qobiliyati kabi favqulodda vaziyatlar bilan kurashish uchun kuchli qurol mavjud bo‘lib, undan qanday foydalanish to‘liq o‘rganilmagan.

O‘z tabiatiga ko‘ra, ko‘ngilli yong‘in-qutqaruvchilar har qanday vaziyatda Favqulodda vaziyatlar vazirligi barcha tuzilmalarining birinchi va zarur yordamchilari hisoblanadi. Ularni qidiruv-qutqaruv jarayonining o‘zida ishtirok etishiga ruxsat berilmasligi mumkin, ammo ularga aholi bilan ishlash, birinchi yordam ko‘rsatish, jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishda shifokorlarga ko‘maklashish va hk., bir so‘z bilan aytganda, qiyin bo‘lmagan va o‘z navbatida eng zarur bo‘lgan vazifalarni yuklash mumkin. Ayni paytda, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish paytida kuchlar etishmaydi, ko‘ngilli tuzilmalar kuchlari va ularning imkoniyatlari bilan etishmay turgan kuchlarning o‘rnini to‘liq qoplash mumkin. Yildan-yilga ko‘ngillilar jamiyatimiz hayotida muhim rol o‘ynaydi. Ular muhtojlarga yordam ko‘rsatadi, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va atrofmuhit tozaligida faol ishtirok etadi, ijtimoiy-madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishda yordam beradi, respublika, viloyat va shahar (tuman) miqyosida ommaviy tadbirlarni targ‘ib qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yuzaga kelganda bartaraf etishda ko‘ngillilarnijalb etishni masalalari bo‘yicha mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrdagi

"Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida"gi va O‘zbekiston Respublikasi "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli faqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonunlarida o‘z aksini topgan [1.2]. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ko‘ngilli guruhlarni shakllantirish bo‘yicha ayrim masalalarda rus olimlari Bolkvadze Yu.A., Alyaev P.A., Evgenie O., va boshqalar tadqiq qilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ushbu soha bo‘yicha S.I.Xusanova, L.G.Galimova, F.Abidova va boshqalar mahallalarda ko‘ngilli guruhlarni shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini ochib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolada volontyorlik faoliyatining vazifalari muhokama qilinadi, bu esa quyidagilardan iborat:

- fuqarolarni aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan turli xil jamoat faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini shakllantirish;
- ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsatish;
- volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;
- aholida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash;
- fuqarolar tomonidan ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun o‘zini o‘zi namoyon etish va o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarini olish.

Ko‘ngillilar tomonidan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi [2]:

- fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan kam ta'minlanganlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishsizlar, nogironlar va jismoniy yoki intellektual hususiyatlariga ko‘ra boshqa holatlar o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo‘lmagan boshqa shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish ishlarida ko‘ngilli sifatida ishtirok etish;
- aholini tabiiy ofatlar, ekologik, sanoat yoki boshqa ofatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash ishlarida ishtirok etish; tabiiy ofatlar, ekologik sanoat yoki boshqa ofatlar, ijtimoiy, milliy, diniy mojarolar, qatag‘on qurbonlari, qochoqlar yoki majburiy ravishda ko‘chganlarga yordam ko‘rsatish;
- fuqarolar salomatligining profilaktika qilish, fuqarolarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilash sohasidagi tadbirlarni ilgari surish;
- favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida o‘qitish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va yong‘in xavfsizligi sohasidagi bilimlarni targ‘ib qilish;
- ixtiyoriy (ko‘ngilli) faoliyatni targ‘ib qilish va hokazo.

Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida ko‘ngillilikni rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ko‘ngillilar ishtirokida favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan profilaktika choralarini, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishning asosiy usullarini ommalashtirish va rivojlantirish;
- yong‘inlarni hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ko‘ngillilarning ishtirok etishi;
- ko‘ngilli yong‘in-qutqaruvchilar va ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarni tayyorlashda malakali qutqaruvchilar va yong‘in xavfsizligi malakali xodimlarining ishtirokini o‘z ichiga olgan murabbiylikni rivojlantirish.

Biroq, maqsad deganda - faoliyatning ideal va chuqur o‘ylangan natijasi tushuniladi, shuningdek maqsad inson faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri motiv sifatida boshqaradi va tartibga soladi [7].

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘ngillilar faoliyatining

maqsadlari keragidan ortiq, shu bilan birga ushbu maqsadlarga erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar shakllantirilmagan [1, 2, 6].

Shuning uchun hozirda va kelgusida ijtimoiy foydali ishlarning chegarasini belgilash, vazifalarni shakllantirish, shuningdek, ko‘ngillilar va boshqa manfaatdor shaxslar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tartibga solish zarur bo‘ladi. Bunday o‘zaro munosabatlar asoslarini har bir yuzaga kelgan holatda emas, balki normativ-huquqiy hujjatda hal qilish maqsadga muvofiqdir.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tahlillari favqulodda vaziyatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlarini, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va tashkilotlarini o‘z ichiga olgan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining boshqaruv organlari, kuchlari va vositalari ishtirok etishini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar

Taxlillarga ko‘ra, 2021-yilning 1-dekabr holatiga respublika hududida jami 126 favqulodda vaziyat (80 ta texnogen va 46 ta tabiiy) sodir bo‘lgan. Sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning asosiy qismini yo‘l-transport hodisalari (31%), aholi uy joylarida gaz (portlashi) chaqnashi (13,5%), aholining tabiiy, is gazidan va toksik moddalardan zaharlanish (31,7%), binolar, inshoatlar va er jismlarini qulashi (7,1%), avtomobilda yong‘in hodisalari (4%) tashkil etgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan biri: Favqulodda vaziyatlar sodir bolganda tezkor harakat qilish; aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong‘in xavfsizligini ta'minlash va boshqlar. Shu bilan birga, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi faoliyati alohida faoliyat sifatida ajratilgan.

Yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil etish, ularning ko‘lamiga qarab, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining ma'lum bir kuchlari va vositalarini jalb qilishni talab qiladi.

"Favqulodda vaziyat rejimi" joriy etilganda, boshqaruv organlari, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda xarakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizimlarining kuchlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

favqulodda vaziyat yuzaga kelganligi va favqulodda vaziyatlarda harakatlar tartibi to‘g‘risida hududiy hokimiyat organlari rahbariyati hamda aholini xabardor qilish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma'lumotlarni to‘plash va bunday ma'lumotlarni almashish;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizimlarining shahar (tuman) darajasidagi boshqaruv organlari va kuchlari uchun favqulodda vaziyat rejimini joriy etish to‘g‘risida hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan qaror qabul qilinishi;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyaning yig‘ilishini o‘tkazish;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyasi tomonidan favqulodda vaziyatni bartaraf etish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish;

"Favqulodda vaziyat rejimi"ning mahalliy darajasini joriy etish - tashkilotlarning kuchlari va vositalari hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan favqulodda vaziyatlarda, agar favqulodda vaziyat hududi shahar (tuman) hududida joylashgan bo‘lsa;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda xarakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizimlari shahar (tuman) darajasidagi kuch va vositalarni jalb qilish;

boshqaruv organlari va kuchlari rahbarlari va mansabdor shaxslarining tunu-kunlik navbatchiligini tashkil etish; aholi uchun vaqtinchalik turar joylarni (uzoq muddatli yashash joylarini) tashkillashtirish va ularni joylashtirish, shuningdek, ularda ustuvor hayotiy ta'minotni

tashkil etish. Aholini, moddiy va madaniy mol-mulklarini evakuatsiya qilish; qutqaruv ishlarida ishtirok etuvchi tuzilmalarning moddiy-texnik vositalar bilan uzluksiz ta'minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; qutqaruv ishlarida ishtirok etayotgan tuzilmalarni yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish; qutqaruv ishlarida ishtirok etadigan tuzilmalar shaxsiy tarkibini bir kunda uchta issiq ovqat bilan ta'minlashni yo‘lga qo‘yish; aholini oziq-ovqat va hayotiy muhim ehtiyojlari uchun zarur mol-mulk bilan ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish; favqulodda vaziyatlar hududida jamoat tartibini saqlashni tashkil etish. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlili shahar (tuman) hokimligi rahbari shahar (tuman) chegaralarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etishi shartligini aniqlashga imkon berdi [2].

Xulosalar

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkin, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ko‘ngillilarni jalb qilish yaxshi samara beradi. Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda asosiy kuchlar etib kelgunga qadar favqulodda vaziyatni bartaraf etish, jabrlangan fuqarolarni qutqarish tadbirlarini birinchi navbatda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan ko‘ngilli yong‘in-qutqaruvchilari amalga oshiradi. Shuningdek, asosiy kuchlar etib kelganidan keyin ham ko‘ngilli yong‘inqutqaruvchilari ularga yordam beradi[6].

Bundan tashqari ko‘ngilli yong‘in-qutqaruvchilarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ya'ni aholi orasida favqulodda vaziyatlar masalalarini targ‘ib qilish, aholini favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish kabi tadbirlariga ham jalb etish mumkin.

Favqulodda vaziyatlarda bo‘ysunuvdagi kuchlarni barqaror boshqarishni ta'minlash, favqulodda vaziyatni bartaraf etish paytida boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlar kuchlari, shujumladan ko‘ngillilar bilan o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni ta'minlash uchun favqulodda vaziyat hududida tuziladigan tezkor shtab tarkibiga ko‘ngillilar harakatlarini muvofiqlashtiruvchi mansabdor shaxsni kiritish zarur, shuningdek, uning optimal tashkiliy-shtat tuzilmasini asoslash lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida"gi 2019-yil 2-dekabrdagi O‘RQ-585-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen hususiyatli faqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni.

3. Bolkvadze Yu.A., Alyaev P.A. Osobennosti organizatsii raboty organov mestnogo samoupravleniya po razvitiyu volonterskoy deyatelnosti // Materialy Sh Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensiya, posvyaennoy Vsemirnomu dnyu grajdanskoy oborony: v Zch.

4. CH. SH. Sotsialno-filosofskiy psixologicheskiy problemy chrezuchayniy situatsiya. -- M.: Akademiya GPS MCHS Rossii, 2019. - S 11-15.

5. Nastavlenie po organizatsii upravleniya i operativnogo (ekstrennogo) reagirovaniya pri likvidatsii chrezuchayniy situatsiy. - M.: MCHS Rossii, 2013. 138 s.

UDK: 677.024:338.45

TAVSIYA ETILGAN JUNNI TA'MILASHNI ROSTLOVCHI TITISH-TOZALASH MASHINASINI ISHLAB CHIQARISHGA QO'LLASHDAN OLINGAN IQTISODIY SAMARADORLIKLAR HISOBI

Ismoyilov Ibrohim Barotovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, ismailov06418@gmail.com

Annotasiya. Tavsiya etilayotgan junni titish mashinasining ishlab chiqarishda joriy etishdan olingan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash "To'qimachilik va jun sanoati sohasida yangi konstruksiyadagi qurilmalar, yangiliklar va ratsionalizatorlik takliflarini joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uslubiyati" ga asoslanib amalga oshirildi.

Аннотация. Расчет экономической эффективности внедрения машины для чесания шерсти в производстве был проведен на основе методики "Определение экономической эффективности внедрения новых конструкций устройств, новшеств и рационализаторских предложений в текстильной и шерстяной промышленности".

Abstract. The calculation of the economic efficiency of implementing a wool carding machine in production was carried out based on the methodology "Determining the economic efficiency of introducing new device designs, innovations, and rationalization proposals in the textile and wool industries."

Kalit so'zlar: samaradorlik, chidamlilik, koeffisiyent,ekspluatatsiya, elektrodvigatel, reduktor,kabel, podshipnik, shkiv, tross.

Ключевые слова: эффективность, долговечность, коэффициент, эксплуатация, электродвигатель, редуктор, кабель, подшипник, шкив, трос.

Keywords: efficiency, durability, coefficient, operation, electric motor, gearbox, cable, bearing, pulley, rope.

Kirish. Hozirda tabiiy tolani dastlabki ishlash korxonalaridagi tozalash mashinalarining takomillashtirish soha olimlari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.Jumladan jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasida foydalanib kelinayotgan yuvilmagan jun tolalarini tozalashga mo'ljallangan mashinalarni ishlab chiqarishga modernizatsiya qilish lozim.Tadqiqot natijalariga ko'ra, tavsiya etilayotgan junni titish mashinasining ishlab chiqarishga joriy etish taklif qilindi.

Amaldagi uslubiyatga asosan yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Э = \left[З_1 \cdot \frac{в_2}{в_1} \cdot \frac{P_1 + E_н}{P_2 + E_н} + \frac{\left(U_1^{'} - U_2^{'}\right) - E_н\left(K_2^{'} - K_1^{'}\right)}{P_2 + E_н} - З_2 \right] \quad (1)$$

bu yerda, $З_1$, $З_2$-asosiy va yangi asbob-uskunaning bir birlik mahsulotiga to'g'ri keluvchi keltirilgan xarajatlar miqdori, ming so'm;

$\frac{в_2}{в_1}$ - yangi asbob-uskuna birligining o'sish unumdorligini asosiysi bilan solishtirishdagi hisoblaш koeffisiyenti;

$в_1$, $в_2$ – asosiy va yangi asbob-uskunalar birligidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar)ning yillik ish hajmi;

$\frac{P_1 + E_н}{P_2 + E_н}$- yangi asbob-uskunalarni asosiysi bilan solishtirilgandagi xizmat muddati o'zgarishini hisobga olish koeffisiyenti;

P_1, P_2 - ma'naviy eskirishni hisobga olgan holda asosiy va yangi asbob-uskunalarni to'liq

tiklashning balans qiymatidan ajratma ulushi;

$E_н$ – iqtisodiy samaradorlikning me'yoriy koeffisiyenti;

$K_1^{'}$, $K_2^{'}$ - asosiy va yangi asbob-uskunalardan foydalangan holda yangi asbob-uskunalar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining hisobi bo'yicha iste'molchining kapital qo'yilmasi miqdori, ming so'm;

$U_1^{'}$, $U_2^{'}$ - asosiy va yangi asbob-uskunalardan foydalangan holda yangi asbob-uskunalar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining hisobi bo'yicha iste'molchining .yillik ekspluatatsiya xarajatlari, ming so'm.

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikda faqat o'zgaruvchan bandlar xarajatlarini solishtirish orqali va kapital qo'yilmalar, amortizatsiya xarajatlari, ta'mirlash va materiallar sarfi o'zgarishiga tayanilgan.

Tavsiya etilayotgan junni titish mashinasining ishlab chiqarishga joriy etishdan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash "To'qimachilik va jun sanoati sohasida yangi konstruksiyadagi uskunalar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli» dan foydalanildi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. Tavsiya etilayotgan junni titish mashinasining takomillashtirilgan konstruktsiyasi va samarali ishlov berish texnologiyasidan foydalanildi. Uskunani tayyorlashda kerak bo'ladigan asosiy materiallarga sarflanadigan xarajatlar miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Asosiy materiallarga sarflanadigan xarajatlar miqdori

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Qiymati (so'm)
1	Temir list	Kilogram	80	12000000
2	Val	Dona	4	2000000
3	Ugolnik	Metr	20	3000000
4	Prut	Metr	60	200000
5	Truba	Metr	2	1500000
6	Rolikli shkif	Dona	2	2000000
7	To'rli sirt	m^3	1	5000000
8	Elektrodvigatel	Dona	2	22000000
9	Reduktor	Dona	1	8000000
10	Kabel	Metr	20	1500000
11	Invertor	Dona	1	2000000
12	Podshipnik	Dona	8	50000
13	Shkiv	Dona	3	400000
14	Tasma	Dona	1	200000
15	Tross	Metr	4	300000
16	Sharnir	Dona	2	200000
17	Bolt, gayka, shayba	Dona	100	400000
18	Tayyorlash xarajatlari			10000000
Jami:				70750000

2-jadval

Tavsiya etilayotgan junni titish mashinasining ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlar

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Variantlar	
			Bazis	Taklif etilayotgan
1	Yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi	tonna	80	80
2	O‘rnatilgan titish mashinasi soni	dona	1	1
3	O‘rnatilgan uskunaning tannarxi	so‘m	95400000	70750000
4	Rostlanuvchan ta’minlash mexanizmi	dona	-	1
5	Yangi konstruksiyali ta’minlash valiklari	α	90	45
6	Ta’minlash valiklarining aylanishlar tezligi	m/s	0,2	0,25
7	Qoziqli barabanlarning aylanishlar tezligi	m/s	14,2	16
8	O‘rnatilgan elektrodvidatellar soni	dona	1	2
9	Bitta uskunaning iste’mol quvvati	kVt	7,5	2 0,5
10	Iste’mol qilinadigan 1 kVt/soat elektr energiyasi narxi	so‘m	1500	1500
11	Asbob-uskunaga amortizatsiya ajratmalari	%	15	15
12	Kundalik tiklashga ajratma	%	5,0	5,0
13	Tashib keltirish va montajga ajratma	%	10,0	10,0
14	Ilmiy–texnika ishlanma xarajatlari	so‘m	-	1550000
15	Hisob-kitoblar uchun o‘rnatilgan minimal ish haqi miqdori	so‘m	3000000	3000000
16	Ijtimoiy sug‘urtaga to‘lov	%	23	23
17	Ishlovchilar soni	kishi	6	4

1. Kapital qo‘yilmalar hisobi

Bazis variantda:

Asbob-uskunalar balans qiymati quyidagiga teng:

Mavjud junni titish mashinasi

1ta*95400000·1,1 = 104940000 ming so‘m.

Taklif etilayotgan variantda:

Asbob-uskunalar balans qiymati quyidagiga teng:

Takomillashgan junni titish mashinasi

1ta*70750000·1,1 = 77825000 ming so‘m.

Ilmiy-texnik ishlanma xarajatlari – 1550000 ming so‘m.

Jami: 77980000 ming so‘m.

2. Ekspluatatsiya xarajatlari hisobi
Hisob ishlari faqat o‘zgargan xarajat elementlari bo‘yicha olib boriladi.
Amortizatsiya ajratmalari
Bazis variantda:

$$\frac{104940000 \cdot 15}{100} = 15741000 \text{ so‘m}$$

Taklif etilayotgan variantda:

$$\frac{77980000 \cdot 15}{100} = 11697000 \text{ so‘m}$$

3. Kundalik ta’mirlashga xarajatlar
Bazis variantda:

$$\frac{104940000 \cdot 0,5}{100} = 5247000 \text{ so‘m}$$

Taklif etilayotgan variantda:

$$\frac{77980000 \cdot 0,5}{100} = 389900 \text{ so‘m}$$

Material sarfi:
Bazis variantda: (material)

80·150000 =12000000

12000000:0,3·150000= 6000000 ming so’m.

Taklif etilayotgan variantda: (material)

80·150000=12000000

12000000:0,3·150000=6000000 ming so’m.

Ish haqi:
Bazis variantda:
6 kishi · 3000000 so‘m ·12·1,4 = 302400000 so‘m
Taklif etilayotgan variantda:
4 kishi · 3000000 so‘m·12·1,4 = 201600000 so‘m.
Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma:
Bazis variantda:
104940000*0,23 = 24136200 ming so’m.
Taklif etilayotgan variantda:
77980000·0,23 =17935000 ming so‘m.
4. Elektro energiya sarfi quyidagicha hisoblanadi:

$$W = P_y \cdot K_c \cdot T_c \cdot C_э$$

bu yerda, P_y-o‘rnatilgan elektrodvigatellar quvvati; K_c-talab koeffitsienti; T_c-asbob-uskunalar yillik foydali ish vaqti; $C_э$-1 kVt/s iste’mol qilinadigan elektroenergiyanarxi

Bazis variantda:
(7,5·1·3550·1500)/1000 = 39937,5 ming so‘m.
Taklif etilayotgan variantda:
(2,5·1·3550·1500)/1000 = 13312,5 ming so‘m.
Tadqiqot natijasi. Olingan natijalar 3-jadvalga jamlandi.

3-jadval

Asosiy va taklif etilayotgan variantlar bo‘yicha keltirilgan va ekspluatatsiya xarajatlarini hisoblash, ming.so‘m

№	KO‘RSATKICHLAR	Variantlar	
		Bazis	Yangi

1	Takomillashtirilguncha asbob-uskuna narxi	95400000	75750000
2	Asbob-uskunani tashib keltirish va o‘rnatish xarajatlari	0	1200000
3	To‘g‘ri kapital xarajat	10494000	7798000
4	ITI lari xarajatlari	0	1550000
5	Ekspluatatsiya xarajatlari, jami shu jumladan:	353564137,5	241134312,5
	- amortizatsiya ajratmalari	15741000	11697000
	- kundalik ta’mirlash	5247000	3889000
	- iste’mol qilinadigan elektroenergiya qiymati	39937,5	13312,5
	- material sarfi	6000000	6000000
	- ish xaqi	302400000	201600000
	- ijtimoiy sug‘urtaga ajratma	24136200	17935000

Yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar miqdori bazis va tadbiq etiladigan asbob-uskunalar balans qiymatining 10% miqdorida olinadi:

$$K_1 = \frac{104940000 \cdot 10}{100} = 10494000 \text{ ming so‘m}$$

$$K_2 = \frac{77980000 \cdot 10}{100} = 7798000 \text{ ming so‘m}$$

Olingan ma’lumotlarni (4.1) formulaga qo‘yib taklif etilayotgan titish-tozalash mashinasining ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

$$E_y = 1,5 \cdot 2,3 + \frac{(353564137,5 - 241134312,5) - 0,15 \cdot (10494000 - 7798000)}{0,164 + 0,15} - 1550000 = 355218869,4$$

ming so‘m

Xulosa. Ishlab chiqarishga ish unumi yuqori bo‘lgan va ularning xizmat qilish muddati bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlari (samaradorlik, chidamlilik, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqalar) eskirganligini hisobga olgan holda hisoblandi.

Ish natijalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yiliga 80 tonna junni titib tozalash orqali 355 218869,4 mln.so‘mni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Ismoyilov F.B Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasi. Darslik. Buxoro.: «Bukhara Brilliant Cargo» nashriyoti, 2024. – 292 b.

2. Исмойилов И.Б. Чорвачилик сахасида жуннинг арзон олиш усуллари ва саноатда кенг қўлланиши. «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» га бағишланган илмий-амалий анжуман. Бухоро 15-16 май 2023. .-Б.51-53 бет.

3. IsmoyilovI.B.,IsmoyilovF.B,Ko‘ldoshev.E.I, O‘zbekistonda yetishtirilayotgan jun xomashyosi mahsuldorligi va sifat ko‘rsatgichlari. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro: 2025. №2,;355-358b.

3. Ismoyilov F.B Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasi. Darslik. Buxoro.: «Bukhara Brilliant Cargo» nashriyoti, 2024 -46b

4. Rizaev Sh, Zokirov M, Sidorsov V, Ismoilov L, Ibragimov Yu. “Junshunoslik va jun tovarshunosligi”. Toshkent.: «Mehnat», 1985. – 221 b.

5. ИсмойиловФ.Б.,ИсмойиловИ.Б.Значениеиспользования наклонного очистителя первичной обработки. Universum технические науки//Москва.2023№7(112) июль, 2023г.Ст. 46-49

6. Ismoyilov I.B. Robototexnika uskunalarida junni qayta ishlashning arzon va samarador olish usullaru “Raqamli iqtisodiyod,electron hukumat va sun’iy intellekt uchun dasturiy vositalar,axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani.Buxoro .20-22 oktabr 2023.-Б.178-181

6. Исмойилов И.Б.Химические свойства шерсти. «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» га бағишланган илмий-амалий анжуман. Бухоро 15-16 май 2023. .-Б.50-51 бет

7. Исмойилов И.Б. Чорвачилик сахасида жуннинг арзон олиш усуллари ва саноатда кенг қўлланиши. «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» га бағишланган илмий-амалий анжуман. Бухоро 15-16 май 2023. .-Б.51-53 бет

8. Ismoyilov I.B,Kuldashev E.I, Abrorov A.S, Ismoyilov F.B, Bozorov R.R. Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber E3S Web of Conferences 390, 01010 (2023)AGRITECH-VIII2023 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339001010

9. Исмойилов И.Б,Исмойилов Ф.Б.,Сатторова Н.Н. Новая разрыхтильная машина. «Современные инновационные технологии в легкой промышленности: проблемы и решения»материалы международной научно-практической конференции. Бухара, 2021г. 264-268 -стр.

10. Ismoyilov I.B., Dadaboyev F.M.,Madaliyev O.X. Jun namunalarini tashqi ko‘rinishini baholash uslublari.Tikuv-trikataj sanoatida innovatsion texnologiyalar,ishlab chiqarishdagi muammo,tahlil va sohani rivojlantirish istiqbollari mavzusida respublika ilmiy anjumani.Namangan,2024 1-tom.402-407,betlar

11. Ismoyilov I.B., Dadaboyev F.M.,Madaliyev O.X. Jun xom-ashosi tarkibidan begona aralashmalarni ajratish uslublari. Tikuv-trikataj sanoatida innovatsion texnologiyalar,ishlab chiqarishdagi muammo,tahlil va sohani rivojlantirish istiqbollari mavzusida respublika ilmiy anjumani.Namangan,2024 1-tom.408-414,betlar

12. Ismoyilov I.B., Alliyev N.F. Junni dastlabki tozalash jarayonida 2BT-150-SH mashinasining yangi konstruksiyadagi kolosnik panjarasini loyihalash. “Mexanika muammolarini yechishda innovatsion yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. Buxoro .17-18 may 2024 yil, 200-204 betlar

13. Х.Э. Махмудов.Корхона иқтисодиёти.Тошкент ,ТДИУ,2004 (Ўқув қўлланма) 206-б.

14. М.Қ.Пардаев.Иқтисодий таҳлил назарияси.Тошкент.2021.(Дарслик) 582-б

15. Н.А.Бекниёзов.Иқтисодиёт назарияси. Тошкент.2021.(Дарслик) 582-б].

16. Ф.М.Матмуродов,Р.И.Гимуш.Корхона менежменти.Тошкент.(Ўқув қўлланма). ТАҚИ, 2004 й. 94 бет.

17. Ш.Н.Зайнутдинов, А.Т .Шермухамедов. Менежмент назарияси. Дарслик. Тошкент. IQTISODIYOT, 2014. -270 б.

18. Байчаров Т.М. Разработка и усовершенствование непрерывной технологии переработки отечественной тонкой шерсти по циклу "Немытая шерсть - трикотажная пряжа" Дисс. канд. тех. наук, ФГБОУ ВО «РГУ им А.Н Косыгина » Москва 2019.

UO‘T 631.356.

KICHIK HAJMLI KARTOSHKA KOVLAGICHNING KOVLOVCHI ISHCHI QISMINI SOLIDWORKS DASTURI YORDAMIDA SIMULYATSION TAHLIL QILISH

Alixonov Abrorxon A’zamxon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti, O‘qituvchi, Abroraloxonov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashina va mexanizmlarini modellashtirish dasturiy maxsuloti SolidWorks, va undan qishloq xo‘jaligi mashina va mexanizmlarini yaratishda foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar kartoshka kovlash mashinasi modeli misolida bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье рассматривается программный продукт SolidWorks для моделирования машин и механизмов, а также его применение при создании сельскохозяйственных машин и механизмов на примере модели картофелекопалки.

Annotatsiya. This article discusses the SolidWorks software product for modeling machines and mechanisms, as well as its application in creating agricultural machines and mechanisms using the example of a potato digger model.

Kalit so‘zlar: kartoshka kovlash mashinasi, loyihalash, dasturlash, mexanizm, model, motoblok, eksperiment.

Ключевые слова: картофелекопалка, проектирование, программирование, механизм, модель, мотоблок, эксперимент.

Key words: potato digger, design, programming, mechanism, model, walk-behind tractor, experiment.

Kirish. Kartoshkachilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi hamda Respublika aholisini kartoshkaga bo‘lgan talabini qondirish uchun uni o‘zimizda yetishtirish orqali ta’minlash davlat siyosati darajasida yo‘lga qo‘yilgan [1].

Kartoshka yetishtirishda uning hosilini yig‘ishtirish sermehnat jarayonlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda kartoshka yetishtirishda barcha sarf harajatlarning 75 foizi yig‘ishtirish jarayoniga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kartoshkaning 90% dan ortig‘i ekin maydoni 2 gektardan kam bo‘lgan fermer, dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalarida yetishtirilmoqda [2]. Shu bilan birga, dehqon, fermer va tomorqa xo‘jaliklarida ishlarni mexanizatsiyalash darajasi past, kartoshka yetishtirish uchun mehnat sarf-harajatlari katta [3,4].


Hozirda kompyuter texnologiyalari vositalari va dasturlari yordamida bu masalini aniq va qisqa muddatlarda aniqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, SolidWorks Motion dasturidan foydalanib tezlikni va tezlanishni iterativ usulda aniqlashni ko‘rib chiqamiz. Dasturning mavjud funksional imkoniyatlaridan to‘la foydalanish uchun u qanday analitik bog‘liqliklar asosida qurilganligini, shuningdek, ma’lum bir harakat turining tezligi va tezlanishini topishning analitik ifodalarini taqdim etish kerak bo‘ladi. Buning uchun quyidagi ifodalarni keltirib o‘tamiz. Avtomatik loyihalash va simulyatsion tahlil tizimi barcha bosqichlarning avtomatlashtirish vositalari va usullarini birlashtiradi hamda o‘z navbatida tarkibiy qismlarsifatida boshqa qator avtomatlashtirilgan tizimlarni o‘zida mujassamlashtiradi [5,6,7,8,9].

Bunday vazifani zamonaviy avtomatik loyihalash tizimlari – SolidWorks, AutoCad, T-FLEX CAD, Компас-3D va boshqa dasturlar orqali amalga oshirish mumkin. Bu dasturlar chizmalarini yuqori aniqlikda sifatli chizish, kinematik va dinamik tahlil qilish va detallarni mustahkamligini hisoblash imkonini beradi.

Zamonaviy loyihalash dasturlarni ichida qishloq xo‘jaligi mashinalarni loyihalashda SolidWorks dasturi imkoniyatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi va ko‘p tadqiqotlarda shu usul orqali loyihalash ishlari bajarilgan.

SolidWorks dasturiy ta’minoti–bu kompyuter yordamida manina mexanizm va detallarini


konstruksiyasi (САПР) va 3D modellashtirish uchun ishlatiladigan eng ko‘p tarqalgan vosita hisoblanadi. Ushbu dastur 3D bosib chiqarish uchun qismlar yaratishga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib [6] adabiyotlardan foydalangan holda, kichik hajmli kartoshka kovlagichning lemexi kulachokli rotor bilan jihozlangan kartoshka kovlagichning modelini Solidworks dasturida simulyatsion tajribaviy tahlil qilish bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi (1-rasm) [7].




1-rasm. SolidWorks dasturida kichik hajmli kartoshka kovlagichning texnologik jarayonini tahlil qilish bosqichlari

Dastlab, hisoblar bo‘yicha kerakli o‘lchamlardagi detallarini (2-rasm) va uzellarini (3-rasm) 3D ko‘rinishi SolidWorks dasturiy ta’minoti yordamida alohida-alohida fayllarda tayorlandi.

3D ko‘rinishi so‘ngra, detallar orasidagi o‘zaro bog‘lanish turlari aniqlashtirib alohida faylda uzellar yig‘ib chiqiladi (3-rasm) va o‘z navbatida uzellardan kovlagichning 3D yig‘ma to‘plami tayorlandi. (4-rasm). Detal materiallarini dastur bazasidagi mavjud materiallardan tanlab olinadi masalan lemex materiali uchun “AISI 4340 Stal, normalizovannaya tanlangan. Boshqa detallarni materiali ham shu tartibda bazadagi mavjud materiallardan tanlab olinadi.



а) б)




a) kulachok; b) kulachok vali; v) podshipnik; g) yulduzcha; d) kulachokli rotor yig‘masi.

2-rasm. Kichik hajmli kartoshka kovlash mashinasining detallari


3-rasmda kulachokli rotorga harakat uzatishni kinematik sxemasi keltirilgan. Bunda harakat motoblokning quvvat olish validan kardan val orqali reduktorga uzatiladi, reduktordan zanjirli uzatma orqali harakat kulachokli rotorga uzatiladi.

Bunda (QOV) quvvat olish vali aylanishlar soni 240 r/min ga teng bo‘lganda o‘rnatilgan reduktor aylanishlar sonini ikki marta kamaytirib beradi. Sxemada kulachokli rotorni aylanishlar sonini Z_1 va Z_2 yulduzchalar bog‘lanishini aniqlovchi rotorning aylanishlar sonini n_4= 60,80,100 bo‘lgan holatlar uchun yulduzchalar sonini mashina mexanizmlar nazariyasidagi ifodalar orqali quyidagi formula orqali aniqlaymiz:



a) kovlagichning asosiy ramasi; б) kovlagichning tebranuvchi elagi; в) zanjirli uzatmasi; г) lemex; д) kulachokli rotor bilan jihozlangan lemexning yig‘masi

3-rasm Kichik hajmli kartoshka kovlash mashinasining uzellari



4-rasm. Kichik hajmli kartoshka kovlagichning 3D yig‘ma to‘plami

Kartoshka kovlash mashinasining simulyatsion kinematik tahlili

Mexanizmlarning kinematik tahlili – bu ularning zvenolariga ta’sir etuvchi kuch omillarini hisobga olmagan holda harakatning vaqt funksiyasi sifatida tadqiq qilish turlaridan biridir.

Kinematik tahlil o‘rganilayotgan mexanizmning kattaliklari, harakat yo‘nalishlari va kinematik parametrlarini o‘zgarishini vaqt funksiyasi sifatida tadqiq qilish uchun o‘tkaziladi.

Mexanizmlarining kinematik tahlili doirasida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1) ma’lum bir qaraladigan vaqt oralig‘ida mexanizmning barcha bo‘g‘inlari holatini aniqlash;

2) mexanizmning harakterli nuqtalarining chiziqli tezliklari qiymatlarini aniqlash, barcha zvenolarning burchak tezliklari qiymatlari va yo‘nalishlarini aniqlash;


3) mexanizm harakterli nuqtalari tezlanishlarining qiymatlarini aniqlash, barcha zvenolar burchak tezlanishlari qiymatlari va yo‘nalishlarini aniqlash.

Kinematik tahlilda analitik sonli, grafik va grafo-analitik usullardan foydalaniladi.


Mexanizmni kinematik tadqiq qilish quyidagi masalalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi:

Kulachokli rotorning aylanishlar soni 60, 80, 100 r/min ga teng bo‘lganda tezligining o‘zgarish grafigini quriladi.


Kartoshka kovlagich mexanizmining kinematik juftlaridagi ilgarilanma harakat trayektoriyalari (x, y o‘qlari bo‘yicha), ilgarilanma tezlik va tezlanishlari grafiklari chizildi, sonli qiymatlar jadvali olindi hamda tahlil qilindi (2.19-2.24-rasmlar).




5-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 60 r/min bo‘lganda (kulachok) burchak tezlanishi




6-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 60 r/min bo‘lganda (kulachok) burchak tezligi




7-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 80 r/min bo‘lganda (kulachok) burchak tezlanishi



8-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 80 r/min bo‘lganda (kulachok) burchak tezligi



9-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 100 r/min bo‘lganda (kulachok) burchak tezlanishi



10-rasm. Kulachokli rotorning aylanishlar soni 100 r/min bo‘lganda kulachok burchak tezligi

XULOSA

1. Qishloq xo‘jaligi texnikalarini xususan, kartoshka kovlagichlarni loyihalashda kompyuter dasturlaridan foydalanish juda qulay va samarali vositadir:

2. Solidworks avtomatlashtirilgan loyihalash dasturi kichik hajmli kartoshka kovlagichning dastlabki tajribalarini o‘tkazishda tejamkorlik va yuqori aniqlikni ta’minlaydigan maqbul yechim bo‘la oladi:

3. Kichik hajmli kartoshka kovlagichni loyihalashda Solidworks dasturida yaratilgan loyiha eskizi va uning hisoblaridan foydalanish mumkin:

4. Simulyatsion tahlillar kulachokli rotor aylanishlar soni n_k =100 r/min, kovlagich harakat tezligi 1.0-2.1 km/h, kulachok diametri D_p=70 bo‘lganda tuganakning lemex yuzasidagi harakati grafigi eng maqbul ekanini tasdiqladi. Bu holatda kovlab olinayotgan massani tuganaklarga shikast yetkazmay bo‘laklarga bo‘lib, tebranuvchi elagichga uzatish jarayoni samarali bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 майдаги “Республикада картошка етиштиришни кенгайтириш ва уруғчилигини янада ривожлантириш чора-

тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4704-сон қарори.

2. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2

3. Bayboboev Nabijon Gulamovich, G.K.Rembalovich, Tursunov A.A, Goyipov U.G, Akbarov Sh.B. Theoretical Substantiation of Parameters of Elastic Intensifiers of Separating Working Bodies of Potato Harvesting Machines,"International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology", 6, 12, 12211-12217, 2019, Copyright to IJARSET

4. Bayboboev Nabijon Gulamovich; Goyipov Umidjon Gulomjonovich; Nishonov Xayrullo Xolmirzayevich. Justification Of The Cinematic Parameters Of The Oscillating Lattice Of Potato Harvesters,The American Journal of Engineering and Technology, 2, 08, 7-18, 2020

5. https://studylib.ru/doc/6218915/kinematicheskij-anaziz-v-solidworks

6. Bayboboev N.G, Goyipov U.G, Hamzayev A.X, Akbarov Sh.B, Tursunov A.A. Substantiation and calculation of gaps of the separating working bodies of machines for cleaning the tubers, IOP Conference Series: Earth and Environmental Science,659,1,012022,2021, IOP Publishing

7. Bayboboev Nabijon Gulamovich, G.K. Rembalovich, Tursunov A.A, Goyipov U.G, Akbarov Sh.B. Theoretical Substantiation of Parameters of Elastic Intensifiers of Separating Working Bodies of Potato Harvesting Machines, "International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology", 6, 12, 12211-12217, 2019.

8. Н.Г. Байбобоев, А.А. Алихонов. Результаты экспериментальных исследований роторного рыхлителя малогабаритного картофелекопателя научно–технический журнал ФерПИ ISSN 2181-7200 34-38с.

9. Bayboboev N G, Komilov N M, Alikhonov A A. Improvement and calculation of the working part of the potato digger. Journal of Mechanical and Production Engineering (JMPE) ISSN (Print): 2278-3512; ISSN (Online): 2278-3520 Vol. 14, Issue 1; Jun 2024, 47-52.

UO‘T: 631.13

KICHIK HAJMLI SEYALKALAR EKISH APPARATI G‘ALTAGI VA URUG‘ QAYTARGICH ORASIDAGI O‘LCHAMNI TAJRIBADA ANIQLASH

Normirzayev Abduqayum Raximberdievich
NamTDU, t.f.n., dotsent, nabducaum@gmail.com

Bekmirzayev Shuxrat Bekmirza o‘g‘ li
NamDTU, t.f.f.d. (PhD), shuhratjon1919@gmail.com

Annotatsiya. Ma’lumki, keyingi yillarda Respublikamizning ko‘pgina viloyatlarida kichik fermer xo‘jaliklarida ertangi va takroriy ekinlarni ekishda asosan qo‘l mexnatidan foydalanilmoqda. Urug‘ ni tejash, ekish ishlarini o‘z vaqtida va agrotexnik talablar asosida olib borish hosilni erta muddatda yig‘ ishtirish imkoniyatini beradi. Kichik hajmli seyalkalar ekish apparati g‘altagi va urug‘ qaytargich orasidagi o‘lchamni aniq belgilash urug‘ sarfini kamayishiga olib keladi. Maqolada ekish apparati g‘altagi va urug‘ qaytargich orasidagi o‘lchamni nazariy olingan ko‘rsatkichini tajriba o‘tkazish bilan mos kelishi yoritilgan.

Аннотация. Известно, что в последние годы во многих регионах нашей республики в мелких фермерских хозяйствах на посеве промежуточных и повторных культур используется преимущественно ручной сеяльки. Экономия семян, своевременный посев и выполнение агротехнических мероприятий позволяют получать раннюю уборку. Точное определение размер зазора между катушкой высевающего аппарата и возвратником семян мелкогабаритных сеялок приводит к снижению расхода семян. В статье рассматривается соответствие теоретически полученного показателя размера зазора между катушкой высевающего аппарата и возвратником семян экспериментальным результатам.

Annotation. It is known that in recent years, in many regions of our republic, manual seed drills have been used mainly in small farms for sowing intermediate and repeated crops. Saving seeds, timely sowing and the implementation of agro technical measures allow for early harvesting. Accurate determination of the size of the gap between the seeding machine coil and the seed return of small-sized seed drills leads to a reduction in seed consumption. The article considers the correspondence of the theoretically obtained indicator of the size of the gap between the coil of the seeding apparatus and the seed return to the experimental results.

Kalit so’zlar: urug‘ o‘lchami, g‘altak radiusi, g‘altakning qiyalik burchagi, urug‘ diametri, urug‘ uyachasi, dukkakli urug‘ lar, urug‘ kaytargich, tirqish

Ключевые слова: ячейка, семена в бункере, расположение семян в барабане, боковые стенки барабана, движущая сила, угол отклонения семян, перемещение семян, размер семян, сила давления, действующая на семена, нормальная сила, сила усилия.

Key words: cell, seeds in the hopper, location of the seed in the reel, side walls of the reel, driving force, angle of deviation of the seed, movement of the seed, size of the seed, pressure force acting on the seed, normal force, effort force.

Kirish. Izlanish va tahlilardan kelib chiqib, makkajo‘xori va dukkakli urug‘ larni ekish apparatlarining konstruksiyalarini ishlab chiqilganiga qaramasdan ilmiy tadqiqotchilar tomonidan takomillashtirib borish hamda ularni yangi rusumlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan kelib chiqib, respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos keluvchi kichik hajmli seyalkalar yaratish vazifasi bugungi kunning asosiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Metodika. Ushbu tadqiqotda adabiyotlardan g‘altakli ekish apparatlari tahlili qilindi. Xozirgi vaqtda g‘altakli ekish apparatlari hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi sohasida

foydalanilayotgan bo‘lsada, ammo makkajo‘xori va dukkakli urug‘ larni ekadigan kichik hajmli seyalka konstruksiyasini ishlab chiqish va uning ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.


Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, kichik hajmli seyalkalar asosan chet davlatlarda ishlab chiqarilgan, respublikamizda kichik hajmli seyalkalar ishlab chiqarilmaydi. Shu nuqtai nazardan g‘altakli mexanik ekish apparati bilan jihozlangan kichik hajmli seyalkalar ishlab chiqarish va tadqiqotlar o‘tkazish zarurati bugunki kunnning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Olib borilgan tadqiqot ishlaridan ko‘rinadiki, makkajo‘xori va dukkakli urug‘ larni ekish ishlarida birinchi navbatda ishchi qismlarini nazariy asoslash orqali parametrlarni aniqlash masalasi muhimdir [1,2,3,4,5,6}.

Natijalar. Ma’lumki, urug‘ larning ko‘p miqdorda tushishini oldini olish maqsadida kichik hajmli seyalka g‘altak va urug‘ bunkeri orasiga sozlanuvchi urug‘ qaytargich qo‘yiladi. Ekish apparati g‘altagi va urug‘ qaytargich orasidagi masofani aniqlashda 1-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanildi.

G‘altakdagi urug‘ uyasi 2 vertikal holatga kelganda (1-rasm) urug‘ 3 bir-biriga tegishi va urug‘ bunkeri 5 ning qiya devorlarida sirpanish hosil qilib urug‘ uyasiga tushishga harakat qiladi.

G‘altak aylanganda urug‘ 3 ning vertikal ravishda harakatga keltirish jarayoni boshlanadi. Ushbu holatda birinchi navbatda turgan urug‘ orasidagi kuchlanish yo‘qoladi va keyingi navbatda turgan urug‘ ustma-ust turgan urug‘ lar sirtiga tegib harakat qiladi.



1-ekish apparati g‘altagi, 2-urug‘ uyasi, 3-urug‘ , 4-qaytaruvchi cho‘tka, 5-bunker


1-rasm. G‘altakda urug‘ ni qabul qilish sxemasi

Ustma-ust holatga o‘tgan urug‘ lar g‘altak aylanishi hisobiga harakat qiladi va keyingi bo‘sh uyalarga tushadi.

Urug‘ larning ko‘p miqdorda tushishini oldini olish maqsadida kichik hajmli seyalka g‘altak va urug‘ bunkeri orasiga sozlanuvchi urug‘ qaytargich qo‘yiladi (2-rasm).

Ekish ishlarini olib borishda urug‘ ni bir me’yorda tushishini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida h_{min} urug‘ va qaytargich orasidagi masofani ko‘rish mumkin. Chunki bu ko‘rsatkichni belgilangan me’yordan katta tanlansa, urug‘ me’yordan ortiq miqdorda tushish hisobiga urug‘ tushgich to‘lib qolishiga olib keladi. Bu esa ekishda urug‘ ni tuproqqa tushishida bir xillikni ta’minlashga to‘sqinlik qiladi [6,7,8,9,10].

Bu o‘rinda keltirish mumkinki, g‘altak radiusining kritik qiymati normal kuch vektorining davomi markazdan o‘tgan hol uchun aniqlanadi [9,10,11,12,13]. Bu holatda urug‘ va g‘altak sirtlari orasida sodir bo‘luvchi ishqalanish kuchlarining vektorlari qaytargich va g‘altak orasidagi h_{min} masofa o‘rtasidan o‘tuvchi, markazlari bir-biri bilan bog‘ laydigan chiziqda bo‘ladi (2-rasmga qarang).



1-bunker; 2-urug‘ ; 3-urug‘ qaytargich; 4-ekish apparati g‘altagi; h_{min} – urug‘ va qaytargich orasidagi masofa; l -g‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofa; $h1$ –urug‘ va ekish apparati g‘altagi markazlari orasidagi masofa

2-rasm. Urug‘ va qaytargich orasidagi o‘lchamni aniqlash sxemasi

Nazariy hisob kitoblarga asosan g‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofa $h_{\min}$ ni aniqlashni quyidagi ifodasini olish mumkin:

$$h_{\min} = \frac{R + r_{\max}}{\cos^2 \alpha} - R \qquad (1)$$

(1) ifodadan ekish uchun olingan makkajo‘xori urug‘ ni o‘lchamini o‘lchagandan so‘ng, urug‘ ning radiusi 0,32-0,36 cm o‘lcham ichida o‘zgarib turishini ko‘rish mumkin.

Muhokama. Tajriba-sinov ishlarida o‘tkazishda asta-sekinlik bilan $h_{\min}$ o‘lchamni ortirib va lenta tezligi 0,8 m/c dan 1,0 m/c gacha o‘zgartirib borildi. Bunda ekish g‘altagining aylanishlar soni 60 r/min teng etib belgilandi.

1-jadval

G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofani tajriba natijalari

Ko‘rsatkichlar nomi	G‘altakning aylanishlar soni $N = 60$, r/min							
	Lenta tezligi, m/c							
	0.8				1.0			
	G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofa, mm							
Uyalardagi urug‘ lar soni N_u, dona	1,3	1,9	2,2	2,6	1,5	2,2	2,5	2,9
Uyalar orasidagi masofaga $l_{uo'}$ cm	23,8	19,6	15,6	11,2	25,6	19,1	16,8	13,1
Uyalar simmetriya o‘qidan og‘ ishi $l_{uk'}$, cm	1,0	1,1	1,4	2,2	1,4	1,5	2	2,9
Uyalar orasidagi masofani o‘zgarishi $l_{uch'}$, cm	2,5	2,2	1,8	1,7	2,6	2,4	2,1	1,8


O‘tkazilgan tajriba sinovlardan olingan natijalar 1-jadval keltirilgan va bu ma’lumotlar asosida 3, 4, 5 va 6-rasmlarda keltirilgan grafiklar qurildi.

3-rasmda keltirilgan grafikdagi ma’lumotlardan bilish mumkinki, g‘altak va qaytargich orasidagi masofa ortishi hisobiga tushgan urug‘ lar soni sezilarli ko‘payib borgan. Lenta tezligi 0,8 m/c va $h_{\min} = 0{,}3$ cm bo‘lganda uyalardagi urug‘ lar soni 1,3 donaga yetdi, $h_{\min} = 0{,}5$ cm


bo‘lganda uyalardagi urug‘ lar soni 2,6 donaga yetdi. Lenta tezligi 1,0 m/c bo‘lganda ham mos ravishda 1,5 donadan 2,9 donaga yetganini ko‘rish mumkin

Olib borilgan tajriba ma’lumotlariga asoslansak (4-rasm) da, $h_{\min}$ masofa ortib borsa, uyalar orasidagi masofa kamayib borishi kuzatildi. $h_{\min} = 0{,}2$ cm bo‘lganda urug‘ lar tushishi kamayishi hisobiga uyalar orasidagi masofaga eng katta ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. $h_{\min}$ o‘lcham kattalashishi hisobiga urug‘ lar tushishi ortishi bilan bu ko‘rsatkich kamaya boshlaydi.


Bundan xulosa qilish mumkinki, $h_{\min}$ o‘lcham ortsa, uyalarning uzunligi sezilarli darajada kamayadi.




3-rasm. G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofani uyalardagi urug‘ lar soniga bog‘ liqlik grafigi



4-rasm. G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofani uyalar orasidagi masofaga bog‘ liqlik grafigi



5-rasm. G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofani uyalar simmetriya o‘qidan og‘ ishiga bog‘ liqlik grafigi



6-rasm. G‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofani uyalar orasidagi masofani o‘zgarishiga bog‘ liqlik grafigi

5–rasmda keltirilgan grafik shuni ko‘rsatadiki, uyalarning simmetriya o‘qidan og‘ ishi $h_{\min}$ o‘lcham ortib borishi bilan ortib borgan. Uya simmetriya o‘qidan og‘ ishi lenta tezligi 0,8 m/c bo‘lganda $h_{\min} = 0{,}2$ cm da 1,0 cm, $h_{\min} = 0{,}5$ cm bo‘lganda 2,2 cm ni, tezlikni ortirish hisobiga mos ravishda 1,4 cm va 2,9 cm tashkil etgan.

Lentani ikki tezligida ham $h_{\min}$ g‘altak va urug‘ qaytargich orasidagi masofa va uyalar simmetriya o‘qidan og‘ ishi orasidagi bog‘ lanishni tasvirlovchi grafik egri chiziqdan iborat bo‘ldi. Bu esa, uyalar simmetriya o‘qidan og‘ ishi ortib borishi makkajo‘xori va dukkakli urug‘ larni ekish talablariga mos keladi.

6-rasmdagi grafik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, g‘altak va urug‘ qaytargich

orasidagi masofa $h_{\min}$ ortishi hisobiga uyalar orasidagi masofani o‘zgarishi sezilarli darajada kamayadi. O‘tkazilgan tajribalarda lenta tezligi $V_a = 0{,}8$ m/c dan $V_a = 1{,}0$ m/c gacha ortirib borildi. Grafikka ko‘ra, lenta tezligi ortishi bilan urug‘ lar uyasi orasidagi masofani o‘zgarishi kichrayib borgan. Masalan, $h_{\min} = 0{,}2$ cm, va $h_{\min} = 0{,}3$ cm, lenta tezligi $V_a = 0{,}8$ m/c bo‘lganda, uyalar orasidagi masofani o‘zgarishi mos ravishda 2,5 cm va 1,8 cm ga teng bo‘ldi. $V_a = 1{,}0$ m/c gacha ortishi bilan urug‘ lar uyasi orasidagi masofani o‘zgarishi 2,6 cm dan 1,9 cm gacha kamayib borgan. Bunga g‘altak va qaytargich orasidagi masofa ortganda, transportyor lentasiga urug‘ lar tushishi ortishi hisobiga urug‘ lar uyasi orasidagi masofani kamayib borishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib urug‘ va qaytargich orasidagi masofa mos ravishda makkajo‘hori urug‘ ini ekish uchin ekish apparati g‘altagi va urug‘ qaytargichi orasidagi o‘lchamni nazariy olingan ko‘rsatkichga mos 3 mm ekanligini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Сотволдиев М. М., Нуриддинов А. Д., Тухтабаев М. А. Разработка ручной сеялки для посева мелких семян //Экономика и социум. – 2023. – №. 4-1 (107). – С. 1134-1137.

2. Нормирзаев А. Р., Нуриддинов А. Д., Бекмирзаев Ш. Б. Ў. Донадор уруғларни экадиган мини сеялка экиш аппаратини ишчи қисм ўлчамларини асослаш //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 78-83.

3. Бекмирзаев Ш., Нормирзаев А. Р. Донли экинларни экиш учун каторли к; ул сеялкаси //Материалы конференции: Машинасозликда инновациялар, энергиятежамкор технологиялар ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. – 2021. – Т. 2. – С. 321-325.

4. Нормирзаев А., Бекмирзаев Ш. Дуккакли экинларни экиш учун куш каторли сеялка //ФарПИ илмий-техника журнали.-Фаргона.-2021. – 2021.

5. Бекмирзаев Ш. Б. Ў. Дуккакли уруғларни экишда таъсир этувчи кучларни тадқиқ қилиш //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 95-101.

6. Бекмирзаев Ш. Б., Нормирзаев А. Р., Нуриддинов А. Д. Анализ конструкции мини-сеялок для высева бобовых семян //Инновации в сельскохозяйственном машиностроении, энергосберегающие технологии и повышение эффективности использования ресурсов. – 2022. – С. 106-111.

7. Бекмирзаев, Ш. "Дуккакли уругларни экишда уруг харакатига таъсир этувчи кучларни тахлил килиш." *Scienceweb academic papers collection.-2022* (2022).

8. Бекмирзаев Ш. Б. У., Нормирзаев А. Р. Определение размера между катушкой и загортачом аппарата сеялки //Строительство и образование. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 104-109.

9. Бекмирзаев Ш. Б. Ў. Дуккакли уруғларни экишда таъсир этувчи кучларни тадқиқ қилиш //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 95-101.

10. Нормирзаев А. Р., Бекмирзаев Ш. Б. Ў. Ғалтакдаги уялар сонини уялардаги уруғлар сонига, уялар орасидаги масофага, уялар кенглигига ва уялар чўзилганлигига боғлиқлиги //Механика и технология. – 2023. – Т. 4. – №. 13. – С. 102-107.

11. Normirzayev A., Bekmirzayev B. Study of seed movement //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. A8. – С. 109-114.

12. Normirzaev A. R. Substantiation parameter spherical coulter of reversible plough //Механика и технология. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 136-141.

13. Нормирзаев А. Р., Нуриддинов А. Д., Бекмирзаев Ш. Б. Ў. Донадор уруғларни экадиган мини сеялка экиш аппаратини ишчи қисм ўлчамларини асослаш //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 78-83.

UDK 625.745

TARTIBGA SOLINGAN CHORRAHALARDA TRANSPORT OQIMLARINING VAQTINCHA NOTEKISLIGINI HISOBGA OLISH MUAMMOSI

Nasriddinov Azizbek Shamsiddinovich
NamDTU, dots.

Annotatsiya. Svetaforlarni boshqarishni parametrlarini hisoblashning mavjud metodologiyasi qarama-qarshi yo‘nalishlar o‘rtasida yashil signalning yonish davomiyligini ularning intensivligiga qarab mutanosib ravishda taqsimlashga asoslangan.

Аннотация. Существующая методика расчета параметров управления светофорами основана на пропорциональном распределении продолжительности горения зеленого сигнала между противоположными направлениями в зависимости от их интенсивности.

Abstract. The existing methodology for calculating traffic light control parameters is based on the proportional distribution of the duration of the green signal between opposite directions, depending on their intensity.

Kalit so‘zlar: transport, transport vositasi, piyoda, yo‘l, harakat xavfsizligi, haydovchi, mintaqa, yo‘l-transport hodisasi, svetafor, tartibga soluvchi, tezlik.

Ключевые слова: транспорт, транспортное средство, пешеход, дорога, безопасность движения, водитель, регион, дорожно-транспортное происшествие, светофор, регулировщик, скорость.

Keywords: transport, vehicle, pedestrian, road, traffic safety, driver, region, road traffic accident, traffic light, traffic controller, speed.

Svetafor signalizatsiyasi orqali transport oqimini boshqarishning asosiy g‘oyalari va usullarini ishlab chiqish o‘tgan asrning 70-80-yillarida sodir bo‘lgan. O‘sha paytda ulardan foydalanish yo‘l transport hodisalarini kamaytirish, zararli chiqindilarni kamaytirish va transport kechikishlarini optimallashtirish bo‘yicha yaxshi natijalarga erishishga imkon berdi. Bu o‘sha davrdagi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan. Mamlakatimizda svetforni boshqarish samaradorligi bo‘yicha bunday tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jamoat xavfsizligi xizmati YHXB boshqarmasi va Transport vazirligi hamkorligida Toshkent shahri, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Navoiy va boshqa yirik shaharlarda o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda, Respublikamizda transport sonini va intensivligining oshishi munosabati bilan tartibga solinadigan chorrahalar samaradorligining pasayishi kuzatilmoqda. Bu esa o ‘z navbatida tirbandliklarni hosil bo’lishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, tirbandlikning eng ko‘p sababi butun chorrahada emas, balki faqat alohida yo‘nalishlarda transport harakati bilan bog‘liq muammolardir.


Tirbandlik sabablarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, transport oqimi holatlarini farqlashning mavjud yondashuvi bilan, tartibga solinadigan chorrahalarda tirbandlikda qolish muammolari faqat transport oqimining to‘yingan holatida yuzaga keladi. Bundan tashqari, chorrahalarda harakatning ma’lum yo‘nalishlarida tirbandlikning paydo bo‘lishi kundan-kunga muntazam bo‘lib turadi.

Ushbu tadqiqotda o‘rganish uchun eng katta qiziqish transport oqimining notekisligi hisoblanadi.

Transport oqimining notekisligi-bu transport oqimining shahar ko‘cha va yo‘l tarmog‘iga kelishi va harakatining tasodifiy tabiatining namoyon bo‘lishi. Transport oqimining bunday tabiati, shuningdek, vaqt va makonda uning xususiyatlarining tasodifiy o‘zgarishiga olib keladi.

Shunga asoslanib, transport oqimining vaqtinchalik va fazoviy notekisligini ajratish mumkin. Svetaforni boshqarishni tashkil etish va undan foydalanish masalalarini hal qilishda transport oqimining vaqtincha notekisligi haqidagi bilimlar muhimdir.

Misol tariqasida, 1-rasmda transport oqimi ish haftasi davomida Namangan shahrining magistrallaridan birida kun davomida soatlik harakat intensivligining o‘zgarishi grafiklari keltirilgan.




1-rasmda Harakatning o‘ziga xos intensivligi keltirilgan.

Ish kunlarida harakat intensivligining o‘zgarishi jadvallari juda o‘xshash, ish kunlari uchun eng yuqori davrlarda intensivlik qiymatlarining tarqalishi 5% dan oshmaydi. Biroq, o‘zgarishdagi farqlar haftaning turli kunlaridagi intensivliklar hali ham mavjud va bu uning o‘zgaruvchan xususiyatini ko‘rsatadi, chunki har xil davomiylikdagi vaqt oralig‘ida qayd etilgan transport oqimi notekisligining tashqi aksidir. O‘rganilayotgan intervalning davomiyligiga qarab, transport oqimining vaqtinchalik notekisligini quyidagi darajalarga bo‘lish mumkin:

- soat ichida;
- kunlik;
- haftalik;
- yillik.

Barcha darajalarning vaqtinchalik notekisligini hisobga olishni amalga oshirish uchun transport oqimi parametrlari to‘g‘risidagi statistik ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida (bir yildan bir necha yilgacha) to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish kerak, bu kamdan-kam istisnolardan tashqari amalda amalga oshirish qiyin. Shuning uchun, hozirgi vaqtda transport oqimi ning vaqtincha notekisligi, uning ko‘rsatkichlari va xususiyatlari, svetaforni boshqarishni tashkil etish amaliyotida va uning parametrlarini hisoblashda O‘zbekiston Respublikasida transport oqimi deyarli qo‘llanilmaydi. Shunday qilib, kunlik notekislikni hisobga olish yetarli darajada amalga oshirilmaydi, eng yaxshi holatda, chorrahada kun davomida 3-4 smenali signal dasturlari ishlatiladi va soatlik notekislikni hisobga olish umuman amalga oshirilmaydi.

Shu bilan birga tirbandlikning bir qismi paydo bo‘lishi, bir soat ichida kuzatilgan notekis transport oqimi mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, tasodifiy qisqa muddatli o‘sish tufayli transport oqimining intensivligi chorrahada yondashuvning o‘tkazish qobiliyatidan oshib ketadi. Bu tirbandlik hosil bo‘lishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida chorrahaning sig‘imini uning paydo bo‘lish davriga nisbatan svetaforni boshqarish uzoqroq muddatga kamaytiradi. Chorrahaga yaqinlashishda bir lahzali intensivlikni o‘tkazish qobiliyatidan oshib ketish jarayonining misoli, shuningdek transport oqimi intensivligining hisoblangan qiymatining grafik aksi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. 5 daqiqalik intervallarda harakatlanish intensivligi darajasining sozlanishi yo‘nalishning o‘tkazuvchanlik darajasidan oshib ketishiga misol solishtirilgan.

Transport oqimining notekislik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, ularni svetaforni boshqarish parametrlarini hisoblashda hisobga olish tirbandlik ehtimolini kamaytiradi va umuman tartibga solinadigan chorrahalarning samaradorligini oshiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, intensivlik qiymatlarini tahlil qilishda transport oqimining barcha holatlari uchun notekislik xarakterli ekanligi aniqlandi. Shuning uchun transport oqimi holatlarining har birida vaqtinchalik notekislikning o‘zgarishi chegaralarini aniqlash muhim masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Q.H.Azizov. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari.-T., “Fan va texnologiya”, 2009, b-44.

2. Имомназаров С. К. и др. Участие общественности в обеспечении безопасности движения //Экономика и сотсиум. – 2021. – №. 5-1. – С. 939-942.

3. Шохрух Охунжон Угли Абдуганиев, Азизбек Шамсиддинович Насриддинов, “Анализ и отсенка дорожно-транспортных происшествий (пдд) в обеспечении безопасности дорожного движения” универсум: технические науки, 2023.

4. Imomnazarov S.K., Nasriddinov A.Sh., Razokov A.Ya. Application of Intelligent Systems in Cars // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. 2021 ISSN: 2319-7064 – P. 78–80.

5. “Avtomobilda tashuvchi tomonidan haydovchilarga yo‘l harakati xavfsizligi masalalari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligidagi 2014yil 13 mayda 2582-son bilan ro‘yhatga olingan)

6. A study of traffic capacity / Greenshields B.D. // Proc. (US) Highway Research Board. 1934. Vol. 14. pp. 448 – 494.

7. Математическое моделирование загрузки транспортных сетей/ В.И. Швесов, А.С. Алиев. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 64 с.

8. Моделирование дорожного движения: учебное пособие для студентов спесиалности 190702 «Организатсия и безопасност движения» очной формы обучения / А. В. Косолапов – Электрон. – Кемерово: КузГТУ, 2012.

9. Организатсия дорожного движения: учеб. для вузов. – 5-е изд., перераб. и доп. /

Клинковштейн Г. И., Афанасев М. Б. – М: Транспорт, 2001 – 247 с.

10. Введение в математическое моделирование транспортных потоков: учеб. пособие [Текст] / А.В. Гасников [и др.]; под ред. А.В. Гасникова. – М.: МФТИ, 2010. – 360 с.

11. Xamzayev A. A. СИЛЫ, ДЕЙСТВУЮЩИЕ НА АВТОМОБИЛЬ //Строительство и образование. – 2024. – Т. 3. – С. 252-255.

12. Хамзаев А. А. и др. Определение мощности, передаваемой на колеса автомобиля //Механика и технология. – 2024. – Т. 2. – №. 15. – С. 143-146.

UDK. 002: 651. 1/7

PIYODALAR O‘TISH JOYLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Madraximov Alloberdi Maxmadaliyevich
Namangan davlat texnika universiteti, dotsenti, alloberdimadraximov@gmail.com

Annotatsiya. Yo‘l xarakati xavsizligini ta’minlash vazifalari, yo‘l-transport hodisalarini oldini olishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni alohida tahlil qilish va ularni o‘zaro kompleks ravishda o‘rganishdan iborat, yo‘l transport hodisalarining xususiyatlari.

Аннотация. Задачи обеспечения безопасности дорожного движения включают в себя раздельный анализ факторов, влияющих на профилактику дорожно-транспортных происшествий, и их комплексное изучение во взаимосвязи между собой, а также особенностей дорожно-транспортных происшествий.

Annotation. The tasks of ensuring road safety include a separate analysis of factors influencing the prevention of road accidents and their comprehensive study in their relationship with each other, as well as the characteristics of road accidents.

Kalit so‘zlar: yo‘l tarmog‘i, piyoda, avtomobil yo‘llari, yo‘l infratuzilmasi, radio to‘lqinlar, yo‘l belgilari, xavfsizlik koeffitsienti.

Ключевые слова: дорожная сеть, пешеход, автомагистраль, дорожная инфраструктура, радиоволны, дорожные знаки, коэффициент безопасности.

Keywords: road network, pedestrian, highway, road infrastructure, radio waves, road signs, afety factor.

Kirish (Introduction). Piyodalar harakatini ishtirokchilar soni, oqim yo‘nalishi, oqim tuzilishi, harakat jarayonining davomiyligi, harakat sharoitlari bo‘yicha tasniflaydi. Ushbu belgilar piyodalar harakati sodir bo‘ladigan hududlarning shaharsozlik xususiyatlari bilan bog'liq bo‘lgan piyodalar harakatining bir necha turlarini tashkil etadi.

Odatda piyodalar harakatini tashkil etishning quyidagi usullari ajratiladi:

- piyodalarni piyodalar yo‘laklarida harakatlanishini tashkil etish;
- piyodalar o‘tish joylarida harakatni tashkil etish;
- piyodalar ko‘chalarini (zonalarini) tashkil etish;
- "yashash zonasi" usuli bo‘yicha harakatni tashkil etish;
- Piyodalar yo‘lkalarini tashkil qilish.

Harakatni tashkil qilishning ushbu usullarining har biri o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Namangan shaxar 3-kichik tuman (tennis korti oldi) chorraxasida joylashgan piyodalar o‘tish joylari ko‘rib chiqiladi, ularning tasnifi ko‘chada joylashgan joy va tartibga solish turi kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Yo‘llarda joylashgan piyodalar o‘tish joylari quyidagilar bo‘lishi mumkin: O‘tish joylarida joylashgan piyodalar o‘tish joylari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ko‘cha;
- ko‘chadan tashqari.

Tartibga solish turiga ko‘ra ko‘cha piyodalar o‘tish joylari quyidagilarga bo‘linadi.

- Tartibga solingan (piyodalar harakati alohida bosqichda
- tartibga solish);
- tartibga solinmagan;
- qisman tartibga solish bilan (piyodalar transport vositasi svetaforlariga amal qilgan holda harakatlanadilar.)

1-jadval

Piyodalar harakatini tashkil qilish usullarining afzallik va kamchiliklari.

Harakat xavfsizligini tashkil etish usuli	**Qo‘llaniladigan vositalar**	**Harakat xavfsizligini usulining afzalligi**	**Harakat xavfsizligini usulining kamchiliklari**
Piyodalar harakati trotuarda	Avtotransport vositalarining piyoda yo‘llariga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun to‘siqlar	Yo‘llarda transport va piyodalar oqimini ajratish	Piyodalar yo‘llarini xavfsiz holatda saqlash zarurati, kengligi etarli bo‘lmagan holda, piyodalarning yo‘lga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun to‘siqlar yordamida zarur
Piyodalar o‘tish joylarida harakatlanish	**5.19.1, 5.19.2,** 6.6, 6.1 yo‘l belgilari **1.14.1, 1.14.2, yo‘l belgi chiziqlari**	Intensivligini hisobga olish piyodalar oqimi va transport oqimi, bu o‘tish joyining jihozlari va uning xavfsizligini belgilaydi	Tez-tez joylashganda ko‘cha sig'imining pasayishi piyodalar oqimi, piyodalar xavfsizligi kamroq (istisno-ko‘chadan tashqari piyodalar oqimi)
Piyodalar yo‘lkalari	**4.5, 5.33, 5.34 yo‘l belgilari**	Transport vositalarini harakati taqiqlanganligi atrof-muhit ko‘rsatkichlarini yaxshilash	Haddan tashqari yugurish transport vositasi piyodalar zonasini aylanib o‘tish natijasida, tezligining pasayishi transport oqimi zichligi oshishi sababli aylanma yo‘llarda transport oqimi, piyodalar zonasidagi ob'ektlarga transport xizmatining murakkabligi
"Turar joy dahasi"	**5.21, 5.22 yo‘l belgilari**	Piyodalarga ustuvorlik berish, tezlikni cheklash transport vositasi, haydash rejimini tartibga solish va to‘xtash joyi transport vositasi	Avtoturargohlarni joylashtirish zarurati transport vositasi, kelajakda to‘xtash joylari sonini hisobga olish zarurati
Piyodalar trotuarlari	Harakatni tashkil etishning barcha texnik vositalari, ularni joriy etish sharti bilan ilgari ko‘rsatilgan	Doimiy intensiv harakatlanish uchun qulay sharoitlarni yaratish piyodalar o‘tish joyi	Yo‘nalishsxemalarini o‘rnatish va kerakli texnik vositalar bilan jihozlash zarurati harakatni tashkil qilish

Shahar markaziy ko‘chasida o‘tish joylarida aylanma transport oqimlari bilan harakatlanish mavjud bo‘lmaganligi sababli ularni ko‘rib chiqilmaydi.

Sozlanishi mumkin bo‘lgan piyodalar o‘tish joylari qat’iy tartibga solish va piyodalar qo‘ng'iroq qilish rejimida ishlashi mumkin.

Piyodalar o‘tish joylarini transportni tashkil etishning texnik vositalari bilan jihozlash GOST R 52289-2004 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, piyodalar o‘tish joylarini tashkil qilishda kamchiliklar mavjud, ular:

- tartibga solinadigan o‘tish zonasida GOST R 52289-2004 da nazarda tutilgan piyodalar uchun qo‘llanma to‘siqlarining yo‘qligi;

1. Yo‘l belgi chiziqlarining yo‘qligi (1.14.1-1.14.2);
2. O‘tish chegaralarida 5.16.1-5.16.2 belgilarining yo‘qligi.

Piyodalar harakati jarayonini tavsiflash uchun piyodalar oqimini tavsiflovchi parametrlardan foydalaniladi. Bularga quyidagilar kiradi: intensivlik, tezlik, piyodalar oqimining zichligi. Tezlik va zichlik tasodifiy o‘zgaruvchilar bo‘lib, ularga ko‘p sonli omillar ta'sir qiladi, masalan, kun va yil davri, piyodalarning yoshi va jinsi va boshqalar. Piyodalar harakatining intensivligi piyodalar yo‘llarining yuklanishini (piyodalar harakatining qulayligi) baholash uchun shuningdek, ularning parametrlarini hisoblash va harakatni tashkil etish choralarini asoslash uchun ishlatiladi.

Piyodalar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari faqat kamdan-kam hollarda bitta sabab bilan izohlash mumkin. Ular odatda bir qator omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir, ulardan biri hal qiluvchi. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda odatda faqat bitta sabab ko‘rsatiladi, ko‘pincha haydash rejimini noto‘g‘ri tanlagan haydovchining aybi, ayniqsa har qanday hodisa uchun har doim ishtirokchilardan birining harakat tezligini belgilash mumkin.baxtsiz hodisa sodir bo‘lmaydi. Jiddiy tushuntirish ushbu masala yo‘l harakati qoidalarining 10.1-bandida, muvofiq agar haydovchi aniqlay oladigan xarakat xavfi mavjud bo‘lsa, u barcha imkoniyatlarni olishi kerak avtomobil to‘xtaguncha tezlikni kamaytirish choralari.

Baxtsiz hodisaning paydo bo‘lishiga ta’sir qilish darajasiga ko‘ra, barcha sabablar bo‘lishi mumkin voqea sodir bo‘lishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan asosiy yoki asosiyga bo‘ling (15-20% – transport vositasini boshqarishda haydovchi xatolari), faol sabablar yoki asosiy sababning paydo bo‘lishiga sezilarli hissa qo‘shadigan omillar (50-80%) va bilvosita (ikkilamchi) kam ta’sir ko‘rsatadiganlar.

Mamlakatda so‘nggi yillarda turli manbalar yo‘ldagi zamonaviy infratuzilmaning xolati holati jumladan piyodalar o‘tish joyidagi, har beshinchi yoki yettinchi avariyaning sababi ekanligini ko‘rsatdi. Piyodalar o‘tish joyidagi yo‘lning ko‘rinish ta’siri shundan kelib chiqadi yo‘l xarakatini tartibga soluvchi xodimlari baxtsiz hodisalarni hajmini ob’ektiv qayd eta oladigan uskunadan foydalanmasdan tekshiradilar va yo‘l elementlarining holati, shuningdek o‘sha paytdagi ob-havo sharoiti voqealarga to‘g‘ri keladi.

Signalizatsiyalangan piyodalar o‘tish joylarida nogironlar tugmachani topishda ва keyinchalik o‘tish davri davomida yo‘lni kesib o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, ba’zi nogiron piyodalar tugmachani bosish va yoki uni bosishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Signalli o‘tish joylarini zaif piyodalarni aniqlash va tugmani bosishni talab qilmasdan yashil odamga qo‘ng‘iroq qilish texnologiyasi bilan jihozlashdan potentsial foyda bor. Ushbu maqola Наманган шахридаги o‘tish joyida foydalanuvchiga joylashuv xabari va yashil odamga masofadan turib talabni kiritish imkoniyatini taqdim etgan radiochastotani aniqlash (RAM) texnologiyasidan foydalanishni sinab ko‘rish uchun ko‘chadagi sinov natijalarini taqdim etadi.

Sinov signalizatsiyalangan piyodalar o'tish joylarida RAM uskunasidan foydalanish kontseptsiyasini isbotladi. Umuman olganda, sinov uskunalari muvaffaqiyatli ishlashini isbotladi va foydalanuvchilar orasida mashhur bo‘ladi.

Jarayon shuni ko‘rsatadiki, tizim yanada texnik rivojlanishni talab qilsa-da, nogiron piyodalarning signalizatsiyalangan yo‘l o‘tish joylaridan foydalanish tajribasiga foyda keltirishi mumkin.

Усуллари (methods). Zamonaviy texnologiyaga ehtiyoj. Rasmiy statistika tomonidan

piyodalar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lishida yo‘lning infratuzilmasini yetarlicha baholamaslik bizning ishimizni asosiy manbasi hisoblanadi. Baxtsiz hodisa joylarini tekshirish va ularning paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tahlil qilingan hollarda, yo‘l sharoitlari ushbu baxtsiz hodisalarning paydo bo‘lishiga sezilarli hissa qo‘shganligi, kutilmagan tarzda haydashni oldingi bo‘limlarga nisbatan murakkablashtirganligi ma’lum bo‘ldi. Voqea sodir bo‘lishi batafsil tahlil hodisalardan, silliq yo‘lak sababli (51,5 – 71,9%), notekis yo‘lak (9,6 – 22,5%), yomon yo‘l bo‘lagi (4,8 – 5,2%), qishda yo‘lga etiborni pastroq qaratish (4,7 – 5,2%) bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatadi, zarur belgilari yetishmasligi, joylarda (2,0 – 3,7%), yo‘l qurilish texnikasi yoki materiallari bilan yo‘lning torayishi (1,8 – 2,9%) [2].

Yo‘lning asosiy uzunligi bo‘ylab rivojlanadigan transport rejimlariga mos kelmaydigan yo‘l uchastkalari avariyalar to‘planadigan joylarga-avariyalar o‘choqlariga aylanadi. Bunday joylarning uzunligi yo‘llarning umumiy uzunligiga nisbatan kichikdir. Mamlakatda bu yo‘l tarmog‘ining umumiy uzunligining 3-7% dan oshmaydi deb ishoniladi, ammo ular barcha baxtsiz hodisalarning 30 dan 50% gacha sabab bo‘ladi.

Ko‘plab nogironlar uchun yo‘lni kesib o‘tishdan qo‘rqish ularni piyodalar muhitidan foydalanishga to‘sqinlik qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Ushbu qo‘rquv nogironlarning avtobus yoki poezd kabi boshqa transport turlariga kirishiga ham to‘sqinlik qiladi. Signalizatsiyalangan o‘tish joylari nogiron foydalanuvchilarga yo‘lni kesib o‘tishda yordam beradigan xususiyatlar bilan jihozlanishi mumkin, masalan, aylanadigan taktil konuslar va ovozli signallar. Nogiron foydalanuvchilarga o‘tish joyini zaif piyodalarni aniqlash va tugmani bosishni talab qilmasdan yashil odamga qo‘ng‘iroq qilish texnologiyasi bilan jihozlash orqali yanada ko‘proq foyda olish imkoniyati mavjud. Bunday tizimga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab foydali xususiyatlar mavjud (masalan. foydalanuvchiga o‘tish joyiga yaqinlashganda va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda o‘tish vaqtini uzaytirganda berilgan manzilni aniqlash bo‘yicha og‘zaki xabar) ushbu maqolada keyinroq muhokama qilinadi. Radiochastotani aniqlash moslamalari (RAM) nogiron piyodalar va o‘tish moslamalari o‘rtasida joylashuv xabarini avtomatik ravishda faollashtirish va yashil odamga talabni kiritish uchun aloqa o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkin. RTYOI -bu radio to‘lqinlar yordamida identifikatsiya qilish va kuzatish maqsadida ob’ektdan foydalanish (odatda RAM yorlig‘i deb ataladi). RTYOI ni oddiygina elektron radio to‘lqin shtrix-kodi deb hisoblash mumkin. RTYOI yo‘lni aniqlash va yoki sayohat ma’lumotlarini taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin. RTYOI texnologiyasi ko‘zi ojizlar tomonidan avtobus bekatlarida real vaqtda yo‘lovchilar haqida ma’lumot belgilari bilan targ‘ib qilinadi.



Radio to‘lqinlar yordamida identifikatsiya qilish yordamida foydalanuvchi tizimni ishga tushiradigan va oldindan dasturlashtirilgan audio e’lonlarni faollashtiradigan noyob ID protokol tizimi orqali ishlashi bilan dasturlashtirilgan. Bu tizimda keyinchalik, transport shahar yirik transport infratuzilmasi loyihalash yo‘llarini tadqiq qilish dasturi orqali Radio to‘lqinlar yordamida identifikatsiya qilish texnologiyasidan foydalanishni sinab ko‘rish uchun moliyalashtiriladi.

Sinov uskunalari nogiron piyodalarga joylashuv xabarini va masofadan turib faollashtirilgan piyodalar fazasi talabini taqdim etadi, bu foydalanuvchidan o‘tish joyidagi tugmachani jismonan

bosishni talab qilmaydi. Tizim birinchi navbatda ko‘r va qisman ko‘radigan foydalanuvchilarga, harakatchanligi buzilgan piyodalarga va tugmachani jismonan bosish qiyin bo‘lgan piyodalarga qaratilgan, ushbu uchta foydalanuvchidan. Joylashuv xabari ko‘r piyodalar uchun eng foydali.

Foydalanuvchiga xos o‘tish vaqtini kiritish kabi boshqa xususiyatlar sinovda ishlatiladigan texnologiyalar bilan mumkin emas va intiluvchan.Sinovda ishlatiladigan tizimning ishlashi quyida tavsiflanadi. Nogiron foydalanuvchilarga piyodalar yo‘lagidan o‘tish imkoniyati yaratiladi. Piyodalarni namoyish qilish moslamasi ustida joylashgan bo‘lib, bu balandlik tavsiya etilgan masofaga mos keladi ta‘riflanganidek, yuqori darajadagi takrorlovchi birliklar o‘rtacha balandlikdagi odamlar uchun taxminan quloq darajasida. O‘tish oralig‘ida bir marta ovozli xabar faollashtiriladi.

Ushbu qo‘shimcha joylashuv xabari o'tish joyidagi foydalanuvchilar uchun, ayniqsa ko‘zi ojizlar uchun qo‘shimcha ma’lumot topishda foydali bo‘ladi deb umid qilamiz.

Sinov ishtirokchilari piyodalar o‘tish joylarida mavjud bo‘lgan piyodalar o‘tish joylari tajribasini aniqlash va piyodalar o‘tish joylarida ishlatiladigan mavjud texnologiyalarga munosabatni aniqlash uchun foydalanishdan oldin so‘rovnoma o‘tkaziladi.

Natija (results). Sinov ishtirokchilarining aksariyati bunday texnologiyalarni foydali yoki juda foydali deb topishadi.

1. Ishtirokchilarning ma’lum qismi tugmalar yordamida boshqariladigan piyodalar o‘tish yo‘lagini afzal ko‘rish mumkin.
2. O‘tish joyidan foydalanish qulayligi haqida xabar berishdi.

Ishtirokchilarning ma’lum qismi texnologiyani juda foydali deb baholadilar.

3. Ovozli signalning mavjudligi qulaylikning asosiy omili edi.
4. Signalli o'tish joylaridan foydalanish xavfsiz va ishonchlidur.

So‘rov natijalariga asosan shaxar ko‘chalarida kuzatuvlarni olib borilgan. Bir tomondan piyodalar talabini kiritish juda ishonchli edi va foydalanuvchilar ushbu texnologayadan foydalanishda hech qanday muammoga duch kelmaydilar, yo‘lni tinch shoshilmasdan kesib o‘tdilar. Aksariyat foydalanuvchilar ushbu funktsiyani foydali deb topdilar. Joylashuv xabari faollashtirilgan masofa turlicha bo‘lganligi kuzatildi. Sinov maydonchasiga o'rnatishda uskunalar boshqariladigan sharoitlarda sinovdan o'tkaziladi va faollashtirishning oqilona aniqligi va ishonchliligiga erishilgunga qadar sozlanadi.

Tizimning yakuniy spetsifikatsiyasi to‘liq emas va shuning uchun ushbu bosqichda tizimning narxini taxmin qilish mumkin emas. Kelajakdagi rivojlanish potentsial qo‘shimcha imtiyozlarni ta’minlash uchun tizimga bir qator ishlanmalar kiritilishi mumkin. Texnologiyalarga asoslangan piyodalar o‘tish yo‘lagi foydali deb hisoblanishi uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Xulosa nogiron odamlar piyodalar tugmachasini topishda va keyin o'tish davri davomida yo'lni kesib o'tishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin . Bundan tashqari, ba’zi nogiron piyodalar tugmachasini bosish va yoki uni bosishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.



O‘tish joyini zaif piyodalarni aniqlash va tugmani bosishni talab qilmasdan yashil odamga qo‘ng‘iroq qilish texnologiyasi bilan jihozlashdan potentsial foyda bor. Radiochastotani aniqlash moslamalari (RAM) nogiron piyodalar va o‘tish moslamalari o‘rtasida joylashuv xabarini avtomatik ravishda faollashtirish va yashil odamga talabni kiritish uchun aloqa o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkin.

Tizim birinchi navbatda ko‘r va qisman ko‘radigan foydalanuvchilarga, harakatchanligi buzilgan piyodalarga va tugmachani jismonan bosish qiyin bo‘lgan piyodalarga qaratilgan. Piyodalar o‘tish joylarida RAM uskunasidan foydalanish kontseptsiyasini isbotladi. Umuman olganda, xoriiy mamlakatlarda sinov uskunalari muvaffaqiyatli ishlashini isbotladi va foydalanuvchilar orasida mashhur bo‘ldi.

Foydalanuvchilarga o‘tish fazasini faollashtirgandan so‘ng tasdiqlash xabarini ham beradi, bu funksiya sinovdan keyingi so'rovnomada sinov ishtirokchilarining yarmi tomonidan so‘ralgan. Zamonaviy texnologiyalarni piyodalar o‘tish joylarida qo‘llash maqsadi nogiron yo‘l foydalanuvchilariga signalli o‘tish joylarida RAM texnologiyasining imkoniyatlarini ta’minlaydigan to‘liq ishlaydigan tizimni rivojlantirish yo‘lida yangi qadam tashlashdir.

ADABIYOTLAR

1. Azizov Q.X. «Yo‘llarda xavfsiz harakatlanish asoslari” o‘quv qo‘llanma. T., “TAYI”, 2004 -71 bet.
2. Azizov Q.X. “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2009-244 b.
3. Yo‘l harakati qoidalari. T.-2025.
4. В.И.Коноплянко и др. Организация и безопасность дорожного движения: Учеб.для вузов.
5. Кременец Ю.А., Печерский М.П., Афанасьев М.Б. Технические средства организация дорожного движения: Учебник для вузов – М.
6. Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va me’moriy-manzarali loyihalash bo‘yicha ko‘rsatmalar. AYITI UK, Toshkent. 2018. - 88 b.
7. Sodiqov I.S., Azizov K.X., O‘roqov A.X. Avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash. Darslik, -T.; 2017. -316 b.
8. Сотникова В. О., Ландшафтная архитектура: учебное пособие - 2-е издание. - Ульяновск : УлГТУ, 2010. - 145 с.

UDK. 66.047.59-912

MAVHUM QAYNASH QATLAMIDA ISSIQLIK VA MASSA ALMASHINUV JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH

Kurbanbayeva Miyassar Shirazadinovna
Qoraqalpoq davlat universiteti “Elektr texnikasi va metrologiya” kafedrasi dotsent.v.b, texnika fanlar bo‘yicha PhD

Kavkatbekov Murodjon Mamitbekovich
"BUMFA Group Asia" MChJ XK, Bosh energetik, texnika fanlar bo‘yicha PhD

Annotatsiya. Maqolada mavhum qaynash qatlamli quritish qurilmasining tuzilishi, ishlashi va fizik jarayonlarning kechishi ko‘rsatilgan. Quritish jarayoni mavhum qaynash qatlamli qurilmada qanday kechishini o‘rganish maqsadida jarayonning matematik modeli ishlab chiqilgan. Natijada mavhum qaynash qatlamida quritish vaqti, quritish tezligi, qurish davomiyligi, qurutish xususiyatini aniqlashning algoritimi va yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Olingan natijalar asosida qurish egri chizig‘i va quritish tezligi egri chiziqlarini qurish imkoni mavjud bo‘ldi.

Аннотация. В статье описываются конструкция, работа и физические процессы сушилки с псевдоожиженным слоем. Для изучения того, как происходит процесс сушки в устройстве с псевдоожиженным слоем, была разработана математическая модель процесса. В результате были продемонстрированы точный алгоритм и методы определения свойств сушки кипящего слоя, включая время сушки, скорость сушки, продолжительность наращивания и время сушки. На основании полученных результатов удалось построить кривые сушки и кривые скорости сушки.

Abstract. The article describes the design, operation and physical processes of a fluidized bed dryer. To study how the drying process occurs in an abstract fluidized bed device, a mathematical model of the process was developed. As a result, an accurate algorithm and methods for determining the drying properties of an abstract fluidized bed were demonstrated, including drying time, drying rate, build-up duration and drying time. Based on the results obtained, it was possible to construct build-up curves and drying rate curves.

Kalit so‘zlar: suyuq qatlamli quritgich, namlik, kul miqdori, maydalagich, Angren qo‘g‘ir ko‘miri, quritish tezligi.


Ключевые слова: сушилка кипящего слоя, влажность, зольность, дробилка, Ангренский бурый уголь, скорость сушки.

Keywords: fluidized bed dryer, humidity, ash content, crusher, Angren brown coal, drying rate.

Kirish. Hozirgi kunda IES larda qattiq yoqilg‘ilar asosan kukun ko‘rinishiga keltirilib yoqiladi. Bunda u bir nechta bosqichlarni o‘tadi ya’ni ko‘mir stansiyaga keltiriladi va tegirmonga beriladi unda o‘lchamlari 3-10 mm oralig‘ida maydalanadi va keyin maydalagichga beriladi. Unda 3-5 mkm gacha maydalangan ko‘mir qozonga issiq havo yordamida purkab beriladi. Purkash mobaynida ko‘mirning namligi 2-3 % gacha kamayadi, lekin tarkibidagi yonmaydigan qattiq moddalardan tozalanmaydi. Shu sababli bu texnologiyada ko‘mirni yoqishga tayyorlash jaroyonida chala yonish yuzaga kelishi, issiqligining keskin kamayishi, samaradorlikning pasayishi, atrof muhitga chiqadigan zararli tutun gazlarning miqdori oshishi kabi kamchiliklar yuzaga keladi. Mazkur moammolarni yechish uchun yangi usul mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasini amalyotga tadbiq qilish o‘rganildi. Bunda asosiy urg‘u ko‘mirning namlik va kul miqdorini kamaytirishga qaratiladi. Chunki namlik va kul miqdorlarining oshishi yuqoridagi muammolarni keltirib chiqaradi. Mavhum qaynash qatlamli qurilmada quritish bo‘yicha ko‘pgina ishlar qilingan va bu ishlarda asosan maydaligi 6 mm dan

kichik ko‘mir bo‘lakchalarini quritish samaradorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan. Shundan kelib chiqib tadqiqotlarda o‘lchami 3-10 mm oralig‘idagi ko‘mir zarrachalarining namlik va kul miqdorlarini kamaytirish tadqiq qilindi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavhum qaynash qatlamli qurilmada ko‘mirning namlik va kul miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Bu usul nafaqat ko‘mir balki, barcha turdagi qattiq yoqilg‘ilar va polidispers materiallarning namlik hamda ballast qismlardan tozalashda qo‘llash imkonini beradi. Mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi uchun issiqlik tashuvchi sifatida quyidagilar qo‘llaniladi: isitiladigan havo, tutun gazlari yoki tutun gazining havo bilan aralashmalari. Jarayonni o‘rganish orqali va mintaqa sharoitidan hamda ko‘mirning sifatidan kelib chiqqan holda ko‘mirni quritish va boyitish uchun mavhum qaynash qatlamli qurilma ishlab chiqildi. Bu qurilma ko‘p seksiyali bo‘lib, ko‘mirni kul miqdorini hamda namligini kamaytirishda qo‘llaniladi. Qurilmaning fizik modeli yaratildi, u quyidagi ko‘rinishda (1-rasm).



1-yoqilg‘i berish trubkasi, 2-qurigan va boyigan ko‘mirning keyingi kameraga o‘tishi, 3,4- havo (tutun gazi) berish yo‘li, 5-nam va qattiq minerallarning qoldig‘ini chiqarib tashlash yo‘li, 6-havoning harakat yo‘nalishi.


1-rasm. Ko‘mirni mavhum qaynash qatlamda quritish va boyitishning fizik modeli.

Qurilmaga ekvivalent diametri 3-10 mm oralig‘ida bo‘lgan ko‘mir zarrachalari kirish yo‘lagi orqali beriladi. Qurilmaning quyi qismidan berilayotgan issiq havo hamda retsirkulatsiya tutun gazining ta’siri hisobiga kameraning II qismida zichligi nisbatan past bo‘lgan ko‘mir zarrachalari xaotik harakat holatiga keladi va mikrofontan qatlamini hosil qiladi. Berilgan ko‘mir tarkibidagi zichligi yuqori bo‘lgan yonmaydigan zarrachalar kameraning II qismida mikrofontan holatidagi harakatda bo‘ladi. Ko‘mirning uzluksiz berilishi natijasida III mavhum qaynash qatlamidagi ko‘mir zarrachalari oqim hosil qilib keyingi kameraga o‘tadi. Shu tariqa ko‘mir tarkibidagi yonmaydigan zarrachalar ajraladi va issiq havo (tutun gazi) berilishi natijasida namlik miqdori quritish jarayoni tufayli kamaytiriladi. Qurilmaning navbatdagi ikkinchi va uchinchi kameralarda ham xuddi shu jarayon takrorlanadi va ko‘mir tarkibidagi namlik hamda yonmaydigan zarrachalar nisbati kamaytiriladi. Yonmaydigan zarrachalarning kamerada bo‘lish vaqtini boshqarish uchun IV plastinalar ishlatildi.

Tadqiqot natijalari. Qurilmaning asosiy vazifasi shunda mavhum qaynash jarayonini tashkil qilish va shu orqali ko‘mirni quritish va qattiq minerallardan ajratishni amalga oshirishdir. Buning uchun mavhum qaynash jarayonining tenglamalarini o‘rganish talab qilinadi. Qachon-ki berilayotgan havoning tezligi gidravlik qarshilikni yenga olsa mavhum qaynash jarayoni boshlanadi. Berilgan ko‘mir bo‘laklari havoda muallaq holda bo‘lishi va xuddi qaynayotgandek ko‘rinishni hosil qilishi mavhum qaynash jarayoni deyiladi. Shu vaqtdagi tezlik birinchi kritik tezlik hisoblanadi, ko‘mir bo‘laklarini uchib keyingi kameraga o‘tishdagi tezligi esa ikkinchi kritik tezlikdir. Demak, bundan kelib chiqadiki, biz asosan havoning tezliklarini va

gidravlik qarshiligini aniqlash orqali jarayonning mohiyatini ko‘rishimiz mumkin.

Havoning tezliklarini va gidravlik qarshiligini aniqlash maqsadida hamda quritish jarayonining kechishini taxlil qilish uchun qurilmada kechadigan jarayonning matematik modeli ishlab chiqildi. Madellashtirishning asosiy bosqichlarini amalga oshirish maqsadida quritish jarayoni o‘rganildi. Quritish jarayonining modelini qurishda asosan namlik o‘zgarishi hamda haroratlar farqlari hisobga olingan. Shu tariqa qurtish jarayonining materyal balans tenglamasi tuzildi. Quritish jarayonida havo va ko'mir namliklarining o'zgarishini hisoblash algoritm blok-sxemasi quyida keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Havo va ko‘mir namliklarining o‘zgarishini hisoblash algoritm blok-sxemasi.

Quritish tezligi o‘zgarmas bo‘lgan davr uchun gaz fazasi material balans tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\varepsilon D_g \frac{d}{dz}(F\frac{dx_g}{dz}) - \varepsilon L\frac{dx_g}{dz} - (1-\varepsilon)FN = 0 \qquad (1)$$

quritishning I davri uchun qurash tezligi egri chizig‘i tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

bunda: L-gaz fazasining hajmli oqim tezligi, m^3/s; N-quritish tezligi, 1/s;
R_p-gaz taqsimlash tarmog‘ining radiusi, m; $D_г$-molekulyar diffuziya koeffitsienti, m^2/s; ε - mavhum qaynash qatlamining g‘ovakligi; $x_г$-gazning namligi kg/kg;

$$-\frac{du_{o'r}}{d\tau} = N \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarning xususiy yechimlari chegaraviy shartlari:

$$x_g|_{\cdot z=0} = x_{g.k}, \quad (3)$$

$$\frac{dx_g}{dz}|_{\cdot z=H} = 0, \quad (4)$$

$$U_{cp}|_{\cdot \tau=0} = U_k, \quad (5)$$

Quritgichning chiqish joyidagi zarrachalarning qurish vaqti bo‘yicha taqsimlanish formulasi, ideal aralashtirish rejimida jarayonning gidrodinamikasini tavsiflovchi funksiya ko‘rinishiga ega.

$$f(\tau) = \frac{1}{\tau_0} e^{-\tau/\tau_0} \quad (6)$$

Quritgichning chiqish joyidagi materialning o‘rtacha namligi:

$$U_{ch} = \int_0^{\tau_{kr}} U_{o'r}(\tau) f(\tau) d\tau, \quad (7)$$

ifoda bilan hisoblanadi, bunda τ_0 – o‘rtacha yashash vaqti; F- gaz taqsimlash apparatining panjarasidan Z masofada joylashgan sohasinin ko‘ndalang kesim yuzasi bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F=\pi(R_p + \square tg\frac{\gamma}{2})^2 \quad (8)$$

(8) chi tenglamada differensiallash amallarini bajarib, keltirilgan parametrlarning ifodasini qo‘ysak quyidagi ko‘rinishdagi ikkinchi tartibli differensial tenglamaga ega bo‘lamiz [4]:

$$\varepsilon D_g(R_p + Ztg\frac{\gamma}{2})^2 \frac{d^2x_g}{dz^2} + 2\varepsilon D_g \pi tg\frac{\gamma}{2}(R_p + Ztg\frac{\gamma}{2})\frac{dx_g}{dz} - \varepsilon L\frac{dx_g}{dz} - (1-\varepsilon)\pi(R_p + Ztg\frac{\gamma}{2})^2 \cdot N = 0 \quad (9)$$

(9) tenglamada quyidagi belgilashlar kiritib, soddalashtirsak tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$P(Z) = \frac{2tg\frac{\gamma}{2}}{R_p + Ztg\frac{\gamma}{2}} - \frac{L}{D_g\pi(R_p + Ztg\frac{\gamma}{2})^2} \quad (10)$$

$$Q(Z) = 0, \quad f(Z) = \frac{(1-\varepsilon)N}{\varepsilon D_g} \quad (11)$$

$$\frac{d^2x_r}{dz^2} + P(Z)\frac{dx_g}{dz} = f(Z) \quad (12)$$

(10) tenglamani boshlang‘ich va chegaviy shartlarni (10), (11) qanoatlantiruvchi yechimni topish bilan shug‘ullanamiz.

Quyidagi ikkinchi tartibli chizikli bir jinsli bo‘lmagan oddiy differensial tenglama

$$y''(x) + P(x)y'(x) + Q(x)\,y(x) = f(x), \quad (13)$$

bilan birgalikda

$$\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = A,$$
$$\beta_0 y(b) + \beta_1 y'(b) = B, \quad (14)$$

kabi chegaraviy shartlar qaralayotgan bo‘lsin. Bu yerda P(x), Q(x) va f(x) lar berilgan uzluksiz funksiyalar bo‘lib. Bu erda α_0, α_1, β_0, β_1, A, B *lar esa* ma’lum konstantalardir. Bu chegaraviy masalani yechish uchun uni Koshi masalasiga keltiramiz.

Bu masalani Koshi masalasiga keltirish uchun quyidagi almashtirishni kiritamiz (superpozitsiya prinsipi).

$$y(x) = Cu(x) + v(x) \quad (15)$$

Bu yerda C orqali hozircha noma’lum bo‘lgan konstantani belgilaymiz. Yuqoradagi (16) ifodadan ketma-ket birinchi va ikkinchi tartibli xosilalarni hisoblab, ularni (13)-chi tenglamaga qo‘ysak quyidagiga ega bo‘lamiz.

$$C\,[u\,''(x)\ +\ P(x)\,u\,'(x) + Q(x)\,u(x)]\ +\ [v\,''(x)\ +\ P(x)\,v'(x) + Q(x)\,v(x) - f(x)] = 0, \quad (16)$$

va undan quyidagi ikkita tenglamani hosil qilamiz:

$$u''(x) + P(x)\,u'(x)\ +\ Q(x)u(x) = 0, \quad (17)$$

$$v''(x)\ + P(x)v'(x) + Q(x)v(x) = f(x) \quad (18)$$

(18)-chi chegaraviy shartdan, ya'ni $\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = A$ ga [84;46-50-b; 85;100-118-b] asosan

$$Y(a) = cu(a) + v(a)$$

$$Y'(a) = cu'(a) + v'(a)$$

$$\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = \alpha_0[\mathrm{cu(a)} + \mathrm{v(a)}] + \alpha_1[\mathrm{cu'(a)} + \mathrm{v'(a)}] = A$$

$$\mathrm{c}[\alpha_0 cu(a) + \alpha_1 u'(a)] + \alpha_0 v(a) + \alpha_1 v'(a) = A \quad (19)$$

ixtiyori C da (19) munosabat o‘rinli bo‘lishi uchun C oldidagi koeffitsiyentning nolga teng bo‘lishi zarur va yetarli, ya'ni

$$\alpha_0 u(a) + \alpha_1 u'(a) = 0, \quad (20)$$

$$\alpha_0 v(a)\ +\ \alpha_1 v'(a) = A, \quad (21)$$

(20) (21) chi tenglamlarning bajarilishi uchun

$$u(a) = \alpha_1 k,\quad u'(a) = \alpha_0 k \quad (22)$$

ni qo‘ysak yetari bo‘ladi, bu enda C noldan farqli o‘zgarmas son. Agar

$$\alpha_0 \neq 0 \text{ bo‘lsa } v(a) = \frac{A}{\alpha_0},\ v'(a) = 0 \quad (23)$$

Agar $\alpha_0 \neq 0$ bo‘lsa

$$v(a) = 0\ ,\ v'(a) = \frac{A}{\alpha_1} \quad (24)$$

Bulardan ko‘rinadiki u(x) 18-chi bir jinsli tenglamani (23) shartni qanoatlantiruvchi Koshi masalasining yechimi, v(x) esa (19)-chi bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning (20) yoki (21) shartlarni qanoatlantiruvchi Koshi masalasining yechimizdan iborat.

U holda ixtiyoriy c uchun $y(x) = c\,u(x) +\ v\,(x)$ funksiya $x = a$ chegaraviy shartni qanoatlantiradi.

Endi o‘zgarmas c ni shunday tenglaymizki y(x) funksiya (22) chegaraviy shartni x= b da qanoatlantirsak, bu quyidagini beradi

$$\mathrm{c}\,[\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b)] + \beta_0 v(b) + \beta_1 v'(b) = B$$

$$\mathrm{c} = \frac{B - \beta_0 v(b) + \beta_1 v'(b)}{[\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b)]} \quad (25)$$

Bunda $\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b) \neq 0$ bo‘lishi kerak, shunday qilib (20), (21), (22) chegaraviy masala ikkita u(x) va v(x) funksiyalar uchun Koshi masalasini yechishga keltirildi [80].

Keltirilgan tenglamani yechish jarayoni algoritmini MATLAB tizimida dasturlashtirib yechamiz.

Material namligini apparatning seksiyasidan chiqish jarayonini vaqtga bog‘liq munosabatini topamiz.

(9) tenglamaning (12) shartni qanoatlantiruvchi yechimini topamiz. Uning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi.


$$u_{o\prime r}(\tau) =\ u_{vx} - N\tau \quad (26)$$

(22) va (23) ifodalari (15) ga qo‘ysak


$$u_{ch} =\ u_k(1 - e^{-\frac{\tau_{kr}}{\tau_0}}) + N[e^{-\frac{\tau_{kr}}{\tau_0}}(\tau_{kr} + \tau_0) -\ \tau_0] \quad (27)$$

tenglama apparatning i-chi bo‘limidan chinishda dispers materialning o‘rtacha namligini hisoblash imkonini beradi.

Natijalar Matlab dasturi yordamida olindi va quyidagi grafiklarda ifoda qilindi. Grafiklar faqat birinchi boshlang‘ich parametrlarda berilgan qiymat bo‘yicha olingan. Grafiklar qurish egri chizig‘ini hosil qilish uchun ikkita davr alohida hisoblangan va oxirida birlashtirilib bitta qurish egri chizig‘iga keltirilgan (3 - rasm).



3-rasm. Ikkala davr birlashgan holga keltirilgan quritish egri chizig‘i.



4-rasm. Berilayotgan havonini harorati hamda mavhum qaynash balandligining bog‘liqligi.

Xulosa. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining tarkibini tahlil qilish orqali uni quritish va boyitish usullari hamda tahlillar asosida mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi ishlab chiqildi. Natijada ko‘mirning namligi va kulliligini kamaytirish imkoniyati yaratilgan. Qurilma va jarayonlarning fizik, matematik modellari va hisoblash algoritmi ishlab yaratildi va yaratilgan matematik model Runge-Kutto usulida yechilgan. Natijada, qabul qilingan noma’lum son (C) qiymatini aniqlash orqali gazlar harorati (t), mavhum qaynash balandligini (Z) hisoblash, quritish jarayonlarining nazariy quritish egri chiziqlari W=f(τ), quritish tezligi egri chiziqlari ΔW/Δτ= f(W) olinishi bilan quritish vaqti aniqlandi τ=60÷200 *s*. Mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish laboratoriya qurilmasida ekperimental tadqiqotlar olib borildi. Natijada, Quritish egri chiziqlari va termogrammasi asosida quritish jarayonining 1- va 2 - davrlarida mavhum qaynash qatlami gidravlik qarshiligining (ΔP) issiqlik eltuvchi tezligiga (v) bog‘liqligini ko‘rsatuvchi empirik tenglamalar olindi hamda nazariy va eksperimental olingan tadqiqot natijalarining adekvatligi Fisher mezoni yordamida tekshirildi va mezon shartining bajarilganlik ko’rsatkichi 5,38 > 3,17 qiymatni tashkil etib, adekvatlikni ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Бабаходжаев Р. П., Ташбаев Н. Т., Мирзаев Д. А., Эшкуватов Л. М., Курбанбаева М. Ш., Кавкатбеков М.М, Курбанбаева З.Х., Каримов И.Б., Абдуллаев М.А., Полидисперс материалларни иссиқлик билан ишлов бериш ва ёқиш учун қурилма // ЎзРес. ИМА. Ихтиро патенти № IAP 07280 . 2022.

2. Kurbanbaeva M.Sh., R. P. Babakhodjaev, M.M. Kavkatbekov. Increasing the calorific value of Angren lignite coal by an upgraded device. E3S Web of Conferences 434, 01013

(2023) ICECAE 2023 doi.org/10.1051/e3sconf/202343401013

3. R Babakhodjaev; N Tashbaev; Z Kurbanbaeva; JMirzaev;I Daynovov; M Sultanova. Improved method of coal drying and separation from solid minerals. AIP Conf. Proc. 3152, 050010 (2024) https://doi.org/10.1063/5.0218978

4. Kurbanbaeva M.Sh., Kurbanbaeva Z.X., Babaxodjaev R.P., Qtaybekov M.Q. Accounting for the technological classification of the diamert of crushed coal pieces accelerated abstract boiling drying device // Science and Education in Karakalpakstan № 1/1., 2022 91-98 p.

5. Kurbanbaeva M.Sh., Kurbanbaeva Z.X., Babaxodjaev R.P., Uzaqbaev Q.A. Research and improvement of the process of preparation of solid fuel. // Science and Education in Karakalpakstan. № 2/2. 2022, 85-90 p.

6. R. P. Babakhodjaev, M. Sh. Kurbanbaeva, Z. Kh. Kurbanbaeva, S. Sh. Ghazikhanov. Increasing calories based on the processing of Angren brown coal // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology .Vol. 9, Issue 6. India, 2022.

7. R. Babakhodjaev, M. Kurbanbaeva, M. Kavkatbekov. Increasing the calorific value of Angren lignite coal by an upgraded device. E3S Web of Conferences 434, 01013 ICECAE 2023.

8. Бабаходжаев Р. П., Ташбаев Н. Т., Мирзаев Д. А., Эшкуватов Л. М., Курбанбаева М. Ш., Кавкатбеков М.М., Курбанбаева З.Х., Каримов И.Б., Абдуллаев М.А., Полидисперс материалларни иссиқлик билан ишлов бериш ва ёқиш учун қурилма // ЎзРес. Интелектуал мулк агентлиги. Ихтиро патенти № IAP 07280 17.03.2022

9. M.Sh. Kurbanbaeva, Z.X. Kurbanbaeva, M.O. Oralov, J.A. Axmadov, M.M. Kavkatbekov. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining kaloriyasini quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratish orqali oshirish. // Journal of new century innovations volume–23. ISSUE-3. 2023. 124-126 p.

10. М.Ш. Курбанбаева, З.Х. Курбанбаева, З.Ж. Саимбетов, Р.Ж. Сейтимбетов, Р.П. Бабаходжаев. Қўнғир кўмирни ёқишга тайёрлаш жараёнини тадқиқ қилиш // Энергетика истиқболлари ва муаммоларга замонавий ечимлар мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Наманган-2022. 166-168 б.

11. M.Sh. Kurbanbaeva, M.I. Ma’sumov. Mavhum qaynash qatlamli quritish va minerallardan ajratish qurilmasining iqtisodiy samaradorligi. // «Informatsion texnologiyalar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda nanofizika va fotoenergetika sohalarining zamonaviy muammolari va yechimlari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Namangan 2023. 58-61 b.

UDK. 372.22:371.03

O‘QUV JARAYONIDA FANLARARO ABSISSIAL VA ORDINAL ALOQADORLIKNING INNOVATSION TALQINI

Muxtarova Lobar Abdimannabovna
Termiz davlat pedagogika institute, Boshlang’ichta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, muxtarovalobar789@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fanlararo absissial va ordinal aloqadorlik tushunchalari o‘quv jarayonida qo‘llashning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Absissial aloqadorlik turli fanlardan olingan bilimlarni parallel va uyg‘un holda qo‘llash imkonini bersa, ordinal aloqadorlik bilimlarni bosqichma-bosqich, ketma-ket rivojlantirish orqali o‘quvchilar tafakkurini tizimli shakllantiradi. Maqolada ushbu ikki yondashuvning innovatsion talqini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi hamda xalqaro ta’lim tajribasidagi qo‘llanishi yoritilgan. Shu asosda boshlang‘ich ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методические основы применения понятий межпредметной абсциссиальной и ординальной взаимосвязи в учебном процессе. Обосновано, что межпредметная интеграция в образовательном процессе является важным фактором не только расширения знаний учащихся, но и их применения в жизненных ситуациях, развития творческого и критического мышления. Абсциссиальная взаимосвязь позволяет использовать знания, полученные из разных предметов, параллельно и гармонично, тогда как ординальная взаимосвязь формирует системное мышление учащихся за счёт поэтапного и последовательного развития знаний. В статье освещены инновационная интерпретация этих двух подходов, их интеграция с современными педагогическими технологиями, а также применение в международной образовательной практике. На этой основе разработаны научно-методические рекомендации по усилению межпредметных связей в начальном образовании.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of applying the concepts of interdisciplinary absissial and ordinal interconnections in the educational process. It is substantiated that interdisciplinary integration in education is an important factor not only in expanding students’ knowledge but also in applying it to real-life situations, as well as developing creative and critical thinking. Absissial interconnection allows for the parallel and harmonious use of knowledge acquired from different subjects, whereas ordinal interconnection fosters students’ systemic thinking through the step-by-step and sequential development of knowledge. The article highlights the innovative interpretation of these two approaches, their integration with modern pedagogical technologies, and their application in international educational practice. On this basis, scientific and methodological recommendations for strengthening interdisciplinary connections in primary education have been developed.

Kalit so‘zlar: fanlararo aloqadorlik, absissial aloqadorlik, ordinal aloqadorlik, integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion yondashuv, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar.

Ключевые слова: межпредметная взаимосвязь, абсциссиальная взаимосвязь, ординальная взаимосвязь, интеграция, начальное образование, инновационный подход, образовательный процесс, педагогические технологии.

Keywords: interdisciplinary interconnection, absissial interconnection, ordinal interconnection, integration, primary education, innovative approach, educational process, pedagogical technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy vaziyatlarda bilimlardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bunday maqsadlarga erishishda ta’lim jarayonini integratsiyalash, ya’ni fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki alohida fanlarni izolyatsiya qilingan holda o‘qitish o‘quvchilar dunyoqarashini toraytirib qo‘yadi, integratsiya esa aksincha, bilimlarning yaxlit tizimini hosil qiladi.

Fanlararo aloqadorlik tushunchasi o‘zining turli shakl va ko‘rinishlari bilan ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladi. Ulardan eng muhimlari sifatida **absissial** va **ordinal aloqadorlik**ni keltirish mumkin. Absissial aloqadorlik o‘quvchiga turli fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlarni bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashtirib qo‘llash imkonini bersa, ordinal aloqadorlik esa bilimlarni ketma-ketlik asosida rivojlantirish, ularni tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ana shu ikki yondashuvning innovatsion talqini, ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi hamda xalqaro ta’lim tajribasidagi qo‘llanishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya o‘quvchilarning o‘zlashtirayotgan bilimlarini chuqurlashtirish va ularni hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Pedagogik adabiyotlarda fanlararo aloqadorlik “o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini bir butun tizimda shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyil” sifatida izohlanadi.

Fanlararo aloqadorlik quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

1. Bilimlarning yaxlitligi tamoyili-dunyoqarashni shakllantirish uchun o‘quvchi bilimlarni bo‘linmagan holda, tizimli ko‘rinishda qabul qilishi zarur.

2. Integratsiya va differensiasiya qonuniyati-fanlararo aloqadorlik fanlarning o‘zaro umumiy tomonlarini birlashtirish va farqli jihatlarini ajratib ko‘rsatishni talab qiladi.

3. Tizimlilik va izchillik tamoyili-bilimlar o‘quvchining yosh xususiyatlari, fikrlash darajasi va rivojlanish bosqichlariga mos holda tashkil qilinishi kerak.

Absissial aloqadorlik tushunchasi shundan iboratki, o‘quvchi bir vaqtning o‘zida turli fanlardan o‘zlashtirgan bilimlarini parallel tarzda qo‘llaydi. Masalan, matematika darsida grafik chizishda o‘quvchi geometriya, informatika va tabiiy fanlardan o‘rgangan bilimlarini uyg‘unlashtiradi.

Ordinal aloqadorlik esa bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, o‘quvchi avval arifmetik amallarni o‘rganadi, keyin algebraik ifodalar bilan ishlashga o‘tadi, undan keyin esa funksiyalarni tahlil qiladi. Bu jarayon izchillik asosida tafakkurni tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Shu maqsadda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy-tahliliy metod-mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik va psixologik manbalar, ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi, ular asosida fanlararo integratsiyaning mohiyati va ahamiyati aniqlab berildi.

2. Qiyosiy-tahlil metodi-absissial va ordinal aloqadorlikning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning bir-biridan farqlari va umumiy tomonlari qiyosiy tahlil qilindi.

3. Empirik kuzatuv va tajriba-sinov ishlari-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarni o‘zlashtirish darajasi amaliy tajribalar orqali o‘rganildi.

4. Statistik va diagnostik metodlar-o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘lchash, ular orasidagi farqlarni aniqlash uchun testlar, so‘rovnomalar va diagnostik topshiriqlar

qo‘llandi.

5. Pedagogik modellashtirish-fanlararo aloqadorlikni o‘quv jarayoniga integratsiyalashning samarali modellari ishlab chiqildi.

O‘rganilish darajasi. Fanlararo integratsiya masalasi o‘zbek va xorijiy pedagogika ilmida keng tadqiq qilingan. Jumladan, ta’lim jarayonida bilimlarni integratsiyalash g‘oyalari J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi hamda D. Brunerning spiral o‘quv dasturi nazariyasida asoslab berilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan X.Norbo‘tayev, N.Salohiddinova, A. Abduqodirov, N.To‘raqulov, M.Nuritdinova va boshqalar boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiya, o‘quvchilarda tizimli dunyoqarashni shakllantirish masalalarini chuqur tadqiq etganlar.

Xorijiy ilmiy manbalarda esa STEAM-ta’lim konsepsiyasi, CLIL (Content and Language Integrated Learning), PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlaridagi yondashuvlarda fanlararo aloqadorlikning zamonaviy shakllari o‘z aksini topgan.

Biroq, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiyaning absissial va ordinal shakllarini alohida innovatsion talqin asosida chuqur o‘rganish masalasi yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu bois mazkur tadqiqot o‘zining yangiligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, quyidagi natijalarga erishildi:

1. Absissial aloqadorlikning samaradorligi quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

turli fanlardan olingan bilimlarni bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda kompleks tafakkurni shakllantiradi;

dars jarayonida matematika, tabiatshunoslik va ona tili fanlarini integratsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, kuzatuvchanligini va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi;

tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, absissial aloqadorlik asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish tezligi va aniqligi an’anaviy darslarga qaraganda 18–20 % yuqori bo‘ldi.

2. Ordinal aloqadorlikning samaradorligi**:**

bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish o‘quvchilarning izchil fikrlashini, tahliliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;

masalan, arifmetik amallarni mukammal egallagan o‘quvchilar algebraik ifodalar va keyinchalik funksiyalarni tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelmadi;

ordinal aloqadorlik asosida tuzilgan o‘quv dasturi o‘quvchilarni bilish faoliyatida uzluksizlik va ketma-ketlikni ta’minlab berdi.

3. Innovatsion talqin natijalari**:**

absissial va ordinal aloqadorlikning birgalikda qo‘llanishi STEAM yondashuvi, loyiha usuli va axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda yuqori samaradorlik berdi;

tajribalar davomida interfaol metodlardan (klaster, aqliy hujum, rol o‘ynash, muammoli vaziyatlar asosida ishlash) foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi;

xalqaro tajribani tahlil qilish natijasida PISA va PIRLS dasturlarida fanlararo integratsiya o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki funksional savodxonlikni shakllantirishda muhim omil ekani aniqlandi.

4. O‘quvchilarning rivojlanish ko‘rsatkichlari**:**

tadqiqot natijalariga ko‘ra, fanlararo aloqadorlik asosida ta’lim olgan o‘quvchilar nazorat guruhiga nisbatan ijodiy topshiriqlarni bajarishda 22 %, tahliliy savollarga javob berishda esa 17 % yuqori natija ko‘rsatdilar;

ularning mustaqil ishlash, guruhiy hamkorlik va amaliy bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari

sezilarli darajada rivojlandi;

umuman olganda, tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida absissial va ordinal aloqadorlikni innovatsion yondashuvlar asosida qo‘llash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni qo‘llash faqatgina bilimlarni kengaytirish emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Absissial aloqadorlikning mohiyati o‘quvchi tafakkurini keng qamrovli, ko‘p qirrali tarzda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuvda turli fanlardan olingan bilimlar o‘zaro uyg‘unlashtiriladi.

Ordinal aloqadorlik esa ta’lim jarayonini izchillik tamoyili asosida tashkil etib, o‘quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borishini ta’minlaydi.

Har ikkala yondashuv o‘zaro bir-birini to‘ldirib, integratsiyalashgan o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Absissial aloqadorlik asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Masalan, matematika va tabiatshunoslik integratsiyasi asosida ishlangan topshiriqlar o‘quvchilarda mantiqiy tahlil va kuzatuvchanlikni rivojlantirdi.

Ordinal aloqadorlik asosida tuzilgan darslar o‘quvchilarning bilim olish jarayonida tartib, izchillik va tizimlilikni kuchaytirdi. Natijada o‘quvchilar oldingi bilimlarni keyingi bosqich bilan bog‘lash, ularni umumlashtirish va amalda qo‘llashga muvaffaq bo‘ldilar.

Innovatsion yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, STEAM-ta’lim, loyiha metodlari, axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda absissial va ordinal aloqadorlik qo‘llanganda yuqori natijalar kuzatildi. O‘quvchilarning darsga qiziqishi, faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi. Guruhiy hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanib, o‘quvchilar o‘z fikrini asosli ifodalash va boshqalarning fikrini tahlil qilishga odatlandi.

Tajriba-sinov jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida ishlagan o‘quvchilarning ijodiy topshiriqlarni bajarish samaradorligi 22 %, analitik topshiriqlar samaradorligi esa 17 % yuqori natijani ko‘rsatdi. O‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasi an’anaviy ta’lim olgan guruhlarga qaraganda sezilarli oshdi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonida yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, amaliyotda qo‘llash va ijodiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa va ilmiy-amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

fanlararo absissial va ordinal aloqadorlik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi isbotlandi;

absissial aloqadorlik turli fanlardan olingan bilimlarni parallel tarzda uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar tafakkurini kompleks shakllantiradi, ijodkorlikni Ordinal aloqadorlik esa bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali o‘quvchilarning izchil, tizimli fikrlashini ta’minlaydi, mantiqiy izchillik va uzluksizlikni kuchaytiradi. Absissial va ordinal aloqadorlikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar (STEAM, loyiha usuli, AKT, CLIL) bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;

tajriba-sinov ishlari natijalari fanlararo aloqadorlik asosida ta’lim olgan o‘quvchilarning funksional savodxonligi, ijodiy yondashuvi va tahliliy ko‘nikmalari yuqori darajada

rivojlanganini ko‘rsatdi;

Umuman olganda, ta’lim jarayonida absissial va ordinal aloqadorlikning innovatsion talqini boshlang‘ich ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, o‘quvchilarni bilimlarni izchil, tizimli va hayotiy faoliyatda qo‘llay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar.

1. Boshlang‘ich ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni hisobga olish, darslik va metodik qo‘llanmalarda integratsion topshiriqlar ulushini oshirish lozim.

2. Dars jarayonida absissial aloqadorlikni amalga oshirish uchun integratsiyalashgan loyihalar, klasterlar, muammoli vaziyatlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish tavsiya etiladi.

3. Ordinal aloqadorlikni ta’minlashda o‘quv dasturlari o‘rtasida izchillik va bosqichma-bosqichlikni ta’minlash, avvalgi bilimlarni mustahkamlash va keyingi bosqich bilan bog‘lash muhimdir.

4. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, PISA va PIRLS dasturlarida qo‘llanilayotgan fanlararo integratsiya elementlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarur.

5. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun AKT vositalaridan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Muxtorova, L. Jahon fanida ekologik xavfsizlik masalalarini o'rganish tendentsiyalari. *JournalNX* , *9* (10), 103-111.

2. Abdimannabovna, M. L. (2021). Possibilities of an Integrative Approach to the Formation of a Culture of Environmental Safety. *European Scholar Journal*, *2*(11), 43-44.

3. Mukhtarova, L. A. (2021). The use of innovative educational technologies in the formation of a culture of environmental safety. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 792-797.

4. Muxtarova, LA (2021). Boshlang'ich yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish yo'llari. *Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqotlar jurnali* , *10* (4), 648-652.

UDK 004.8:681.7.07

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS THROUGH THE ACCURACY OF OPTICAL SENSORS

Raimjanova Odinakhon Sadikovna
Fergana State Technical University professor, doctor of technical sciences, m.azamatjon0212@gmail.com

Abstract. This research explores the potential of enhancing the performance and precision of optical sensors through the application of artificial intelligence techniques. The study focuses on how machine learning algorithms can be employed to analyze and process data gathered by optical sensors, leading to improvements in accuracy, sensitivity, and reliability. Through various simulations and practical observations, it has been demonstrated that AI-based approaches, compared to traditional methods, provide better noise reduction, clearer signal interpretation, and more adaptive sensor behavior under dynamic conditions. Moreover, the paper discusses both the benefits and the challenges associated with integrating intelligent data analysis into sensor systems. The findings suggest that such intelligent optimization methods can play a significant role in developing next-generation smart technologies applicable in industrial automation, environmental monitoring, and medical diagnostics.

Annotasiya. Ush tadqiqot sun'iy intellekt texnikasini qo'llash orqali optik sensorlarning tuzatish va aniqligini aniqlash uchun o'rganadi. Tadqiqot, aniqlik, sezgirlik va ishonchlilikni tekshirishga olib keladigan optik sensorlar yordamida to'plangan ma'lumotlarni tekshirish va qayta ishlash uchun mashinani o'rganishdan qanday olib tashlash mumkin. Turli simulyatsiyalar va amaliyotlar orqali suniy intellektga tuzatishlar an'anaviy usullar bilan solishtirganda shovqinni yuqori pasaytirish, signalni aniqroq talqin qilish va dinamik sharoitlarda sensorning yanada kuchayishini ta'minlashi ko'rsatildi. Bundan tashqari, maqolada aqlli ma'lumotlar tahlilini sensorli tizimlarga integratsiyalash bilan bog'liq foyda va muammolarni aniqlash. Topilmalar ko' atrofki, bunday aqlli optimallashtirish usullari sanoatni avtomatlashtirish, yangi avlod aqlli texnologiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Аннотация. В данном исследовании рассматривается применение методов искусственного интеллекта для коррекции и повышения точности оптических датчиков. В исследовании рассматривается, как машинное обучение может быть использовано для проверки и обработки данных, собранных оптическими датчиками, что приводит к проверке точности, чувствительности и надежности. С помощью различных методов моделирования и экспериментов было показано, что коррекция с помощью искусственного интеллекта обеспечивает более эффективное шумоподавление, более точную интерпретацию сигналов и более высокую надежность датчиков в динамических условиях по сравнению с традиционными методами. Кроме того, в статье рассматриваются преимущества и проблемы, связанные с интеграцией интеллектуального анализа данных в сенсорные системы. Результаты показывают, что такие методы интеллектуальной оптимизации могут играть важную роль в промышленной автоматизации и разработке нового поколения интеллектуальных технологий.

Kalit so'zlar: optik sensorlar, sun'iy intellekt, sezgirlikni oshirish, signalni qayta ishlash, mashinani o'rganish, avtomatlashtirish, optimallashtirish.

Ключевые слова: оптические датчики, искусственный интеллект, повышение чувствительности, обработка сигналов, машинное обучение, автоматизация, оптимизация.

Keywords: optical sensors, artificial intelligence, sensitivity enhancement, signal processing, machine learning, automation, optimization.

1. Introduction.

In the modern technological era, optical sensors have become indispensable components

in various domains, including industrial automation, biomedical engineering, environmental monitoring, smart infrastructure, and precision agriculture. These sensors are capable of detecting and responding to changes in light, enabling systems to measure distance, motion, temperature, and even chemical properties. Their high sensitivity and contactless measurement make them highly valuable in scenarios where precision and reliability are crucial.

Despite their advantages, optical sensors are not free from challenges. External environmental conditions such as lighting variations, temperature changes, dust, and interference can significantly affect their performance. Moreover, traditional signal processing methods often fall short when it comes to interpreting complex or noisy data in real-time, especially in dynamic environments. As technology advances and demands for smarter, more adaptive systems grow, there arises a need for new approaches to overcome these limitations.

Artificial Intelligence (AI), particularly machine learning (ML) and deep learning (DL) techniques, presents a promising solution to address the shortcomings of conventional optical sensor systems. By enabling data-driven learning and adaptive behavior, AI can allow sensors to "understand" patterns, filter out irrelevant signals, and optimize their response in varying conditions. For example, AI algorithms can be used to calibrate sensor inputs, compensate for noise, predict anomalies, and enhance decision-making processes in real time.

This research paper aims to explore the effectiveness of incorporating AI-based approaches to enhance the accuracy, sensitivity, and operational reliability of optical sensors. It analyzes how intelligent algorithms can be trained on sensor data to improve signal interpretation, reduce errors, and enable the sensors to adapt to unpredictable conditions. By reviewing existing literature, implementing experimental models, and evaluating practical case studies, the study provides insights into how artificial intelligence can transform optical sensing technologies. Ultimately, this investigation contributes to the development of intelligent sensor systems that are not only more precise but also capable of self-optimization, which is essential for the next generation of smart devices and autonomous systems.

2. Methods

To evaluate the effectiveness of artificial intelligence (AI) techniques in improving the accuracy of optical sensors, a multi-step methodological approach was adopted. This approach combined both simulation-based analysis and practical experimentation with real sensor modules under variable environmental conditions.

Sensor Selection and Setup. A standard optical sensor module (e.g., TCRT5000 or photodiode-based unit) was used as the hardware foundation for this study. The sensor was connected to a microcontroller (Arduino Uno) to collect real-time data. To simulate environmental disturbances, light intensity, ambient temperature, and obstacle positions were varied in a controlled lab setting.

Data Collection. Raw sensor readings were recorded under different lighting conditions, distances, and surface reflections. The dataset consisted of thousands of readings labeled with ground truth values. Noise was intentionally introduced in some scenarios to replicate real-world challenges. Data was collected in both structured (grid pattern) and unstructured formats to ensure robustness.

Preprocessing. Before applying any AI algorithms, data preprocessing steps were applied:

- **Normalization** of sensor values to a standard scale;
- **Outlier removal** to eliminate extreme erroneous readings;
- **Noise filtering** using moving average and median filters;
- **Feature extraction**, such as gradient changes, average deviation, and signal trend identification.

AI Model Design and Training. Several machine learning models were implemented to determine which algorithm best optimizes sensor performance:

- **Linear Regression** for basic error correction;
- **Decision Tree and Random Forest** for feature importance analysis;
- **Support Vector Machine (SVM)** for boundary classification;
- **Artificial Neural Networks (ANN)** for learning complex, non-linear patterns.

These models were trained on 80% of the dataset and tested on the remaining 20%. Cross-validation was used to ensure generalizability. Python with libraries such as Scikit-learn, TensorFlow, and NumPy was utilized for model implementation and training.

Performance Evaluation Metrics. **To evaluate the improvement in sensor accuracy, the following metrics were used:**

- **Mean Absolute Error (MAE)** and **Root Mean Square Error (RMSE)** to measure prediction accuracy;
- **Signal-to-Noise Ratio (SNR)** improvement;
- **Latency** of AI response compared to raw sensor response;
- **Environmental robustness**, measured by the model's ability to retain accuracy under varying conditions.

Comparison with Non-AI Approach. **To validate the effectiveness of the AI-based method, results were compared with a traditional threshold-based signal interpretation system. Improvements in signal clarity, error reduction, and noise handling were documented and analyzed.**

For the AI model, an Artificial Neural Network (ANN) with multiple hidden layers was designed. The architecture included input neurons corresponding to sensor readings and environmental parameters, hidden layers with nonlinear activation functions (ReLU), and an output layer providing the corrected sensor measurement. The model was trained using a supervised learning approach, where labeled data (true sensor values) were provided as targets.

To optimize the learning process, the Adam optimizer was used with a learning rate schedule that gradually decreased over epochs to improve convergence. The loss function was chosen as Mean Squared Error (MSE), measuring the difference between predicted and actual sensor values.

The dataset was split into training, validation, and test sets with proportions of 70%, 15%, and 15%, respectively. This split ensured that the model's performance was evaluated on unseen data, preventing overfitting.

3. Results and Discussions

This section presents the detailed results of experiments conducted to evaluate the efficiency of artificial intelligence (AI) algorithms in enhancing the accuracy of optical sensors. A comparison is made between traditional sensor signal processing techniques and AI-based approaches, including Artificial Neural Networks (ANN), Support Vector Machines (SVM), and Random Forests (RF). The results are validated using standard performance metrics and error analysis.

Sensor Calibration and Error Reduction Analysis. Traditional optical sensors often suffer from ambient noise, non-linear reflectance behavior, and drift over time. AI methods were employed to model and compensate for these errors.

Two primary evaluation metrics were used:

- Mean Absolute Error (MAE)

$$MAE = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}|y_i - \hat{y}_i|$$

- Root Mean Square Error (RMSE)

$$\text{RMSE} = \sqrt{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_i)^2}$$

Where:

- y_i - is the true value,
- $\hat{y}_i$ - is the predicted value
- n - is the number of samples.

Neural Network Architecture and Training Parameters. The best results were achieved using a feedforward neural network with the following structure:

Layer Type	**Details**
Input Layer	6 neurons (sensor reading, time delta, ambient light, temperature, humidity, surface reflectivity)
Hidden Layer 1	32 neurons, ReLU activation
Hidden Layer 2	16 neurons, ReLU activation
Output Layer	1 neuron, linear activation (for regression)

The model was trained using the Adam optimizer with a learning rate of 0.001 and loss function set to Mean Squared Error (MSE).

Training parameters:

- Epochs: 100
- Batch size: 64
- Validation split: 20%
- Early stopping: patience = 10 epochs

Loss Function:

$$MSE = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_i)^2$$

Performance Comparison Across Algorithms.

Algorithm	MAE	RMSE	R^2 Score	Accuracy (%)
Classical Filtering	0.184	0.221	0.73	81.2%
Random Forest	0.092	0.104	0.86	89.5%
SVM	0.078	0.092	0.89	91.8%
ANN (our model)	0.042	0.057	0.95	96.3%

Analysis:

- The ANN model demonstrated a 77% reduction in RMSE compared to classical methods.
- The R^2 Score (coefficient of determination) reached 0.95, indicating a high degree of fit.
- ANN outperformed SVM and Random Forest in both error and accuracy.

Algorithmic Model — Signal Correction Using ANN

Let:

$x = [s, \Delta t, l, T, H, R]$ be the input vector where:

- s = raw sensor reading
- Δt = time-based change
- l = ambient light

- T = temperature
- H = humidity
- R = reflectivity

Then the **ANN prediction model** is:

$$\hat{y}_i = W_3 * f_2(W_2 * f_1(W_1 * x + b_1) + b_2) + b_3$$

Where:

- f_1, f_2 are ReLU activation functions,
- $W_i, W_i$are weights and biases for each layer.

The model learns a non-linear mapping from sensor inputs to calibrated values.

Real-Time Behavior and Adaptability

In dynamic conditions such as:

- **Rapid lighting changes**
- **Reflective surfaces (glass, metal)**
- **Vibrations or motion**


The ANN model maintained **stable outputs** with a deviation less than ±3%, while traditional systems fluctuated by over ±15%.

Example graph (represented textually here):

Sensor Output Comparison. The table below shows the sensor output values over time comparing ordinary sensor output with the output optimized by Artificial Neural Network (ANN).

Time (sec)	0	1	2	3	4	5
Ordinary Output	0.5	0.4	0.7	0.3	0.6	0.2
ANN Output	0.5	0.51	0.49	0.5	0.52	0.5

The graph below visualizes the comparison of sensor outputs over time.



Use Case – Object Detection Under Complex Lighting. In an object detection task (e.g., line-following robot with IR sensors under sunlight):

- Traditional system false detections: **15 out of 100**
- ANN-based system false detections: **2 out of 100**

This demonstrates an **87% improvement** in reliability.

4. Conclusions.

This study highlights the effectiveness of using Artificial Intelligence (AI), particularly Artificial Neural Networks (ANN), to improve the accuracy and reliability of optical sensors. Optical sensors are widely used in many fields, but their measurements often face challenges like noise and environmental disturbances. By applying ANN-based algorithms, these challenges can be significantly reduced, resulting in more precise and stable sensor readings.

The experimental results confirm that the ANN model successfully captures complex patterns within sensor data, reducing errors compared to traditional methods. This advancement is essential in fields where precise sensor data is critical, such as industrial automation, environmental monitoring, and medical diagnostics.

Furthermore, the AI approach offers adaptability; as more data is gathered, the ANN model can continuously learn and improve, ensuring better performance over time even in changing conditions. The combination of mathematical modeling and AI creates a powerful tool to optimize sensor outputs, turning raw data into useful information.

In summary, integrating AI techniques into optical sensor systems not only enhances measurement precision but also opens new possibilities for smarter and more efficient sensing technologies. Future research may explore additional AI methods, including reinforcement learning or hybrid models, to further develop these systems.

The experimental results, validated through error metrics like Mean Squared Error (MSE), reveal that the ANN-based model consistently produced more accurate readings under varying environmental conditions. These findings suggest that AI-driven calibration can reduce systematic and environmental errors, thus improving the trustworthiness of sensor data in applications like industrial monitoring, medical diagnostics, and smart environments.

From a practical standpoint, the approach proposed in this study not only improves performance but also offers scalability, allowing it to be adapted for different types of optical sensors and conditions. Future work may include exploring advanced neural architectures such as Convolutional Neural Networks (CNNs) or Recurrent Neural Networks (RNNs), and integrating real-time learning capabilities to handle dynamic environments.

Ultimately, the fusion of AI and sensor technology represents a promising step toward more intelligent, autonomous, and accurate sensing systems that align with the future of Industry 4.0 and smart technologies.

REFERENCES

1. Komilov, D. R., Makhmudov, I. A., & Tillaboyev, M. G. (2023). Use of radio relay devices in telecommunication systems. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(04), 72-77.

2. Ergashev, S. U., & Tillaboyev, M. G. (2025). Аномально высокий диотовольтаический эффект в тонких пленках арсенид-галлия. *Строительство и образование*, *4*(3), 179-184.

3. Muxiddinjon, T. (2024). PILLANI NAMLIGINI O ‘LCHISHNING OPTOELEKTRON QURILMASI. *Al-Farg’oniy avlodlari*, (4), 189-192.

4. Umarovich, I. U., Mukhammadyunusovich, K. M., Rustambekovich, D. L., & O'G'Li, N. R. M. (2020). Methods of reducing the probability of signal loss on optical fiber communication lines. Наука, техника и образование, (6 (70)), 27-31.

5. Muxammadyunusovich, X. M., Rustamovich, D. L., & Qizi, M. R. A. (2024). OPTIK TOLALARDA SIGNALLARNI YO ‘QOLISHINI OLDINI OLISH VA AXBOROT XAVFSIZLIGI TA’MINLASH. Al-Farg’oniy avlodlari, (2), 129-131.

6. Rustambekovich DL. 5G TARMOQLARIDA MASSIVE MIMO TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING TAHLILI. Al-Farg’oniy avlodlari. 2024(4):226-32.

7. Райимжонова, О. С., Тажибаев, И. Б., & Тошпулатов, Ш. М. (2021). Телевизион тасвир сигналлари спектрини зичлаш (сиқиш) усуллари таҳлили. *Scientific progress*, *2*(6), 235-244.

8. Rayimjonova, O. S., & Toshpulatov, S. M. (2025). Flyugerlar uchun burchakli siljish o ‘zgartirgichlarini tahlil qilish va zamonaviy nanolitografik texnologiya tamoyillari. *Строительство и образование*, *4*(3), 185-192.

9. Komilov, A. O. (2025). Оптоэлектронный датчик для контроля геотермальных газов. *Строительство и образование*, *4*(3), 295-300.

10. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). Analysis of the flow of information of the physical level of internet services in multiservice networks of telecommunications. *Мировая наука*, (3 (60)), 26-29.

11. Xoliyarov, M. S., Anorboyev, D., & Ulug'Bek Yaxshiliq, O. G. L. (2021). To'qimachilik sanoat chiqindilarini qayta ishlash muammolari va istiqbollari. *Science and Education*, *2*(11), 384-391.

12. Muhammadjonov, A., & TURLARI, TSYT ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR. *Tadqiqot va joriy etish.–2023 y* .

13. Iskandarov, U. U., Ergasheva, M. F., Madaminov, M. R. (2025). “O 'zbekiston pochtasi” aj Farg 'ona filialida “smart logistics” joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqarish. Qurilish va ta'lim , 4 (3), 248-252.

14. Ergasheva, M. (2024). MAKTABDA CHET TILI FONETIKASINI O'QITISH MAMULLARI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 3 (5).

UDK. 327(575.1:540)

O‘ZBEKISTON VA HINDISTON MUNOSABATLARI: QADIMIY ILDIZLARDAN ZAMONAVIY STRATEGIK HAMKORLIKGACHA

Kodirova Mamlakat Muminovna
Qarshi Davlat Unversiteti, dosent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi ming yillik tarixga ega bo‘lgan munosabatlarning qadimiy ildizlari hamda mustaqillik davrida shakllangan strategik hamkorligi tahlil qilinadi. Qadimgi Buyuk Ipak yo‘li davridan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan savdo-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va siyosiy aloqalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari — iqtisodiy loyihalar, oliy ta’lim sohasidagi hamkorlik va gumanitar almashinuvlar yoritilgan. Maqola, ikki davlat o‘rtasidagi bu munosabatlarning mintaqaviy barqarorlik va umumiy taraqqiyot uchun muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro amaliyot atrof-muhitga yetkaziladigan zararni samarali kamaytirish uchun texnologiya, tartibga solish va nazoratni birlashtirsa, O‘zbekiston amaliyoti texnologik, institutsional va moliyaviy cheklovlar bilan cheklangan. Zamonaviy ekologik baholash vositalari, chiqindilarni qayta ishlash va metanni ushlab qolishning ilg‘or tizimlarini joriy etish ekologik natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Muhokama. Neft va gaz qidiruv ishlarida atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyotining qiyosiy tahlili xalqaro standartlar va O‘zbekistonning amaldagi amaliyoti o‘rtasida aniq tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu bo‘limda natijalarning oqibatlari muhokama qilinadi va barqaror rivojlanish uchun strategik chora-tadbirlar taklif etiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiya ekologik xavflarni kamaytirishning asosiy omilidir. yopiq konturli burg‘ilash tizimlari, ishlab chiqarilgan suvni qayta haydash va metanni tutib qolish kabi usullar nafaqat atrof-muhitga bevosita ta’sirni kamaytiradi, balki operatsion samaradorlikni ham oshiradi. Bundan tashqari, GAT asosidagi monitoring, hayot siklini baholash va atrof-muhitni boshqarish standartlari (ISO 14001) integratsiyasi doimiy baholash va ekologik maqsadlarga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Bundan farqli o‘laroq, O‘zbekiston amaliyoti quyidagi omillar kombinatsiyasi tufayli yuqori ekologik zaiflikni ko‘rsatmoqda:

1. Cheklangan texnologik joriy etish: An’anaviy burg‘ulash usullari va ishlab chiqarilgan suvni qisman tozalash tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishiga olib keladi.
2. Havoning ifloslanishi va issiqxona gazlari chiqindilari: Gaz yoqish keng tarqalganligicha qolmoqda va real vaqt rejimida monitoringning yo‘qligi ekologik xavflarga javob berish imkoniyatini pasaytirmoqda.
3. Ekotizimning sezgirligi: Qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil ekotizimlar buzilishga juda sezgir. Quvur liniyalarini qurish, infratuzilmani rivojlantirish va tuproq degradatsiyasi cho‘llanish va biologik xilma-xillikning yo‘qolishini kuchaytirmoqda.
4. Tartibga solishdagi bo‘shliqlar: Qonunchilik mavjud bo‘lsa-da, amaliy tatbiq va nazorat izchil emas.

Ushbu xulosalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi jahon standartlariga moslashish uchun ham texnologik, ham institutsional modernizatsiyaga muhtoj.

Xulosa. Neft va gaz konlarini qidirish, o‘zlashtirish va qazib olish energiya xavfsizligi va iqtisodiy o‘sish uchun zarur, ammo ular jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xalqaro tajriba texnologik, me’yoriy va nazorat integratsiyasining yuqori darajasini ko‘rsatadi, bu esa yopiq siklli burg‘ilash, ishlab chiqarilgan suvni qayta haydash, metanni ushlab qolish va GAT asosidagi atrof-muhit monitoringi kabi usullar orqali ekologik ta’sirlarni samarali kamaytiradi.

O‘zbekistonda Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun (1992) va Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun (1994) kabi huquqiy asoslar ekologik boshqaruvning poydevorini ta’minlasa-da, amaliy qo‘llash va texnologik joriy etish cheklanganligicha qolmoqda. Tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishi, gaz alangasi, ekotizimlarning buzilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi doimiy ekologik muammolardir. Bu muammolar qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil ekotizimlarning zaif tabiati hamda Orol dengizi halokati kabi keng qamrovli ekologik inqirozlarning merosi bilan yanada murakkablashmoqda.

Xulosa qilib aytganda, neft va gazni qidirish va o‘zlashtirishda atrof-muhitni samarali muhofaza qilishga texnologik innovatsiyalar, mustahkam huquqiy asoslar, institutsional salohiyat va barqaror boshqaruv amaliyotlarini birlashtirgan sinergetik yondashuv orqali erishish mumkin. O‘zbekiston tajribasini eng yaxshi xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat ekologik xavflarni kamaytiradi, balki neft-gaz sohasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi, ekologik barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. Andersen, M. va boshq. (2020). Neft va gaz xo‘jaligida ishlab chiqarilgan suvni qayta haydash va yer osti suvlarini muhofaza qilish. Atrof-muhit fanlari va texnologiyalari, 54 (3), 1234-1242. https://doi.org/10.1021/es5012345
2. Glasson, J., Terivel, R., & Chadwick, A. (2019). Atrof-muhitga ta’sirni baholashga

kirish (5-nashr). Routledge.

3. Xalqaro energetika agentligi (IEA). (2021). Neft va gaz operatsiyalaridan metan chiqindilari: global tahlil va kamaytirish imkoniyatlari. https://www.iea.org/reports/methane-emissions-from-oil-and-gas-operations

4. Kuenzer, C. va boshq. (2020). Neft va gaz infratuzilmasini kuzatish uchun masofadan zondlash: global sharh. Masofadan zondlash, 12 (2), 345-367. https://doi.org/10.3390/rs12020345

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP). - 2018. Neft va gaz sanoatida hayot siklini baholash: Uslublar va qo‘llanilishlar sharhi. https://www.unep.org/resources/report/life-cycle-assessment-oil-and-gas-industry

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida 541-son qaror. https://www.pravsky.com/uzbekistan-environmental-impact-assessment-procedure-improved

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati. (2025). Issiqxona gazlari chiqindilarini cheklash to‘g‘risidagi 1073-sonli qonun. https://gov.uz/en/eco/news/view/67528

8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. (2020). Atrof-muhitni monitoring qilish va muhofaza qilish bo‘yicha yillik hisobot. https://www.eco.uz/en/reports/2020

9. Turayev, M. (2022). O‘zbekiston neft-gaz sohasidagi ekologik monitoring amaliyoti: muammolar va imkoniyatlar. Atrof-muhit siyosati va boshqaruvi jurnali, 45 (1), 67-84. https://doi.org/10.1016/j.jepm.2021.11.005

10. BMT. (2019-yil). Ekologik samaradorlik sharhlari: O‘zbekiston. https://unece.org/DAM/env/epr/epr_studies/Synopsis/ECE.CEP.188_Uzbekistan_Eng_Synopsiss.pdf

UO‘T:635.13

PUSHTA SHAKLLANTIRADIGAN VA ZICHLAYDIGAN KATOKKA BERILADIGAN TIK BOSM KUCHINI TA’MINLAYDIGAN PURIJINA KUCHINI ANIQLASH

Komilov Ne’matilla Muxammadjonovich
Namangan Davlat texnika universiteti t.f.PhD., knm_1977@mail.ru

Akbarov Sherzot Botirovich.
Namangan Davlat texnika universiteti, t.f.PhD

Ergashev Muxriddinxon Fazliddinxon o‘g‘li,
Namangan davlat texnika universiteti, doktorant, Muhriddinhonergashev250@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqoladi pushta shakllantiradigan va zichlaydigan katokka beriladigan tik bosm kuchini ta’minlaydigan purijina kuchini aniqlash bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijasi keltirilgan bo‘lib, unga asosan katok prujinasining siquvchi kuchi tuproqning fizik-mexanik xossalari, zichlovchi katokning parametrlari, agregatning harakat tezligiga hamda tortqidagi prujinani o‘rnatilish o‘lchamlariga ya’ni katok o‘qi bilan katok tortqisi o‘rnatilgan nuqtagacha bo‘lgan masofa va prujina siquvchi kuchi qo‘yilgan nuqtadan katok tortqisigacha bo‘lgan masofa lariga bog‘liq bo‘lib, prujinaning siquvchi kuchi esa 0,95-1,06 kN ga teng bo‘lishi kerakligi keltirilgan.

Аннотация. В данной стате представлены результаты теоретических исследований по определению силы сжатия пружины, обеспечивающей вертикалную нагрузку на каток, формирующий и уплотняющий гряду. Установлено, что сила сжатия пружины катка зависит от физико-механических свойств почвы, параметров уплотняющего катка, скорости движения агрегата, а также от монтажных размеров пружины в тяге катка, то ест расстояния от оси катка до точки крепления тяги катка и расстояния от точки приложения силы сжатия пружины до тяги катка. В результате исследований установлено, что сила сжатия пружины должна составлят 0,95–1,06 кН.

Abstract. This article presents the results of theoretical research on determining the compression force of a spring that provides the vertical load to the roller forming and compacting the ridge. It was found that the compression force of the roller spring depends on the physical and mechanical properties of the soil, the parameters of the compacting roller, the movement speed of the unit, as well as the installation dimensions of the spring in the roller linkage, namely the distance from the roller axis to the point of attachment of the roller linkage and the distance from the point of application of the spring compression force to the roller linkage. The study established that the compression force of the spring should be in the range of 0.95–1.06 kN.

Kalit so‘zlar: kartoshka ekilgan maydonlarga plyonka tushagich, pushta shakllantiruvchi va zichlovchi katok, pushta, katokka beriladigan tik yuklanish kuchini, tuproqning hajmiy ezilish koeffitsienti.

Ключевые слова: плёноукладчик для посадочных площадей картофеля, грядообразующий и уплотняющий каток, гряда, вертикалная нагрузка на каток, коэффициент объёмного сжатия почвы

Keywords: combination machine, fertilizer, fertilizer, paddle drum, shovel, angular speed of paddle drum.

So‘nggi yillarda kartoshka va sabzavot ekinlarini yuqori hosil bilan yetishtirishda plyonka bilan qoplash texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Plyonka tuproq namligini saqlaydi, tuproq haroratini oshiradi va zararkunandalar ta’sirini kamaytiradi. Ayniqsa, kartoshka ekilgan pushta ustiga plyonka yotqizish, uning o‘sishini tezlashtirib, ildiz tuganaklar hosildorligini


oshiradi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlarining samaradorligini, jumladan, suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llagan holda, oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Shunga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1- martdagi PQ-144-sonli “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini ko‘rsatib o‘tish mumkin [2].

Respublikamiz tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib, kartoshka ekiladigan maydonlar hamda mavsumlarga mos keladigan plyonka tushagich qurilmasini ishlab chiqish lozim hisoblanadi.

Ushbu dolzarb ilmiy masalani yechish maqsadida biz tomonimizdan kartoshka ekilgan maydonlarga plyonka tushagichning dastlabki konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi. Plyonka tushagichning konstruktiv sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kartoshka ekilgan pushtalarga plyonka tushash mashinasi sxemasi.

Kartoshka ekilgan pushtali dalalariga plyonka tushaydigan mashina osish qurilmasi 1 bilan jixozlaangan rama 2, pushta ustini tekislaydigan zichlaydigan katok 3, plyonka uchun ariqcha ochadigan tekis disk 4, plyotka tutgich 5, plyonga boskich 7 va uni kumadi sferik disk hamda plyonka ilgich 8 dan iborat. Mashina kartoshka ekish masinasiga yoki traktorga aloxida agregatlanib ishlatishga mo‘ljallangan. Ish jarayoni kuyidagicha, kartoshka ekish davomida echilgan pushtalarni ustini katok bilan tekislab uning tuprog‘ini talab dajasida zichlayda, plyonka yotqizish va uni kumish uchun tuproqni egat tomoniga tekis dik orkali ariqcha ochiladi, ushbu ariqchaga g‘ildirakli bosgich bilan plyonka yotkiziladi va uning ortidagi sferik disklar yordamida uning chetlariga 3-5 sm qalinlikda tuproq tashlab ko‘madi.

Talablarga asosan kartoshka tuganaklari tuproq bilan 1,1-1,2 g/sm^2 zichlikda ko‘milishi hamda pushta ustini tekist bo‘lishi lozim. Buning uchun katok yordamida bajariladi. Kotok tuproqa kerakli miqdorda bosm kuchi berishi lozim, bu kuch kichik bo‘lsa tuproq zichlanmaydi va pushta kerakli darachada tekislanmay ayrim kesaklarni tuproq stiga botira olmaydi, natijada kartoshka tuganaklarni unuvchanligi kamayadi va plyonkani kesaklar qirqib teshiklar xosil bo‘lishi mumkin. Agar bosm kuchi katta bo‘lsa tuproqnnig zichligi ortib ketadi.

Pushtani talab darajasida zichlash uchun katokka beriladigan tik yuklanish kuchi Q_t uning og‘irlik kuchi G va prujinaning siquvchi kuchi Q_p hisobiga hosil qilinadi. 2- rasmda keltirilgan sxemaga binoan Dalamber printsipidan foydalanib quyidagi tenglamani yozamiz:


$$Q_t = G + Q_p \frac{l_p}{l_t}. \qquad (1)$$

bunda Q_m- katokka beriladigan tik yuklanish kuchini;

G –katokning og‘irlik kuchi, N; $G=mg$.

m – zichlovchi katokning massasi, kg;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2
Q_p –zichlovchi katok prujinasining siquvchi kuchi, N;
l_p–prujina siquvchi kuchi qo‘yilgan nuqtadan katok tortqisigacha bo‘lgan masofa, m;
l_t – zichlovchi katok o‘qi bilan uni tortqisi o‘rnatilgan nuqtagacha bo‘lgan masofa.



2-rasm. Pushta tekislalovchi-zichlovchi katok

Pushtanining talab darajasida zichlanishini ta’minlash uchun katokka beriladigan tik yuklanish kuchini quyidagi ifodaga teng [3-5].

$$Q_t = 0,5k\left(1+k_p V_m^{\,2}\right)\Bigg[b_s d_s[\sqrt{d_s h_k - h_k^2} - \left(0,5d_s - h_k\right)\times$$

$$\times \arcsin\frac{2\sqrt{d_s h_k - h_k^2}}{d_s}] + 2B_k\left(D_s + B_k tg\alpha\right)\times$$

$$\times[\sqrt{\left(d_s + b_k tg\alpha\right)h_k - h_k^2} - \left(0,5\left(d_s + b_k tg\alpha\right) - h_k\right)\times$$

$$\times \arcsin\frac{2\sqrt{\left(d_s + b_k tg\alpha\right)h_k - h_k^2}}{d_s + b_k tg\alpha}]\Bigg], \qquad (2)$$

bunda k – tuproqning hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m^3;
k_p – proporsionallik koeffitsienti, s^2/m^2;
V_m– agregatning harakat tezligi, m/s
b_s –katok silindrsimon qismining kengligi, m;
d_s –katok silindrsimon qismining diametri, m;
h_k–katokni botish chuqurligi, m.
b_k –katok konussimon qismining kengligi, m;
α –katok konussimon kismining qiyalik burchagi, °;

Bu ifodani Q_p ga nisbatan yechamiz

$$Q_p = \frac{(Q_t - G)l_t}{l_p}. \quad (3)$$

(2) ifodani hisobga olganda (3) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$Q_p = \left\{0,5k\left(1+k_p V_m^{\,2}\right)\left[b_s d_s\left[\sqrt{d_s h_k - h_k^2} - \left(0,5d_s - h_k\right)\times\right.\right.\right.$$

$$\left.\left.\times \arcsin\frac{2\sqrt{d_s h_k - h_k^2}}{d_s}\right] + 2B_k\left(D_s + B_k tg\alpha\right)\times\right.$$

$$\left.\times\left[\sqrt{\left(d_s + b_k tg\alpha\right)h_k - h_k^2} - \left(0,5\left(d_s + b_k tg\alpha\right) - h_k\right)\times\right.\right.$$

$$\left.\left.\left.\times \arcsin\frac{2\sqrt{\left(d_s + b_k tg\alpha\right)h_k - h_k^2}}{d_s + b_k tg\alpha}\right]\right] - mg\right\}\frac{l_t}{l_p}, \quad (4)$$

(4) ifoda katok prujinasining siquvchi kuchi tuproqning fizik-mexanik xossalari, zichlovchi katokning parametrlari, agregatning harakat tezligiga hamda tortqidagi prujinani o‘rnatilish o‘lchamlariga ya’ni katok o‘qi bilan katok tortqisi o‘rnatilgan nuqtagacha bo‘lgan masofa l_t va prujina siquvchi kuchi Q_p qo‘yilgan nuqtadan katok tortqisigacha bo‘lgan masofa l_p lariga bog‘liq ravishda o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Yuqorida aniqlangan, qabul qilgan hamda mashinaning konstruksiyasidan asosan zichlovchi katokni massasi m=45 kg, l_t =0,37 m, l_p=0,18 m ekanligini hisobga olib, (4) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar 1,11-1,66 m/s harakat tezliklarida prujinaning siquvchi kuchi 0,95-1,06 kN ga teng bo‘lganda texnologik jarayon talab darajasida bajarilishi aniqlandi.

Demak, plyonka to‘shaladigan kartoshka ekilgan pushtaga qo‘yilgan talab darajasida zichlanishini ta’minlash uchun mashinaning 1,11-1,66 m/s tezliklarida, zichlovchi katokka berilayotgan tik yuklanish 0,91-0,96 kN, prujinaning siquvchi kuchi esa 0,95-1,06 kN ga teng bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Rasmiy sayt: https://yuz.uz/news/qishloq-xojaligida-suvni-tejaydigantexnologiyalarni-joriy-etishni-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida.

2. Rasmiy sayt: https://lex.uz/uz/docs/5884584

3. Muqimova D.K. Shudgorlangan yerlarga izma-iz ishlov berishda qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashinaning diskli katoklari parametr-larini asoslash. PhD – Diss. ... avtoreferati- Toshkent-2020 y. 12-13 b.

4. Nuriddinov A.D. Shudgor yuzasiga bir yo‘la ishlov beradigan plug moslamasi parametrlarini asoslash. Tex.fan.nom....diss. – Yangiyo‘l, 2008. – 107 b.

5. Artikbaev B.P. Qatqaloqni yumshatish uchun paxtachilik kultivatoriga diskli ish organlarini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida). Diss....PhD, – Toshkent, 2019. – 117 b.

UDK: 666.94.017:691.5

PORTLANDSEMENT ASOSIDAGI KOMPOZITSION BOG‘LOVCHI TARKIBIDAGI KOMPONENTLAR MIQDORINI OPTIMALLASHTIRISH

Adilxodjayev Anvar Ishanovich
Toshkent davlat transport universiteti

Maxamataliyev Irkin Muminovich
Toshkent davlat transport universiteti

Soy Vladimir Mixailovich
Toshkent davlat transport universiteti

Xudoyorov Azamat Abduraimovich
Toshkent davlat transport universiteti

Uzakov Sherbek Akbarovich
Toshkent davlat transport universiteti

Ruzmetov Fazliddin Sharifboyevich.
Toshkent davlat transport universiteti

Ilyasov Allanazar Torexanovich
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada portlandsement asosidagi kompozitsion bog‘lovchi tarkibidagi komponentlar miqdorini optimallashtirish masalasini yechish bo‘yicha bajarilgan eksperimental tadqiqotlqrning natijalari keltirilgan. Bajarilgan ilmiy tadqiqotlar portlandsement, seolitli tog‘ jinsi va kvars qumidan iborat bo‘lgan kompozitsion bog‘lovchi tarkibini xamda suv bilan qo‘shiluvchi superplastifikator miqdorini optimallashtirish masalasini xal qilishga qaratildi. Kompozitsion bog‘lovchi tarkibini siqilishga mustaxkamlik omili bo‘yicha optimallashtirish masalasini matematik modellar asosida yechilganda komponentlarning quyidagi optimal miqdorlari aniqlandi : seolitli tog‘ jinsi-28,5%, kvars qumi-10,6% va SP Master Glenium 27 miqdori-0,95% kompozitsion bog‘lovchi massasiga nisbatan.

Аннотатция. В данной стате приведены результаты эксперименталных исследований, посвященных решению задачи оптимизатсии состава композитсионного вяжущего на основе портландцемента. Выполненные научные исследования направлены на поиск оптималного количества компонентов композитсионного вяжущего, таких как: портландцемент, сеолитодержащая порода и кварцевый песок, а также суперпластифитсирующей добавки вводимой с водой затворения. В результате решения оптимизатсионной задачи по критерию прочности на сжатие композитсионного вяжущего были определены следующие оптималные значения количественного содеожания компонентов: сеолитсодержащая горная порода-28,5%, кварцевый песок-10,6% а также дозировка суперпластификатора Мастер Глениум 27-0,95% от массы вяжущего.

Abstract. This article presents the results of experimental studies devoted to solving the problem of optimizing the composition of a composite binder based on Portland cement. The conducted scientific studies are aimed at finding the optimal amount of components of the composite binder, such as: Portland cement, seolite-containing rock and quartz sand, as well as a superplasticizing additive introduced with mixing water. As a result of solving the optimization problem according to the compressive strength criterion of the composite binder, the following

optimal values of the quantitative content of the components were determined: seolite-containing rock-28.5%, quartz sand-10.6%, and the dosage of Master Glenium 27 superplasticizer-0.95% of the binder weight.

Kalit so‘zlar: portlandsement, kompozitsion bog‘lovchi, seolitli tog‘ jinsi, kvars qumi, SP Master Glenium 27, beton, mikroto‘ldirgich, mustaxkamlik.

Ключевые слова: портландцемент, композиционное вяжущее, цеолитовая порода, кварцевый песок, SP Master Glenium 27, бетон, микронаполнитель, прочность.

Key words: portland cement, composite binder, zeolite rock, quartz sand, SP Master Glenium 27, concrete, microfiller, strength.

Kirish. Mana 200 yildan oshdiki portlandsement katta nomenklaturadagi qurilish konstruksiyalari va buyumlarini ishlab chiqarish uchun asosiy qurilish materiali bo‘lib qolmoqda [1–5]. Ushbu mineral bog‘lovchi asosida olinuvchi yangi avlod betonlarining mustaxkamlikka oid va ekspluatatsion xossalariga ko‘rsatiluvchi talablarning tobora ortib borishi xozirgi kunda portlandsement toshining mustaxkamligi va uzoqqa chidamliligini yaxshilash muammosini yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga mutaxassis va olimlarning keng e’tiborini tortmoqda [6,7].

Ma’lumki, sementning mustaxkamligini oshirish maqsadlarida bajariluvchi chora-tadbirlar xam uni ishlab chiqarish bosqichida, xam undan foydalanish bosqichida o‘tkazilishi mumkin. Xozirgi kunda ushbu mineral bog‘lovchining mustaxkamlikka oid xossalarini yaxshilash uchun uning tarkibiga turli qo‘shimchalarni qo‘shish usulidan foydalanish keng tus olmoqda [8]. Ushbu qo‘shimchalar klinkerning maydalanishi va sementli bog‘lovchining gidratatsiyasi va qotishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu maqsadlar uchun odatda mayda tuyilgan quyidagi mineral qo‘shimchalardan foydalaniladi: domna shlaklari, kul uchqindisi, trepel,tabiiy gips , mikrokremnezem, metakaolin va boshqalar. Ushbu qo‘shimchalar suvda erib ketmaydi va sement toshi va betonning qattiq fazasining bir qismi bo‘lib qoladi [9–12].

Mineral qo‘shimchalar faolligiga ko‘ra: faol va inert turlarga bo‘linadi. Asosan amorf kremnezem-SiO_2 va qisman amorf glinozem–Al_2O_3 dan iborat bo‘lgan faol mineral qo‘shimchalar portlandsementning gidratatsiyasi natijasida xosil bo‘luvchi erkin kalsiy gidroksidi bilan o‘zaro reaksiyaga kirishib kam eruvchan past asosli kalsiyning gidrosilikat va gidroalyuminatlarini xamda kalsiyning gidrosulfoalyuminatlarini xam xosil qiladi. Shuning uchun ular sement toshi va qotuvchi betonning struktura xosil qilishi jarayonlarini boshqarish uchun ishlatiladi [13–18].

Mayda tuyilgan mineral qo‘shimchalar–mikroto‘ldirgichlarni tarkibga kiritish sement toshining va betonning strukturasini zichlashi orqali uning mustaxkamlikka oid ko‘rsatkichlari va muzlashga chidamliligining ortishi, xamda o‘tkazuvchanligi va kirishishini kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari ular superplastifikatorlar bilan birga qo‘llanilganda klinkerni tejash va beton qorishmalarining qatlamlanib ketishiga qarshilik ko‘rsatuvchi suv ushlab turishi qobiliyatini oshirish imkoniyatlarini beradi [19–24].

Ushbu ilmiy tadqiqotlar portlandsement, seolitli tog‘ jinsi va kvars qumidan iborat bo‘lgan kompozitsion bog‘lovchi (KB) tarkibini optimallashtirish masalasini xal qilishga qaratildi. Dastlabki o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan shular ma’lum bo‘lganki, seolitli tog‘ jinsining KB tarkibidagi optimal miqdori soxasi KB massasiga nisbatan olganda 30%, kvars quminiki esa -10% atrofida bo‘lgan. Bundan tashqari tadqiqotlarda KB tarkibiga kirmaydigan superplastifikator Master Glenium 27 ning miqdorini xam optimallashtirish talab qilindi. Shuni aloxida ta’kidlab o‘tish lozimki, Master Glenium 27 superplastifikatori KB tarkibiga kirmasada, xamda uning komponentlari bilan birgalikda maydalanmasada (keyinchalik suv bilan birga kiritiladi), biroq olinuvchi kompozitning bog‘lovchilik xossalariga o‘zining ma’lum ta’sirini ko‘rsatadi.

Materiallar va usullar. Materiallar. Eksperimental tadqiqotlarda sementli bog‘lovchi

sifatida Oxangaron sement zavodining SEM I 32,5 N markali portlandsementidan foydalanildi. Oxangaron sement zavodining klinkeri kimyoviy tarkibi jixatidan quyidagi oksidlarning mavjudligi bilan tavsiflandi: CaO- 65,8%, SiO_2-22,2%, Al_2O_3-4,5%, Fe_2O_3-4,2%, SO_3-0,6%, MgO-1,7%, Na_2O-0,3%, K_2O-0,4%, q.j.y.-0,20%. Portlandsement klinkerning mineralogik tarkibi quyidagi minerallarning tarkibi bilan tavsiflandi: S_3S-57,5%, C_2S-17,8%, S_3A-4,7%, S_4AF-12,5%. Mineral qo‘shimchalar sifatida: “Beltau” koning seolitli tog‘ jinsi va “Pskent” konidan olingan kvars qumidan foydlanildi. Kvars qumi GOST 8736-93 i GOST 8735-88 talablariga to‘la javob beradi. Uning tavsiflari: xaqiqiy zichligi-2,6 g/sm^3, uyulma zichligi-1,653 g/sm^3, g‘ovakligi P=36,42%. “Beltau” koning seolitli tog‘ jinsi tarkibi jixatidan quyidagi oksidlarning mavjudligi bilan tavsiflandi: CaO-1,8%, SiO_2-50,8%, Al_2O_3-26,4%, Fe_2O_3-2,8%, MgO-1,5%, Na_2O-10,3%, K_2O-0,38%, q.j.y.-6,4%. Kimyoviy qo‘shimcha sifatida “BASF” (Germaniya) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariluvchi MasterGlenium ACE 27 markali superplastifikatori qabul qilindi. O‘zidan yangi avlod kimyoviy qo‘shimchasini namoyon qiluvchi MasterGlenium ACE 27 superplastifikatori polikarboksilatli polimerlar asosida olingan. Sement qorishmasini tayyorlash uchun GOST 23732–2011talablariga javob beruvchi suv ishlatildi.

Usullar. O‘tkazilgan tadqiqotlarda mineral qo‘shimchalar qo‘shilgan portlansement asosidagi KB tarkibini sement toshining siqilishga mustaxkamligi mezoni bo‘yicha optimallashtirish masalasini yechish eksperimentlarni matematik rejalashtrish usulining ikkinchi darajali Boks-Uilson ortogonal markaziy rejalashtirishi uslubi yordamida amlga oshirildi. Bunda kompozitsion bog‘lovchi va portlandsementning me’yoriy quyuqligi, portlandsementning aktivligi, xaqiqiy zichligini aniqlash tegishli GOST larda ko‘zda tutilgan uslublar va o‘lchash asboblarida amalga oshirildi. Sement toshi va KBning 7 va 28 sutkalik muddatlardagi mustaxkamligini aniqlash uchun suv-sement nisbati 0,4 ga teng bo‘lgan qolrishmasidan tayyorlangan 2x2x2 sm o‘lchamdagi namuna-kubiklar tayyorlandi. Namunalar mustaxkamlikka sinalishi oldidan qotishning me’yoriy sharoitlarini ta’minlab beruvchi kamerada saqlandi. Natijalarga qiyosiy baxo berish uchun aynan shunday uslub va sharoitlarda saqlangan qo‘shimchalarsiz sof bog‘lovchidan tayyorlangan portlandsement toshining mustaxkamlikka oid ko‘rsatkichlari xam aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda KB tarkibini optimallashtirish uchun quyidagi 2 ta ko‘rsatkich chiqish omillari sifatida qabul qilindi: Y_1-sement toshining 7 sutkalik muddatdagi siqilishga mustaxkamligi, MPa; Y_2- sement toshining 28 sutkalik muddatdagi siqilishga mustaxkamligi, MPa. Kirish omillari (o‘zgaruvchi omillar) sifatida esa quyidagi 3 ta omil tanlab olindi:

X_1 – KB tarkibidagi seolitli tog‘ jinsining miqdori, % KB mas. nisbatan;
X_2 – KB tarkibidagi kvars qumining miqdori, % KB mas. nisbatan;
X_3 – KB tarkibiga kirmaydigan SPning miqdori, % KB mas. nisbatan.

Kirish omillarining rejalashtirilgan eksperimentlardagi o‘zgarishi intervallari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kirish omillarining o‘zgarishi diapazoni va qiymatlari

Omillar		Omillarning o‘zgarishi darajalari				
o‘zgaruvchi	asli	-1,215	-1	0	+1	+1,215
X_1	STJ,%	18,85	20	30	40	42,15
X_2	KQ,%	6,96	7,5	10	12,5	13,04
X_3	SP,%	0,70	0,75	1,0	1,25	1,30

Rejalashtirilgan eksperimentlar matritsasidagi sinovlarning soni quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N=2^n+2n+m=2^3+2\cdot3+1=15$$

Bu yerda m=1-markazdagi eksperimentlar soni, n=3 – kirish omillari soni. O‘zgaruvchi

omillarni kodlashtirgandan so‘ng sinovlar bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazildi. Rejalashtirilgan eksperimentlarning matritsasi va o‘tkazilgan sinovlarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Boks-Uilsonning ortogonal markaziy rejalashtirish matritsasi va uni amalga oshirish natijalari

Sinovlar №	Omillar kodlashtirilgan ko‘rinishda			Omillar xaqiqiy ko‘rinishda			Sinov natijalari	
	X_1	X_2	X_3	STJ,%	KQ,%	SP,%	Y_1,MPa	Y_2,MPa
1	-1	-1	-1	20	7,5	0,75	45,86	52,11
2	+1	-1	-1	40	7,5	0,75	44,69	51,72
3	-1	+1	-1	20	12,5	0,75	42,33	48,78
4	-1	+1	+1	20	12,5	1,25	38,82	47,43
5	-1	-1	+1	20	7,5	1,25	37,80	49,85
6	-1	-1	+1	20	7,5	1,25	35,13	45,10
7	-1	+1	+1	20	12,5	1,25	38,60	43,79
8	+ 1	+1	+1	40	12,5	1,25	37,37	46,77
9	-1,215	0	0	18,85	10	1	39,95	50,82
10	+1,215	0	0	42,15	10	1	39,40	51,91
11	0	-1,215	0	30	6,96	1	41,91	57,55
12	0	+1,215	0	30	12,5	1	37,60	44,45
13	0	0	-1,215	30	10	0,70	43,97	47,52
14	0	0	+1,215	30	10	1,25	38,57	48,08
15	0	0	0	30	10	1	40,90	53,79
15	0	0	0	30	10	1	40,63	51,63
15	0	0	0	30	10	1	41,50	53,59
15	0	0	0	30	10	1	40,53	53,94

Yuqorida keltirilgan sinovlar natijalarini eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulining qoidalari [25] bo‘yicha statistik qayta ishlash yo‘li bilan chiqish omillarining regressiya tenglamalari ko‘rinishidagi quyidagi matematik modellari olindi:

$$Y_1=40,57–0,84X_1+1,06X_2–2,68X_3–0,55X_1^2–0,49X_2^2+0,53X_3^2–0,11X_1X_2–2,68X_1X_3+0,10X_2X_3+1,55X_1X_2X_3;$$

$$Y_2=52,85–0,20X_1+0,55X_2–1,26X_3–0,64X_1^2–1,88X_2^2–3,05X_3^2–0,84X_1X_2–0,11X_1X_3+0,40X_2X_3+1,09X_1X_2X_3;$$


Regressiya tenglamalari ko‘rinishidagi matematik modellarniing koeffitsientlarining axamiyatliligini Styudent mezoni [26] bo‘yicha tekshirgandan so‘ng ular quyidagi soddalashtirilgan ko‘rinishga keltirildi:

$$Y_1=40,57–0,84X_1+1,06X_2–2,68X_3+1,55X_1X_2X_3;$$

$$Y_2=52,85–0,20X_1+0,55X_2–1,26X_3–0,64X_1^2–1,88X_2^2–3,05X_3^2.$$


Olingan matematik modellarning adekvatliligi Fisher mezoni [26] bo‘yicha tekshirildi. Matematik modellar bo‘yicha xisoblab topilgan Fisher mezoning xaqiqiy miqdorlari ushbu mezonning tegishli axamiyatlilik darajasidagi jadvalda ko‘rsatilgan miqdorlaridan kamroq bo‘lganligi sababli ushbu ikkala model xam adekvat deb topildi va kelgusi tadqiqotlarda ulardan foydalanish mumkinligi asoslab berildi.

Ushbu matematik modellarning texnologik taxlili grafoanalitik usulda bajarildi. Dastlab ishlab chiqilgan kompyuter dasturi [2] yordamida regressiya tenglamalarining aks etishga oid sirtlarining (chiqish omili miqdorlarining fazoviy sirtlarining) tasvirlari olindi (1 va 2-rasmlar).



a *b*

1-rasm. Y_1 **regressiya tenglamasining aks etishga oid sirti**



a *b*

2-rasm. Y_2 **regressiya tenglamasining aks etishga oid sirti**

Xulosalar. Regressiya tenglamalarining analitik taxlilidan shular aniqlandiki, o‘zgaruvchi omillarning o‘rganilayotgan intervalida chiqish omillari, ya’ni sement toshining 7 va 28 sutkalik muddatlardagi siqilishga mustaxkamlik ko‘rsatkichiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil X_3–superplastifikatorning miqdori bo‘lib chiqdi, chunki ushbu o‘zgaruvchi ishtirok etuvchi tenglama xadlari koeffitsientlari absolyut miqdori jixatidan qolganlariga nisbatan taqqoslaganda ancha kattaroq. Axamiyatliligiga ko‘ra ikkinchi omil bo‘lib X_3–KB tarkibidagi kvars qumining miqdori hisoblanadi. Axamiyatliligi nisbatan karoq bo‘lgan omil esa X_1–KB tarkibidagi seolitli tog‘ jinsining miqdori hisoblanadi. Agar olingan Y_2 regressiya tenglamasini X_3 omiliga nisbatan ekstremumga tekshirib chiqsak u xolda uning eng maksimal miqdori X_3=-0,2 ga teng bo‘lganda erishar ekan. Bu esa KB ning mustaxkamligi SP miqdorining 0,95 % ga teng bo‘lgan optimal miqdorida maksimal natijaga erishishidan dalolat beradi. Buni SPning ushbu optimal miqdorida KB strukturasining umumiy g‘ovakligi o‘zining minimal miqdoriga erishishi bilan izoxlash mumkin. SP bundan biroz kattaroq miqdorlarida qorishmaga havoning yutilishi sezilarli darajada ortadi va natijada kompozitning umumiy xamda differensial g‘ovakligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Y_2 regressiya tenglamasini X_1 omiliga nisbatan ekstremumga tekshirib chiqsak u xolda uning eng maksimal miqdori X_1=-0,15 ga teng bo‘lganda erishar ekan. Bu esa KB ning mustaxkamligi STJ miqdorining 28,5 % ga teng bo‘lgan optimal miqdorida maksimal natijaga erishishidan dalolat beradi. Ushbu miqdorning optimal bo‘lishi

uning tarkibidagi amorf kremnezem va glinozemning kalsiy gidroksidini kalsiyning past asosli gidrosilikat va gidroalyuminatlarga pussolanli reaksiya sodir bo‘lishi vaqtida bog‘lashi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Agar STJ miqdori kamroq bo‘lsa u xolda bir qism $Ca(OH)_2$ bog‘lanmay qoladi, agar STJ ortiqcha bo‘lsa u xolda bir qism STJ reaksiyaga kirishmay mikroto‘ldirgich sifatida rol o‘ynaydi, bu esa mustaxkamlikning pasayishiga olib keladi. Y_2 regressiya tenglamasini X_2 omiliga nisbatan ekstremumga tekshirib chiqsak u xolda uning eng maksimal miqdori X_2=+0,15 ga teng bo‘lganda erishar ekan. Bu esa KB ning mustaxkamligi kvars qumi miqdorining 10,5 % ga teng bo‘lgan optimal miqdorida maksimal natijaga erishishidan dalolat beradi. Ushbu miqdorning optimal bo‘lishining sababi yuqorida keltirilgan X_1 uchun keltirilgan sababga aynan o‘xshash bo‘lib, undan farqi bu xolda kalsiyning past asosli gidroalyuminatlari hosil bo‘lmaydi. Shunday qilib, KB tarkibini mustaxkamlik omili bo‘yicha optimallashtirish masalasini matematik modellar asosida yechilganda komponentlarning quyidagi optimal miqdorlari aniqlandi: seolitli tog‘ jinsi–28,5%, kvars qumi–10,6% va SP Master Glenium 27 miqdori–0,95%. Bunda SP ni tarkibga kiritish KB tarkibi ichida emas unga qo‘shiluvchi suv tarkibida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Адылходжаева А.И. Махаматалиев И.М., Тургунбаев У.Ж., сой В.М.; под.общ. ред. Адылходжаева А.И. Интенсивные технологии строителства. (Монография). – Ташкент, Изд- во «Фан ва технология», 2016. -228 с.

2. Адылходжаев А.И., Махаматалиев И.М., сой В.М. Под. общ. ред. Адылходжаева А.И. Композитсионные строителные материалы (Монография). - «ЛАМБЕРТ» АСАДЕМИСПУБЛИШИНГ, 2018 -176 с.

3. Булгаков Б.И., Танг В.Л., Александрова О.А. Влияние наноразмерных частис сажи на прочност цементного камня в раннем возрасте // Вестник БГТУ им. В.Г. Шухова. 2016. № 11. С. 18–22. ДОИ: 10.12737/22441

4. Кривобородов Ю.Р., Самченко С.В. Цементные минералы и их твердые растворы: монография. М. : РХТУ им. Д.И. Менделеева, 2020. 175 с.

5. Ерофеев В.Т., Родин А.И., Бикбаев Р.Р., Пиксайкина А.А. Исследование свойств портландцементов с активной минеральной добавкой на основе трепела // Вестник ПГТУ. Серия: Материалы. Конструксии. Технологии. 2019. № 3. С. 7–17. ДОИ: 10.25686/2542-114X.2019.3.7

6. Hewlett P., Liska M. Lea’s Chemistry of Cement and Concrete. Elsevier, 2019. 800 p.

7. Kurdowski W. Cement and concrete chemistry. Springer Dordrecht, 2014. 700 p. DOI: 10.1007/978-94- 007-7945-7

8. Родин А.И. Разработка биотсидных цементов и композитов на их основе : дис. ... канд. техн. наук. Саранск, 2013. 205 с.

9. Баженов Ю.М., Нгуен Дин Чин, Нгуен Тхе Вин. Высокопрочные бетоны с комплексным применением золы рисовой шелухи, золы-уноса и суперпластификаторов // Вестник МГСУ. 2012. № 1. С. 77–82. ДОИ: 10.22227/1997-0935.2012.1.77-82

10. Стелмах С.А., Щербан Е.М., Коробкин А.П., Налимова А.В., Серебряная И.А., Нажуев М.П. Разработка состава композитсионного портландцемента на основе золошлаковой смеси Новочеркасской ГРЕС // Вестник СевКавГТИ. 2017. № 3 (30). С. 148–153.

11. Senhadji Y., Escadeillas G., Mouli M., Khelafi H., Benosman A. Infl uence of natural pozzolan, silica fume and limestone fi ne on strength, acid resistance and microstructure of mortar // Powder Technology. 2014. Vol. 254. Pp. 314–323. DOI: 10.1016/j.powtec.2014.01.046

12. Потрясова Е.В., Жучков Е.А., Ахматов М.К., Фомина Н.Н. Влияние техногенной минеральной добавки на свойства цементных композитсий // Строителство — формирование среды жизнедеятелности : сб. мат. семинара молодых ученых ХХИВ

Междунар. науч. конф. 2021. С. 55–60.

13. Баженов Ю.М., Демянова В.С., Калашников В.И. Модифитсированные высококачественные бетоны. М. : Изд-во АСВ, 2006. 368 с.

14. Ерофеев В.Т., Федорсов А.П., Федорсов В.А. Повышение коррозионной стойкости цементных композитов активными добавками // Строителство и реконструксия. 2020. № 2. С. 51–60. ДОИ: 10.33979/2073-7416-2020-88-2-51-60

15. Алексашин С.В., Булгаков Б.И. Мелкозернистый бетон для гидротехнического строителства, модифитсированный комплексной органоминералной добавкой // Вестник МГСУ. 2013. № 8. С. 97– 103. ДОИ: 10.22227/1997-0935.2013.8.97-103

16. Танг Ван Лам, Нгуен Зоан Тунг Лам. Пуссоланисҳескайа активност тонкодисперсных минералных компонентов разлисҳной природы Ветнама // Техника и технологийа силикатов. 2021. Т. 28. № 1. С. 7–12.

17. Трунов П.В. Композитсионные вйажущие с исползованием вулканогенно-осадосҳных пород Камсҳатки и мелкозернистые бетоны на их основе : дис. … канд. техн. наук. Белгород, 2014. 161 с.

18. Йерофеев В.Т., Баженов Йу.М., Балатханова Е.М., Митина Йе.А., Йемелйанов Д.В., Родин А.И. и др. Полусҳение и физико-механисҳеские свойства сементных композитов с применением наполнителей и воды затворенийа месторождений Сҳесҳенской Республики // Вестник МГСУ. 2014. № 12. С. 141– 151. ДОИ: 10.22227/1997-0935.2014.12.141-151

19. Йерофеев В.Т., Каласҳников В.И., Смирнов В.Ф., Карпусҳин С.Н., Родин А.И., Красноглазов А.М. и др. Стойкост сементных композитов на биотсидном портландсементе с активной минералной добавкой в условийах воздействийа моделной среды бактерий // Промысҳленное и гражданское строителство. 2016. № 1. С. 11–17.

20. Овсҳаренко Г.И., Викторов А.В., Садрасҳева А.О. Влийание вида тонкоизмелсҳенных минералных добавок на просҳност сементного камнйа. Сҳаст 2 // Известийа выссҳих усҳебных заведений. Строителство. 2015. № 1 (673). С. 28–31.

21. Рахимов Р.З., Камалова З.А., Йермилова Йе.Йу., Стойанов О.В. Термисҳески обработанный трепел как активнайа минералнайа добавка в семент // Вестник Казанского технологисҳеского университета. 2014. Т. 17. № 13. С. 99–101.

22. Самсҳенко С., Ларсен О., Гуркин А. Тҳе ефф ест оф дисперсион оф лиместоне он тҳе пропертиес оф семент мортар // Материалс Тодай: Просеедингс. 2019. Вол. 19. Пп. 2068–2071. ДОИ: 10.1016/ж.матпр.2019.07.076

23. Зунино Ф., Ссривенер К. Тҳе реастион бетween метакаолин анд лиместоне анд итс ефф ест ин пороситй рефи немент анд месҳанисал пропертиес // Семент анд Сонсрете Ресеарсҳ. 2021. Вол. 140. П. 106307. ДОИ: 10.1016/ж.семсонрес.2020.106307

24. Милла́н Сорралеса Г., Гонза́лез Ло́пеза Ж.Р., Паломоб А., Фернандез Жиме́нез А. Репласинг фл й асҳ витҳ лиместоне дуст ин ҳйбрид сементс // Сонструстион анд Буилдинг Материалс. 2020. Вол. 243. П. 118169. ДОИ: 10.1016/ж.сонбуилдмат.2020.118169

25. Александрова О.В., Масеевисҳ Т.А., Кирйанова Л.В., Соловев В.Г. Статистисҳеские методы ресҳенийа технологисҳеских задасҳ : усҳебное пособие. М. : Изд-во МГСУ. 2017. 153 с.

26. Болсҳев Л.Н., Смирнов Н.В. Таблисы математисҳеской статистики. М. : Наука, 1983. 416 с.

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan muhandislik-qurilish institutining “Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali” («Научный журнал Строительство и образование», «Scientific journal Construction and education») da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda olti martagacha chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Qurilish;*
- *Arxitektura va shaharsozlik;*
- *Pedagogika va ta’lim muammolari;*
- *Muhandislik va sanoat chizmacxiligi;*
- *Qisqa xabarlar.*

2. Tahririyatga taqdim etilayotgan maqola qo‘lyozmasi bo‘yicha muallif faoliyat olib borayotgan muassasa rahbariyati tomonidan imzolangan yo‘llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi va maqola mualliflarining tarkibida fan doktori bo‘lmagan taqdirda tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktorining rasmiy taqrizi bo‘lishi shart. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. **Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillari**da beriladi.

3. Maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 6-10 bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4-format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan– 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

4. Maqolani rasmiylashtirish qoidalari quyidagilardan iborat: Maqola boshining chap tomonida UO‘T (UO‘T), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (jirniy)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushunishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

Maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullari (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak.

Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi. Maqoladagi formulalar Word dagi Vstavkani ichida Obyekt bor shunga kirib Microsoft Equation 3.0 da yoziladi. Rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi **(1-rasm. Nomi).**

Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi).** Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki qismi. – Betlari. (1. Turayev N.S., Saidov R. Anor tuplarini yarim ochadigan mashinaning lemexlari va tuproq yo‘naltirgichlarining qamrash kengliklarini asoslash // Namangan

muhandislik-qurilish instituti ilmiy-texnika jurnali. – Namangan, 2019. – №1. – B. 77-81.); monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni. (1. Imomkulov Q.B., Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarini asoslash. – Fan va texnologiyalara: Toshkent, 2021. – 180 b.); avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 44 b.); dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. – Namangan, 2022. – 120 b.); kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari (1. Jo‘rayev A., Mavlyaviyev M., Abdukarimov T., Miraxmedov D. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2004. – 592 b.); patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e’lon qilingan yil. Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami. (1. Patent O‘zR FAP 00848 / 31.10.2013. Djurayev A., To‘xtaqo‘ziyev A., Muhamedov J., Mamaxanov A. Zanjirli uzatma // O‘zbekiston Respublikasi patenti, 2013. – Byul. №10.); internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana. (1. ZiyoNet ta’lim portali. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.07.2022.)

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

6. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

7. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi. Tahririyat manzili:

160103. Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy.
Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
Bizning sayt: qurilishtalim.uz
Ye-mail: qurilishta’lim@edu.uz
Aloqa uchun

+998939254606

NamMQI kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan vil. Namangan shahar I. Karimov ko‘cha, 12-uy